Ko‘p psixologlarning fikricha, ta‘limni motivatsiyalash muammosi shaxs psixologiyasining asosiy muammolaridan hisoblanadi[6]. Shaxsning psixologik jihatdan shakllanishining yaxlitligi, shaxsiy xulq va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o‘rtasidagi ma‘lum bog‘liqlik motivatsiya muammosini tadqiq qilishga bo‘lgan muntazam yondashuvni qo‘llash uchun keng imkoniyat ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili. O‘quv faoliyati motivatsiyasiga oid tadqiqotlar XX asrning 20-yillardan boshlab keng ko‘lamda amalga oshirib kelinmoqda. Bu sohada rus psixologlaridan S.A. Rubinshteyn, A.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, B.G. Ananov, L.I. Bojovich, P.M. Yakobson, A.V. Zaporozjets, V.G. Aseev, P.L. Galperin, V.F. Morgun, A.K. Markova, K. Levin, N.E. Efimova, M.V. Matyuxinalarning hamda o‘zbek

psixologlaridan M.G.Davletshin, E.G.G‘oziev, V.Karimova, Z.Nishonova, N.Safoev, R.Sunnatova, Sh.Do‘stmuxamedova, F.Xaydarov, X.Abdukarimov, F.Alimova, B.Botirov va boshqa olimlarning xizmati kattadir.

Hozirda psixologiya fanida “motivlar tizimi”, “motivlash sohasi muntazamligi” tushunchalari keng tarqalgan. M.G. Davletshin rahbarligida o‘quv faoliyati motivatsiyasi muammosiga yangicha ilmiy asosda talqin qilinib, keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.G. Davletshinning fikricha: “Yoshlar har xil soha- ning mazmunini o‘zining ongli ravishda yondashuvi orqali mumkin qadar ertaroq, to‘g‘ri va oqilona tasavvur qiladi”[3].

V.A. Tokarevaning kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy burchga nisbatan shakllanish psixologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida o‘quvchilar o‘quv faoliyati motivlarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratgan[3].

E.G.G‘oziev tadqiqotlarida o‘smir o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash haqida mulohaza yuritilgan. Olim o‘quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o‘rganilgan sohalaridan biri bo‘lgan o‘qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy (empirik) tomonlarini yoritib beradi[12].

A. K. Saitovanning o‘smir yoshladi o‘quvchilarning o‘qish motivlari va qadriyatlarini o‘rganish yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borib, muallif o‘smir yoshining xususiyatlariga tayangan holda, bir qator xulosalarga kelgan: “O‘smirlar o‘quv faoliyatida potensial hisoblangan motiv o‘z-o‘zini namoyon qilish motividir; o‘quv faoliyati bilan bog‘liq qadriyatlarni anglash o‘smir o‘quvchilarda o‘z-o‘zini takomillashtirishga va amalga oshirishga undaydi, bu esa o‘quv faoliyati bilan bog‘liq”[9].

E.Z. Usmonova o‘z tadqiqotida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolarini o‘rgangan. Tadqiqotchi fikricha: “Ta‘lim jarayonida ikki asosiy motivatsiya toifasining mutanosibligini tushunish muhim: muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, odatda, tashqi motivatsiyaga kiritiladi, bilish motivatsiyasi esa ichki motivatsiyaga mansub. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasigina emas, shuningdek, o‘quvchi ichki motivatsiyasining mavjudligi ijodiy o‘sis va shaxsning shakllanishi uchun zarur sharoit yaratib beradi”[9].

Ilmiy adabiyotlarda “Motiv - odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh omil” deb ta‘riflanadi. Insonni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, ehtiyojlarning turiga qarab motivlar ham har xil bo‘ladi. Psixologiyada motivlar ikki katta kategoriyaga bo‘linadi. Bular tabiiy hamda ma‘naviy motivlardir[4].

Motivlar, ularning mazmunini aks ettirish shakliga qarab ham bir-biridan farq qiladi: hissiyot, tasavvur, fikr, tushuncha, g‘oya, ma‘naviy ideal va boshqalar. Ba‘zi hollarda motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko‘pincha, murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga bevosita mos kelmay, bir maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun faoliyat predmeti motiv harakatining o‘zidir. Haqiqatda, motivlar faollashgan, maqsadga qaratilgan, faqat xayolda amalga oshuvchi yoki idrok qilingan bo‘lishi mumkin. Asosan, bularning zaminida u yoki bu ehtiyojlar turadi.

Metodlar tahlili. Harakatlarning negizini tashkil etuvchi hayajon, unga bo‘lgan qiziqishlar ularning motivi sifatida namoyon bo‘ladi. Individ uchun ahamiyatli bo‘lgan qandaydir hayajon undash bilan birga, unga shaxsiy ma‘no bag‘ishlaydi. Bu motivlar mazmun anglatuvchilar deb ataladi.

Motivlar shaxsni qadriyatga yo‘naltirish vazifasini xam bajaradi. Insonning ma‘lum bir qadriyatlarga yo‘naltirilishi ularga taxminiy ijobiy baho natijalari orqali singib boradi. Shu bilan birga, subyekt uni ongli ravishda loyihalashtirib olgan taqdirdagina u yoki bu qadriyatga yo‘naltirish haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Ba‘zi insonlar qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj orqali emas, aksincha, tevarak-atrofni o‘rab turgan odamlarning qadriyatlarga munosabatlarini o‘zlashtirib olgan holda o‘z xulqiga va faoliyatiga moslashtiradi, xuddi shu yo‘l bilan ilgari o‘zida bo‘lmagan yangi ehtiyojlar negizini tiklaydi[10].

Faoliyatning mazmuni faqatgina shu faoliyatni qoniqtira oladigan ehtiyojlar mundarijasi bilangina belgilanmaydi. Inson asosiy ehtiyoj bilan bir yo‘nalishda harakat qilayotgan vaziyatni obyektiv va subyektiv imkoniyatlarning mavjudligini, ehtiyojlar bor-yo‘qligini hisobga oladi. Mana shundan keyingina motiv asosiga (ahamiyatiga, qimmatiga, ma‘nosiga) ko‘ra subyekt uchun mos bo‘lgan xulqni subyektiv asosda hal qilishga, aks holda subyekt ushbu xulqni oqlab, faoliyatida namoyon qiladi. Ya‘ni, motiv bir xulqni ikkinchi xulq bilan, kamroq qo‘llanadiganini ko‘proq qo‘llanadiganini bilan almashtiradi. Shu yo‘l bilan ko‘zlangan faoliyatga imkoniyat tug‘iladi.

Harakatlar ikki motiv bilan shunday bog‘langanki, ulardan biriga yo‘naltirishda birinchi qadam bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda boshqasiga qaytishda ham shunday ziddiyatli ma‘noda ish tutishga qodirdir. Maqbul ish bu shunday ishki, bunda inson qandaydir harakatni sodir qiladi va bir vaqtning o‘zida

qo‘rquvni, o‘zini saqlash instinktini va jamiyat bosimi kuchini engga oladi. Nomaqbul ish bu ham qiyinchiliklarni engishdir, lekin endi bu shaxsiy ziddiyat sanaladi.

Motivatsiya deganda biz shaxsning nima uchun ma’lum vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, aynan shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishidan iborat mantiqiy jarayonni tushunamiz[4]. Motivatsiyani shakllantirish mexanizmlari esa quyidagi nazariy tushunchalarda ifoda qilinadi:

- 1) ierarxik boshqarishning yaratilishi;
- 2) boshqarishning yuqori darajasi bilan ehtiyojlar, qiziqishlarning uyushmagan shakllarini qarama-qarshi qo‘yish[11].

Motivatsiyaning shakllanishi ikki mexanizmga ega. Birinchisi, uyushmagan holat yoki o‘qituvchilar tomonidan ataylab shunday tashkil qilinganki, bunda situativ yoki vaziyatga qarab qiziqishlarini faollashtirgan sari talabalarda qat’iy motivatsiyalar paydo bo‘ladi. Bu “quyidan yuqoriga” qarab shakllanish mexanizmidir.

Ikkinchi jarayonda («yuqorilan pastga» mexanizmi) talaba tayyor holdagi qiziqishlar, maqsad, intilish, shaxsga qaratilganlik mazmuni va hokazolarni o‘zlashtirib olishi, o‘zida shakllanirishi, asta - sekinlik bilan tushunchalarni ichki dunyosiga qabul qilib olishi va haqqoniy harakat qila bilishidir[5]. Shaxs o‘quv motivatsiyasi tizimining to‘liq shakllanishida ana shu ikkala mexanizm mavjud bo‘lishi shart.

Muhokama. Shuningdek, shaxs o‘quv motivatsiyasi tizimida mayllar alohida o‘ringa ega. Mayl deb biz intilish, maqsad, ehtiyojlarni hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlarga intilishini tushunamiz.

Mayllar hozirgi (ixtiyorsiz) va kelgusi (ixtiyoriy) hissiyotlarning qarama-qarshiliklari bilan izohlanadi. Faoliyatga qaratilgan barcha mayllar 4 ta omil yig‘indisidan iboratdir:

1. Faoliyatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakuniy natijalari.
2. Rag‘batlantiruvchi motivlar.
3. Ixtiyorsiz xulq: biron kuchga bo‘ysinish yo‘li bilan jazoning kutilishi.
4. Faoliyat jarayonining o‘zidan zavq olish.

Aniq faoliyat hamisha umum motivlashgan bo‘ladi. Bunda:

- 1) faoliyatning barcha motivlari ma’lum darajada ierarxialashgan;
- 2) motivlar bir-biriga tobe emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda ifodalangan;
- 3) ba’zi motivlar salbiy shaklda namoyon bo‘lishi mumkin[10].

Faoliyatdan qoniqish va zavq olish uchun faoliyatning obyektiv ahamiyati va shaxsiy ma’nosi yo‘qolmasligi kerak: agar faoliyat ma’lum (aniq) qadriyatlarini yaratishga qaratilgan bo‘lsa, xuddi shu qadriyatlar faoliyatning asosiy motivi bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda, faoliyat jarayonida ham zavq olish lozim[1].

U yoki bu qo‘zg‘atuvchi sababning paydo bo‘lishi maqsadga yo‘naltirilgan keyingi ishlarni quvvatlaydigan va yo‘lga soladigan imkoniyat darajasidagi qoniqishlarni yuzaga keltiradi. Bunday qo‘zg‘atuvchi sabab quyidagilar bo‘lishi mumkin: havas, affektlar (emotsiyalar), ichki ehtiyojlar, chuqur hissiyotga yoki o‘ziga ishonch. Imkoniyat darajasidagi qoniqishlarni ko‘ra bilish insonni o‘z oldiga shunday maqsad qo‘yishga majbur qiladiki, bu o‘zi kutganidek rag‘batlantirishga olib keladi va avvalroq taxmin qilingan qoniqishlarga erishish mumkin bo‘ladi. Maqsad xulq yo‘nalishini ta’minlab turadi va maqsadga erishish bilan yakunlanadi. Ichki motivlar bu o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonish hissiga bo‘lgan ehtiyojdir.

Ichki motivatsiyalarga quyidagi shartlar, vazifalar (holatlar) ta’sir etadi:

- 1) ichki motivatsiya sabablar o‘zgarishiga qarab susayadi, ichki motivlar tashqi motivlarga aylanadi;
- 2) ichki motivatsiya insonning o‘z kuchiga ishonishi qat’iyli hisobiga ortadi[8].

Motivlar orasida muhim o‘rinni qiziqishlar tashkil etadi. Qiziqish shaxsdagi an’ana bo‘lib, aniq predmetdagi biron yo‘nalish yoki tarmoqlarni tugal belgilash bilan yakunlanadi. Qiziqishlar deganda, biz diqqatning, fikrning, xayolning yo‘nalganligini tushunamiz; ehtiyoj esa mayl, xohish, irodada namoyon bo‘ladi. Ehtiyoj narsalarni qamrab olish istagini qo‘zg‘atadi. Qiziqish esa u bilan tanishtiradi. Qiziqish bu motivdir, u o‘z ahamiyatining kuchiga va emotsional jozibasiga ta’sir etadi. Qiziqishlar bo‘lmasa yoki yetarli ozuqa olmay qolsa, hayot zerikardir[1].

Qiziqishlarni uyg‘otish uchun belgilab, ko‘rsatib qo‘yib, undan keyin ko‘rsatilgan maqsadlar sari yo‘nalish holatini motivatsion ravishda oqlash shart emas, aksincha, motivni yaratib, undan keyin maqsadni ko‘zlash imkonini ochish kerak. Qiziqarli o‘quv predmeti bu o‘quvchining u yoki bu qo‘zg‘atuvchi motivlar tufayli asosiy “maqsadlar maydoniga aylangan o‘quv predmetidir”[7].

Onglilik darajasidagi qiziqish sabablari obyektning yangiligi yoki o‘zgarishlari bo‘lishi mumkin. Lekin qiziqishlarni obyekt xayolidagi, tasavvuridagi va maqsadlaridagi qobiliyatlarga ega bo‘lmoqlik orqali ham namoyon qilishi mumkin. Bunda individning harakati jarayonida o‘zgaradigan holatlar uning

muvaffaqiyatga qaratilgan qiziqishlarini uygʻotadi. Obyekt- maqsadga erishish biroz boʻlsa-da, obraz - maqsadga yaqin boʻlsa, odatda, qiziqishlarni boshqa obraz maqsadga oʻtishiga olib boradi[2].

Qiziqish uygʻotuvchilar bu oʻta talabchanlik, hayron qoldirish, qamrab oluvchi tuygʻulardir. Qiziqishni boshdan kechirayotgan individda izlanish, hamma narsaga aralashish, yangi axborot olish yoʻli bilan tajribasini kengaytirish, oʻzida qiziqish uygʻotgan obyektga yoki kishiga yaqinlashish xohishi yuzaga keladi.

Koʻzgʻatuvchi emotsiyalar kuchaytirilmagan boʻlsa, xulqning u yoki bu koʻrinishini quvvatlamaydi yoki oʻrganishni motivlashtirmaydi. Emotsiyalar qoʻzgʻatuvchilarni kuchaytiribgina qolmay, susaytirishi va hatto qoʻzgʻalish holatini butunlay soʻndirib qoʻyishi mumkin. Maʼno faoliyat motivining harakat maqsadi bilan boʻlgan munosabatini anglatadi.

Bilimlarni anglash inson uchun ular qanday maʼno kasb etishi bilan xarakterlanadi. Harakatning maʼnosi oʻzgarishi bilan birga uning motivi ham oʻzgaradi. Obyektiv mazmunga koʻra harakatlar oʻz holicha qolishi mumkin, lekin agar u yangi motiv kiritgan boʻlsa, unda psixologik tomondan boshqaga aylanadi. Ayni bir harakatning oʻzi faoliyatning turli motivlariga kira borib, turlicha maʼno anglatadi.

Bilimlarni anglash muammosi bu bola tomonidan bilimlarni oʻzlashtirib olishdan kelib chiqadigan maʼno muammosidir. Bu bilimlarning bola uchun qanchalik muhimligi va ularni qay darajada oʻzlashtirib olishi aniq motivlar va oʻqishga boʻlgan qiziqishi bilan belgilanadi.

Talabalar oʻz ishlariga astoydil yondashishlari uchun oʻqish faoliyatining borishida ular oldiga qoʻyiladigan vazifalar faqat tushunarligina emas, balki oʻzlari tomonidan ichki qabul qilingan, ular uchun ahamiyatli boʻlishi kerak.

Oʻqish motivlarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin.

1. Oʻquv faoliyatining oʻzida mujassamlashgan motivlar:

a) oʻqish motivi bilan bogʻliq boʻlgan motivlar: talabada oʻqishga, yangi dalillarni bilib olishga, bilimlarni egallashga qiziqish uygʻotadi, turli usullar bilan yangiliklar ichiga kirib borishni qoʻzgʻatadi va hokazo.

b) oʻqish jarayonining oʻzi bilan bogʻliq boʻlgan motivlar: talabada intellektual (aqliy) faollik, oʻqishga intilishni uygʻotadi, fikrlash, muhokama qilish masalalarini hal qilish jarayonidagi qiyinchiliklarni engishga undaydi, talabani biron masalaning natijalarigina emas, shu jarayonning oʻzi koʻproq qiziqtiradi.

2. Oʻquv faoliyatining oʻzi bilangina bogʻliq boʻlgan motivlar:

1. Keng ijtimoiy motivlar: a) jamiyat, taʼlim muassasasi, talabalar, ota-ona va boshqalar oldidagi burch va javobgarlik motivlari; b) oʻz-oʻzini anglash motivlari (kelajagi uchun bilimlarning ahamiyatini tushunish, kelgusi ishlari uchun tayyorla nishga boʻlgan xohish va hokazo) va oʻzi tomonidan amalga oshirilishi (oʻqish natijasida rivojlanishga erishish).

2. Tor shaxsiy motivlar:

a) diplom olishga, yaxshi baholar olishga intilish (muvaffaqiyat motivatsiyasi);

b) guruhda birinchi boʻlish, guruhdoshlari orasida obroʻga ega boʻlishni xohlash (obroʻga intilish motivatsiyasi).

3. Salbiy motivlar: oʻqituvchilar, ota-ona, guruhdoshlari tomonidan boʻladigan koʻngilsiz voqealardan qochishga intilish (noxushliklardan qochish motivatsiyasi)[5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oʻqish faoliyati hamisha koʻp motivlidir. Oʻqish motivi tizimida ichki va tashqi motivlar bir-biri bilan bogʻlangan.

Tashqi motivlarga quyidagilar kiradi: oʻqish jarayonida shaxsiy rivojlanish; oʻzgalar uchun hamda oʻzgalar bilan birgalikdagi harakatlar; yangi nomaʼlumni anglash. “Kelgusi hayot uchun bilimlarning zarurligini anglash”, “oʻqish jarayoni muloqot imkoniyati sifatida”, “oʻqituvchilar tomonidan maʼqullanish va maqtov eshitish” singari motivlar tashqi motivlarga butunlay aloqador boʻlmasa-da, oʻqish jarayonida tabiiy va foydali hisoblanadi. Tashqi motivlarga yana “oʻqish jarayoni oddiy bir vazifa kabi”, “oʻqish ilgʻorlab ketish va choʻqqiga chiqish (maqsadga erishish) uchun”, “diqqat markazida boʻlish uchun intilish” kabi motivlar ham kiradi. Bu motivlar oʻqish jarayoni natijalariga va xarakteriga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Oʻqish motivlarida ragʻbatlantirish va muvaffaqiyatsizlikdan qutulish maqsadiga qaratilgan tashqi jihatlar keskinroq ifodalangan boʻladi. Oʻqituvchining asosiy vazifalaridan biri har doim talabaning oʻqish faoliyatidagi ichki motivatsiyasini rivojlantirishga va motivlashtirishga alohida eʼtibor berishdir.

Oʻqishning ichki motivatsiyalari rivojlanishi oʻqish maqsadiga qaratilgan tashqi motivlar siljishi orqali yuz beradi. Bu jarayon maqsad sari yana ham yaqinroq, yana ham chuqurroq ravishda bir motivdan ikkinchi motivga oʻtishda namoyon boʻladi. Shuning uchun motivatsion taraqqiyotda talabalar oʻqish jarayonining yaqin taraqqiyot zonasini hisobga olishlari kerak. Oʻqishning ichki motivlari taraqqiyoti bu yuqoriga boʻlgan intilishdir. Albatta, quyiga boʻladigan harakat osonroq. Shuning uchun ham pedagogik amaliyotda

o‘qituvchilar talabalarda o‘qish motivlarining yuksalishiga olib keladigan ba’zi “pedagogik yordam” usullaridan foydalanadilar. Bular quyidagilar bo‘lishi mumkin: haddan tashqari diqqat va nosamimiy maqtoqlar, o‘zini oqlovchi oshirib qo‘yilgan baho hamda keskin jazolar, sha’nini erga uruvchi tanqid, diqqatning buzilishi, nohaq qo‘yilgan past baho, moddiy va boshqa qadriyatlardan mahrum bo‘lish kabilar. Bu holatlar talabani o‘zini himoya qilish pozitsiyasini egallashga, moddiy qadriyatlarga yo‘nalishga, har tomonlama qulay motivlarga moslashishiga sharoit yaratadi.

Motivning maqsad sari siljishi faqatgina pedagogik holatlarning xarakteriga emas, balki shaxsan ichki kechinmalar va o‘qishning obyektiv vazifalari, tayanch nuqtalariga ham bog‘liqdir. Shuning uchun maqsadga qaratilgan faol motiv harakatining zaruriy omillaridan biri talabani hayotiy dunyosini kengaytirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Акулина Н.Н. Влияние общего интеллекта и мотивации на успешность усвоения знаний //Ананьевские чтения – СПб: Питер, 2015 – 496 с.
2. Вилюнас, В. К. Психологические механизмы мотивации человека / В. К. Вилюнас. – М. : Изд-во МГУ, 1990. – 288 с.
3. Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to‘plami. – T.,2008.– 81 b.
4. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы / Е. П. Ильин. – СПб : Питер, 2011. – 512 с.
5. Курдюкова Н.А. Оценивание успешности учебной деятельности как психолого-педагогическая проблема. – СПб.: Питер, 2007. - 386 с.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. -М.: Полит издат, 1975.-386 с.
7. Маркова, А. К. Формирование мотивации учения / А. К. Маркова, Т. А. Матис, А. Б. Орлов. – М. : Просвещение, 1990. – 192 с.
8. Мильман В.Э. Внутренняя и внешняя мотивация учебной деятельности //Вопросы психологии. – 2007. – № 5. – С. 42-47.
9. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya . Darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. - 600 b.
10. Хекхаузен, Х. Мотивация и деятельность / Х. Хекхаузен. – СПб : Питер, 2013. – 860 с.
11. Хайдаров Ф., Абдукаримов Х., Алимova F., Botirov B. Talabalarning o‘quv motivlarini shakllantirish. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2009.
12. E.G‘.G‘oziev. Ontogenez psixologiyasi. Darslik. Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2010.-360 b.

O‘QITUVCHINING O‘Z DARSINI TAHLIL QILISHI: TAJRIBA VA AMALIYOT

Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o‘g‘li,
Andijon davlat universiteti Kompyuter
injiniringi kafedrası katta o‘qituvchisi
Djuraboyev92@gmail.com

Artiqova Muhayyo Botiraliyevna,
Andijon davlat pedagogika instituti, Maktabgacha
ta'lim fakulteti dekani, professor, p.f.d. (DSc)
muhayyo_15_08@mail.ru

Ushbu maqolada o‘qituvchining pedagogik faoliyati, dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli ekanligi, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishning ayrim jihatlari, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan o‘z darsini tahlil qilishning to‘liq shakli xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, pedagogik faoliyat, o‘quvchi, dars, o‘qitish vositalari, metod, uslub, didaktika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish.*

АНАЛИЗ УЧИТЕЛЕМ СВОЕГО УРОКА: ОПЫТ И ПРАКТИКА

В данной статье рассматриваются педагогическая деятельность учителя, то, что урок является основной формой организации обучения, самоанализ, некоторые аспекты повышения эффективности деятельности учителя, а также анализ учителем своего урока.

Ключевые слова: *учитель, педагогическая деятельность, ученик, урок, средства обучения, метод, стиль, дидактика, педагогическое мастерство, педагогическая технология, самоанализ.*

ANALYSIS OF THE TEACHER'S OWN LESSON: EXPERIENCE AND PRACTICE

In this article, the pedagogical activity of the teacher, the fact that the lesson is the main form of organization of education, self-analysis, some aspects of increasing the effectiveness of the teacher's activity, as well as the full analysis of the teacher's lesson thought about the form are discussed.

Keywords: *teacher, pedagogical activity, student, lesson, teaching aids, method, style, didactics, pedagogical skill, pedagogical technology, self-analysis.*

Kirish. Dars – ta’lim jarayonining mantiqiy to‘liq va ajralmas qismi hisoblanadi. U murakkab o‘zaro ta’sirdagi ta’lim jarayonining asosiy elementlarini o‘z ichiga oladi: maqsadlar, vazifalar, mazmun, usullar, vositalar, shakllar, o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro bog‘liq faoliyati. Shu bilan birga “dars o‘qitishni tashkil etishning o‘zgarimas shakli ham emas. O‘quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo darsni takomillastirish yo‘llarini izlaydi”. Dars, bir tomondan, o‘qitishning psixologik-pedagogik tamoyillariga, ikkinchi tomondan, ta’lim standartlari bo‘yicha qo‘yilgan talablarga asoslangan o‘qituvchining ijodkorligini ifodalaydi.

Muhokama. Ta’limning maqsadi va mazmuni o‘zgaradi, o‘qitishning yangi metod, vositalari hamda texnologiyalari paydo bo‘ladi, ammo dars ta’limning asosiy shakli bo‘lib qolaveradi. “O‘qituvchi umri davomida o‘rtacha 25 mingdan ortiq dars beradi, o‘quvchi 10 mingdan ortiq darsga qatnashadi. O‘quvchi uchun eng muhim bo‘lgan hamma narsa sinfda sodir bo‘ladi”[1].

Darsning oqilona tuzilishi quyidagilar bilan ta’minlanadi:

- ta’lim, tarbiya va rivojlanish vazifalarini kompleks rejalashtirish;
- dars mazmuni va mavzusidagi asosiy, muhim aspektlarni ajratib ko‘rsatish;
- takrorlash, yangi ma’lumotlarni o‘rganish, uy vazifalarini mustahkamlash uchun material va vaqtning tegishli ketma-ketligi, miqdorini aniqlash;
- ratsional usullar, uslublar va o‘qitish vositalarini tanlash;
- o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashish;
- ta’lim olish uchun zarur o‘quv va moddiy sharoitlarni yaratish;
- o‘quvchilarning kognitiv faolligini ta’minlash.

Ma’lumki, o‘qituvchi o‘z faoliyatini, eng avvalo, faoliyatining asosi bo‘lgan o‘quv mashg‘ulotlarini muntazam ravishda tahlil qilib turishi lozim. Har bir o‘qituvchi o‘z darsidan qoniqsa, o‘quvchilar ham berayotgan bilimlaridan qoniqish hosil qilayotganini his etadi[2]. “O‘qituvchi tomonidan o‘z darsini tahlil

qilish – o‘tayotgan darsining tarkibiy qismlariga, uning mohiyati va vazifalariga chuqur kirib borgan holda o‘z faoliyatining yakunini ko‘ra bilish, erishilgan natijalarni o‘quvchilarning muvaffaqiyati va rivojlanish natijalariga muvofiqligini taqqoslash orqali o‘z-o‘zini baholashidir. Demak, o‘z-o‘zini tahlil qilish – bu insonning o‘zini o‘rganishi, o‘z ichki dunyosini bilish istagi, o‘z ruhiyatining tubiga kirishga urinishidir. O‘zgalarni yaxshiroq tushunish uchun, avvalambor, o‘zligini bilish, o‘z motivlarini, qarashlarini, his-tuyg‘ularini va tashqi voqeelikka munosabatini anglash kerak.

“Odatda o‘z-o‘zini tahlil qilish yoki o‘z-o‘zini tekshirish deb ataladigan narsa mulohaza yoki introspeksiya o‘xshaydi, chunki ikkala holatda ham subyekt ning fikri o‘ziga qaratilgan. Na biri, na boshqasi hech qachon o‘z-o‘zini anglashning obyektiv usuliga aylanmaydi, chunki insonning fikrlari doimo u tomonidan boshqa fikrlar bilan bog‘lanadi va munosabatlari bilan ranglanadi”. O‘quv jarayonining muvaffaqiyati, sur‘ati va rivojlanish yo‘nalishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘z o‘quv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishiga, berilayotgan material (axborot)ning o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi, uni qabul qilishi, qayta ishlashi va kundalik amaliy faoliyatga qay darajada qo‘llay bilishiga bevosita bog‘liq.

O‘qituvchining o‘z darsini tahlil qilishiga bir qator talablar mavjud:

- mavzudan kelib chiqib, maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash;
- didaktika, psixologiya, metodologiya, huquqiy-me‘yoriy talablarni bilish;
- o‘z darsini tahlil qilishi uchun kerak bo‘lgan pozitsiyalar va ko‘rsatkichlarni ajrata olish qobiliyati;
- o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni sinf ishida hisobga olish;
- dars rejasining asosliliigi, uning turi, tuzilishi, mazmuni, usul va vositalari;
- o‘quvchilar tomonidan sinfda bajariladigan o‘quv vazifalari, topshiriqlar va mashqlar tizimini psixologik-pedagogik baholay olish;
- darsning turli bosqichlarida o‘quvchilar mustaqil fikrlashining rivojlanishini baholash;
- darsda rejalashtirilgan vazifalarini bajarish;
- darsdagi harakat va faktlarning pedagogik maqsadga muvofiqligini baholash;
- darsning bosqichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish va ularni baholash qobiliyati;
- darsdan (yoki uning alohida bosqichlaridan) qoniqish yoki qoniqmaslik;
- kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlar.

Zamonaviy dars, eng avvalo, o‘quvchi shaxsini kamol toptirish, uning faol aqliy o‘ssishi, bilimlarni chuqur va mazmunli o‘zlashtirish, axloqiy asoslarini shakllantirish uchun barcha imkoniyatlardan mohirona foydalanishga qaratilgan[3]. Dars samaradorligini oshirishning ayrim jihatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayonini optimallashtirish (ta‘limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda berilgan shartlar uchun eng samarali variantni tanlash);
- o‘quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rag‘batlantirish;
- faollashtiruvchi usullar va o‘quv vositalarini qo‘llash;
- tezkor qayta aloqani tashkil etish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini shakllantirish; qulay psixologik mikroiklimni yaratish.

O‘qituvchi tomonidan o‘z darsini tahlil qilishning quyidagi shakllari mavjud:

1. To‘liq – dars jarayonini tashkil etish sifatini, o‘qitish uslubini, ish tajribasini to‘la tahlil qilishga yo‘naltirilgan (o‘quv yili davomida 1, ko‘pi bilan 2 marta).
2. Qisqa – bir mavzu doirasida qo‘yilgan maqsad va dars yakunida erishilgan natijani, ularning o‘zaro bog‘liqligini har tomonlama ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi (o‘quv yili davomida har chorakda 1 marta)[4].
3. Aspektli – dars davomida qo‘llagan yoki qo‘llashni reja qilgan usuli (yondashuvi)ning samaradorligini aniqlash uchun darsning bir tomonini chuqurroq ko‘rib chiqish (zaruriyatga qarab).

Quyida o‘z darsini tahlil qilishning “to‘liq” shakli uchun namuna beriladi (mualliflik yondashuvi asosida):

1-jadval.

O‘qituvchining o‘z darsini o‘zi tahlil varaqasi

1. Darsni rejalashtirishda qanday talabalarni inobatga oldim?	<input type="checkbox"/>	dasturga muvofiqligi, amaliy va nazariy materialning nisbati
	<input type="checkbox"/>	dars bosqichlari orasidagi “ mantiqiy bog‘lanish” mavjudligi
	<input type="checkbox"/>	o‘tilgan mavzu bilan bog‘liqligi
	<input type="checkbox"/>	keyingi dars uchun yo‘naltiruvchi xususiyatga egaligi
	<input type="checkbox"/>	darsning o‘qitish usullari, ta‘lim tamoyillarini tanlashga qo‘yiladigan talablarga mosligi
	<input type="checkbox"/>	dars davomida o‘qituvchi faoliyatining turlari va uni qay nisbatda (nutq faoliyati, tinglash, yozish, o‘quvchilarga yordam berish, sinfni boshqarish

	<input type="checkbox"/>	va b.) amalga oshirilganini inobatga olish
	<input type="checkbox"/>	dars bosqichlariga ko‘ra vaqtni taqsimlashning maqsadga muvofiqligi
	<input type="checkbox"/>	o‘quvchilarning tartib va ongli intizomga rioya etishini inobatga olish
2. Yangi mavzuni bayon etishda nimalarga ahamiyat berdim va qanday o‘qitish usullari kombinatsiyasidan foydalandim?	<input type="checkbox"/>	yangi tushunchalarni shakllantirish (mavzu bo‘yicha yangi tushunchalar aniqlaganligi, bu tushunchalar o‘quvchilar uchun haqiqatdan ham yangilikmi)
	<input type="checkbox"/>	munozarali vaziyatni hosil qilish (o‘qituvchi yangi mavzu bo‘yicha turli nuqtayi nazarlar bilan qanday ishladi)
	<input type="checkbox"/>	yangi materialni sifatli o‘zlashtirilishi
	<input type="checkbox"/>	o‘qituvchining pedagogik texnikasi: nutq tezligi, diksiya, bayonning emotsionalligi, maxsus atamalardan foydalanishning to‘g‘riligi, shaxslararo muloqot ko‘nikmalari, o‘quvchilarga ta‘sir etish usullari
	<input type="checkbox"/>	dars mazmunining hayot bilan bog‘lanishi, materialning kasbiy yo‘nalishi
	<input type="checkbox"/>	ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish
3. Darsning psixologik jihatlarini inobatga oldimmi?	<input type="checkbox"/>	o‘quvchilarning dars boshlanishidan oldingi va davomidagi psixologik holati (darsga tayyorgarligi, yaxshi kayfiyat, tushkunlik va uning sabablari, darsda bo‘layotgan voqealarga emotsional munosabat)
	<input type="checkbox"/>	darsning turli bosqichlarida diqqatni jalb qilish, uning barqarorligini saqlash usullari, chalg‘ish holatlari, uning sabablari, ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat nisbati
	<input type="checkbox"/>	dars davomida xotiraning rivojlanishiga qanday hissa qo‘shilgani, asosiy xotira jarayonlarini tashkil etish: idrok etish, yodlash va saqlash
	<input type="checkbox"/>	tafakkurni rivojlantirish: muammoli vaziyatlar yaratish, aqliy operatsiyani tashkil etuvchi topshiriqlardan foydalanish (taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlashtirish, tizimlashtirish, mavhumlashtirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun sharoit yaratish)
	<input type="checkbox"/>	materialni obrazli ko‘rsatish
	<input type="checkbox"/>	materialni mazmunli idrok etishni tashkil etish texnikasi
4. Yangi mavzuni qay darajada mustahkamlay oldim?	<input type="checkbox"/>	tanlangan metod, mashq (masala, topshiriq)lar mavzudagi asosiy tushunchalarni o‘zlashtirishga yordam bergani
	<input type="checkbox"/>	topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan yordam ko‘rsatilishi
	<input type="checkbox"/>	ilg‘or o‘quvchilar uchun qo‘shimcha topshiriqlar berilishi
	<input type="checkbox"/>	o‘zlashtirishi past o‘quvchilarga Fidbek uyuushtirish
	<input type="checkbox"/>	mavzuni mustahkamlashda texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish
5. Darsda o‘quvchilar faoliyatiga qay darajada e‘tibor qaratdim?	<input type="checkbox"/>	o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilishi
	<input type="checkbox"/>	<i>Kuzatildi</i>
	<input type="checkbox"/>	<i>Kuzatilmadi</i>
	<input type="checkbox"/>	mustaqil fikr yurita olish
	<input type="checkbox"/>	shaxslararo munosabatlar madaniyati
	<input type="checkbox"/>	o‘quvchilarning darsga qiziqishi:
	<input type="checkbox"/>	<i>Yuqori</i>
	<input type="checkbox"/>	<i>o‘rta</i>
<input type="checkbox"/>	<i>Past</i>	
6. O‘quvchilar bilimni qanday baholadim?	<input type="checkbox"/>	shaffoflik, obyektivlik va mezon talablariga mos
	<input type="checkbox"/>	bilimlarni baholashda:
	<input type="checkbox"/>	<i>kompyuter (dastur) imkoniyatidan foydalanildi</i>
	<input type="checkbox"/>	<i>rag‘bat kartochkalaridan foydalanildi</i>

	<input type="checkbox"/>	<i>o'z pozitsiyasiga asoslandi</i>
	<input type="checkbox"/>	<i>o'quvchilarning o'zaro baholashlari inobatga olindi</i>
7. Uy vazifa berish va uning bajarilishini to'g'ri nazoratga olamanmi?	<input type="checkbox"/>	uy vazifasi va mustaqil ishlash topshiriqlari uchun ko'rsatmalar, o'quvchilarda ortiqcha yuklanishni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilishi
	<input type="checkbox"/>	hajmi, murakkablik jihatdan optimalligi
	<input type="checkbox"/>	bajarilgan uy vazifasining sharhlanishi
	<input type="checkbox"/>	topshiriqlarni bajarilishida dizaynga e'tibor
	<input type="checkbox"/>	uyga vazifaning farqlanishi (differentsiatsiyaning mavjudligi)
	<input type="checkbox"/>	telegram gruppasi yoki elektron pochta orqali uy vazifasi va topshiriqlar bajarilishini nazoratga olish
Belgilangan barcha vazifalarni to'liq bajarishga muvaffaq bo'ldimmi?	<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	ha yo'q bilmadim...
Qancha muddatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'rnini to'ldirishim mumkin?	<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	ko'pi bilan bir oy muddatda ko'pi bilan bir haftada bugunoz
Umuman olganda kasbiy uslubiy mahorat darajamni qanday baholayman?	<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	yuqori o'rta past
Faoliyatimni takomillashtirish istiqbollari quyidagicha ifodalayman		_____ _____ _____

Izoh: Ushbu tahlil varaqasi o'qituvchining o'z ustida ishlash papkasida saqlanadi.

Zarur o'rinlarda o'quv yili oxiri va yangi o'quv yili boshlanishiga qadar erishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisob qilinishida muhim asos vazifasini o'taydi. Tahlil varaqasini yuritishda kerakli katakchaga belgi qo'yiladi va belgilangan bandlar umumlashtirib, o'z faoliyatiga tanqidiy, tahliliy xulosalar chiqariladi[5].

Xulosa. Umuman olganda, har bir sog'lom fikrlaydigan va hissiy jihatdan yetuk inson o'z faoliyati va xatti-harakatlarini avtomatik ravishda tahlil qilib boradi. O'z-o'zini tahlil qilish rivojlanish, maqsadlarga erishish va hayot (turmush)ning sifatini yaxshilash imkonini beradi. O'qituvchi (pedagog) o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'zini yaxshiroq tushunishga, fikrlari va his-tuyg'ulari tartiblashga, kuchli va zaif tomonlari aniqlashga erishadi. Quyida bu boradagi ayrim tavsiyalar keltirib o'tiladi:

1. O'z-o'ziga savollar berish. O'z-o'zini tahlil qilishning asosiy jihatlaridan biri – o'ylanishga, mulohaza yuritishga undovchi savollar berishdir. Bu – fikrlarni, his-tuyg'ularni jamlashga va shaxsiyatdagi yangi qirralarini kashf etishga yordam beradi.

2. Yutuq va kamchiliklarni obyektiv baholash. O'z-o'zini tahlil qilish o'z yutuqlari va kamchiliklarini baholashni o'z ichiga olishi kerak[6]. Muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan kuch va imkoniyatlarni to'g'ri baholash, xato va kamchiliklarni tan olishdan qochmaslik zarur. Bu borada o'zgalarning ham fikr-mulohazalari inobatga olish muhim hisoblanadi[7].

3. Harakat rejasini ishlab chiqish. Maqsadga erishish yoki mavjud holatni yaxshilash uchun qanday o'zgarishlar qilishni rejalashtirish lozim. Harakatlar rejasini ishlab chiqish – maqsadni shakllantirishga yordam beradi va asta-sekin muvaffaqiyatga erishadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva E.M. Dars, uning turlari va tuzilishi. // Scientific progress volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601. – 846 b.

2. Современный урок – это прежде всего урок / <https://педпроект.рф/маканова-м-м-современный-урок>.
3. https://volgn.rnd.muzkult.ru/media/2021/02/15/1247619903/karta_analiza_uroka.doc.
4. Корсакова В.К., Куликова М.Е., Шапагатов С.Р. Самоанализ или как понять себя? / Форум молодых ученых. 10/38, 2019. – Ст. 309.
5. Самоедство или конструктивный анализ себя? / <https://knife.media/reflection/>.
6. Artikova M. (2021). Demand for a competency-based approach to the activities of teachers in modern conditions. InterConf.
7. Kadyrov V. A., Botiraliyeva A. M., & Axunov U. R. (2022). Theatre of action-a didactic concept for the development of physical education and creativity. // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 960-963.

RAHBAR-XODIMLARNING KAYFIYATINI EMPIRIK O‘RGANILISH VA UNING PSIXOLOGIK TAHLILI

*Fayziyev Zohiddin Hasanboyevich,
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti*

Maqolada rahbar va xodimlar shaxsida kayfiyat holatini namoyon bo‘lish darajalari uning ijobiy yoki salbiy kechinmalari, mehnat faoliyatiga ta’siri, subdepressiyaning keltirib chiqaruvchi omillar, empirik tadqiq qilinganligi va undan olingan natijalar batafsil yoritilgan.

Empirik o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, rahbar va uning qo‘l ostidagi xodimlar faoliyatida kayfiyatning ta’sir, turli darajada namoyon bo‘lishi, uning ko‘rsatkichlari tegishli jadvallarda statistik tahlili batafsil o‘z ifodasini topdi.

Kalit so‘zlar: rahbar, xodim, kayfiyat, kayfiyat darajasi, depressiya, subdepressiya holati.

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАСТРОЕНИЯ РУКОВОДЯЩИХ РАБОТНИКОВ И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

В статье подробно описаны уровни проявления состояния настроения в личности руководителя и сотрудников, его положительные или отрицательные переживания, влияние на трудовую деятельность, факторы, провоцирующие субдепрессию, эмпирически исследованные и полученные результаты. Эмпирические исследования показали, что влияние настроения на деятельность руководителя и подчинённых ему работников, проявление его в разной степени, нашло своё подробное выражение в статистическом анализе его показателей в соответствующих таблицах.

Ключевые слова: руководитель, сотрудник, настроение, уровень настроения, депрессия, субдепрессивное состояние.

AN EMPIRICAL STUDY OF THE MOOD OF AN EMPLOYEE-MANAGER AND HIS PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

The article describes in detail the levels of manifestation of the mood state in the personality of the manager and employees, his positive or negative experiences, influence on work activity, factors provoking subdepression, empirically investigated and obtained results. Empirical studies have shown that the influence of mood on the activities of the manager and his subordinates, its manifestation to varying degrees, has found its detailed expression in the statistical analysis of its indicators in the corresponding tables.

Keywords: manager, employee, mood, mood level, depression, subdepressive state.

Kirish. Shaxsda turli vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan kayfiyatning ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilishi XIX asrning oxirlarida fanda dolzarb masala sifatida qaralib, hozirga qadar dunyo psixologiyasi fanida turli psixologik ta’limot va ilmiy konsepsiyalar doirasida o‘rganib kelinmoqda.

Bugungi kunda jadal kechayotgan glaballashuv sharoitida shaxsga ta’sir etayotgan turli omillar bevositida kayfiyatni o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Buning boshqaruv faoliyati va mehnat samaradorligiga ta’sirni o‘rganish masalasi o‘zining dolzarbligini oshirmoqda.

Kayfiyat bu- shaxsning faoliyati, xulqi, muomalasi va ruhiy jarayonlariga ma’lum vaqt davomida ta’sir qilib turuvchi hissiy holat. Insonning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, zerikish, qayg‘urish kabi his-tuyg‘ular uning ruhiy holati tizimiga aylanadi. Insonning butun faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, kishi xursand bo‘lib turganida uning ko‘ziga hamma narsa yaxshi, aks holatda esa yomon bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Yaxshi kayfiyat individ, guruh, jamoada ishchanlik, o‘zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhitni, samimiy muomala maromini shakllantirishning, jismoniy va aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir. Ijtimoiy hayotdagi turli voqealar, ya’ni mehnat muvaffaqiyati, ta’lim yutug‘i, rahbar bilan xodim, o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi munosabatlar, oiladagi shaxslararo muomala maromi, turmushning quvonch va tashvishlari, shaxsning qiziqishi, nimadandir qoniqish yoki qoniqmaslik hissi kayfiyatning manbalari hisoblanadi. Odamning ruhi tushib, noxush kayfiyatda yurishi uning turmushida muammolar yuzaga kelganidan, halovati buzilganidan dalolat beradi. Obyektiv va subyektiv vaziyat, sharoit, sababiy bog‘lanish kayfiyat barqarorligini belgilaydi. kayfiyatning xususiyatlari ko‘p jihatdan shaxsning individual-tipologik fazilatlariga bog‘liq. Inson o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatidan kelib chiqqan holda kayfiyatini muvaqqat davr oralig‘ida qat’iyatlikda tutishi, hatto holat o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymasligi mumkin. Kayfiyatning turg‘un buzilishiga distimiya deb aytiladi. Grekchadan

dis – buzilish, timos – kayfiyat degani. Distimiya uzoq davom etsa-da, depressiyaga o‘xshab og‘ir kechmaydi. Distimiya, asosan, o‘smirlarda uchraydi. Distimiya uchun quyidagi belgilar xos hisoblanadi:

- 1) ishtaha pasayib ketishi yoki keragidan ortiq ovqat yeb yuborish;
- 2) o‘ziga ishonch yo‘qligi;
- 3) uyqusizlik yoki hadeb uxlayverish;
- 4) umumiy quvvat va ishchanlikning so‘nishi;
- 5) fikrini bir joyga jamlay olmaslik;
- 6) ozgina tanbeh bersa, ko‘ziga yosh kelishi;
- 7) yosh bo‘lsa-da, seksual hayotga qiziqmaslik va undan qoniqish olmaslik;
- 8) kundalik yumushlarni oxiriga yetkazmay tashlab qo‘yish;
- 9) umidsizlik va maqsadsiz yashash;
- 10) yoqimsiz voqealarni eslab, xayolga botib yurish;
- 11) odamlarga qo‘shilmay yolg‘izlikni ma’qul ko‘rish, jamiyatdan qochish;
- 12) kamgaplik;
- 13) psixologik stuporga tushib turish.

Distimiya – bu depressiya emas. Agar sinchkovlik bilan tekshirmasa, tashxis qo‘yishda adashib qolish mumkin. Agar depressiyada antidepressantlar tavsiya etish zarurati tug‘ilsa, distimiyada psixoterapiya juda zo‘r yordam beradi va antidepressantlar yozish shart emas.

Kayfiyat buzilishi bilan kechadigan yana bir holat bor va bu holat siklotimiyadir.

Siklotimiya– bu kayfiyatning o‘z-o‘zidan tushib va ko‘tarilib ketishi bilan namoyon bo‘ladigan ruhiy holat. Kayfiyati tushib ketsa, yuqorida ko‘rsatilgan belgilar paydo bo‘ladi, ko‘tarilib ketsa, eyforiya holatida yuradi, ya’ni quvnoq va chaqqon bo‘lib qoladi. Bundaylarni siklotimik shaxs deb atashadi va yoshlar orasida ko‘p uchraydi.

Maqola mavzusining dolzarbligini va zarurati. Tashkilotlarda boshqaruv tizimini tizimli tashkil etish, psixologik barqaror kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifati qaralmoqda. Bu borada rahbar va hodimlarda namoyon bo‘ladigan kayfiyat darajalarini aniqlash, ilmiy jihatdan tahlil etish va uning salbiy jihatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-etnik omillarni aniqlash muammosi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirda hissiy kechinma sifatida kayfiyatning o‘zgarish holatini tadqiq etish, uni o‘rganish va tahlil qilish masalasi kun sayin dolzarbligini ortirib bormoqda.

Mavzu bo‘yicha olimlar izlanishlarining qisqacha tahlili. Shaxsda namoyon bo‘ladigan kayfiyat holatini o‘zbek olimlaridan M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, D.S.Qarshiyeva, N.Z.Ismoilovalar tomonidan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan V.Zung va T.N. Balashevalar va boshqalarning ilmiy izlanishlarida izlanishlarida batafsil yoritib berilgan.

Muallif olib borgan tadqiqotning asosiy mazmuni. Tadqiqot ishimizning doirasida rahbar va uning qo‘l ostidagi xodimlarining mehnat faoliyati hamda ish jarayoniga munosabatini aniqlash, kayfiyat yo‘qlik(ni)-subdepressiya shkalasini tekshirish ham muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, biz V.Zung va T.N.Balashevalarning “Kayfiyat yo‘qlik(ni)-subdepressiya darajasini aniqlash” metodikasidan foydalandik va kerakli statistik natijalarni qo‘lga kiritdik.

V.Zung va T.N.Balashevalarning “Kayfiyat yo‘qlik(ni)-subdepressiya darajasini aniqlash” metodikasidan olingan natijalarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari (Styudentning t-mezoni bo‘yicha (n=322))

1-jadval.

Kayfiyat yoki subdepressiya darajasi	Sinaluvchilar	n ₁ n ₂	O‘rtacha ko‘rsatkich (M)	Standart og‘ish	t	p
Kayfiyat yuqori	Rahbarlar	142	46,8	4,1	-1,2	0,38
	Xodimlar	180	47,2	3,5		
Kayfiyat past	Rahbarlar	142	52,6	2,2	-2,4	0,05
	Xodimlar	180	68,8	5,2		
Subdepressiya yoki depressiya	Rahbarlar	142	70,4	3,6	-2,6	0,05
	Xodimlar	180	71,2	1,9		

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001.

Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ish jarayonida kayfiyatning yuqori darajasi rahbar (46,8 ball) va xodimlar (47,2 ball) sinaluvchilarda deyarli bir ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar me’yoriy holatda ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinaluvchilarda kayfiyatning past ko'rsatkichi rahbarlarga (52,6 ball) nisbatan xodimlarda (68,8 ball) yaqqol ifodalandi (*-p<0,05). Xodimlarda rahbar tomonidan berilgan topshiriqlarni tegishli muddatda bajarmasligi, shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlar ta'siri natijasida va boshqa obyektiv sabablarga ko'ra kayfiyatni darajasi o'zgarishi orqali u pasayishi mumkin. Bugungi kun boshqaruv tizimida mehnat jarayonining samarali tashkil etishda rahbar va xodimlarning emotsional holati ya'ni kayfiyat barqarorligi muhim hisoblanadi.

Agar jamoada kayfiyatning tushkunligi namoyon bo'lsa, unda psixologik muammo bor ekanligidan dalolat beradi. Sinaluvchilarda subdepressiya va depressiya holati bor yoki yo'q ekanligi o'rganilganda, ushbu holat yaqqol namoyon bo'lishi kuzatildi (*-p<0,05).

Subdepressiya va depressiya darajasi rahbar sinaluvchilarda (70,4 ball) xodim sinaluvchilarda esa, 71,2 ball ko'rinishida namoyon bo'lganligiga guvoh bo'lindi. Har ikkala sinaluvchilarda kayfiyatning pastligi sababli ushbu ko'rinishga kelganligi tadqiqot davomida o'z isbotini topdi. Bu holat bevosita ish talablarining buzilishiga, kundalik faoliyatning izdan chiqishiga, ishga bo'lgan layoqatning pasayishiga, o'zaro kelishmovchiliklarga va psixik beqarorliklarni keltirib chiqaruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Kayfiyatning past ko'rinishida namoyon bo'lishi, subdepressiya va depressiya holatlarini demografik tahlil qilinganda quyidagi natijalarga ega bo'ldik.

V.Zung va T.N.Balashevalarning “Kayfiyat yo'qlik(ni)-subdepressiya darajasini aniqlash” metodikasidan olingan natijalarning demografik tahlili (Styudentning t-mezone bo'yicha (n=322))

2-jadval.

Kayfiyat yoki subdepressiya darajasi	Sinaluvchilar	n ₁ n ₂	O'rtacha ko'rsatkich (M)	Standart og'ish	t	p
Kayfiyat yuqori	Qashqadaryo viloyat	220	48,1	4,4	2,4	0,39
	Samarqand viloyat	102	47,9	3,7		
Kayfiyat past	Qashqadaryo viloyat	220	64,3	2,3	2,7	0,05
	Samarqand viloyat	102	53,6	5,4		
Subdepressiya yoki depressiya	Qashqadaryo viloyat	220	70,4	2,6	2,9	0,05
	Samarqand viloyat	102	70,8	2,9		

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001

Ushbu metodika natijalarining hududiy tahlili solishtirilganda, kayfiyatning ko'tarinki va passiv holatdan chiqish Qashqadaryo viloyati sinaluvchilarida (n₁=220) nisbatan yuqori (48,1) ekanligini ko'rinishim mumkin. Samarqandlik sinaluvchi rahbar va xodimlarda (n₂=102) bu ko'rsatkich 47,9 ballni tashkil etadi. Kayfiyatning past darajasi Samarqand viloyati sinaluvchilarida (n₂=102) 53,3 ball, Qashqadaryo viloyati sinaluvchilarida esa (n₁=220) 64,6 ballda namoyon bo'ldi (*-p<0,05). Sinaluvchilarda subdepressiya darajasi bir xil ko'rsatkichga ega ekanligini guvohi bo'ldik. Ushbu holat ikkita viloyat rahbar va xodimlarida birdek namoyon bo'lishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ishi doirasida qo'llanilgan barcha metodikalar orqali tegishli natijalar qo'lga kiritilganligi ilmiy izlanishlarimiz ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Rahbar-xodimlar jamoasida maqsadni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat bosqichlarida, kayfiyatning ko'tarinki, turli salbiy ta'sirlarga nisbatan emotsional barqarorlik bilan munosabat bildirish ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. afzalligini tasdiqladi. Rahbar-xodimning shaxslararo munosabatida kayfiyatning buzilishi, kayfiyatning pastligi, depressiya holati va subdepressiyaning namoyon bo'lishi turli muammo va ishdagi to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kayfiyat darajasi qancha past bo'lsa mehnat unimdorligi shuncha sifatsiz tashkil etiladi. Aksincha, kayfiyat barqaror shakllangan bo'lsa, har qanday salbiy faktorlar ta'siriga berilmaslik, unga nisbatan to'g'ri javob reaksiyasi qaytarish, optimistik psixologiya namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Tavsiyalar. Zamonaviy psixologiyada kayfiyatning ko'rarish uchun bir qancha tavsiyalar taklif etiladi. Bular quyidagilardan iborat:

Tabassum qiling. Eng oddiy retsept. Albatta, buning uchun yurakdan kulish kerak, lekin sababsiz kulish – ahmoqlik alomati deb bilishadi. Bunga sabab ham topish mumkin. Eng oson yo'li – komediya tomosha qilish. Bunday paytda yostiq va bodroq yordamga keladi, inson esa o'ziga erkinlik berishi kerak.

Yig'lab oling. Yig'lab olish – chiqish yo'li hamdir. Ko'z yoshlarning ham chiqib ketishiga imkon berish kerak. Aytgancha, bu tushkunlikni va to'plangan asabiy taranglikni mukammal olib tashlaydi. Ha, ba'zida havo yetishmaydi. Xuddi biror narsa to'sqinlik qilgandek tuyuladi. Keyin «Titanik» yoki «Xatiko»ni tomosha qilib, yig'lab yuborish mumkin. Albatta, ro'molchani tayyorlab qo'yish zarur.

Sayr qiling. Bilasizmi, ichki havo tashqaridagidan oʻrtacha besh baravar iflos va oʻn baravar zaharli. Doim bir xonada boʻlish tom maʼnoda kayfiyatga taʼsir qiladi. Albatta, derazani ochish orqali xonani doimo shamollatish mumkin. Lekin tez-tez sayrga ham chiqish foydali. Yurish haqiqatan ham shifo beradi. Yurayotganda yerga emas, osmonga qarashga harakat qilish lozim. Daraxt, uylar, odamlar, poyezd. Faqatgina atrofni tomosha qilib, zavqlanish zarur.

Xohlagan yegulikni isteʼmol qiling. Aynan shu davrda yengillik huquqiga ega boʻlish mumkin. Agar diyetada boʻlsangiz ham. Ovqat pishirishning yanada ilhomlantiruvchi usullarini tanlang, ziravorlar qoʻshing, taomni chiroyli qilib bezang. Oshxona dunyosi bilan boʻlgan muloqotning kichik daqiqalari yorqin va yoqimli boʻlsin. Axir ovqatlanish – hayotdan zavqlanishning eng oson usullaridan biri.

Chiroqni yoqing. Ha, baʼzida arzimas narsalar ham yomon fikrlarni tarqatishi va qalbdagi oʻrnashgan qorongʻilikni yoritib yuborishi mumkin. Bu, ayniqsa, tashqarida havo bulutli boʻlganda, hatto, kunduzi ham ish beradi. Antidepressantlarga pul sarflamaslik uchun elektr energiyasini bir muddat tejamaslik kerak. Kichkina chiroqlar uyni har tomondan yoritib tursin.

Uxlashga yotish. Bu klassik odat. Har qanday tushunarsiz vaziyatda uxlashga harakat qilish lozim. Chunki «Tong kechdan koʻra dono», «Uyqu doridan qimmatroq» – ajdodlar dam olish haqida koʻp narsani bilishgan. Darhaqiqat, har qanday stressli vaziyatda uyqu eng yaxshi dori ekanligi isbotlangan. Yostiqni quchoqlaganda, ong barcha salbiy narsalarni qayta ishlaydi.

Vitaminlar iching. Baʼzida befarqlik, stress, kayfiyat oʻzgarishi sababi asosiy vitamin yoki minerallarning yetishmasligidandir. Albatta, oʻz-oʻzini davolashdan koʻra tanadagi maʼlum bir vitamin darajasini tekshirish foydaliroq.

Odamlar bilan muloqot qiling. Qiynayotgan muammoni hal qilishning ajoyib usuli – bu gapirish. Buni baland ovoz bilan amalga oshirish kerak. Siz bilan nima boʻlganini begona odam bilan tahlil qiling. Albatta, yaqin odam boʻlishi shart emas, baʼzida yoʻl-yoʻlakay gaplashish ham mumkin. Yana boshqa chiqish yoʻli bor. Endi sizdan ham battarroq odamni toping va unga yordam bering. Va u bilan muammolari haqida gaplashing. Ishoning, bunday suhbatdan keyin ichki osmoningizda koʻplab bulutlar tarqab ketadi.

Sevimli mashgʻulotlar bilan shugʻullaning. Sevimli mashgʻulot qanday yaxshi?! Maʼlum boʻlishicha, bu orqali yuksaklikka erishish mumkin. Raqsga tushish, rasm chizish, tikish, shirinlik pishirish, qoʻshiqlar kuylash mumkin. Agar bu sizni ilhomlantirsa, hayotdan quvonch topishning eng yaxshi usuli.

Ishlarni tartibga soling. Nafas olish va dam olishni jismonan bilmaydigan, tabiatan asabiy charchoq holatiga olib keladigan faol tabiatli insonga juda mos keladi. Ehtiyotkorlik bilan tozalash kabi meditative jarayonni sinab koʻring. Faqatgina umumiy tozalash bilan adashtirmaslik zarur.

Barcha tortma, javon, sumka, zargarlik buyumlari, kosmetik sumkalarini tinch va osoyishta tartibda ajratib oling. Eski va keraksiz narsalarni tashlash tavsiya etiladi. Shaxsiy xonani qanday qilib yaxshiroq bezatish mumkinligini oʻylab koʻring. Buning barchasi oʻz-oʻzidan tushkun kayfiyatni tarqatib yuboradi.

Adabiyotlar:

1. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. 136 с. 20.
2. Зильберман П.Б. Эмоциональная устойчивость оператора // П.Б. Зильберман // Очерки психологии труда оператора. - М.: Наука, 1994. -С. 138-172.
3. Маришук В.Л., Евдокимов В.И. Поведение и саморегуляция человека в условиях стресса. - СПб., 2001. - 290 с.
4. Мельник Ш.Е. Стрессоустойчивость. Как сохранять спокойствие и эффективность в любых ситуациях. - М.: «МИФ», 2014. - 240 с.
5. Селье Г. Стресс без дистресса. -М.: Прогресс. 1999. -134с.
6. Субботин С.В. Устойчивость к психическому стрессу как характеристики метаиндивидуальности учителя. Дис....канд.психол. наук: 19.00.07/С.В. Субботин.-Пермь, 2012. 152 с.
7. Черепанова Е. М. Психологический стресс. М.: «Академия», 1997. С.61- 62.
8. Эверли Дж.С. Стресс: природа и лечение. Пер.с англ. /Дж.С.Эверли, Р.Розенфельд. - М.: Медицина, 2013. – 224 с.
9. Варданыя Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М. Дело, 2011. – 194 с.

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MULTIMEDIA
TEKNOLOGIYALARI BO'YICHA BILIM-KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Aliqulov Shukurullo Fayzulla o'g'li,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Informatika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

sh.aliqulov77@gmail.com

“Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining multimedia texnologiyalari bo'yicha bilim-ko'nikmalarini shakllantirish” mavzusidagi tadqiqot ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarini qo'llashning ahamiyatini tahlil qiladi. Talabalar o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish, interaktiv darsliklar va boshqa raqamli resurslardan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv ta'lim sifatini yaxshilash va pedagogik faoliyatni innovatsion tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: pedagogika, oliy ta'lim, talabalar, multimedia texnologiyalari, bilim-ko'nikmalar, ta'lim jarayoni, raqamli resurslar, interaktiv ta'lim, innovatsion pedagogika, ta'lim samaradorligi.

**ФОРМИРОВАНИЕ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ ПРИМЕНЕНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ**

В исследовании на тему «Формирование знаний и умений студентов педагогических вузов по мультимедийным технологиям» анализируется важность использования мультимедийных технологий в образовательном процессе. Особое внимание уделяется повышению эффективности образования, использованию интерактивных учебников и других цифровых ресурсов в образовательном процессе учащихся. Такой подход способствует повышению качества образования и инновационной организации образовательной деятельности.

Ключевые слова: педагогика, высшее образование, студенты, мультимедийные технологии, знания-навыки, образовательный процесс, цифровые ресурсы, интерактивное образование, инновационная педагогика, эффективность образования.

**FORMING THE KNOWLEDGE AND SKILLS OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES OF
STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

The research on the topic "Formation of knowledge and skills of students of higher education institutions of pedagogy on multimedia technologies" analyzes the importance of using multimedia technologies in the educational process. Special attention is paid to improving the efficiency of education, using interactive textbooks and other digital resources in the educational process of students. This approach helps to improve the quality of education and organize educational activities in an innovative way.

Keywords: pedagogy, higher education, students, multimedia technologies, knowledge-skills, educational process, digital resources, interactive education, innovative pedagogy, educational effectiveness.

Kirish. *Multimedia texnologiyalari tushunchasi turli media vositalari (matn, grafika, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlar) orqali axborot va bilimlarni taqdim etish texnologiyasi hisoblanadi. Bu texnologiyalar ta'limda axborotni vizual va eshitish orqali yetkazishni birlashtirib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qiladi. Multimedia texnologiyalari orqali ma'lumotlarni tushunish va o'zlashtirish osonlashadi, chunki ular bir vaqtning o'zida bir necha sezgi organlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.*

Oliy ta'limda multimedia vositalarining qo'llanilishi zamonaviy ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu vositalar talabalarga murakkab mavzularni osonroq tushunishga, o'qituvchilarga esa darslarni innovatsion tarzda tashkil etishga yordam beradi. Quyida oliy ta'limda multimedia vositalarining qo'llanilishiga oid asosiy yo'nalishlar keltirilgan:

Ma'ruza va darslar davomida slaydlar, grafikalar, diagrammalar va videolar yordamida ma'lumotlar o'quvchilarga ko'proq tushunarli va esda qoladigan tarzda uyetkaziladi. Masalan, animatsiyalar murakkab jarayonlarni ko'rsatishda qo'llaniladi.

Audiomateriallar esa darslarni boyitishga yordam beradi, chunki ular o‘quvchilarning eshitish qobiliyatlarini orqali axborotni o‘zlashtirishiga imkon yaratadi. Masalan, tarixiy nutqlar yoki tabiiy tovushlarni eshitish orqali o‘rganiladigan mavzular yanada jonlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida onlayn kurslar, veb-seminarlar (webinars) va virtual laboratoriyalar orqali o‘quv jarayoni multimedia vositalari yordamida boyitiladi. Bunda talabalarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyati yaratiladi.

LMS (Learning Management System) kabi platformalar orqali talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot kuchayadi, o‘quv jarayoni monitoringi osonlashadi va ta’lim jarayoni ancha samarali amalga oshiriladi.

Simulyatsiya texnologiyalari talabalarga nazariy bilimlarni amalda sinab ko‘rishga imkon yaratadi. Misol uchun, tibbiyot yoki muhandislik kabi sohalarida murakkab jarayonlarni amalda xavfsiz o‘rganish uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar qo‘llaniladi.

Virtual haqiqat (VR) texnologiyalari orqali talabalar real hayotdagi muhit va vaziyatlarni amaliyotda ko‘rish va o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, arxitektura va dizayn talabalar uchun o‘lchovli (3D) modellar yordamida loyihalarini ko‘rib chiqishlari mumkin.

Animatsion videolar va infografikalar murakkab ma’lumotlarni oddiy va tushunarli shaklda tushuntirishda yordam beradi. Oliy ta’limda bu vositalar, ayniqsa, texnik fanlar yoki ilmiy izlanishlarni tushuntirishda samarali.

Animatsion filmlar orqali talabalarga nazariy tushunchalar jonli va qiziqarli tarzda yetkaziladi, bu esa ularning diqqatini ko‘proq jalb qiladi va mavzuni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi.

YouTube, Khan Academy, Coursera kabi onlayn platformalardagi ta’limiy videolar va resurslar talabalar uchun qo‘shimcha manba sifatida xizmat qiladi. Bu materiallar talabalar o‘zlarining o‘quv jarayonlarini mustaqil ravishda boshqarishlariga yordam beradi.

Onlayn testlar va mashqlar multimedia texnologiyalari orqali tashkil etilgan bo‘lib, talabalarga o‘z bilimlarini sinash va mustahkamlash imkonini beradi.

Elektron darsliklar va interaktiv o‘quv materiallari matn, audio, video va interaktiv elementlarni o‘z ichiga oladi. Talabalar bu resurslardan nafaqat matn o‘qish, balki video tomosha qilish, topshiriqlarni bajarish va o‘z bilimlarini sinash uchun ham foydalanadilar.

Raqamli jurnallar, ilmiy maqolalar va ma’lumotlar bazalari yordamida talabalarga dunyoning istalgan nuqtasidan bilim olish imkoniyati yaratiladi.

Multimedia texnologiyalari yordamida talabalar guruh bo‘lib ishlashlari, loyiha ustida hamkorlik qilishlari va ma’lumotlarni bo‘lishlari osonlashadi. Masalan, Google Docs, Trello, Slack kabi vositalar orqali talabalar birgalikda loyihalarni amalga oshiradilar va ta’lim jarayonini interaktiv holatda tashkil etadilar.

Oliy ta’limda multimedia texnologiyalari nafaqat ta’lim jarayonini boyitadi, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga va raqamli savodxonlikni oshirishga undaydi. Bu texnologiyalar ta’limda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga yordam berib, o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga moslashtiradi.

Metodika. Talabalarning multimedia texnologiyalari bo‘yicha bilim-ko‘nikmalarini aniqlash mavzusi oliy ta’lim jarayonini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Multimedia texnologiyalari zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, talabalar ularni samarali ishlatish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhimdir. Talabalar bu vositalarni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganini aniqlash esa ta’lim jarayonini moslashuvchan qilish va bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Quyida talabalar multimedia texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy usullar keltirilgan.

Testlar va so‘rovnomalar talabalarning multimedia texnologiyalari haqida nazariy bilimlarini o‘lchashda keng qo‘llaniladi. Bu orqali ularning texnologiyalarning turli komponentlari – audio, video, animatsiyalar, grafikalar va interaktiv vositalar bilan qanchalik tanish ekanligini aniqlash mumkin.

So‘rovnomalar talabalarni multimedia vositalaridan qanday foydalanishini, bu vositalar o‘quv jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini va ularning o‘quv materiallari bilan ishlashga bo‘lgan qobiliyatlarini baholashda yordam beradi.

Amaliy qism. Talabalarning multimedia texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini aniqlashning eng samarali usuli amaliy topshiriqlar orqali baholashdir. Masalan, talabalar o‘zlari multimedia vositalari yordamida taqdimot, video yoki grafikani yaratish orqali o‘z ko‘nikmalarini namoyish etishlari mumkin.

Guruh loyihalari orqali talabalar birgalikda multimedia texnologiyalaridan foydalanib, taqdimot yoki loyiha yaratadilar. Bu jarayonda ularning qobiliyatlarini va hamkorlikda ishlash qobiliyatini aniqlanadi.

Talabalarning multimedia texnologiyalari bilan ishlash tajribasini tahlil qilish ularning qaysi sohada yaxshiroq ekanini aniqlashga yordam beradi. Masalan, talabalar video montaj qilish, audio fayllarni tahrirlash, yoki interaktiv dasturlarni yaratish kabi ma'lum multimedia texnologiyalarini yaxshi bilishlari mumkin.

Ularning multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi, ya'ni qanchalik tez va sifatli foydalanishlari ham tahlil qilinadi. Bu jarayonlarda talabalarning texnik ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlari ham kuzatiladi.

Talabalar turli xil multimedia dasturlaridan (Adobe Photoshop, PowerPoint, iMovie, Final Cut Pro va boshqalar) qanchalik samarali foydalana olishlarini baholash orqali ularning multimedia texnologiyalaridagi ko'nikmalarini aniqlash mumkin. Texnik ko'nikmalar, ya'ni multimedia vositalari bilan ishlash uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar (mikrofonlar, kameralar, grafik tabletlar) bilan ishlash tajribasini ham aniqlash kerak. Bu ko'nikmalar talabaning texnologiyadan foydalanish darajasini o'lchashga yordam beradi.

Talabalar o'z ijodiy ishlari (portfolio) orqali multimedia texnologiyalarini qanchalik samarali o'zlashtirganliklarini ko'rsatishlari mumkin. Masalan, multimedia loyihalari, taqdimotlar, videoroliklar, vloglar, va grafikalar bu jarayonda muhim manba hisoblanadi. Portfolio orqali talabalar o'z ko'nikmalarini real loyihalar va ijodiy ishlarda qanday qo'llashlarini, ularning ijodkorlik darajasi va texnik bilimlarini ko'rsatishadi.

Ta'lim jarayonida talabalarni multimedia texnologiyalari bilan ishlashda kuzatish ham ularning bilim va ko'nikmalarini aniqlashning samarali usullaridan biridir. O'qituvchi talabalar qanday vositalardan qanchalik samarali foydalanyotganini, murakkab topshiriqlarni qanday bajarayotganini real vaqtda kuzatadi. Ushbu kuzatish orqali talabalarni qo'shimcha ko'makka ehtiyoji bor yoki yo'qligini aniqlash mumkin bo'ladi, bu esa ta'lim jarayonini talabaning ehtiyojlariga moslashuvchan qilishga yordam beradi.

Talabalar multimedia texnologiyalaridan qanday foydalanyotganini aniqlash uchun ularning mustaqil ishlari va masofaviy ta'limdagi faoliyatlari ham tahlil qilinadi. Masalan, onlayn platformalarda videodarslar, interaktiv materiallar va o'quv dasturlari bilan ishlash orqali talabaning multimedia texnologiyalarini qanchalik o'zlashtirganini aniqlash mumkin. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalar multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda o'qish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelganini tahlil qilish ularning texnik va nazariy bilimlarini aniqlashga yordam beradi.

Talabalardan o'z multimedia texnologiyalari bilan ishlash jarayonlarini baholash va bu jarayondagi tajribalarini yozma ravishda ifodalashlarini so'rash orqali ularning bilim va ko'nikmalari tahlil qilinadi. Bu reflektiv yozuvlar orqali talabalarning qanday texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirganini va qaysi sohalarda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlash mumkin. Talabalar multimedia texnologiyalaridagi yangiliklarni qanchalik tez o'zlashtirishlarini baholash ham ularning qobiliyatlarini aniqlashda muhimdir. Chunki multimedia texnologiyalari tez rivojlanadigan soha bo'lib, talabalar doimo yangi vositalar va dasturlarni o'zlashtirishi kerak.

Bu usullar orqali talabalarning multimedia texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqur va to'g'ri baholash mumkin. Bu esa kelgusida ularning o'quv jarayonini samarali tashkil etish va multimedia texnologiyalarini yanada chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o'quv jarayoniga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarador qiladi. Quyida multimedia texnologiyalari talabalarning o'quv jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida asosiy jihatlar keltirilgan:

Vizual va audio materiallar orqali axborotni yyetkazish talabalar uchun yanada tushunarli va esda qolarli bo'ladi. Masalan, grafikalar, diagrammalar, video va animatsiyalar murakkab mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi. Talaba ko'z bilan ko'rgan va quloq bilan eshitgan axborotni osonroq o'zlashtiradi.

Interaktiv kontent (masalan, interaktiv darsliklar yoki simulyatsiyalar) orqali talabalar axborotni faollik bilan qabul qilishadi, bu esa o'rganish jarayonini chuqurlashtiradi.

Multimedia vositalari orqali axborotni bir necha bor takrorlash va mustahkamlash imkoniyati mavjud. Masalan, talaba video yoki slaydlarni qayta ko'rish, interaktiv testlar va mashqlar orqali o'z bilimlarini sinab ko'rish mumkin. Bu usul o'qish jarayonida bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Raqamli resurslardan foydalanish talabalarni mustaqil o'qishga undaydi va bilimlarni mustahkamlagan holda mustaqil izlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Multimedia texnologiyalari talabalarga turli xil vositalardan foydalanib, ijodiy loyihalar ustida ishlash imkonini beradi. Masalan, talabalar video yaratish, animatsiya qilish yoki grafikalar ishlab chiqish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyish eta oladilar.

Vizual va audiovizual materiallar yaratish orqali talabalar mavzularni chuqurroq o'rganib, ijodiy yondashuvni rivojlantiradilar.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘qish jarayonini qiziqarliroq qiladi. Interaktiv o‘quv materiallari, multimediali testlar va onlayn o‘yinlar orqali talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishlari oshadi, bu esa ularni yanada faol ishtirok etishga undaydi.

O‘quvchilarga o‘z bilimlarini multimedia vositalari orqali sinash imkoniyati berilishi ularning o‘rganish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki ular natijalarni darhol ko‘rish va o‘zlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Masofaviy ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalari talabalarga istalgan joy va vaqtda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, onlayn kurslar, veb-seminarlar yoki video darslar orqali talabalarning ta'lim olish jarayonida o‘zlariga qulay sharoitlarda bilim olishlariga ko‘maklashadi.

Oliy ta'limda talabalar mustaqil o‘qish jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni qayta o‘qib chiqish, videolarni ko‘rish va topshiriqlarni bajarish orqali ta'lim olishni o‘zlari boshqarishlari mumkin.

Multimedia texnologiyalari yordamida talabalar o‘z ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, interaktiv darslar va mustaqil o‘qish resurslari talabalar uchun moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etadi. Har bir talaba o‘z o‘rganish sur‘ati va usuliga qarab o‘zlashtirish jarayonini tashkil eta oladi.

Adaptiv ta'lim tizimlari orqali multimedia texnologiyalari talabaning individual o‘zlashtirish darajasiga qarab ma'lumotlarni taqdim etib, har bir talaba uchun mos ta'lim dasturini taklif qiladi.

Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar amaliy ko‘nikmalarini real sharoitlarsiz rivojlantirishlari mumkin. Masalan, tibbiyot yoki muhandislik sohalarida talabalar murakkab jarayonlarni amaliyotda sinab ko‘rish uchun simulyatsiyalardan foydalanadilar.

VR va AR texnologiyalari orqali talabalar real muhitni tajribadan o‘tkazishlari mumkin, bu esa nazariy bilimlarni real hayotiy misollar bilan bog‘lashga yordam beradi.

Multimedia texnologiyalari yordamida talabalar guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, turli onlayn platformalar (Google Docs, Trello, Slack) orqali talabalar birgalikda loyihalar yaratish, taqdimotlar tayyorlash va ularni taqdim etishda hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Veb-konferensiyalar va onlayn platformalar orqali talabalar o‘zaro muloqot qilib, ta'lim jarayonida yanada faol ishtirok etadilar. Bu jarayonda talabalar muloqot qilish, muammoni hal qilish va birgalikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Multimedia texnologiyalari bilan ishlash talabalarni texnik ko‘nikmalar va raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. Talabalar turli xil dasturlarda ishlash, raqamli resurslardan foydalanish, video montaj qilish, grafikalar yaratish va boshqa texnik vazifalarni bajarishda ko‘nikma hosil qiladilar.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kelajakda talabalarni kasbiy faoliyatlarida ham muhim bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta'minlaydi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o‘quv jarayonini interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarador qiladi. Bu texnologiyalar nafaqat bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi, balki ijodiy fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi. Shu sababli, multimedia texnologiyalaridan ta'lim jarayonida keng foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Xulosa. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning multimedia texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini interaktiv, ijodiy va samarali qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Talabalarning multimedia texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, axborotni qabul qilish, mustahkamlash, ijodiy fikrlash va texnik ko‘nikmalarni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, pedagogik jarayonda multimedia texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga ko‘maklashadi. Talabalar multimedia texnologiyalarini o‘zlashtirish orqali mustaqil o‘qish qobiliyatini oshiradi, guruhda ishlash va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh va malakali mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali talabalar nafaqat o‘quv jarayonini chuqurroq o‘zlashtiradi, balki zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Shuning uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun multimedia texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish, talabalar uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Ўктамов Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.
2. Abdirazzoqov Fayzulla, and Jasmina Tashpo'lotova. "Methods of using the mytest program in the organization of final control processes for students of higher education institutions." // Молодые ученые 2.8 (2024): 88-90.
3. O'ktamov Madadjon,. "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining informatikadan axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi." // Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
4. Toshpo'lotova Jasmina, and O'ktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo'nalishi talabalarini informatika fanini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish." // Pedagog 51.1 (2024): 115-119.
5. O'ktamov Madadjon. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." // Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
6. Uktamov M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
7. Aliqulov Sh., Yaxiyaxonova M. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro Tajribalar va rivojlanish istiqbollari." (2024).

PERFEKSIONIZM VA STRESS O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: MUAMMO VA NATIJALAR

*Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna,
Ma‘mun universiteti dotsenti, p.f.f.d
temperament88@mail.ru*

Ushbu maqolada perfekzionizm va stress o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik, perfekzionistik shaxslar o‘zlariga yuqori talablar qo‘yishlari, o‘zlarini doimiy tanqid qilishlari va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishlari natijasida kuchli stressni boshdan kechirishlari to‘g‘risida nazariy ma‘lumotlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** perfekzionizm, stress, o‘zini tanqid qilish, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, xavotir, ruhiy zo‘riqish, so‘nish sindromi, salomatlik.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ПЕРФЕКЦИОНИЗМОМ И СТРЕССОМ: ПРОБЛЕМЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

В данной статье представлены теоретические сведения о сложной взаимосвязи между перфекционизмом и стрессом. Перфекционисты часто сталкиваются с сильным стрессом из-за того, что предъявляют к себе высокие требования, постоянно критикуют себя и боятся неудач.

***Ключевые слова:** перфекционизм, стресс, самокритика, страх неудачи, тревога, психологическое напряжение, синдром выгорания, здоровье.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN PERFECTIONISM AND STRESS: ISSUES AND CONSEQUENCES

This article presents theoretical information about the complex relationship between perfectionism and stress. Perfectionists often experience high levels of stress due to setting high demands on themselves, constantly criticizing themselves, and fearing failure.

***Keywords:** perfectionism, stress, self-criticism, fear of failure, anxiety, psychological tension, burnout syndrome, health.*

Kirish. Perfeksionizm va stress o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish hozirgi kunda psixologiya sohasida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Perfeksionizm insonda yuqori talablar qo‘yish, o‘zini tanqid qilish va ideal natijalarga erishishga bo‘lgan doimiy intilish sifatida ko‘riladi. Ushbu yuqori talablar ko‘pincha stress darajasining ortishiga olib keladi. Tadqiqotchilar perfekzionizm va stress o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradigan bir qator nazariyalar va empirik tadqiqotlar o‘tkazishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Stress va uni yuzaga keltiruvchi fiziologik javoblar uzoq vaqtdan beri psixologiya va unga bog‘liq sohalar, masalan, neyrobiologiyada qiziqarli mavzular bo‘lib kelmoqda. Aslida, stressning ko‘p qirrali tushunchasini tushuntirishga urinuvchi bir qancha nazariyalar taklif qilingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi muqobil gipotezalar nuqtayi nazaridan katta farqlarga ega [7,10]. Ahamiyatlisi shundaki, bu holatlarning nomuvofiqligi hali- hanuzgacha davom etmoqda, garchi stress kundalik hayotning nihoyatda muhim xususiyati bo‘lsa-da, u motivatsiya maqsadida bo‘ladimi yoki salbiy natija sifatida bo‘ladimi, muhim ahamiyatga ega. Stress ko‘pincha shaxsning mazmunli hayotni saqlab qolishi uchun muhim tajribalardan biri bo‘lib, turli vaziyatlar uchun tegishli javoblarni shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi [12]. Bir nechta psixologik holatlar ko‘pchilik insonlarda kuzatiladigan standart stress holatida kuzatiladi. Masalan, stressga olib keluvchi omilga “perfeksionizm” ham sababchi bo‘lishi mumkin. Aksariyat adabiyotlar perfekzionistik xususiyatlari stress javoblariga qandaydir ta‘sir ko‘rsatishini tan oladi, bu ta‘sir salbiy yoki ijobiy bo‘lishidan qat‘i nazar, bu jarayon qanday amalga oshishi ilmiy hamjamiyat uchun hali to‘liq aniq emas. Adabiyotlarni o‘rganish natijasida perfekzionistlarning stress ta‘sirida bo‘lishlari haqida bir nechta yo‘nalishlar aniqlangan. Shu sababli, quyidagi mavjud adabiyotlar tahlili perfekzionistik hayot tarzini yashaydigan shaxslarda stress qanday namoyon bo‘ladi va bu qanday sog‘liq muammolariga olib kelishi mumkinligi haqida ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Stressni tavsiflash uchun asos yaratish bilan bir qatorda, perfekzionizm ham nazariy tahlili ahamiyatlidir. So‘nggi o‘ttiz yil ichida perfekzionizm bo‘yicha adabiyotlar sezilarli darajada rivojlandi, ammo bu hali ham dinamik soha bo‘lib qolmoqda. Perfeksionizm ko‘pincha oddiy sifat sifatida ishlatiladi, ammo ko‘pgina tadqiqotlarda ilmiy-amaliy talqin qilingan. Umuman olganda,

perfeksionizm “mumkin bo‘lgan maqsadlarga majburiy va to‘xtovsiz intilish” deb umumlashtirilishi mumkin [1].

Perfeksionizm bo‘yicha tadqiqotchilar uni turli shaxsiy xususiyatlar bilan kuchli bog‘liqligini aniqladilar — bu xususiyatlarning asosiy beshtasi nevrotizm, mas’uliyatlilik, yangiliklarni qabul qilish, ekstraversiya va kelishuvchanlikdir. Dunkley va Blankstein, shuningdek, boshqalar o‘ziga qaratilgan perfeksionizm bilan ma’uliyatlilik, ijtimoiy jihatdan belgilangan komponentlar va o‘zini tanqid qilish omillari bilan nevrotiklik o‘rtasidagi korrelyatsiyani tasvirlab bergan [4]. Shuningdek, majburiy-kompulsivlik perfeksionistik xususiyatlar bilan bog‘liqligi aniqlangan va bu ikkala holat ko‘pincha bir-biriga o‘xshashlikni ifodalaydi [9], shuning uchun ushbu atamalar o‘xshash turmush tarzlarini tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin. Odatda salbiy natijalar bilan bog‘liq holatni tavsiflash uchun ishlatilsa-da, ba’zi tadqiqotchilar subkategoriyalarni muvozanatlashtirishga qarab, perfeksionizmning ham ijobiy, ham salbiy shakllari mavjud bo‘lishi mumkinligini aniqlashgan [11]. Shuningdek, Ashby va Kottman (1996) salbiy yoki nevrotik perfeksionizmni xavotir bilan tavsiflasalar, ijobiy yoki normal perfeksionizm intilishlarni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, nevrotik perfeksionizm nosog‘lom turmush tarziga olib keladi, normal perfeksionizm esa o‘zini tashkil etish va boshqa jihatlar bo‘yicha foydali natijalarni beradi.

Perfeksionizm va stress o‘rtasidagi muammolar:

O‘zini tanqid qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish: Perfeksionistik shaxslar o‘z harakatlariga nisbatan juda talabchan bo‘lib, kamchilik yoki xatolarni qabul qila olmaydilar. Bu esa ularda doimiy ravishda o‘zini tanqid qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish hissini kuchaytiradi, natijada stress darajasining oshishiga olib keladi [5].

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy jihatdan taqdim etilgan perfeksionizm: Perfeksionizmning ijtimoiy jihatdan belgilangan turi, ya’ni boshqalarning talablariga javob berish kerakligi hissi, shaxsda ruhiy zo‘riqish va bosimning kuchayishiga olib keladi. Bu holatda inson o‘zini jamiyat yoki oila oldidagi muvaffaqiyatsizliklardan himoyalashga harakat qiladi, bu esa stressni yanada kuchaytiradi [6].

Stressga mos ravishda javob bera olmaslik: Perfeksionistik shaxslar muvaffaqiyatsizlikni juda og‘ir qabul qiladilar va stressli vaziyatlarga moslashish qobiliyati past bo‘ladi. Muvaffaqiyatsizlik ularning umumiy ruhiy holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi va depressiya, xavotir, hatto, o‘z joniga qasd qilish fikrlari kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [3].

Fiziologik ko‘rsatkichlar: Perfeksionistik shaxslar muvaffaqiyatsizlikka uchraganlarida stress gormonlari darajasi oshadi. Bu perfeksionizmning fiziologik darajada ham stress bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu gormonlar yuqori darajada saqlanib qolsa, stressga nisbatan javob qobiliyati yomonlashadi [3].

Perfeksionizm va stressning oqibatlarini quyidagilar tashkil qiladi:

Depressiya va xavotirlik: Perfeksionistik shaxslar o‘zlariga nisbatan yuqori talablar qo‘yishi natijasida stress darajasi oshadi, bu esa depressiya va xavotirlikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin [8].

Jismoniy sog‘liqning yomonlashuvi: Doimiy ravishda stress ostida yashash perfeksionistlarda yurak-qon tomir kasalliklari, bosh og‘rig‘i, uyqusizlik kabi salbiy jismoniy oqibatlariga olib keladi. Stress gormonlarining yuqori darajada saqlanishi organizmning umumiy salomatligini yomonlashtiradi [2].

Munosabatlarning yomonlashuvi: Perfeksionistik shaxslar nafaqat o‘zlariga, balki atrofdagilarga ham yuqori talablar qo‘yishadi, bu esa ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Stressli vaziyatlar munosabatlarda ziddiyatlarni kuchaytirishi va izolyatsiyaga olib kelishi mumkin [5].


Perfeksionizm insonning o‘ziga va atrof-muhitga yuqori talablar qo‘yishiga olib keladi. Ushbu sifat ko‘pincha insonlarni doimiy stress holatiga olib keladi, chunki ular mukammallikka erishish uchun o‘zlarini doimo tanqid qiladilar va muvaffaqiyatsizliklardan qochishga harakat qilishadi, quyidagi diagramma perfeksionizm va stress o‘rtasidagi sabablar va oqibatlarni turli foizlarda tasvirlaydi. Ushbu tahlil perfeksionistik shaxslarning yuqori talablar, o‘zini tanqid qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish kabi xatti-harakatlarining stress darajasiga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. Perfeksionizm va stress o‘rtasidagi bog‘liqlikning asosiy sabablari va ularning oqibatlari quyida batafsil tahlil qilinadi (1-rasm).

Diagrammada ko‘rsatilganidek, perfeksionizm stressning kuchayishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillarni va ularning oqibatlarini tasvirlaydi.

Yuqori talablar – kuchli stress (20%): Yuqori talablar insonlarda o‘zlarini doimo muvaffaqiyatga erishish kerakligiga majbur qiladi. Ushbu holat, ularning turli hayotiy vaziyatlarda yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishiga olib keladi. Natijada, odamlar kuchli stress bilan kurashishga majbur bo‘ladilar, bu esa ularning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi.

Perfeksionizm va stress: sabablar, oqibatlar

- Yuqori talablar - Kuchli stress
- O'zini tanqid qilish - Kuyish sindromi
- Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish- Xavotir
- Ortib borayotgan stress - Ruhii zo'riqish
- Katta maqsadlar - Jismoniy charchash
- Idealizmga intilish - Salomatlikka zarar



O'zini tanqid qilish – kuyish sindromi (15%): Perfeksionistik shaxslar odatda o'zlarini tanqid qilishga moyil bo'lishadi va hech qachon o'zlarining yutuqlaridan mamnun bo'lmaydilar. Bu esa vaqt o'tishi bilan charchashga va motivatsiya yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bunday holat «kuyish sindromi» deb atalib, odatda ortiqcha mehnat qilish va haddan tashqari ruhiy zo'riqish natijasida yuzaga keladi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish – xavotir (25%): Perfeksionistlar muvaffaqiyatsizlikdan qattiq qo'rqishadi. Ular xato qilishdan doimo xavotirlanadilar va o'zlarining har bir harakati ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilishadi. Bu esa ular o'rtasida xavotirning oshishiga olib keladi va doimiy ruhiy siqilish holatini keltirib chiqaradi. Ushbu omil diagrammada eng katta foiz (25%) bilan ifodalangan, bu uning insonning ruhiy salomatligiga qanday katta ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ortib borayotgan stress – ruhiy zo'riqish (20%): Perfeksionistlarda stressning davomli oshib borishi natijasida ruhiy zo'riqish kuchayadi. Doimiy stress holatida bo'lish, insonning ruhiy va hissiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va depressiya, xavotir kabi kasalliklarni rivojlantirishi mumkin.

Katta maqsadlar – jismoniy charchash (10%): Perfeksionistlar o'z oldilariga katta va murakkab maqsadlar qo'yadilar. Bu ulardan ko'p vaqt va kuch talab qiladi, bu esa oxir-oqibat jismoniy charchashga olib keladi. Ushbu omil 10% ni tashkil etadi, ammo uning uzoq muddatli ta'siri jiddiy bo'lishi mumkin.

Idealizmga intilish – salomatlikka zarar (10%): Perfeksionistik shaxslar mukammallikka erishishga intilishadi va bu holat ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin. Idealizmga haddan tashqari e'tibor qaratish, odamlarni o'z tanasi va ruhiy holatiga e'tibor bermaslikka olib keladi, natijada bu holat sog'liq muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi natijalarga ko'ra perfeksionizm va stress o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ko'rsatadi. Perfeksionizmning asosiy omillari, masalan, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va ortib borayotgan stress insonning salomatligiga katta zarar keltiradi. Xavotir, ruhiy zo'riqish, kuyish sindromi kabi oqibatlar uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatib, odamlarning hayot sifati va ruhiy farovonligini pasaytiradi. Perfeksionistik xatti-harakatlarning oldini olish va stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish sog'liqni saqlash va psixologik farovonlikni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Ashby, J. S., & Bruner, L. P. (2005). Multidimensional Perfectionism and Obsessive-Compulsive Behaviors. *Journal of College Counseling*, 8(1), 31-40.
2. Bieling, P. J., Israeli, A. L., & Antony, M. M. (2004). Is perfectionism good, bad, or both? Examining models of the perfectionism construct. *Personality and Individual Differences*, 36(6), 1373-1385.

3. Blatt, S. J. (1995). The destructiveness of perfectionism: Implications for the treatment of depression. *American Psychologist*, 50(12), 1003-1020.
4. Dunkley, D. M., & Blankstein, K. R. (2000). Self-Critical Perfectionism, Coping, Hassles, and Current Distress: A Structural Equation Modeling Approach. *Cognitive Therapy and Research*, 24(6), 713-730. <https://doi.org/10.1023/A:1005543529245>.
5. Flett, G. L., & Hewitt, P. L. (2002). *Perfectionism: Theory, Research, and Treatment*. American Psychological Association.
6. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. // *Journal of Personality and Social Psychology*, 60(3), 456-470.
7. McEwen, B. (1998). Stress, Adaptation, and Disease: Allostasis and Allostatic Load. // *Annals of the New York Academy of Science*, 840(1), 33-44.
8. Rice, K. G., Ashby, J. S., & Slaney, R. B. (2007). Perfectionism and the five-factor model of personality: A facet level analysis. // *Journal of Counseling Psychology*, 54(1), 72-85.
9. Schrijvers, D. L., De Bruijn, E. R. A., Destoop, M., Hulstijn, W., & Sabbe, B. G. C. (2010). The Impact of Perfectionism and Anxiety Traits on Action Monitoring in Major Depressive Disorder. // *Journal of Neural Transmission*, 117(7), 869–880. <https://doi.org/10.1007/s00702-010-0419-2>.
10. Staal, M. A. (2004). *Stress, Cognition, and Human Performance: A Literature Review and Conceptual Framework*. NASA Ames Research Center.
11. Stoeber, J., & Otto, K. (2006). Positive Conceptions of Perfectionism: Approaches, Evidence, Challenges. // *Personality and Social Psychology Review*, 10(4), 295-319. https://doi.org/10.1207/s15327957pspr1004_2.
12. Ursin, H., & Eriksen, H. R. (2004). The Cognitive Activation Theory of Stress. // *Psychoneuroendocrinology*, 29(5), 567-592. [https://doi.org/10.1016/S0306-4530\(03\)00091-X](https://doi.org/10.1016/S0306-4530(03)00091-X)

AMALIY MASHG‘ULOTLARDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARINI XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Kutlimuradov Karamaddin Allabayevich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
“Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o‘qitish” kafedrası
katta o‘qituvchisi, (PhD) Nukus, Karakalpakstan
karamaddin_kutlimuradov@mail.ru*

Maqolada tizim va muhit o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ta‘lim-tarbiya berish jarayonining an‘anaviy yondashuv asosida shakllantirish, bu borada ta‘lim oluvchilarning kompetensiyalari, ta‘limda, jumladan, bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarida kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv, texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashuvi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ ПО НАРОДНЫМ РЕМЁСЛАМ

Исследование взаимосвязи системы и среды в статье показало, что формирование профессиональных качеств будущих учителей технологического образования на основе национальных ценностей основано на традиционном подходе к образовательному процессу, в связи с этим освещены вопросы компетенций обучающихся, развития профессиональных качеств в образовании, в том числе будущих учителей технологического образования.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, компетентный подход, модернизация техники и технологий, стремительное развитие науки и техники.

TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE TEACHERS IN PRACTICAL TRAINING REGARDING FOLK CRAFTS

The study of the relationship between the system and the environment in the article showed that the formation of the professional qualities of future teachers of technological education on the basis of national values is based on the traditional approach of the educational process, in this regard, education. The issues of the competences of learners, the development of professional qualities in education, including future teachers of technological education, are covered.

Keywords: competence, competence approach, modernization of equipment and technologies, rapid development of science and technology.

Kirish. Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan va metodik ko‘rsatmalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Yuqorida bayon qilingan masala, reja va usullarini talabalarning o‘ziga xosliklariga, ulardagi fikriy-tafakkur doirasi rivojlanganligi darajasiga muvofiq keladiganini tanlash, talabalar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishni yanada yuqoriroq bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Keltirilgan fikr mulahazalarni hisobga olib qoraqalpoq xalq naqsh elementlarini ishlash mavzusida dars ishlanma ishlab chiqdik va tanishib chiqamiz.

Mavzu . Qoraqalpoq xalq naqsh elementlarini ishlash

Dars maqsadi:

Ta‘limiy: Qoraqalpoq naqsh turlari va naqsh elementlari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Xalq amaliy san‘atiga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

Rivojlantiruvchi: Naqsh elementlarini turlarga bo‘lishni o‘rgatish.

Dars tipi: ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: amaliy

Dars metodi: Amaliy, ko‘rgazmali, aqliy hujum.

Fanlararo bogʻliqlik: Mavzuga doir fanlar bilan bogʻlash zarur.

Moddiy-texnik va koʻrgazmali qurollar: koʻrgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, 5 dona vatman qogʻoz, 6 dona konvert (ichiga har turdagi naqsh elementlari solinadi).

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga oʻqituvchi kirib keladi va talabalar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib boʻlgach, davomatni aniqlaydi.

2. Oʻtgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

Talabalar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yoʻl-yoʻriqlar beriladi.

Nazariy bilim va aqliy hujumi.

Savol. Qoraqalpoq naqshlarini amaliy sanʼatning qaysi turlarida koʻrishimiz mumkin?

* Kashtachilik * Yogʻoch oʻymakorligi * Toʻqimachilik * Zargarlik

* Quraq qurash * Kiyiz bosish va h.k.

* Kashtachilik sanʼatiga nimalar kiradi? Qizil kiymeshek, jenʼse, jenʼush, unʼirshe, saoʻkele kesteli halaqasi, jipek jegde jagʻasi, aq kiymeshek, aq jegde, atkuzlik, taqiya, kuk kuylek, shapan h.t.b.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yogʻoch oʻymakorligi sanʼatiga nimalar kiradi? Ergenek, sandiq, sabayaq, at erleri, arbalar

Toʻqimachilik sanʼatiga nimalar kiradi? Qur toqiy bulargʻa aq basqur, beldey, beljip, janbay, iyinbay, suyagʻar. qizil basqur, qizil qur bogʻjama, dasturxon, alashalar, gilemler kiradi.

Zargarlik sanʼatiga nimalar kiradi? Saykelle, gumis taqiya, sirgʻa, juzik, bilezik, monshaqlar, haykel, ala qayis juoʻen

Quraq qurash sanʼatiga nimalar kiradi? Kurpeshe, jastiq tis, shimildiq qas, dasturxon, kitap uchun papka, bala kurteshesi, kergi.

Bu amaliy sanʼat turlarida naqsh elementlerini naqsh kompozitsiyasini koʻrishimiz mumkin.

Savol. Qoraqalpoq milliy naqshlarining qanday nomlarini bilasiz?

Ular qanday ataladi?

Naqsh nomlari. Oʻsimlik naqshlar: Gunsha gul, erik gul, gul, qaʼreli gul, qorali gul, aygʻa bagʻar

Zoomorf naqshlar: Kumirsqa bel, omirtqa qoy tisi, tishqan iz, qus tili buri kuz, jilan bayir, gʻargʻa tirnaq qos muyiz, qarsi muyiz, xorasani muyiz, segiz muyiz, on eki muyiz, qoltiqsha muyiz, shayan quyriq, iyt taban, qurbaqa naqsh gʻaz moyin haʼm t.b.

Geometrik naqshlar: shubal naqsh, gul, irgʻaq, ayil naqsh, Shtak blyaxa,

qalta gul, shaxmaq, espe, suoʻ naqsh, hardem qiyal, xanim tukirik,

Yangi mavzu yuzasidan yoʻl-yoʻriqlar (45 daqiqa).

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Oʻyin borishi

Talabalarni 6 guruhga boʻlib olamiz (buning uchun hunarmandchilikning nomlarining har birini aytish kerak boʻladi. Bular: Kashtachi, toʻqimachi, yogʻoch oʻymachi, misker, zeger, temirchi. Har birlari bir guruh boʻlib topshiriqni kutadi. (2 minut) Har bir guruhga konvert beriladi unda geometrik, oʻsimlik, zoomorf naqsh elementlari rasmi boʻladi. Shuningdek qogʻoz beriladi unda toʻgʻri toʻrtburchakka boʻlingan maydoncha bor. Har bir maydonda qanday naqsh turi yozilgan. Konvert ichidagi naqsh elementlarini guruh aʼzolari kelishgan holda maydonchada yozilgan naqsh turlariga qarab joylashtirish kerak boʻladi.

(Bunga 7 minut vaqt beriladi.) Vaqt tamom boʻlgandan soʻng talabalarga topshiriqning toʻgʻri javobi koʻrsatiladi va ular oʻz xatolarini tuzatadi.

Mavzuni mustahkamlash (15 minut)

2. Sezim tuygʻularini aniqlash va ular bilan ishlashish.

Savol. Mashgʻulot sizga yoqdimi? Nima uchun?

- Mashgʻulot vaqtida nimani sezdingiz?

- Natijasidan qanoatlandingizmi?

- Guruhda oʻzingizni qanday sezdingiz?

- Qiyinchiliklar boʻldimi? Qanday qiyinchiliklar?

3. Koʻrgan narsalaringizni bayon qiling

- Nima boʻlib oʻtti? (faktlarni aytib bering)


- Nimalarni koʻrdingiz va sezdingiz (eʼtibar bering faqat faktlar sanab oʻtilsin)

4. Muhokama

- Guruhda barcha aʼzolar orasida maslahatlashgan holda ish olib borildimi?

- Ishni tashkillashtirish qanday darajada amalga oshirildi?

- Yutuqqa erishish yoki erisha olmaganingizga nima sabab bo‘ldi?



5. Xulosa.

- Mashg‘ulot mohiyatini qanday tushindingiz?
- Mashg‘ulot vazifasini qanday angladingiz?
- Sizning guruhda kimning tutgan yo‘li o‘zini oqladi?

6. Qo‘llash va taklif qilish.

Mashg‘ulot natijasi asosida qanday yechimga keldingiz?

Darsni yakunlash (5 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O‘tilgan mavzu yuzasidan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo‘yicha 10 ta test tuzib kelish.

b) Darsni tugatish.

« Qoraqalpoq xalq naqsh elementlarini ishlash» dars ishlanmasi bo‘yicha keyslar va darajali testlar to‘plami, mustaqil ta‘lim topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar

Muhokama va natija.

I. Savolli keyslar

1-keys bayoni

Kirish. Amaliy-badiiy bezak san‘atning teatr, kino, musiqa, tasviriy san‘at turlari qatori mustaqil kasb etadi. U o‘z nomiga ko‘ra amaliyotda, ya‘ni turmushda qo‘llanadigan bezak san‘ati manosi anglatadi. Amaliy badiiy bezak turli xil buyumlar, ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, ishlab chiqarish korxonalar, o‘quv tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog‘liqdir.

Quyidagi keys - ma‘naviy kamol topgan insonning tarbiyaviy fazilatlarini yuksak bo‘lishi, zamonaviy bilim va dunyoqarashi, fikrlash salohiyati yuqori bo‘lishiga imkon yaratadi.

Mazkur keysni samaradorli yuzaga oshirish uchun texnologik ta‘lim fani mavzusiga bog‘liq ta‘lim mezonlari haqida tushunchalarga ega bo‘lishi zarur.

Taqdim qilingan keysni yechish quyidagicha natijalarga erishishga imkoniyat yaratadi:

- o‘tilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni mustahkamlash;
- bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;
- ijodiy fikrlarini rivojlantirish;
- erkin qaror qabul qilishga o‘rgatish;
- ma‘lumotlarni o‘zlashtirish darajasini takomillashtirish.

(Muammoli vaziyat)

Maktab direktori tasviriy san‘at va muxandislik grafikasi ta‘lim yo‘nalishini bitirgan yosh mutaxassisni ishga oldi. Ishning dastlabki kunidan unga “Xalq amaliy san‘atidagi naqshlarning tutgan o‘rni mavzusida avgust oyida bo‘ladigan seminarga qatnashib ma‘ruza o‘qishni topshirdi.

Endi bakalavr yoʻnalishini tugatgan yigit uchun bu ancha qiyinchilik tugʻdirdi. Chunki u talabalik davridayoq bu fanni yaxshi oʻzlashtirmagan bunga uncha qiziqmagan edi. Keysni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish boʻyicha talabalarga uslubiy koʻrsatmalar (Talabalarga yoʻriqnoma)

Ish bosqichlari	Maslahatnomalar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishish	Avvalo, keys bilan tanishing. “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash va uning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati” haqidagi axborotni diqqat bilan oʻqib chiqish lozim. Oʻqish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Maʼlumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan oʻqib chiqing. Siz uchun muhim boʻlgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga oʻtishdan oldin, uni ikki uch marotaba oʻqib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qoʻying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. Ushbu vaziyat “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash va uning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati” toʻgʻrisida berilgan dalillarni sanab oʻting va qaysisi aniqlashtirilishi lozimligini aniqlang
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash va uning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati” tugʻrisida maruza oʻqish buning uchun kerakli maʼlumotlarni topish. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga eʼtibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish yoʻllarini izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini toʻldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni koʻrib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling va yechimini toping. Jadvalni toʻldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova qiling.

“Muammoli vaziyat” jadvalini toʻldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish haraknomlari

Keys – stadi uchun yozma ish talablari

1. Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (3-varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.

2. Yozma ishni jihozlash tartibi:

- birinchi betda, oʻng tomonda talaba ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak;
- varaqning markazida keysning mavzusi yoziladi;

Keysda vaziyat tavsifi va axborot taʼminoti turli hajmda boʻlishi (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha boʻlishi, axborot koʻpligi darajasi ham oʻzgarishi mumkin boʻlgan – tahlilga aloqasi boʻlmagan maʼlumotlar ham boʻlishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida taklif etilayotgan axborotlarni koʻrib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang; vaziyatni tor istiqbolda koʻrib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman gʻoyib boʻlishi mumkin; harakatlar rejasini vaziyat tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan soʻng shakllantiring.

Qoraqalpoq xalq naqsh elementlarini ishlash dars ishlanmasida darajali test topshiriqlari natijasida boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarini dars ishlanmasidagi test topshiriqlar, amaliy ishlanmada foydalaniladigan naqsh turlari, kompozitsiyalari, rasmlar, innovatsion texnologiyalar, keyslardan foydalanish turlari, har xil oʻyinli metodlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi.

Yosh o‘qituvchi maktab direktoriga bu vazifani bajara olmasligini ayta olmadi.

Tahlil uchun savollar:

1. Maktab direktorining harakatini qanday baholash mumkin?
Konfliktlar hodisasini fan sifatida o'rganish XX asrning 50-yillaridan boshlangan bo'lib ushbu fan Konfliktologiya deb ataladi. Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz.[5]

Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida

konfliktlar bilan to‘qnash keladi. Konflikt tushunchasi lotincha conflictus so‘zidan olingan bo‘lib “to‘qnashuv”, “ziddiyat” va “nizo” ma’nolarini anglatadi.[6]

Konflikt – bu manfaatlar, maqsadlar, pozitsiyalar va qarashlarning o‘zaro ziddiyatga kelishi bo‘lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- konfliktli vaziyat;
- konfliktli harakat;
- konfliktga sabab.

Konfliktlar tabiiy hodisa bo‘lib, konflikt bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. Zamonaviy jamiyatda insonga bo‘lgan turli ilmiy-texnik, ma’naviy, iqtisodiy ta’sirlarning ortib borishi odamlar to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan konflikt vaziyatlarni ham oshiradi.[1]

Konflikt vaziyatga tushib qolgan vaqtimizdagina mana shu konflikt vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizning bilim va ko‘nikmalarimiz konflikt vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo‘lmaydi. Chunki bizning hayotiy tajribamiz kam va konfliktlar yechimi bo‘yicha maxsus bilimlarni egallamaganmiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli-tahlil, tizimli–tarkibiy, funksional, tarixiylik, mantiqiylik, kompleks yondashuv, institutsional yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etishda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Chunki konfliktlar muassasaning har bir bosqichida kelib chiqishi mumkin bo‘lib, ulardan himoyaga doim tayyor turish kerak. Konfliktlar qo‘qqisidan, ularni umuman kutmagan vaqtda, konflikt kelib chiqishining umuman iloji bo‘lmagan hollarda vujudga kelishi va ta’lim muassasasidagi tinchlikni buzishi mumkin.

Shuning uchun konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlari qanday va vujudga kelgan konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish yo‘llari nimalardan iborat degan masalalar dolzarblik kasb etadi. Konflikt vaziyatda har bir tomonning o‘z qarashlari, o‘ylari, fikrlari tizimi majmuasi mavjud bo‘lib. Mana shu o‘y fikrlar tizimi xuddi mana shu tomonning o‘z shaxsiy manfaatlarini anglatadi. Inson o‘z shaxsiy manfaatlarisiz yashay olmadi. Har bir odamning hatto eng kichkina bolakaylarning ham o‘z shaxsiy manfaatlar mavjud. Shaxsiy manfaatlar inson hayotining tabiiy ehtiyoji ekanligi aniq. Shunday ekan, konfliktlarida xuddi mana shu shaxsiy manfaatlar ziddiyatga kirishadi. Shunday ekan, konflikt mazmuni-inson manfaatlarining holati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan voqelikka aylanadi. Ya’ni konflikt-bu ikki yoki undan ortiq tomonlarning o‘z maqsadlariga yetish yo‘lidagi turli manfaatli to‘qnashuvidir.

Demak, konfliktni insonlar emas, balki vaziyatlar va manfaatlar vujudga keltiradi. Konfliktlarning kelib chiqishida “Konfliktogen”lar juda muhim rol o‘ynaydi. Konfliktogen - konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi.

«Konfliktogen» so‘zining so‘zma-so‘z tarjimasi — «konfliktlarni to‘g‘diruvchi» degan ma’noni anglatadi.[8]

Konfliktga olib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlar, amallar yoki harakatlar konfliktogen deb ataladi.

Konfliktogenlarning ko‘pchiligini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- o‘zini ustun qo‘yish;
- agressiyaga moyillik;
- egoizm kabilar.

O‘zini ustun qo‘yish quyidagi amallarda namoyon bo‘ladi:

O‘zini ustun qo‘yishning ochiq ko‘rinishlari: buyruq berib gapirish, tahdid qilish, bironi niqtab turish, salbiy munosabatlar, tanqid, ayblash, biron ustidan kulish, istehzo, sarkazm, piching, kesatiq kabilar.

Yashiringan ustun qo‘yish hollari: “Tinchlaning”, “Shuni ham bilmaysizmi...”, “Tushunmaysizmi?...”, “Fahmlay olasizmi?” kabi, bu vaziyatlarda tashqi ko‘rinishdan mayin ohang tanlansa ham, bu holat konfliktogen holat sifatida baholanadi.

Maqtonchoqlik: o‘z marralari va yutuqlari haqida ko‘pirib gapirish, shu bilan birga o‘z galar marralarini pastga urish, ularni “o‘z o‘rniga qo‘yib qo‘yish” istagi.

Qat’iylik, fikr va qarashlar keskinligi: o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga haddan ziyod ishonish, qarashlarni bildirishdagi keskinlik, faqat o‘zi to‘g‘ri so‘z aytga olishi mumkinligiga ishonch, bironlar fikrini o‘ylab ko‘rmaslik. Masalan, “Sen nimani ham bilarding?...”, “Bo‘ldi gapingni to‘xtat...”, “Hamma-yolg‘onchi...”, “Yo bugungi yoshlar buzilgan...” kabi so‘zlar bilan anglashiladi.

Shuningdek, yoshlarni qiziqtirgan musiqa, o‘zini tutish, kiyinishi kabilar kattalarning jig‘iga tegishi mumkin. Bunday fikrlar ochiqchasiga bildirilganda, yoki ba’zi ma’lumotlarni bolani tafakkuriga majburiy kiritishgan urinish bolgan hollarda, bolalar o‘z ota onasidan ma’lum axborotlarni yashirishga tushadi, o‘z odatlarini himoya qilish yo‘lini tutadi.

O‘z maqsadlari va fikrlarini majburiy singdirish va qabul qilinishiga harakat qilish. Odatda, maslahat faqat maslahat so‘ralgan taqdirdagina berilishi lozim. Ammo ko‘pchilik hollarda biror muammo muhokama qilinayotgan bo‘lsa, o‘zini katta tutgan odam, yoki yoshi kattaroq odam, albatta, maslahat qila boshlaydi. Maslahatni esa yo qabul qilish, yoki uni inkor qilish mumkin. Maslahat qabul qilinsa, uni bergan odam xursand bo‘ladi, maslahat ochiqchasiga inkor etilsa, uni bergan odam, eng ijobiy munosabatda, “Meni mensimadi, gapimga kirmadi” deyishi mumkin.

Informatsiyani yashirish: Odamlar hayotida axborot muhim rol o‘ynaydi. Axborotni yashirish kishilarda shubha uyg‘otadi. Shu bilan birga, axborotni yashirgan kishiga nisbatan ishonchsizlik vujudga keladi. Oqibatda odamlar orasi va munosabatlari buzilishi uchun asos tug‘iladi.

Erkaklar ko‘proq, o‘z shaxsiy vaqtining qanday va nimalarga sarflanayotganligini, yoki umumiy mablag‘larining miqdorini, ularning nimalarga ishlatilayotganligini, o‘z xato va kamchiliklarini yashirishga harakat qilishadi.

Ayollar esa erkaklar borasidagi o‘z ichki hissiyotlarini, yashirin iqtisod qilingan pul mablag‘larini, yerining qarindoshlariga nisbatan haqiqiy munosabatini, bolalarining ba’zi “ayblarini” yashirishga urinishadi. Hamsuhbati so‘zlarini bo‘lish. Suhbat faqat bir tomonning emas, balki ishtirok etayotgan ikki tomonning muloqoti hisoblanadi. Ammo ko‘pchilik hollarda ba’zi odamlar faqat o‘z tuyg‘ularini gapirishga e’tibor qilib, o‘zga odamni eshitishga sabr-toqat qilishmaydi. Boshqa tomon ham o‘z fikrlarini bildira boshlasa, uning so‘zlari keskin bo‘linadi, o‘z hamsuhbatiga e’tiborsizlik ko‘rsatiladi. Bu bilan o‘z so‘zlarining boshqalar fikrlaridan muhimroq ekanini ko‘rsatish, faqat o‘zi gapirishga harakat qilish, boshqalarga so‘z bermaslik orqali o‘z ustunligini ko‘rsatmoqchi bo‘lishadi.

O‘z ustunligini doimo ko‘rsatishga intilish ko‘pincha boshqalar huquqlarining kamsitilishi evaziga bo‘lishi ham konfliktogenning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Birovning ustidan kulish. Birovning ustidan istehzo bilan kulish, uni masxara qilish agressiyaning psixologik turlaridan hisoblanadi. Birovning ustidan kulish inson huquqlarini buzishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Inson ustidan kulish uning nafsoniyatiga tegadi va uzoq vaqt dilda urnashib qoladi. Bolaligida mazax qilingan-“semizlar”, “qishloqilar”, “turqi sovuq”lar keyinchalik o‘z ustidan kulgan odamlarga qarshi harakat olib borgani, yoki, “birinchi muhabbati” hamma tomonidan kulgi ostiga olingan yigitlar keyinchalik o‘z dushmanlaridan qaqshatgich qasos olgani borasidagi hayotiy misollar ko‘p. Ko‘pchilik hollarda kulgi ostida qolgan odam qulay vaziyat poylab o‘z javobini tayyorlaydi.

Aldash yoki aldashga harakat qilish eng ashaddiy konfliktogenlardan xisoblanadi. Ayollar ham, yerkaklar ham o‘zlarini aldashga yo‘naltirilgan harakatlarni kechira olmaydilar. Odatda aldash orqali yuzaga kelgan hissiy-emotsional holat juda uzoq vaqt ongda saqlanib qoladi, hamda umr bo‘yi konfliktogen rolini o‘ynab keladi.

Aldash orqali odam yuragida yuzaga kelgan alam ko‘p hollarda umuman yo‘qolmaydi va uchib ham ketmaydi. Bu alam bot-bot odamlar orasiga yangitdan nizo solinishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Agar munosabatlarda aldash vujudga kelgan bo‘lsa, tomonlar munosabati barbod bo‘lishi tabiiy.

Hamsuhbatining biror kamchiligi yoki muvaffaqiyatsizligini doimo ta’kidlab o‘tishga harakat qilish. Birovlarning ishi yurishmaganidan xursand bo‘lish, o‘zi yoqtirmagan odamlarning hayotida biror kor-xol bo‘lsa, undan quvonish, ba’zi odamlarning ustidan muntazam kulish, kamchiliklarni rukach qilish, mana shu holatlarda o‘zini yaxshi his qilish o‘zini ustun qo‘yishning turlaridan biri hisoblanadi.

Muvaffaqiyatsizlik hamma bilan ham sodir bo‘lishi mumkin, kamchilik va xato esa, uni tuzatilmagunicha kamchilik va xato bo‘lib qoladi, agar tuzatilsa u xato bo‘lmaydi. Muvaffaqiyatsizlikdan hech kim o‘zini muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Shu bois, o‘z do‘sti, hamkasbi, o‘rtog‘i, qarindoshi, eri va yoki xotining biror kamchiligini umrbod ushlab olib, doimo uni ta’kidlayvyerish, uni muntazam esga solish, o‘z ustunligini ko‘rsatish uchun rukach qilish oxir-oqibat juda katta konfliktni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zining zimmasidagi mas’uliyatni birovlar zimmasiga yuklash. Hayotda o‘z ma’suliyatidagi vazifalarda befarq yondoshish hollari uchrab turadi. Masalan, ko‘p hollarda biror narsa qilib berilishiga va’da qilinadi. Ammo o‘zi qilib berishi lozim bo‘lgan vazifa boshqalar zimmasiga yuklatiladi. Ammo boshqalar bu vazifani bajarmaydi. Natijada orada ziddiyat vujudga keladi.

Talaba qizlar agressiyasi esa ochiq ifodalanmaydi. Ular orqavorotdan, asta, bilintirmay, zimdan harakat qiladi. Ularni “Sen shu ishni qilding” deb ushlab olish juda qiyin kechadi, chunki ular kuproq psixologik agressiyani tanlashadi va ishlatishadi. O‘z opponentini psixologik ezish, uni taxqirlash, unga bepisand munosabatda bo‘lish qizlar agressiyasining shakllari hisoblanadi.

Talaba o‘g‘il bolalalar agressiyasi darrov o‘zini ayon etadi. Urish, jismoniy tazyiq, turtish, bir tushurish, bug‘ish, jismoniy harakatlarni cheklash, duq qilish, shantaj - bular o‘g‘il bolalar kuproq qo‘llaydigan agressiya turlari hisoblanadi.

Talaba qizlarlar agressiyada keskin ish tutmaydi, asta, zimdan ish tutadi. Birovni kamsitish, ruhiy ezish, o‘z kayfiyatini birovni ezish oqibatida normallashtirish, “Kulib turib, jonini olish” ularning agressiyasiga xos. Ular urmasdan turib, boshqa insonni juda katta ruhiy tanglik holatiga olib kirib qo‘yishi mumkin. Bir qaraganda o‘g‘il bola talabalar agressiyasi ochiq namoyon bo‘lganligi uchun bezarardek ko‘rinadi. Aslida har ikki tur agressiya ham juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yerkaklar agressiv munosabati oqibatida opponet tomon qattiq jismoniy jarohat olishi mumkinligi ayon. Qizlar agressiyasining keng tarqalgan oqibatlaridan biri, bu — depressiyadir.

Depressiyaning oqibatlari ham insonga juda katta tashvishlar olib keladi. Depressiya holatiga chuqur kirib ketgan odam ko‘p hollarda o‘z joniga suiqaqd qilishi mumkin. Agressivlikka moyillikning oldini olish ta‘lim va tarbiya, insoniy qadriyatlar, diniy e‘tiqod tizimida yotadi. Inson o‘zida agressiyaga moyillikni sezsa, unga qarshi o‘zini to‘g‘ri shakllantira borishi lozim. Agressiya u yo‘naltirilgan odamning ham, uni ishlatayotgan, agressiyani qo‘llayotgan odamning ham salomatligiga juda katta putur yetkazadi.

Depressiyaning oqibatlari ham insonga juda katta tashvishlar olib keladi. Depressiya holatiga chuqur kirib ketgan odam ko‘p hollarda o‘z joniga suiqaqd qilishi mumkin. Agressivlikka moyillikning oldini olish ta‘lim va tarbiya, insoniy qadriyatlar, diniy e‘tiqod tizimida yotadi. Inson o‘zida agressiyaga moyillikni sezsa, unga qarshi o‘zini to‘g‘ri shakllantira borishi lozim. Agressiya u yo‘naltirilgan odamning ham, uni ishlatayotgan, agressiyani qo‘llayotgan odamning ham salomatligiga juda katta putur yetkazadi.

Egoizm - faqat o‘z manfaatlarini ko‘rish qobiliyati bo‘lib, o‘zbek tilida “Xudbinlik” so‘ziga to‘g‘ri keladi. Xudbinlik forscha so‘z bo‘lib, ikki ildizdan tashkil topgan: “xud” — o‘z, o‘zim ma‘nolarini bildiradi, “bin” – ko‘rish ma‘nosini bildiradi. Demak, xudbin so‘zining ma‘nosi — faqat o‘zini ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Doimiy agressiyaning ildizlaridan biri egoizmga borib taqaladi,

Egoizm — o‘z manfaatlarini, boshqalar manfaatlarining buzilishiga qaramay, eng oliy qadriyat sifatida anglanish jarayoniga aytiladi.

Shu bois, Frantsuz lingvisti P.Buast “Xudbinlik ustidan qozonilgan- g‘alaba eng sharafli g‘alabadir”, deb aytgan. Frantsuz yozuvchisi S.Segyur esa, “xudbin uchun — o‘tmish bo‘shliq, hozir — qaqroq-cho‘l, kelajak esa — ahamiyatsizdir “ deb takidlagan. Insonning o‘z-o‘ziga munosabati tabiatan o‘zini o‘zi ma‘qullash, o‘zini sevish, o‘ziga aro berish, o‘zini chiroyli tutish, o‘zini “yaxshi” inson sifatida ko‘rsatish asosida shakllantiriladi.

Bolalikda kichkintoylarni o‘z yuz-qo‘lini orasta tutishini o‘rgatayotganda biz odatda ularga “Hozir qo‘llarimiz va yuzimizni yuvib, oppoqqina bo‘lib olamiz”, deymiz. Mana shu oppoqqina bo‘lish tartib va qoidalari har bir insonga bolalikdanoq singdiriladi. Shu bois, insonning ichki o‘zini anglashida “Men” degan tushuncha tarbiyalanishi lozim va zarur.

Inson “Men”i uni ijtimoiy xodisa sifatida shakllanishi uchun asos yaratadi. Yutuqlarga yerishish, o‘zini ko‘rsatish, hurmatga sazovor bo‘lish mana shu ichki “men”ning sayi-harakatlari asosida amalga oshiriladi.

Demak, ichki “Men”ni nimalarga yo‘naltirilsa, oxir oqibat shu qadriyatlarga mutanosib xarakter va amallar shakllantiriladi. Ammo ana shu ichki “Men” boshqa yuzlab “Menlarga qarshi, ularni inkor etish emas, balki ular bilan birgalikda yashashga ko‘nikkan holda tarbiyalanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan inson ichki “Meni” bilan bog‘lik ravishda sog‘lom “Egoizm” va nosog‘lom “Egoizm” ajratiladi.

Sog‘lom egoizm insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun enyergiya beruvchi kuchi hisoblanadi. Nosog‘lom egoizm esa insonlarni o‘zga inson bilan tuqnashuvi, ziddiyatlar, o‘zini ustun qo‘yish, kelisha olmaslik, o‘zgalarni inkor qilish uchun xizmat qiladi. Axborotlar almashinuv jarayonida, biz o‘zimizning so‘zlarimiz va amallarimizga emas, balki bizga aytilgan boshqa odamlarning so‘zlari va amallariga ko‘proq e‘tiborliroqmiz. Boshqalardan kelayotgan informatsiyani diqqat bilan filtrlaymiz, o‘zimiz junatayotgan informatsiyani esa — fil‘trlamasdan, tug‘ri jo‘natamiz. Shu nuqtayi nazardan, hamma o‘zgalardan kelayotgan axborotga emotsional yondoshamiz, o‘zimizdan ketayotgan informatsiyani esa ko‘proq shundayligicha, ya‘ni boricha jo‘natamiz. Buning natijasida konfliktogenlar eskalatsiyasi paydo bo‘ladi.

Oliy ta‘lim muassasalarda uchrab turadigan konfliktogen vaziyatlar chuqur ziddiyatlarning kelib chiqishini ta‘minlashi mumkin. Konfliktogenlar ko‘payib, ular majmuaga aylanganda, konflikt tug‘iladi. Konfliktogenlar eskalatsiyasi qonuniy ravishda konfliktga olib keladi. Bizga kelayotgan axborotlar konfliktogenlar bilan to‘lgan bo‘lsa, biz unga tabiiy ravishda o‘zimizdagi konfliktogenlar bilan javob beramiz. Demak, konflikt vaziyat biz junatayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi hissiy-emotsionl hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga keladi.[6]

Konfliktogenlar tahdidiga uchragan odam, odatda, o‘zining psixologik va emotsional holatini himoya qilishga o‘tadi. Shu bois, u konfliktogenga nisbatan o‘zidagi emotsional tahdid bilan munosabat bildiradi. Mazkur emotsional tahdid ko‘pchilik hollarda ovoz, mimika, intonatsiyadagi agressiya bilan ifoda qilinadi. Agressiyaga doim o‘ziga yarasha agressiya bilan javob qaytariladi.

Konfliktogenlar eskalatsiyasi yuzaga kelmasligi uchun:

-Konfliktogenlarning o‘zingiz va atrofdagilar yuragida yig‘ilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

-Konfliktogenlar vujudga kela boshlaganda esa, ulardan o‘z fikri va ongini ozod qilish yo‘llarini qidirish;

-O‘zimizda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktogenlar boshqalar ko‘nglida ham yuzaga kelishi mumkinligini nazarga olishimiz darkor.

Shunday qilib, konfliktlar mazmunini bilish insonni konflikt vaziyatlarda o‘zini tutish tartib-qoidalariga o‘rgatadi.

Konflikt mazmunining murakkab kelib chiqish vaziyatlarini anglash esa insonni ana shunday bilimlar bilan qurollantiradi.

Ta‘lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tadqiq etish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb pedago-akmeologik masalalardan biri hisoblanadi.

Muammoning zaruriyatini quyidagilar orqali belgilashimiz mumkin:

-ta‘lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning nazariy asoslari zarurligi;

-ta‘lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish;

-ta‘lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini qo‘llash metodikasini ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘rtasida shakllangan guruhlar nisbatan ko‘pincha o‘qituvchilarning salbly munosabatda bo‘lishi kuzatiladi. Aksincha, tabiiy ravishda tarkib topgan talabalar guruhi oqilona boshqarilishi va guruhlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib ta‘lim-tarbiya jarayonida kuchaytirishda foydalanish kutilgan samarani beradi. Chunki bizning yondashuvimizga ko‘ra, tabiiy ravishda tarkib topgan talabalar guruhi jamoaning tarkib topishiga asos bo‘ladi, negaki muayyan hamfikrlik asosida talabalarning guruhlarini yuzaga keladi. Shu sababli bunday talabalar guruhlaridan pedagogik konfliktlarning ko‘rinishlarini bartaraf etishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998; Fran Schmidt/ Alice Friedman. Fighting Fair. For families. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 2019.
2. Ахмедова М. Педагогик конфликтология. –Т.: ТДПУ. 2021. 12-бет.
3. Самарин А.Н. Конфликты в духовной сфере современного общества: состояние и проблемы урегулирования // Конфликтология. Теория и практика. 2020. №4.
4. Шаленко В.Н. Социальные конфликты / Под ред. Добренъкова В.И., Кравченко А.И. / Фундаментальная социология: в 15 томах, т. VI: Социальные деформации. Гл. 4, раздел 1. -М.: Инфра-М, 2022.
5. Yernazarova G.O., Islamova M.Sh. Pedagogik konfliktologiya/ O‘quv qo‘llanma. –Т.: Fan va texnologiyalar. 2021 y. -270 b. (O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 30.06.2020. № 359-buyrug‘i, 359-132-sonli guvohnomasi).
6. Эрназарова Г.О., Хазиева Д.Э. Необходимость конфликтологической компетентности педагога // Национальная ассоциация ученых Ежемесячный научный журнал Том2 №69/2021DOI: 10.31618/NAS.2413-5291.2021.2.69 ISSN Print 2412-5291, 35-38 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.www.lex.uz.
8. Handling Conflicts. Conflicts; a positive approach. Participant’s manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida. 2023.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI

*Mo‘minova Dilnavoz Komilovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti asissenti PhD*

Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda innovatsion ta‘lim texnologiyalari, jumladan, raqamli ta‘lim platformalari, interaktiv metodlar va didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari qo‘llanildi. Eksperimental guruhda qo‘llangan usullar bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalar va psixologik tayyorgarlikni sezilarli darajada oshirdi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, innovatsion yondashuvlar o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarador ekanligi tasdiqlandi. Ushbu natijalar zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini kengroq qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy kompetentlik, ta‘lim texnologiyalari, raqamli ta‘lim, interaktiv metodlar, didaktik madaniyat.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Данная статья посвящена изучению технологий развития профессиональной компетентности будущих учителей. В исследовании использовались инновационные образовательные технологии, в том числе цифровые образовательные платформы, интерактивные методы и технологии развития дидактической культуры. Методы, использованные в экспериментальной группе, значительно повысили уровень знаний, практических навыков и психологической подготовки. По сравнению с контрольной группой подтверждена эффективность инновационных подходов в развитии профессиональной компетентности учителей. Эти результаты указывают на необходимость более широкого использования современных образовательных технологий.

Ключевые слова: будущие учителя, профессиональная компетентность, образовательные технологии, цифровое образование, интерактивные методы, дидактическая культура.

TECHNOLOGIES FOR PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS

This article is devoted to the study of technologies for the development of professional competence of future teachers. The research used innovative educational technologies, including digital educational platforms, interactive methods, and didactic culture development technologies. The methods used in the experimental group significantly increased the level of knowledge, practical skills and psychological preparation. Compared to the control group, innovative approaches have been confirmed to be effective in developing teachers' professional competence. These results indicate the need for wider use of modern educational technologies.

Keywords: future teachers, professional competence, educational technologies, digital education, interactive methods, didactic culture.

Kirish. Hozirgi zamon ta‘lim tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishlarini talab qilmoqda. Bu esa, ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat o‘quv dasturlarini takomillashtirishni, balki raqamli ta‘lim texnologiyalarini, didaktik madaniyatni rivojlantirish va boshqa ilg‘or uslublarni joriy etishni ham talab qiladi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi nafaqat bilim darajasi, balki amaliy ko‘nikmalar, psixologik tayyorgarlik va pedagogik tajriba orqali ham o‘lchanadi.

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari haqida so‘z yuritiladi. Bu texnologiyalar ta‘lim jarayonida qanday qo‘llanilishi, ularning samaradorligi va ta‘siri haqida adabiyotlar sharhi keltiriladi. Shu bilan birga, raqamli ta‘lim texnologiyalari, didaktik madaniyatni rivojlantirish, va innovatsion modellar haqida ham fikrlar bildiriladi.

Adabiyotlar sharhi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Toirjonovich (2022) ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyatini ta‘kidlab, bu usullar orqali o‘qituvchilarning bilim darajasi va ko‘nikmalarini oshirish

mumkinligini aytadi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim vositalari va yondashuvlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Uralovna (2024) esa, innovatsion modellar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishning turli usullarini o'rganadi. Ular, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu usullar o'qituvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki pedagogik va psixologik tayyorgarliklarini ham yaxshilaydi.[2].

Marushko va boshqalar (2023) o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida turli modellarni tahlil qilib, ularning samaradorligini o'rganishdi. Ularning tadqiqotlari ko'rsatadiki, kompetentlikni rivojlantirish uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchilarni amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish va real hayotiy vaziyatlarda ishlashga tayyorlash muhim ahamiyatga ega.[3] Nasillojevna (2023) raqamli ta'lim texnologiyalarining ahamiyatiga urg'u berib, ularning o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida qanday samarali qo'llanilishini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari raqamli resurslar va platformalar orqali ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.[4] Shyertaylakova (2023) esa, didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalarini o'rganadi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, didaktik madaniyatni rivojlantirish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga ta'lim jarayonida samarali metodlarni qo'llash va didaktik yondashuvlarni to'g'ri tanlashda yordam beradi.[3].

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mavzusida ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Ularning fikrlari va yondashuvlari kasbiy kompetentlik tushunchasini chuqurroq anglashga, uni rivojlantirish uchun yangi metodlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Quyida shu sohada ta'sirli hissa qo'shgan bir necha olimlar haqida ma'lumot berib o'tishni lozim topdik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot yo'nalishlari[8]

1. Psixologiya va ta'lim psixologiyasi sohasida:

Lev Vygotsky "ijtimoiy rivojlanish nazariyasi" asoschisi bo'lib, uning fikricha, insonning kasbiy kompetensiyasi ijtimoiy muhit va muloqot orqali shakllanadi. Uning fikrlari kasbiy o'qitishda guruhda ishlash, hamkorlik va muloqotni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Jan Piaget boladalarining tafakkuri rivojlanishini o'rganib, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi uchun bilim va tafakkur jarayonini rivojlantirish muhimligini ta'kidlagan.

Albert Bandura "ijtimoiy ta'lim nazariyasi" asoschisi bo'lib, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida modellashtirish, o'rganish va o'z-o'zini boshqarish muhimligini ta'kidlaydi.

2. Kasbiy rivojlantirish va menejment sohasida:

Pityer Druckyerning fikrlari kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida shaxsiy maqsad va motivatsiyaning muhimligini ta'kidlaydi. Uning "menejment nazariyasi" kasbiy rivojlantirish strategiyasi uchun asosiy yo'nalishlarni belgilaydi.

V.I. Andreyevning fikrlari kasbiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishini ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'laydi. Uning tadqiqotlari kasbiy o'qitishda ijtimoiy va madaniy faktorlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

3. Ta'lim metodikasi va ta'lim texnologiyalari sohasida:

Galina Boginning fikrlari rus tili o'qitishda kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi va ta'lim jarayonida muloqot qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Igor Gorelovning fikrlari kommunikativ kompetensiyaning turli jihatlarini tahlil qilish va uni rivojlantirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Dmitriy Zaytsevning fikrlari immmersive texnologiyalar o'qitishda qo'llash va talabalar kompetensiyasi rivojiga uning ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

4. Ta'lim menejmenti va ta'lim siyosati sohasida:

Klod Lévi-Straussning fikrlari ta'lim tizimining jamiyat rivojiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Uning fikrlari ta'lim siyosatida kasbiy kompetensiya rivojlanishiga e'tibor berish muhimligini ta'kidlaydi.

Pityer Senge o'rganuvchi tashkilotlar haqida fikr yuritib, ta'lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va talabalarni o'z bilimlarini yangilashga undash zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu olimlar va ularning fikrlari kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga qaratilgan turli tadqiqotlar va nazariyalarga asos beradi.

Kasbiy kompetentlik¹ - bu insonning muayyan kasb sohasida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan bilish, ko'nikma va qobiliyatlar yig'indisidir.

Kasbiy kompetentlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Bilim: Muayyan kasb sohasi bo'yicha zarur bo'lgan nazariy bilimlar.

Ko'nikma: Bilimlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy qobiliyatlar.

Qobiliyat: Muayyan ish turlarini bajarishga moslashuvchanlik, ijodiylik va intellektual qobiliyat.

Shaxsiy xususiyatlar: Muloqot, jamoada ishlash, mas'uliyat va boshqa shaxsiy xususiyatlar kasbiy faoliyatda muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy kompetentlik insonning ish bozorida raqobatbardoshlik qobiliyatini oshiradi, u mustaqil ravishda ishlash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi choralar ko'rish mumkin:

Ta'lim: Muayyan kasb sohasi bo'yicha ta'lim olish, kurslarda qatnashish, treninglarni o'tkazish.

Amaliy tajriba: Ish joylarida stajirovka o'tash, loyihalarda qatnashish.

O'z-o'zini rivojlantirish: Kitoblar o'qish, konfyerensiyalarga qatnashish, yangi texnologiyalar haqida ma'lumot olish.

Jamoaviy ish: Boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish.

Umuman olganda, kasbiy kompetentlik - har bir insonning muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun muhimdir. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish orqali biz o'z imkoniyatlarimizni kengaytirib, jamiyatga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini o'rganish uchun eksperimental tadqiqot usuli qo'llanildi. Tadqiqotda ikki guruh ishtirok etdi: nazorat guruhi va eksperimental guruhi. Har bir guruhda 30 nafar bo'lajak o'qituvchi qatnashdi. Eksperimental guruhda innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llanildi, jumladan raqamli ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va didaktik madaniyatni rivojlantirish usullari. Nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim usullari davom ettirildi.

Tadqiqot davomida har ikki guruhning kasbiy kompetentligini baholash uchun oldindan va keyinchalik testlar o'tkazildi. Test natijalari o'qituvchilarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari va psixologik tayyorgarligini o'lchash uchun maxsus ishlab chiqilgan test savollaridan iborat edi. Natijalar statistik tahlil qilish uchun SPSS dasturidan foydalanildi.

Yuqoridagi tahlillar asosida kasbiy kompetentlikning o'ziga xos xususiyatlari sohalardan kelib chiqib takomillashtirilib boravayeradi. Har bir soha o'zining faoliyat turidan kelib chiqib kompetentliklarni o'zida mujassam etadi. Shu o'rinda pedagogik kompetensiya uchun bilim, hayotiy ko'nikmalar, kreativlik, tarbiyaviy hamda kommunikativ ko'nikmalar asosiy kompetensiyalar sirasiga kiradi. Fikrimizni xulosalar asosida umumlashtirib pedagogik kompetentlikka quyidagicha mualliflik ta'rimini berishni lozim topdik.

O'qituvchining pedagogik kompetensiyasi² - bu o'qituvchining o'quvchilarni ta'lim va tarbiyalash jarayonida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan bilish, ko'nikma va qobiliyatlar yig'indisidir.

¹ Mualliflik yondashuvi

² Mualliflik yondashuvi

Pedagogik kompetensiya quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:



Bilim: O‘qituvchi o‘z fan sohasi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi lozim[7].

Didaktik ko‘nikmalar: O‘qitish usullarini bilish, o‘quv materiallarini tanlash va taqdim qilish, o‘quvchilarning faolligini oshirish ko‘nikmalari.

Tarbiyaviy ko‘nikmalar: O‘quvchilarda axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirish, ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Kommunikativ ko‘nikmalar: O‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, ularning qiziqishlariga va muammolariga e‘tibor berish.

Texnologik ko‘nikmalar: Zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari, immmersiv texnologiyalarni qo‘llash.

O‘z-o‘zini rivojlantirish: O‘z kasbiy o‘shishga intilish, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni o‘rganish, tadqiqotlar o‘tkazish.

Pedagogik kompetensiya o‘qituvchining ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhim omildir. Pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning rivojlanishini ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ularni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy moslashishga va shaxsiy rivojlanishga undashadi.

Pedagogik kompetensiya doimiy ravishda rivojlanib borish kerak. O‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish va ta‘lim jarayonini yaxshilash uchun harakat qilishlari lozim.

Pedagogik kompetensiya o‘qituvchi hayotida muhim rol o‘ynab, uning o‘z kasbida yuksalishga va o‘quvchilar rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga yordam beradi[6].

Natijalar. Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalar qo‘llanilgan eksperimental guruhning kasbiy kompetentligida sezilarli o‘zgarishlar borligini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvalda har ikki guruhning test natijalari keltirilgan.

Jadval 1: Nazorat va eksperimental guruhlarining test natijalari

Guruh	Oldindan test (o‘rtacha ball)	Keyinchalik test (o‘rtacha ball)	O‘zgarish (%)
Nazorat guruhi	65	68	4.6%
Eksperimental guruh	64	78	21.9%

Nazorat guruhining test natijalari oldindan va keyinchalik testlar orasida 4.6% o‘zgarishni ko‘rsatdi, bu esa an’anaviy ta‘lim usullari qo‘llanilganda kasbiy kompetentlikning sekin rivojlanishini ko‘rsatadi. Eksperimental guruhning natijalari esa 21.9% o‘zgarishni ko‘rsatib, innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar qo‘llanilganda kasbiy kompetentlik sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi. Eksperimental guruhdagi bo‘ljak o‘qituvchilar bilim darajasini baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta‘lim platformalari va interaktiv metodlar orqali ta‘lim olgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan 30% yuqori natijalarga yerishdi. Bu raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham eksperimental guruhda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar qo‘llangan talabalar amaliy mashg‘ulotlarda yuqori natijalar ko‘rsatdi. Bu ko‘nikmalarni baholash natijalari eksperimental guruhda 25% oshishni ko‘rsatdi. Psixologik tayyorgarlik darajasini o‘lchash uchun maxsus savollar qo‘llanildi. Eksperimental guruhdagi talabalar stressni boshqarish, muammolarni hal qilish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda

yuqori natijalar ko'rsatdi. Nazorat guruhiga nisbatan psixologik tayyorgarlik darajasi 20% yuqoriroq bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim texnologiyalari va yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari qo'llanilganda bilim darajasi, amaliy ko'nikmalar va psixologik tayyorgarlik sezilarli darajada oshadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va yondashuvlarining samaradorligini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda qo'llangan raqamli ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari nafaqat bilim darajasi, balki amaliy ko'nikmalar va psixologik tayyorgarlik darajasini ham sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan o'zgarishlar innovatsion texnologiyalar va metodlarning bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Uralovna (2024) tomonidan ta'kidlanganidek, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish orqali o'qituvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning bilim darajasi va ko'nikmalarini yaxshilashga olib keladi. Psixologik tayyorgarlik darajasidagi o'zgarishlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ko'rsatkichlar eksperimental guruhda 20% ga oshdi. Bu natija Toirjonovich (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bilan mos keladi va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida psixologik komponentning muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va yondashuvlarining muhimligini tasdiqladi. Eksperimental guruhda qo'llangan raqamli ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari sezilarli darajada ijobiy natijalar berdi. Bilim darajasi, amaliy ko'nikmalar va psixologik tayyorgarlik ko'rsatkichlarining oshishi ushbu yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Kelgusida ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish, ularni kengroq ko'lamda sinovdan o'tkazish va samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Bu tadqiqotning natijalari o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi va ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun yangi yondashuvlarni izlash zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Toirjonovich, A.Z. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2, 92-96.
2. Uralovna, J.F. (2024). Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishning innovatsion modelini yaratish. // Образование, наука и инновационные идеи в мире, 39(1), 23-29.
3. Marushko, L., Hura, A., Bryk, R., Baboval, N., & Karabin, O. (2023). Models of formation of professional competence of future teachers. // Amazonia Investiga, 12(66), 314-325.
4. Nasillovna, S.N. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida rivojlantirish. // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(21), 283-289.
5. Shyertaylakova, G. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarda didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari. // Наука и технология в современном мире, 2(19), 73-76.
6. Mo'minova D.K. Bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnal. Buxoro, 2022. №3 son. 121-125 b.
7. Mo'minova D.K. Bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisining muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda raqamli ta'lim muhitining ahamiyati // Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal.-Buxoro, 2022. №2 65-68 b.
8. Mo'minova D.K. Raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak "Texnologiya" o'qituvchilarini tayyorlashda kompetentli va faoliyatli yondashuv // Mug'allim hem uzliksiz ilmiy – metodikaliq jurnal №4/2. 2022. 121-125 b.

OLIIY TA'LIM SOHASIDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANGAN HOLDA DARS JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Informatika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

musirmanov1995@gmail.com

Oliy ta'limda virtual reallik (VR) texnologiyalarini qo'llash dars jarayonini intyektiv, ko'rgazmali va samarali qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu usul ta'limning turli yo'nalishlarida – fan, texnologiya, muhandislik, tibbiyot va san'at kabi sohalarda keng qo'llanilib, murakkab tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish, talabalarni real vaziyatlarga tayyorlash va ularga amaliy ko'nikmalar berishga yordam beradi.

Virtual reallik orqali tashkil qilingan darslar talabalarga turli laboratoriya tajribalarini simulyatsiya qilish, xavfsiz va cheksiz muhitda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, virtual sayohatlar va murakkab jarayonlarni ko'rgazmali tarzda o'rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, amaliyot talab qiluvchi yo'nalishlarda o'quv jarayonini osonlashtiradi.

Kalit so'zlar: *virtual reallik (vr), virtual laboratoriyalar, simulyatsiya asosidagi ta'lim, interaktiv o'quv jarayoni, ko'rgazmali darslar, amaliy mashg'ulotlar, vr texnologiyalari, immersive learning, 3D modellar, virtual tajriba, masofaviy ta'lim, xavfsiz o'quv muhiti, vr simulyatsiyalar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, fazoviy o'rganish.*

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ПРОЦЕССОВ В СФЕРЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Использование технологий виртуальной реальности (VR) в высшем образовании – это инновационный подход, направленный на то, чтобы сделать процесс обучения интерактивным, наглядным и эффективным. Этот метод широко используется в различных областях образования, таких как наука, техника, инженерия, медицина и искусство, чтобы наглядно объяснить сложные концепции, подготовить учащихся к реальным ситуациям и помочь им приобрести практические навыки.

Занятия, организованные посредством виртуальной реальности, позволяют учащимся моделировать различные лабораторные эксперименты, проводить практические занятия в безопасной и неограниченной среде, виртуальные туры, визуально изучать сложные процессы. Это облегчает процесс обучения, особенно, в областях, требующих практики.

Ключевые слова: *виртуальная реальность (VR), виртуальные лаборатории, обучение на основе моделирования, интерактивный процесс обучения, демонстрационные уроки, практическое обучение, vr-технологии, иммерсивное обучение, 3D-модели, виртуальный опыт, дистанционное образование, безопасная среда обучения, VR-симуляции, практический развитие навыков, пространственное обучение.*

METHODS OF ORGANIZING LESSON PROCESSES USING VIRTUAL REALITY IN THE FIELD OF HIGHYER EDUCATION

The use of virtual reality (VR) technologies in highyer education is an innovative approach aimed at making the teaching process intyervative, visual and effective. This method is widely used in various areas of education - such as science, technology, engineyering, medicine, and art - to visually explain complex concepts, prepare students for real-world situations, and help provide them with practical skills.

Classes organized through virtual reality allow students to simulate various laboratory expyeriments, conduct practical training in a safe and unrestricted environment, virtual tours, and visually study complex processes. This facilitates the learning process, especially in areas requiring practice.

Keywords: *virtual reality (VR), virtual laboratories, simulation-based learning, intyervative learning process, demonstration lessons, hands-on learning, vr technologies, immyersive learning, 3D models, virtual expyerience, distance education, safe learning environment, vr simulations, hands-on skill development, spatial learning.*

Kirish. Oliy ta’limda VR dan foydalanishning asosiy maqsadlari. VR texnologiyasi talabalarga murakkab va abstrakt tushunchalarni ko’rgazmali tarzda tushuntirish imkonini beradi. Bu esa dars jarayonini yanada samarali va tushunarli qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Talabalar VR yordamida real dunyoda duch kelishi mumkin bo’lgan amaliy tajribalarni xavfsiz muhitda sinab ko’rishadi. Masalan, tibbiyot talabalari jarrohlik amaliyotlarini virtual muhitda bajarish orqali o’z kasbiy ko’nikmalarini rivojlantiradilar. Dars jarayonida VR texnologiyasini qo’llash talabalar uchun darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu ularning mavzuga bo’lgan qiziqishini oshiradi va o’qishga motivatsiyasini kuchaytiradi.

VR orqali talabalar dars mavzularini bevosita o’zlari tajriba qilish orqali o’rganadilar. Bu an’anaviy ta’lim shakllaridan farqli ravishda mavzuni yaxshiroq tushunishga va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. VR texnologiyasi orqali talabalar dunyoning boshqa qismlaridagi ilmiy markazlar va univyersitetlar bilan bog’lanib, xalqaro miqyosda hamkorlik qilishi va bilim almashishi mumkin. Bu talabalarning global bilim va ko’nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Ba’zi jarayonlar amaliyotda xavfli yoki qimmatli bo’lishi mumkin. VR texnologiyasi talabalarga bu jarayonlarni xavfsiz va realistik muhitda o’rganish imkonini beradi. Bu muhandislik, fizika yoki kimyo kabi yo’nalishlarda juda qo’l keladi.

VR yordamida talabalar o’z yaratuvchanliklarini sinab ko’rishlari va yangi loyihalarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, dizayn va arxitektura talabalari VR muhitida yangi binolar va loyihalarni loyihalash bilan shug’ullanishlari mumkin. VR muhitida talabalar dars materiallarini qayta-qayta o’rganish va amaliy mashg’ulotlarni cheksiz marta takrorlash imkoniga ega bo’ladilar. Bu ularning mavzuni chuqurroq o’zlashtirishlari va xatolarni tahlil qilishlariga yordam beradi. Virtual reallik texnologiyasi masofaviy ta’lim olishni yanada interaktiv va samarali qiladi. Masofadan turib talabalarga amaliy mashg’ulotlar o’tkazish yoki o’quv materiallarini jonli tarzda ko’rsatish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Talabalar VR yordamida o’rganayotgan mavzularini haqiqiy muhitda qo’llash imkoniyatiga ega bo’lishadi. Masalan, geografiya yoki ekologiya bo’yicha darslarda talabalar turli tabiiy hududlarga virtual sayohat qilish orqali joylarni ko’rgazmali o’rganishlari mumkin. Oliy ta’lim sohasida VR texnologiyasini qo’llashning maqsadi talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga yaxshiroq tayyorlash, ularning tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish va real hayotda duch keladigan muammolarni hal qilishda amaliy bilimlarni oshirishdir. Bu esa zamonaviy ta’limning talabalariga mos keladigan, innovatsion va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim sohasida virtual reallik (VR) texnologiyasidan foydalanish talabalarga yanada interaktiv va samarali o’quv jarayonini ta’minlash imkonini beradi. Quyida VR texnologiyasini o’quv jarayonida qo’llashning bir necha usullari keltirilgan:

Laboratoriya mashg’ulotlarini simulyatsiya qilish. VR orqali talabalarga murakkab laboratoriya mashg’ulotlarini xavfsiz va real tajribaga yaqin tarzda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, tibbiyot sohasidagi talabalarga jarrohlik amaliyotlarini virtual muhitda o’rgatish yoki muhandislik yo’nalishidagi talabalarga turli mexanizmlar va uskunalar bilan ishlashni o’rgatish.

Ko’rgazmali darslar va sayohatlar. Talabalar VR orqali dars mavzularini ko’rgazmali tarzda o’rganish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Masalan, tarix yoki arxitektura darslarida talabalarga qadimiy yodgorliklar yoki binolarning virtual sayohatlarini uyushtirish mumkin. Bu ularning tushunchalarini yanada boyitadi.

Talabalar orasida hamkorlik va guruhli loyihalar. VR platformalari orqali talabalar virtual muhitda birgalikda loyihalarni amalga oshirishlari mumkin. Bu esa ular orasida hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, VR konfyerensiyalar yoki virtual auditoriyalarda talabalar birgalikda ilmiy ishlar, munozaralar va amaliy mashg’ulotlarni o’tkazishlari mumkin.

Real dunyo muammolarini virtual tarzda yechish. Ba’zi murakkab masalalar yoki vaziyatlarni talabalarga tushuntirishda VR dan foydalanish samarador. Masalan, iqtisodiy yoki ekologik masalalarni modellashtirish orqali talabalar real hayotdagi muammolarni yechish usullarini virtual muhitda sinab ko’rishlari mumkin.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim va takrorlash. VR texnologiyasi orqali talabalar individual ehtiyojlarga moslashtirilgan darslarni olishlari mumkin. Shuningdek, ular o’rganilgan materialni qayta va qayta virtual muhitda amaliy mashg’ulotlar orqali takrorlash imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Imtihon va baholash jarayonlarini simulyatsiya qilish. VR orqali talabalarni baholash uchun simulyatsion vaziyatlar yaratish mumkin. Masalan, VR orqali tibbiy talabalarga kasalliklarni tashxislash, muhandislik talabalarga esa texnik muammolarni hal qilish vaziyatlari taqdim etiladi, bu orqali ular o’z bilim va ko’nikmalarini ko’rsatishadi.

Virtual sinf va ma’ruzalar. VR yordamida virtual sinflar yaratish va ularda ma’ruzalarni o’tkazish mumkin. Bu talabalarni qiziqtirish va mavzularni yanada aniq tushunishga yordam beradi.

Oliy ta’lim sohasida virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonini innovatsion va samarali qilish uchun qo’llaniladigan vositalardan biri bo’lib, amaliy mashg’ulotlarni talabalar uchun xavfsiz, interaktiv va qulay tarzda o’tkazish imkonini yaratadi. Virtual laboratoriyalar yordamida talabalar murakkab ilmiy jarayonlarni o’rganishlari, tajribalarni sinab ko’rishlari va real dunyo bilan bog’liq vaziyatlarni simulyatsiya qilishlari mumkin.

Kimyo, fizika yoki biologiya sohasida ba’zi tajribalar xavfli bo’lishi mumkin. Virtual laboratoriyalar talabalarni xavfli materiallar yoki asbob-uskunalar bilan to’qnash kelmasdan, o’rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tibbiyot va muhandislik yo’nalishidagi amaliyotlarda juda muhim. Virtual laboratoriyalarda talabalar resurslar yoki materiallar cheklangan holatlarda ham tajribalar o’tkazish imkoniga ega bo’lishadi. Ular uskunalar yoki moddalarning real hayotdagi narxi yoki mavjudligi haqida o’ylamasdan, tajribalarni cheksiz marta takrorlashi mumkin.

Biroq, bizning fikrimizcha, ular ishlashni baholash uchun amaliy vosita bo‘lib xizmat qila olmaydi, chunki ular ko‘pincha chuqur psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Albatta, bir qator kompaniyalar o‘z xodimlarida yyetarli malakali kadrlarni baholash bo‘yicha mutaxassislariga ega bo‘lishlari mumkin, ammo bu holatda ham baholash mezonlari har doim ham ish beruvchi va xodim uchun to‘liq tushunarli emas. Shu sababli, yuqoridagi tajribani o‘z ichiga oladigan va aniqroq kuzatiladigan va o‘lchanadigan bo‘lgan kasbiy faoliyatni baholash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish g‘oyasi tasodifiy emas. Bugungi kunga kelib, kompetensiyalar bunday ko‘rsatkichlar sifatida ishlaydi. Ular ideal o‘lchovlar emas, lekin ular kuzatuvchanlik va o‘lchash mezonlariga muvofiqlik asosida ishlashni baholash ehtiyojlarini qondiradi.

Ko‘pgina mualliflar, yuqorida ko‘rsatganimizdek, kompetensiya va inson xatti-harakatlarini o‘zaro bog‘laydi. «Xulq-atvor deganda organizmni atrof-muhit bilan bog‘laydigan muayyan tarzda tashkil etilgan faoliyat tushuniladi». “Har bir psixik funksiya va har bir xatti-harakat har doim shaxsning atrof-muhitdan ajratilishi va u bilan bog‘lanishining ichki ziddiyatli birligidir”.

J.Nyutten xulq-atvorning uchta asosiy komponentini aniqlaydi:

- individ o‘zini topadigan vaziyat;
- shaxs yerishmoqchi bo‘lgan maqsad;
- maqsadga yerishish uchun zarur bo‘lgan xatti-harakatlar.

Xulq-atvorning ushbu uchta komponenti umumiy xulq-atvor jarayonining uch bosqichiga to‘g‘ri keladi:

1. Xulq-atvor dunyosini qurish, ya‘ni jismoniy muhit haqidagi ma‘lumotni subyekt ning o‘zi duch keladigan mazmunli vaziyatni tasvirlashda qayta ishlash.
2. Subektning dunyo bilan dinamik munosabatlarini (ya‘ni uning ehtiyojlarini) obyektlar, maqsadlar va "vosita-maqsadlar" tuzilmalariga yoki xatti-harakatlar rejalariga aylantirish.
3. Belgilangan ichki yoki tashqi maqsadlarga yerishish uchun zarur bo‘lgan xatti-harakatlarning bajarilishi, yoki bajarilishi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida turli vazifalar hal etiladi, ammo ulardan biri, bizning fikrimizcha, hozirda yyetarli darajada hal etilmayapti - bu aniq ish joyida ishlash uchun mutaxassisni tayyorlash vazifasidir. Mehnat psixologiyasi nuqtayi nazaridan "kasb", "ish joyi" tushunchalarini ajratish odatiy holdir. Kasbning an‘anaviy va innovatsion talqinlari mavjud. Birinchi guruhga quyidagilar kiradi: mehnat subekti sifatida inson kuchlarini qo‘llash sohasi, mavjud mehnat taqsimoti natijasidagi mehnat faoliyati turi; ish turiga mos keladigan ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradigan odamlar jamoasi; shaxsning tegishli mehnat funksiyalarini bajarishga imkon beradigan tayyorgarlik darajasi; shaxs tomonidan ma‘lum bir mukofot uchun amalga oshiriladigan faoliyat; shaxsning jamiyatda ma‘lum maqomga ega bo‘lishini ta‘minlovchi faoliyat.

Ikkinchi guruhga, birinchi navbatda, E.M.Kaliskiy va N.G.Goncharik talqinini kiritamiz. Mualliflarning fikricha, kasb - bu turli sohalarida namoyon bo‘ladigan uzluksiz faoliyat yurituvchi ijtimoiy faoliyat institutini ifodalovchi gnoseologik, huquqiy, antropologik, ijtimoiy va texnologik elementlar tizimi.

Kasbga yo‘naltirishda "mehnat" tizimida "ish joyi" tushunchasi an‘anaviy tarzda ta‘kidlangan. Kompetensiya tushunchasi, xususan, "mehnat" tizimining dinamik quyi tizimiga ish joyiga tegishli. Masalan, gumanitar fanlar maktabining matematika o‘qituvchisi va fizika-matematika maktabining matematika o‘qituvchisi bir kasbga tegishli. Biroq, bitta maktabda ishlash uchun ma‘lum bir kasbiy kompetensiyalar kerak, boshqa maktabda ishlash uchun - boshqalar, chunki ularning ishlari har xil, garchi ularning umummadaniy va asosiy kasbiy kompetensiyalari bir xil bo‘lsa ham.

Ikkinchi guruh insonlarning ijtimoiy o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq kompetensiyalarni ifodalaydi. Ushbu guruh kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy o‘zaro ta‘sir (bag‘rikenglik, hamkorlik, shyeriklik, ijtimoiy mobillik), muloqot qobiliyatlari (og‘zaki va yozma nutq, dialog, ishbilarmon yozishmalar, madaniyatlararo muloqot, ish yuritish va boshqalar).

Uchinchi guruh - inson faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar: kognitiv faoliyat kompetensiyasi, faoliyat kompetensiyasi, axborot texnologiyalari kompetensiyasi.

Kasbiy kompetensiyalar deganda, V.I.Baydenko kasbiy faoliyat talablariga muvofiq harakat qilish, kasbiy muammolarni mustaqil ravishda hal qilish va yerishilgan natijalarni baholashga tayyorlik va qobiliyatni tushunadi.

Umumiy kompetensiyalar deganda o‘quv amaliyotining barcha turlarida orttirilgan tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan qobiliyat tushuniladi. Nemis tilidagi adabiyotlarda umumiy kompetensiyalar instrumental kompetensiyalar deyiladi.

Akademik kompetensiyalar - bu bakalavriat va magistratura ta’lim dasturlarini amalga oshirishda bilim va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishini, o‘ziga xoslik va mustaqillikni ta’minlaydigan qobiliyatdir.

Ijtimoiy kompetensiyalar - bu ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni shakllantirish va boshqa odamlar bilan kelishuvga yerishish qobiliyati va istagi. Shaxsiy kompetensiyalar - bu shaxsning o‘z rivojlanish jarayonini aniqlash va baholash, shaxsiy va kasbiy rejalarini tuzish va amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyati.

Shunday qilib, oliy ma’lumotli zamonaviy mutaxassislar kompetensiyalarining bir nechta tasniflari mavjud. Eng ko‘p keltirilganlari ushbu paragrafda keltirilgan. OTMda talabalarining kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy muammolari taqdim etilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, biz quyidagi xulosaga keldik: deyarli barcha mualliflar uchun kompetensiyalar ro‘yxati bir xil. Faqat ularning tasnifi uchun asoslar farqlanadi.

Aytishimiz mumkinki, OTM talabalarining kompetensiyalarini shakllantirish - bu oliy ta’lim tizimining jamiyat, ish beruvchilar va talabalarining o‘z talablariga javobidir, ular uchun ular qanday mezonlarga ko‘ra baholanishini bilish ham muhimdir.

Bizning tahlilimiz natijalari quyidagi umumlashmalarni amalga oshirish imkonini beradi. Birinchidan, zamonaviy mutaxassisning kompetensiyasi ish beruvchilar tomonidan uning ish samaradorligi standartining ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ikkinchidan, hozirgi bosqichda OTM talabalarining kompetensiyalari ta’limning samarali komponentidir. Uchinchidan, xodimning kompetensiyasi va talabaning kompetensiyasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozishmalar mavjud emas. To‘rtinchidan, ishchilarning kompetensiyalari ham, o‘quvchilarning kompetensiyalari ham ijtimoiy ko‘nikma va qobiliyatlarning yetarlicha yuqori darajada rivojlanishini nazarda tutadi. Binobarin, OTM talabalarini kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va metodologik shartlarini ishlab chiqishda davom etar ekanmiz, biz ushbu jarayonning mantiqiy asosini taklif qilishimiz kerak, bu esa talabalarining ijtimoiy va axborot komponentlarini hisobga olgan holda kompetensiyalarini kompleks shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. Shu nuqtayi nazardan, bizning tadqiqotimiz zamonaviy mutaxassis faoliyatining axborot asoslarini asoslab beradi. Buning quyidagi sabablari bor. Birinchidan, zamonaviy mutaxassisning kasbiy faoliyati, ko‘p hollarda, jamoaviy taqsimlangan, loyihaga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy kompetensiyalarni talab qiladi (guruh dinamikasi jarayonlari va jamoani shakllantirish tamoyillarini bilish asosida guruh ishini samarali tashkil etish qobiliyati; konsepsiyalarni hal qilishning turli usullarini o‘zlashtirish ziddiyatli vaziyatlar). Ikkinchidan, kasbiy faoliyat olib boriladigan axborot muhiti ma’lumotlarning nomuvofiqligi, ko‘p yo‘nalishliligi bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki, mutaxassis nafaqat axborot bilan ishlash, balki u bilan turli xil ijtimoiy va kasbiy sharoitlarda ishlash uchun kompetensiyaga muhtoj. Zamonaviy mutaxassis faoliyatining axborot asoslarini asoslash uchun biz aniqlagan ikkita sabab ularni nafaqat axborot texnologiyalarini egallashning texnik nuqtayi nazaridan, balki insonning ijtimoiy o‘zaro ta’siri, unga tegishliligi nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Ўктамов, Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.

2. Abdirozzoqov, Fayzulla, and Jasmina Tashpo‘lotova. "Methods of using the mytest program in the organization of final control processes for students of higher education institutions." // Молодые ученые 2.8 (2024): 88-90.

3. Madadjon, O‘ktamov. "Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining informatikadan axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi." // Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.

4. Jasmina Toshpo‘lotova, and O‘ktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish." // Pedagog 51.1 (2024): 115-119.

5. Madadjon O‘ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." // Science and Education 2.12 (2021): 202-211.

6. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." // Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.

**INSPEKTOR-PSIXOLOGNING SUD VA TERGOV FAOLIYATI DOIRASIDA
EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Olimov Laziz Yarashovich,

*Buxoro davlat univyersiteti Psixologiya kafedrası professorı,
psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)*

Ushbu maqolada inspektor-psixolog faoliyatida kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o`ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, inspektor-psixolog emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo`lishi va rivojlanishini tadqiq qilish va sud va tergov faoliyatiga jalb qilishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so`zlar: *inspektor-psixolog, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertyzasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.*

**ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ИНСПЕКТОРА-
ПСИХОЛОГА В РАМКАХ СУДЕБНОЙ И СЛЕДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов компетентности в деятельности инспектора-психолога и совершенствование его специфических социально-психологических факторов, важность исследования проявления и развития эмоционального и личностного компонентов инспектора-психолога и их участие в судебно-следственной деятельности.

Ключевые слова: *судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.*

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE EMOTIONAL INTELLIGENCE OF THE
INSPECTOR-PSYCHOLOGIST WITHIN THE FRAMEWORK OF JUDICIAL AND
INVESTIGATIVE ACTIVITIES**

This article discusses the research of the manifestation and development of competence factors in the activities of the inspector-psychologist and the improvement of his specific social-psychological factors, the investigation of the manifestation and development of the emotional and personality components of the inspector-psychologist, and involvement in judicial and investigative activities the importance of doing is revealed.

Keywords: *forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.*

Kirish. Jahon va respublikamizdagi ko`pgina psixologiya maktablarida inson omilini tahlil qilish, ularni kasbiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan kamol toptirishda turli xil psixologik usullardan foydalanishga alohida e`tibor qaratilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, chet el va mahalliy pedagogik-psixologik adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta`riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so`zining lug`aviy ma`nosi lotinchadan olingan bo`lib, «competo» «yerishayapman, munosibman» degan ma`nolarni anglatadi, hamda ma`lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo`ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma`lum bir tizim bo`yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog`lanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. «Kompetentlik» tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo`llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o`zini-o`zi anglashi, o`z-o`zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo`lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyati xususiyatlaridan ko`ra ko`proq bog`liqligini bildiradi.

Deyarli barcha lug`atlarda «kompetentlik» va «kompetensiya» muammolari alohida bir kategoriya

sifatida o'rganiladi. Kompetentlik ta'riflari bir-biriga juda o'xshash va bir-birini takrorlaydi, «kompetentlik» uchun yagona talqin bo'lmasa-da, bu konsepsiya «har qanday tashkilot yoki mutaxassisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig'indisi» deb talqin qilinadi. Shunday qilib, «kompetensiya» – bu «kompetentlik» so'zidan olingan tyermin bo'lib, insonning bilim, ko'nikma va malakalarni to'g'ri anglay olishiga, «kompetentlik» esa semantik tomondan birlamchi yo'nalish bo'lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma'lum bir tajribalari «jamlanmasi» ni bildiradi [4].

I.A.Zimnyaya «kompetentlik»ni uch guruhini keltirib o'tadi:

- o'z-o'ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekt i sifatida qarashligi;
- insonning boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sir munosabati bilan bog'liqligi;
- inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo'lishi[4].

Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma'noda qobiliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ko'nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

So'nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kasbiy mehnat talablariga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida fikr yuritishgan (E.F.Zeyer, A.K.Markova va boshqalar).

Shaxsning professional kompetentlik muammosi bo'yicha K.K.Platonova, N.S.Ribakov tadqiqotlarida mutaxassislarning kasbiy faoliyati bo'yicha o'zini-o'zi anglaganligi, kasbiy yutuqlari, o'z kasbining ustasi ekanligi, kasbiy malaka kabi asosiy psixologik kategoriyalarning mazmunini anglashga yordam beradi. Ushbu yo'nalish doirasida professional yondashuv usullari ham takomillashtirilgan.

Yana bir yo'nalish vakillari asarlarida (B.G.Anan'ev, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlarida individual-psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlarini bevosita o'rganilgan.

Kasbiy mahorat yo'nalishi doirasida kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish, malaka oshirish, kasbiy kompetentlik, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari o'rganiladi (A.K.Markova [4]).

Navbatdagi yo'nalish - akmeologik bo'lib, kasbiy mahoratni rivojlantirishning akmeologik muntazamlilik va detyerminantlarini o'rganishga va yetuk shaxsning rivojlanishini belgilaydigan qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan (A.A.Bodalev, A.A.Dyerkach, N.V. Kuzmina va boshqalar).

L.A.Petrovskaya birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kompetensiyasining maxsus konsepsiyasini ishlab chiqdi.

«Kasbiy kompetentlik» tushunchasi ko'plab psixolog olimlar (B.S.Gyershunskiy, E.F.Zeyer, Yu.V.Kainova, V.A.Kalney, B.N.Komissarov, J.K.Latishev, N.V Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin va hokazo) o'z ilmiy ishlarida tahlil qilishgan.

E.F.Zeyer «Professional kompetentlikni» shaxsining ma'lum bir xususiyatlari integrasiyasi ya'ni, kasbiy faoliyatning ma'lum bir turini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar iyerarxiyasi» deb ta'kidlaydi [5].

Shaxsiy rivojlanish va kasbiy shakllanish ijtimoiy kontekstining muvofiqligi muammosi kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon olimlarining ishlarida ham o'z aksini topgan.

L.B.Shneyder asos solgan kasbiy sifatlarni tadqiq qilishning zamonaviy yo'nalishida ushbu fenomen kasbiy o'zini-o'zi anglash sifatida ko'rib chiqiladi, bunda shaxs o'zini muayyan bir kasb va mehnat jamoasining vakili sifatida anglaydi, o'z «Men»ini kognitiv, emotsional xulq-atvor jihatdan tavsiflashda o'zini va boshqalardan farqli ekanligini aniqlaydi. Kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon psixologlari uchun psixik voqeliklarni tuzilmaviyligi va tizimliliigi tamoyili, sifatlarning genetik o'zaro bog'liqlik darajasini qidirish, kasbiy faoliyatni o'zlashtirish va amalga oshirish jarayonida sifatlarning shakllanishini tadqiq qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jahon tadqiqotchilarining an'anaviy va konseptual metodologik bazasi bo'lib, quyidagilarga xizmat qiladi: kasbiy faoliyatdagi sistemagenez, shaxsning kasbiy shakllanishi, mehnat faoliyati va boshqalar.

Kasbiy sifatlarning elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, yo'nalishlar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshiriluvchi shaxsning motivasion sohasining boshqa tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi. Kasbiy sifatlarga erishish uchun shaxs faolligini ta'minlovchi zaruriy bilim va qobiliyatlarga ega bo'lish lozim [6].

Ye.N.Kiryanova kasbiy sifatlarni o'zgaruvchan kasbiy sharoitlarda ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasi va keyinchalik kasbiy o'sish bilan shartlangan, muayyan bir bosqichda sub'ektning

kasbiy mahorat darajasiga erishishni ta'minlovchi individual belgi, kasbiy shartlar va kasb mazmunining barqaror muvofiqligi sifatida tavsiflaydi [4]. U tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy sifatlar integral xarakterga ega va mutaxassislarining kasbiy faoliyatga moslashishlarining universal asosi hisoblanadi. Bu sifatlarning juda ko'p tarkibiy qismlarga ega ekanligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi. Kasbiy mahoratning yuqori darajasi bilan bir qatorda yangi sharoitdagi ish joyida ko'nikma va malakalarni qo'llash qobiliyati tarkibiga kommunikativ qobiliyatlar, emotsional-irodaviy sohaning shakllanganligi, faollik, sobitqadamlik, keskinlik, stressga barqarorlik, qolaversa, mehnat jamoasining axloqiy me'yorlariga amal qilishi kiradi.

L.V.Mishenko ishlarida kasbiy sifatlar kasbiy faoliyat kontekstiga nisbatan ko'rib chiqiladi. Uning fikricha, sub'ekt ijtimoiy muhit bilan kasbiy o'zaro ta'sirga kirishib, uning o'z-o'ziga nisbatan hurmati oshadi. Muallif kasblar olamiga yo'naltirishni ta'minlovchi shaxs xarakterlariga, faoliyatda shaxs potensialining to'la namoyon bo'lish shartiga, qolaversa, kasb tanlashning mumkin bo'lgan oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga alohida e'tibor qaratadi. Kasbiy sifatlar insonning o'z kasbini bilishi, o'zini mutaxassis sifatida qabul qilishi, kasbiy vazifalarini a'lo darajada va boshqalar uchun foydali tarzda amalga oshirishi bilan belgilanadi [6].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kasbiy sifatlar – ijtimoiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish mahsulidir. Bu professiogenez konsepsiyasining muallifi Ye.P.Yermolayeva hisoblanadi. Muallif kasbiy sifatlar faqatgina kasbni yuqori darajadagi mahorat bilan boshqarish orqali shakllanadi va faoliyat jarayonining asosiy elementlarini barqaror muvofiqligi sifatida namoyon bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Kasbni egallash bosqichi va shunga muvofiq kasbiy sifatlar darajasini tahlil qilish sub'ektning o'zi bilan kasbni identifikatsiya qilish darajasi kasbiy sifatlar funksiyasini amalga oshirish imkonini aniqlashi mumkinligini ko'rsatdi. Kasbiy sifatlar muvofiqlashtiruvchi va qayta tashkil qiluvchi funksiyalarini boshqaradi, ijro etadi: bu funksiyalarning o'zaro muvofiqligi kasbiy o'zini-o'zi anglashga olib keladi va kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi. Kasbiy sifatlarning muvofiqlashtiruvchi funksiyasi kasbiy sentrizm va barqaror kasbiy-mintaqaviy pozitsiyaning zaruriy darajasini ta'minlash bilan belgilanib, u quyidagi mezonlarni o'z ichiga oladi: konstantlik (o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati), moslashuvchanlik (noadekvat kasbiy stereotiplarni yengib o'tishga qodirlik), distantlik (ish joyi haqidagi semantik, informatsion, madaniy tasavvurlarga ega bo'lish). Qayta tashkil qiluvchi funktsiya kasbiy pozitsiyani rivojlantirish va o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular:

- kasbiy sifatlar va shaxsning kasb bilan identifikatsiyasi diapazonining o'zgarishiga;
- o'z kasbini boshqa kasblardan ajratish;

- kasbiy sifatlar tizimidagi tartiblilik yoki «tarqoqlik». Professiogenez negizida qayta quruvchi, muvofiqlashtiruvchi va amalga oshiruvchi tarkibiy qismlarning davriy dinamikasi yotadi.

Ushbu yondashuvda kasbiy sifatlar shaxs komponenti, ya'ni muvaffaqiyatli kasbiy moslashishini ta'minlovchi va kompetentlik, kasbiy egiluvchanlik, ishga qiziqish va muhitga moslashishga asoslangan kasbiy kar'eradagi ustuvor omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

Bizning fikrimizcha, kasbiy sifatlarni o'rganishning qiyin tomoni, birinchidan, u shaxsning aynan o'ziga, ikkinchidan, esa muayyan bir guruh a'zolariga tegishlidir. Muayyan bir ijtimoiy kategoriyalarga shaxsiy dahldorlikni idrok qilishning identifikatsiya jarayoni shunga muvofiq qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan hamohang tarzda kechadi. Kasbiy shakllanish jarayonida sub'ekt o'zini o'z kasbi vakili, u yoki bu kasbiy sifat sohibi, yohud muayyan bir taraqqiyot bosqichidagi mutaxassis sifatida identifikatsiyalaydi. Shuning uchun ham «shaxsiy-ijtimoiy» tizimdagi kasbiy sifatlar baribir ijtimoiylikka va ijtimoiy xususiyatlarga ega.

Natijalar. Tadqiqotimiz davomidagi navbatdagi metodika E.D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so'rovnomasi bo'lib, bunda biz asosan voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologning sud va tyergov faoliyati doirasida kasbiy kompetentligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar hisoblangan o'zini va boshqalarni emotsiyasini tushunish, o'z-o'zini va boshqalarning emotsiyasini boshqarish kabi darajalarining namoyon bo'lishini baholadik. Ushbu usul orqali qo'lga kiritilgan empirik natijalarda quyidagi ko'rsatkichlarni qayd qildi (1-jadval).

1-jadvalda biz D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so'rovnomasi orqali sinflar kesimida o'rtacha dispersiya bo'yicha tahlil qildik va quyidagicha qiziqarli empirik natijalarni qo'lga kiritdik. Mazkur holatda biz respondentlarni 2 guruhga, ya'ni, ayol xodimlar va yerkak xodimlarga ajratdik. Dispersion tahlil natijalariga ko'ra ular orasida “Ichki emotsional intellekt” (46,1 va 42,2 < 0,001) shkalasi bo'yicha sezilarli farqlar kuzatildi. Bundan tashqari “Emotsiyalarni boshqarish” (45,8 va 42,0 < 001) hamda “Tashqi ta'sirlardan o'z emotsiyasi nazorati” (12,1 va 9,07 < 0,001) mezonlarida ham farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so‘rovnomasi orqali qo‘lga kiritilgan dastlabki empirik natijalar (n=260)

Shkala va subshkala	Voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlar				Statistik farq p
	Ayollarda N=70		Yerkaklarda N=60		
	M	σ	M	σ	
Shaxslararo emotsional intellekt	44,1	6,97	42,9	6,72	0,053*
Ichki emotsional intellekt	46,1	8,00	42,2	8,24	- 0,001
Emotsiyalarni tushunish	44,3	6,91	43,1	7,13	0,045**
Emotsiyalarni boshqarish	45,8	7,94	42,0	7,62	- 0,001
Boshqalarni emotsiyasini tushunish	24,5	4,45	24,01	4,01	0,342
Boshqalarni emotsiyasini boshqarish	19,6	3,81	18,8	3,80	0,016
O‘zini emotsiyasini tushunish	19,8	4,07	18,1	4,39	0,018
O‘zini emotsiyasini boshqarish	14,1	3,05	12,4	3,01	0,001
Tashqi ta’sirlardan o‘z emotsiyasi nazorati	9,1	3,12	12,7	3,18	- 0,001

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001.

M – o‘rtacha qiymat

σ – Standard xatolik

p – ahamiyatlilik darajasi

Olingan tahlil natijalari asosida xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ayol xodimlarida “Ichki emotsional intellekt” hamda “Emotsiyalarni boshqarish” va yerkak xodimlarga qaraganda yaxshi rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur holatni ayollarda shaxslararo munosabatlarda emotsional intellektning tayanch mezonlarini yaqqol namoyon bo‘lishi, ya’ni yerkaklarga nisbatan shaxslararo munosabatda samimiylik, ijtimoiy talablarga erkin moslashish, empatik, ichki emotsiyalarini yashirmaslik, o‘z emotsiyalarini boshqarishga urinish kabi jihatlarni ustuvorlik qilishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnikaning samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlik inspektor-psixologning sud va tyergov jarayonida samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalari majmui sifatida sud psixolog ekspertyetining kasbiy faoliyatida ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

2. Inspektor-psixologning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar professionallik darajasini takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

3. Inspektor-psixologning u yoki bu insonlar bilan o‘zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertyetizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

4. Inspektor-psixologlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertyetida o‘ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog‘liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Inspektor-psixolog ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kasbiy kompetentlik omillariga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi kasbiy faoliyatni yuqori samaradorlik asosida tashkil qilish va uni o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka, inspektor-psixolog ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bog‘liq bo‘lgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida inspektor-psixolog kasbiy

kompetentligini ta’minlovchi sohaga tegishli bo’lgan me’yoriy hujjatlar bo’yicha savodxonligi, shuningdek psixodiagnostik ishlarni amalga qo’llay olishi bo’yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

Adabiyotlar:

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmischesch-psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
4. Olimov L.Y. Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishi. P.f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. 2023.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O’quv qo’llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

TA'LIMDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANASI (DAHOLAR TIMSOLIDA)

Raximov Umidjon Muratovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti

maxsus tayyorgarlik sikl o'qituvchisi

raximovumid047@gmail.com

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalar talabalarida ta'lim jarayonida butun insoniyat tomonidan minglab yillardan beri qo'llanilib kelinayotgan ustoz – shogird an'anasi va uning fan borasidagi daholarni yetishtirishda va shakllanishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada, xususan, butun bashar farzandi sifatida tan olingan Jaloliddin Rumi hamda nemis mumtoz faylasufi Immanuel Kantning faylasuf bo'lib shakllanishida ustozlarining o'rni borasidagi fikrlar qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Shu bilan birga Alisher Navoiyning gumanizm falsafasi, Bobur Mirzo, Mashrab, Bedil, Donish hamda asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyolilarning ijodi va faoliyati – “Ustoz-shogird” tizimida g'oyat muhim mafkuraviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Donishmand xalqimiz hikmatlarida aytilganidek, yuksak g'oyaviy maqsadlarga asoslanmay barkamol insonni tarbiyalash mushkuldir. Shuningdek, hozirgi zamonda ham oliy ta'lim jarayonida ustoz-shogirdlik masalasi qanchalik dolzarbligiga ham alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, daho, dogma, innovatsiya, sufizm, falsafa, pedagogika, psixologiya.

**УЧИТЕЛЬ В ОБРАЗОВАНИИ – ТРАДИЦИЯ НАСТАВНИЧЕСТВА И УЧЕНИЧЕСТВА
(В ОБРАЗЕ ГЕНИЯ)**

В данной статье рассматривается традиция учитель-ученик, которая тысячелетиями использовалась всем человечеством в воспитании студентов высших учебных заведений, и её роль в развитии и становлении научных гениев. В частности, сопоставительно анализируются мнения Джалаледдина Руми, известного как дитя всего человечества, и немецкого философа-классика Иммануила Канта относительно роли их учителей в становлении философов. В то же время философия гуманизма Алишера Навои, Бабур Мирзо, Машираба, Бедия, Дониша и творчество и деятельность просвещённых интеллектуалов начала нашего века служат чрезвычайно важным источником идей в системе «Учитель-ученик».

Трудно вырастить идеального человека без всех идеологий. Также обсуждается актуальность вопроса наставничества в процессе высшего образования в современное время.

Ключевые слова: образование, гений, догма, новаторство, суфизм, философия, педагогика, психология.

**TRADITION OF TEACHER- DISCIPLESHIP IN THE EDUCATION
(IN THE PICTURE OF A GENIUS)**

This article examines the teacher-discipleship tradition, which has been used by all mankind for thousands of years in the education of students of higher educational institutions, and its role in the development and formation of scientific geniuses. In the article, Jalaluddin Rumi, known as the child of all mankind, and Immanuel Kant, a German classical philosopher, are analyzed in a comparative manner. At the same time, Alisher Navoi's philosophy of humanism, Babur Mirzo, Mashrab, Bedil, Donish and the work and activities of enlightened intellectuals at the beginning of our century serve as an extremely important ideological source in the "Master-disciple" system.

As it is said in the wisdom of our wise people, it is difficult to educate a perfect person without high ideal goals. Also, the importance of mentor-apprenticeship in the process of higher education in modern times is also discussed.

Keywords: education, genius, dogma, innovation, Sufism, philosophy, pedagogy, psychology.

Kirish. “Ustoz” so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tarbiyalovchi, murabbiy, rahnamo, o‘qituvchi, muallim degan ma‘nolarni anglatadi. Demak, “ustoz” nomi keng ma‘noli so‘z bo‘lib, bu nomga muyassar bo‘lgan kishiga har tomonlama yuksak mas‘uliyat yuklatiladi. Shuning uchun ham xalq orasida ustozlar hurmati to‘g‘risida ko‘plab ibratli naqlar bor. Buning ma‘nosi shuki, har qanday kasb sohibi ustozsiz shakllanmaydi, hayotdan o‘z o‘rnini topa olmaydi.

Ustoz deganda faqat malum bir sohada yoki faqat ilm sohasida emas, balki ilm fanning barcha turlari, kasb hunarlar sirlarini o‘rgatuvchilarni xam tushunishimiz lozim.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo‘lib, uni hurmatlab, e‘zozlab kelganlar. Ota-bobolarimiz ustoz va shogirdlar uchun o‘ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalar, urf-odatlar, duolar, milliy an‘analarni ishlab chiqqan bo‘lib, bu qoidalarga qat‘iy rioya qilingan. Ustozning ham, shogirdning ham oldiga qo‘yilgan o‘ziga yarasha vazifalari va burchlari bo‘lgan.

Shogirdning eng yaxshi xislati – poklikdir. Zero, Xusayn Voiz Koshifiy shogird odobi haqida shunday deydi: “Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozini ko‘rganda, birinchi bo‘lib salom berish; ustozning oldida oz gapirish va boshni oldinga egib turish, ko‘zni har tomonga yugirtirmaslik; agar masala so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ustozdan ijozat olish; ustoz javob aytganda, e‘tiroz bildirmaslik; ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik; o‘tirib-turishda hurmatni to‘liq saqlash. Shogirdning ruhiy olamining muhim zamini ham bo‘lib, ularga poklik, do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlik, sadoqat, mehr-muruvvatlilik, kasb tanlash imkoniyati, vatanparvarlik, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomalalik, ozodalik, pokizalik, samimiylik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insofililik, rostgo‘ylik, or-nomuslilik, hamjihatbarorlik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, to‘g‘rilik, ustozini hurmatlash, ota-onasini hurmatlash kabi xislatlarni egallashi lozimdir”.

Shogird ustozni hurmat qilishi va uning mehnatini qadriga yetmog‘i kerak. Bir hakimdan nima uchun siz ustozingizni otangizdan ko‘ra hurmat qilasiz? – deb so‘rashdi. U bunday javob berdi, otam dunyoga kelishimga sababchi bo‘lgan bo‘lsa, ustozim hayotim boricha yaxshi yashashimga sababchi bo‘ldi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy yashaydigan mahallaga yaqin kelganda otdan tushib, ustozni yashaydigan mahalla ahli bilan quyuq salomlashib, hol-ahvol so‘rab, otiga minmay Jomiy uyigacha piyoda borar ekan. Shunda bir temirchi so‘rabdi: “Amir Navoiy, nechuk ustoz uyiga yetmay turib otdan tushib olasiz? Axir siz vaziri a‘zamsiz-ku! Sizga bundoq yurish yarashmas”. Alisher Navoiy jilmayib turib, shunday debdi: “Yo‘q birodar, men hozir ustozim Abdurahmon Jomiy yashaydigan mahallaga keldim. Demak, bu yyerda yashovchi har bir fuqaro ustozimning tobutkashlari hisoblanadi. Shundoq bo‘lgach, nechun men ular, ya‘ni siz muhtamlar oldida hurmatsizlik qilishim kerak. Ustozimni qandoq avaylab-e‘zozlasam, sizlarni ham shundoq ko‘rgumdir”.

Insoniyat tarixida daholar alohida o‘ringa ega. Ular nafaqat o‘zlari mansub bo‘lgan millatga yoki davlatga balki butun isonniyatga tegishlidirlar. Shu sababi ular qoldirgan merosdan butun insoniyat foydalanib kelmoqda. Bu borada yana bir narsani alohida ta‘kidlash lozimki ular o‘z davrining mahsulidir. Shu bilan birga ularning shu darajaga yerishishida ustozlarining hissasi ham juda kattadir. Zero antik davr faylasuflaridan tortib to yangi zamonning donishmandlarigacha hammasi ustoz shogirdlik an‘anasining natijasidir desak xato bo‘lmaydi. Masalan, insoniyatga ma‘lum tarixning eng qadimgi donishmandlaridan bo‘lmish naturfilosof Fales o‘z shogirdlari Anaksimendan, Anaksimandrlarning fan tarixida nomlari abadiy qolishini ta‘minlagan bo‘lsa, Suqrot esa Aflotun va Arastular buyukligini ta‘minlab berdi, o‘z navbatida Sharqda ham bu an‘ana davom etib kelgan biznig Markaziy Osiyo daholarimiz ham qadimgi yunon olimlaridan ma‘naviy ozuqa olishlari bilan bir qatorda, o‘zaro bir-birlariga ham bevosita ustoz shogirdlik qilganligi bizga ma‘lumdir.

Beruniy bilan Ibn Sino, Shams Tabrizi bilan Rumiy, Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy va hokazolarni keltirish mumkindir. keyinchalik G‘arb olimlarida ham bu an‘ana davom etdi. Masalan olmon mumtoz faylasuflari yorqin vakillaridan biri bo‘lmish Immanuel Kant esa fransuz ma‘rifatpari Jan Jak Russo va ingliz faylasufi, psixologi Devid Yum asarlaridan juda ta‘sirlanganligini alohida ta‘kidlab o‘tgan. O‘z navbatida uning o‘zi ham bir qator jahonga mashhur shogirdlarni tayyorlagani hozirda bizga ma‘lumdir.

Boshqacha qilib aytganda, “Ilk Uyg‘onish davrida yetishib chiqqan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Qaffol ash-Shoshiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi allomalar, so‘nggi Uyg‘onish davrida yashab ijod etgan Amir Temur, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Zahiridin Muhammad Bobur kabi buyuk tarixiy siymolar qoldirgan bebaho madaniy meroslar, ilmiy, badiiy asarlar nafaqat o‘zi mansub millatning, balki butun bir insoniyatning ma‘naviy boyligi sifatida qadrlidir. Ularni o‘rganish, turli nuqtayi nazarlardan kelib chiqqan holda ularni ilmiy tadqiq qilish, mazmun-mohiyatini targ‘ib va tashviq qilish butun bashariyat uchun katta ilmiy yangilanishlarga yo‘l ochadi” [3].

Muhokama va natijalar. Ushbu maqolada biz yuqorida nomlari zikr etilgan daholardan ikkitasini ya’ni Jaloliddin Rumi hamda Immanuel Kant ijodida ustoz – shogirdlik an’anasining o’rnini ko’rib chiqamiz.

“Rumi qarashlarida bir necha bor inqiloblar sodir bo’lgan bo’lib, shundan birinchisi va eng asosiysi usha zamonning mashhur ilohiyotshunos olimi, so’fiy Shamsi Tabriziy bilan bog’liqdir” [4]. YA’ni Mavlono Rumi ustoz Shamsi Tabriziy bilan uchrashguniga qadar shariat qonunlari va dinning tashqi amallari bilan cheklangan bo’lsa, endilikda tariqat va so’fiylik bilan qiziqib qoladi. Rumiyaning aytishicha agar u Tabriziy bilan uchrashmaganida oddiy ratsionalist faylasuf darajasida qolib ketgan bo’lar edi. Tabriziy unga deyarli yangi narsa o’rgatmaydi, faqatgina ortiqcha fikrlardan qutqaradi xolos. Ularning o’zaro suhbat 40 kundan 3 oygacha bo’lgan degan rivoyatlar ham yo’q emas.

Rumiya Shams Tabriziydan keyin yana bir necha tariqatchilar o’z tasirini o’tqazdilar. Xususan ulardan yana Saloxiddin Zarkub va Husayin Chalabidir. Aynan Husayin Chalabi Rumiya Atorning “Lison ut-tayr”ga uxshash asar yozishini taklif qiladi. Shundan so’ng “Masnaviyi ma’naviy” ni yozishga bel bog’laydi. Yuqorida ta’kidlanganidek uning eng mashhur asari ustozlari ta’sirida yozilgandir. Agar nomlari keltirib o’tilgan ustozlari bo’lmaganida bizningcha u o’rta miyona faylasuf sifatida qolib ketgan bo’lar edi. Uni shariatga nisbatan mavjud bo’lgan dogmatik tafakkurdan xalos etganlar ham bu uning ustozlaridir. Zero dogmatik tafakkur hech qachon insoniyatga yaxshilik keltirmagan. Chunki dogmatizm tarixda qanday oqibatlariga olib kelganligi va qolaversa hozirgi kun odamini qanday muammolarga duchor qilayotganini ko’rish mumkin [5]. Xuddi Navoiyning irfoniy qarashlarida mashhur fors shoiri Abdurahmon Jomiyning o’rni beqiyos bo’lgani kabi. Ustoz shogirdlik natijasi o’laroq Navoiyning o’nlab mashhur sufizmga oid asarlari dunyo yuzini ko’rdi [6]. Qolaversa Alisher Navoiy tolyerant dunyoqarash egasi bo’lib shakllanishida Jomiyning irfoniy qarashlarining o’rni beqiyosdir [7].

O’z navbatida, bu an’ana G’arb olamida ham davom ettirildi. Xususan Immanuel Kant tafakkurida sodir bo’lgan inqiloblarning ham o’ziga yarasha sabablari bor edi. Kant daho bo’lib yetishishida onasi bilan bir qatorda buyuk ustozlarning ham o’rni beqiyosdir [8]. Qizig’i shundaki u haqida yozilgan avtobiografik asarlarda yozilishicha u maktab chog’ida umuman falsafaga qiziqmagan. Uning shu darajada mashhur faylasuf bo’lib yetishishiga hech kimning ko’zi yetmagan. Kant keyinchalik Kyonigsberg univyersitetiga o’qishga kiradi. Univyersitetda unda matematika va falsafa o’qituvchisi (Kantdan atigi 10 yoshga katta edi) Martin Knutsen’ katta ta’sir o’tqazadi. Mana shu yosh o’qituvchi Kant dunyoqarashani tubdan o’zgartirib yuboradi. Kant bu inson bilan uchramasdan oldin teologiya hamda filologiyaga (Kant yoshligidan ikkala do’sti bilan shug’ullanishgan va ma’lum bir natijalarga yerishgan) qiziqishi baland bo’ladi. Besh yillik univyersitet ta’limidan sung Kant o’z faoliyatini do’stlari va yaqinlari kutganidek teologiya sohasida emas, balki matematika, fizika va falsafa sohasida davom etadi. Bu yosh o’qituvchidan tashqari Kant dunyoqarashiga yana bir qator faylasuflar ham o’z ta’sirini o’tqazadilar [9].

Dunyoqarash dialektikasi (o’zgaruvchanligi) bu barcha insonlar va davrlarga xos fenomendir [10]. Lekin mana shu o’zgarish nuqtasini belgilab beruvchi timsollar bu chinakam qahramonlar desa xato bo’lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asl maqsadi bu kreativ fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan talabalarni tarbiyalashdir. Shu bilan birga jahonda sodir bo’layotgan o’zgarishlar jarayonida raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tarbiyalashdan iboratdir. Yana bunga qo’shimcha qilib tobora avjiga chiqib borayotgan ruhiy inqirozlardan ham talabalarni saqlab qolish ham hozirda dolzarb muammolardan biridir [11]. Kun sayin butun dunyoni qamrab olishga ildam qadam tashlab boryotgan “iste’molparastlik” kasalligiga ham davo oila tarbiyasi bilan birga bevosita oliy ta’lim tizimiga bog’liqdir [12].

Shuningdek, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O’qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o’tkazilgan tantanali marosimda so’zlagan nutqida ta’lim sifatini oshirishda “Ustoz – shogird” tizimini qaror toptirish zarurligi haqida to’xtalib, “Bugun har bir o’qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so’nggi ijodiy yangiliklarni o’quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so’z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg’or vakillari bo’lishlari kerak. Bunday ustozlar qo’lida ta’lim olgan farzandlarimiz biz orzu qilgan O’zbekistonning yorug’ kelajagini bunyod etishga qodir avlod bo’lib kamol topadi” [1,1], deb ta’kidladi.

Bugun uzluksiz ta’limni tubdan isloh qilish, uning jozibadorligini oshirish davlatimiz siyosatida ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zero, jaholatga ma’rifat bilan kurashish, fuqarolarning mamlakatimizda bo’layotgan tub islohotlarga daxldorligi, ularning yertangi kunga ishonchini oshirish, aholi turmush farovonligini ko’tarish, huquqiy demokratik davlat barpo etish, inson huquqlari va yerkinliklarini ta’minlash, bir so’z bilan aytganda, “YUKSALISH” g’oyasini hayotimizning barcha

jabhalarida amalga oshirish avvalo ta’lim sohasida keng qamrovli islohotlar o’tkazish, o’sib kelayotgan farzandlarimizni bilimdon qilib tarbiyalashga bog’liq [2].

Xulosa. Yuqoridagi misollardan to’g’ri xulosa chiqargan holda, ta’lim tizimida kun sayin mo’rtlashib borayotgan ustoz – shogird an’anasini qayta tiklashga faqatgina qog’ozlarda emas, balki real hayotda ham jiddiyroq qarasaq maqsadga muvofiq bo’lar edi. Hozirgi vaqtda har bir viloyat hududlarida prezident maktablari, davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bu esa, o’z navbatida, dunyoga shahdam qadam tashlab borayotgan mamlakatimizni sifatli mutaxassis kadrlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi. “Ustoz-shogird” tizimida barkamol insonga xos fazilatlar shakllantirilishi, har bir shogird pirovardida mustahkam g’oyaviy e’tiqodga ega bo’lishi zarur. Shu ma’noda “Ustoz-shogird” munosabatlari milliy qadriyatga aylanishi lozim. Natijada, albatta, bizning jamiyatimizda ham otabobolarimiz kabi olim va daholar chiqishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//“Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta’lim masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi//“Xalq so‘zi”, 2019-yil 24-avgust.
3. Xaytmetov, R. (2020). Mavlono Rumiyning “Masnaviyi Ma’naviy” asarida amaliy axloq masalasi. Tamaddun nuri, 1, 76-79.
4. Xaytmetov, R. (2020). Dogmatizm va uning oqibatlari.
5. Akhatov, L., Madalimov, T., & Xaytmetov, R. (2020). 2, 1-4.
6. Akhatov, L., Madalimov, T., Xaytmetov, R., va Ibrohimov, F. (2020). 3, 29-32.
7. Xaytmetov, R. (2020). Immanuel Kant falsafasida olam va odam muammosi. // Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi, 5, 71-74.
8. Xaytmetov, R. (2020). Immanuel Kant agnostitsizmi.
9. Xaytmetov, R. (2020). Dunyoqarash dialektikasi. // Falsafa va huquq, 1, 81- 85.
10. Xaytmetov, R., Madalimov, T., & Akhatov, L. (2020), 6(50), 50-57.
11. Xaytmetov, R., Madalimov, T., & Axatov, L. (2020). Kapitalizm va inson psixologiyasi. // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 2, 53-61.
12. Hikmatlar shodasi / to’plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: “O‘zbekiston”, 2016.



**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIM
JARAYONINI TASHKIL ETISH – ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMASI
SIFATIDA**

*Qurbonova O'Imas Usmonovna,
Buxoro davlat Pedagogika instituti «Pedagogik ta'lim» kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori PhD)*

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlarini joriy etish masalasiga e'tibor qaratilgan. Pedagogik kompetentlik o'qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi. Kompetentlik, raqobatbardoshlik, ma'naviyatlilik umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalari ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kreativ, kompetentli, takomillashtirish, ta'lim texnologiyalari, strategiya, didaktika, professionallik, texnika.

В статье рассмотрен вопрос внедрения образовательных программ на основе компетентного подхода в систему непрерывного образования. Педагогическая компетентность рассматривается как фактор, обеспечивающий качественную организацию педагогической деятельности. Компетентность, конкурентоспособность и духовность являются основными задачами общего среднего образования.

Ключевые слова: компетентность, креатив, компетентность, совершенствование, образовательные технологии, стратегия, дидактика, профессионализм, методика.

The article focuses on the issue of introducing educational programs based on the competence approach to the continuous education system. Pedagogical competence is considered as a factor that ensures quality organization of teaching activities. Competence, competitiveness, and spirituality are the main tasks of general secondary education.

Key words: competence, creative, competent, improvement, educational technologies, strategy, didactics, professionalism, technique.

Kirish. Zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar hamda yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasi, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, loyihalari hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish kabi vazifalar mavjud. Bunda "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" [1] muhim sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari yuzasidan bir qator olimlar, fikr bildirishgan. Masalan, J.Ravanning "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida: "u ko'plab miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqil...., ayrim komponentlar ko'proq kognitiv sohaga tegishli, boshqalari – his-tuyg'u sohasiga tegishli... Bu komponentlar o'z-o'zini samarali boshqarishda bir-birini to'ldirishi mumkin" degan fikrni ilgari suradi. XXI asrda ta'lim bo'yicha xalqaro Yevropa kengashida J.Delor "Ta'lim- yashirin xazina" nomli ma'ruzasida "ta'lim tayanadigan to'rtta ustunni" tushuntirib beradi: bilishni, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, yashashni o'rganish. Bu tushunchalar kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi. J.Delor fikricha, bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda kompetent bo'lish, ya'ni guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan ko'plab murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olishni tushuntirdi. Ta'kidlash joizki, "kompetentlik" tushunchasi bilan birgalikda, uning sinonimi sifatida "malakalar bazasi" termini ishlatilgan hollar ham mavjud.

Natijalar. Bevosita, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta'lim jarayoni o'quvchida egallagan bilim, ko'nikma hamda malakani shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi. Bunda o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, mediaresurs va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faoliyatda samarali foydalanish, erkin ongli kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Davlat ta'lim standartida, bilim - o'rganilgan materiallarni eslab qolish va tushuntirib berish; ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilishdan iborat bo'lsa,

o‘quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni dars jarayonida singdirish bilan birga ularda kompetensiyalarni ham tarkib toptirishni ko‘zlaydi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 22 ta umumta‘lim fanlari o‘qitiladi, o‘quv rejaga tanlov fanlar kiritilmagan hamda o‘quv yuklamasi ko‘p. O‘quvchilarda ko‘proq nazariy bilimlarni shakllantirishga mo‘ljallangan.

Muhokama. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim mazmunini takomillashtirishdan maqsad maktablarda xalqaro talablarga mos ravishda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, shu orqali o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston va dunyoning rivojlangan davlatlari davlat ta‘lim standartidagi tayanch kompetensiyalarni qiyosiy tahlil qilsak, mamlakatimiz maktablarida o‘quvchilarda 6 ta tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga e‘tibor berilgan.

Jumladan, 1) kommunikativ kompetensiya; 2) axborot bilan ishlay olish kompetensiyasi; 3) shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi; 4) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; 5) umummadaniy kompetensiya; 6) matematik savodxonlik, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish kompetensiyasi.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlar ta‘lim tajribasiga nazar tashlasak, jumladan Janubiy Koreya ta‘lim tizimi tajribasida, koreys maktablari o‘quvchilarda 6 ta tayanch kompetensiyani shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Bular:

1. Sohalar bo‘yicha karyera qilishga oid kompetensiya (career inquiry skills).
2. Mustaqil bilim olish kompetensiyasi (basic learning skills).
3. Muammoni hal qila olish kompetensiyasi (problem-solving skills).
4. Kreativ fikrlash, ijodkorlik kompetensiyasi (creative skills).
5. Kommunikativ kompetensiya (communication skills).
6. Fuqarolik kompetensiyasi (citizenship).

Amerika Qo‘shma Shtatlari maktablari esa o‘quvchilarda 4 ta turkum kompetensiyalarni shakllantirishni ko‘zlaydi:

1. Fikrlash yoki ko‘p qirrali fikrlashga oid kompetensiya - ways of thinking (kreativ, innovatsion, tanqidiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qila olish, qaror qabul qila olish, o‘rganish uchun o‘qish, meta bilish (metacognition).

2. Samarali ishlash yo‘llariga oid kompetensiya - ways o working. Jamoada, hamkorlikda ishlay olish, soha bo‘yicha samarali muloqot qila olish.

3. Mehnat qilishning samarali metodlari va vositalaridan foydalana olish - tools for working. Turli axborotdan foydalanish savodxonligi (informational cognition) hamda AKT sohasidagi savodxonlik (ICT cognition).

4. Jamiyatda yashay olish - living in the community, world. Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, o‘z tanlagan kasbi sohasida bosqichma-bosqich yuqori martabaga erishish, shaxs sifatida ijtimoiy ko‘nikmaga ega bo‘lish (local and global citizenship, life and career, Personal and social responsibility).

Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarida maktablar oldiga o‘quvchilarda 8 ta tayanch kompetensiyani shakllantirish vazifasi qo‘yilgan.

1. Ona tilida muloqot qila olish (Communication in the mother tongue).
2. Chet tilida erkin muloqot qila olish (Communication in foreign languages).
3. Matematik savodxonlik, fan-texnikaga oid kompetensiya (Mathematical competence and basic competences in science and technology).
4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi (Digital competence).
5. O‘rganish uchun o‘qish yoki mustaqil bilim olish kompetensiyasi (Learning to learn).
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi (Social and civic competences).
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik kompetensiyasi (Sense of initiative and entrepreneurship).
8. Turli madaniyat, qadriyatlarni tushuna olish va o‘z madaniyatiga ega bo‘lish hamda namoyish eta olish kompetensiyasi (Cultural awareness and expression) [2].

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida faoliyatli yondashuvga asoslangan ta‘lim bugungi kun talabiga mos kelmasligi umumta‘lim fanlarini o‘qitishning prinsipli yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standarti, o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqib amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi.

Shu jihatdan olib qaraganda tadqiqotchi M.Vahobov tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilangan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti ishlab chiqishda foydalanilganligini ta’kidlab o‘tish ahamiyatlidir.

XXI asr ko‘nikmalariga bugungi kun yoshlarida shaxsiy sifatlar bilan bir qatorda, chet tillarini bilish, raqamli savodxonlik, ilmiy savodxonlik, media (AKT) savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, fuqarolik va madaniy savodxonlikka ega bo‘lish, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikr yuritish, muammoni ijobiy hal qila olish, tadqiqotchilik ko‘nikma malakalari, kommunikativlik, hamkorlikda ishlay olish kompetensiyalari, shaxsiy tashabbuskorlik sifatleri, moslashuvchanlik, liderlik jihatlari ega bo‘lish, tirishqoqlik, qiziquvchanlik, mas’uliyatlilik, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talab qilinadi.

Ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqati, jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish, ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqati, axborotlar bilan ishlash, milliy, umummadaniy media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, qayta ishlash, ulardan samarali foydalana olish, xavfsizlikni ta’minlash, media madaniyatga ega bo‘lish layoqati; vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqati, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda ulardan foydalanish, doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatni muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan-texnika yangiliklaridan foydalana olish [3] layoqatini bugungi kun avlodida shakllantirish uzluksiz ta’lim tizimining muhim masalalaridan biri sanaladi.

Umumta’lim fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ona tili va adabiyot, tarix, nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish), lingvistik kompetensiya, tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi, tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi, chet tili, fizika, fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi, tajriba o‘tkazish, fizik kattaliklarni o‘lchash va xulosa chiqarish kompetensiyasi, fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, matematika, musiqa mazmunga oid kompetensiyalar, kognitiv kompetensiyalar, musiqiy savodxonlik kompetensiyasi, jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi, musiqa kuylash va tinglash singari umumiy kompetensiyalarni shakllantirishga e’tibor talab qiladi.

To‘rtinchi sanoat inqilobi, informatsion jamiyat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi, postgloballashuv, siyosiy va ekologik xatarlar – XXI asrning evolyusion paradigmasi inson, jamiyat hamda ta’lim oldiga yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, ta’lim-tarbiya metodologiyasini qayta ko‘rib chiqish, insonparvarlik g‘oyalari himoya qilish, postmodernistik jamiyatda yashash ko‘nikmalarini egallash, shaxsiy imkoniyatlarni muttasil rivojlantirishni taqozo etdi. “Lifelong learning” - “umr davomida ta’lim olish” konsepsiyasining paydo bo‘lishi, mutaxassislarining kasbiy potensialini qo‘llab-quvvatlash, progressiv ish uslublari, metodikalar, texnologiyalar bilan tanishtirish, amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan tizim – andragogika oldiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda.

Andragogika ta’lim dasturlari shaxs va jamiyatning konseptual muammolaridan kelib chiqib, XXI asrning quyidagi bilim hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi zarur:

- yangi g‘oyalarni taklif qilish;
- kreativ fikrlash;
- shaxs ekologiyasi;
- muloqot ko‘nikmalari;
- axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalari;
- zarur ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, kerakli xulosalar chiqara olish;
- demokratik davlatda yashash ko‘nikmalari;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyat;
- tolerantlik, har xil ijtimoiy guruhlarda munosabatlarga tez kirishuvchan bo‘lish;
- muayyan sohaga doir ko‘nikmalar;
- muammoning eng adolatli yechimini topa olish;
- ijtimoiy kompetensiyalar singari.

Xulosa. O‘zbekistonda didaktika ilmini taraqqiy ettirishga qaratilgan shu kabi ishlar bilan bir qatorda hali ilmiy jihatdan tadqiq etilishi zarur masalalar ham mavjud. Xorijiy tajribalar asosida davlat ta’lim

standarti, o‘quv reja, o‘quv dastur, umumiy o‘rta ta’lim mazmunini takomillashtirish va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini amaliyotga joriy etish, umumta’lim fanlarining soni hamda o‘quvchilar o‘quv yuklamasi hajmining yuqoriligi, o‘quv dasturining mazmuni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishning xalqaro talablariga javob bermasligi, o‘qitishning innovatsion usullari STEM, STEAM va baholashning PISA, PIRLS, TIMSS talablariga mos kelmasligi singari masalalar e’tibor talab etadi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. lex.uz.
2. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.
3. Елегина В.С., Похлебаев С.М. Компетентностный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе. // Фундаментальное исследование. 2012, № 3.

KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING DUNYOQARASHINI PSIXOLOGIK RIVOJLANTIRISH

*Saidova Gulchiroy Shokirovna,
Buxoro davlat univversiteti erkin tadqiqotchisi*

Ushbu maqolada kasb ta'limi o'qituvchilarining dunyoqarashini psixologik rivojlantirish jarayonida psixologik mexanizmlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqot davomida 100 nafar o'qituvchi ishtirok etdi va ulardan olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari orqali qayta ishlanib, natijalar aniqlandi. Natijalarda o'qituvchilarning dunyoqarashini rivojlantirishda refleksiya, o'zini o'zi anglash, va hamkorlikdagi ta'lim jarayonlari muhim o'rin tutishi ko'rsatildi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar pedagoglar dunyoqarashini kengaytirish va zamonaviy talablarga moslashishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Tajribali o'qituvchilar refleksiya va o'zini o'zi baholashni muvaffaqiyatli amalga oshirgani holda, yangi o'qituvchilar bu borada ko'proq qiyinchiliklarga duch kelganliklari kuzatildi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda qo'shimcha treninglar va malaka oshirish kurslarining zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: kasb ta'limi, dunyoqarash, psixologik rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, refleksiya, o'zini o'zi anglash, hamkorlikdagi ta'lim, malaka oshirish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматривается значение психологических механизмов и инновационных технологий в процессе психологического развития мировоззрения преподавателей профессионального образования. В исследовании приняли участие 100 учителей, полученные от них данные были обработаны методами качественного и количественного анализа, и определены результаты. Результаты показали, что рефлексия, самосознание и совместные процессы обучения играют важную роль в развитии мировоззрения учителей. Также установлено, что инновационные технологии являются важным фактором расширения мировоззрения педагогов и адаптации к современным требованиям. Было отмечено, что, хотя опытные учителя успешно реализовали рефлексию и самооценку, новые учителя столкнулись с большими трудностями в этом отношении. Результаты исследования подчёркивают необходимость дополнительного обучения и повышения квалификации в сфере повышения квалификации учителей.

Ключевые слова: профессиональное образование, мировоззрение, психологическое развитие, инновационные технологии, рефлексия, самосознание, кооперативное образование, профессиональное развитие.

PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE WORLD VIEW OF VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS

This article examines the importance of psychological mechanisms and innovative technologies in the process of psychological development of the worldview of vocational education teachers. During the research, 100 teachers participated, and the data obtained from them were processed through qualitative and quantitative analysis methods, and the results were determined. The results showed that reflection, self-awareness, and collaborative learning processes play an important role in the development of teachers' worldview. It was also found that innovative technologies are an important factor in expanding the worldview of pedagogues and adapting to modern requirements. It was observed that while experienced teachers successfully implemented reflection and self-evaluation, new teachers faced more difficulties in this regard. The results of the research emphasize the need for additional training and professional development courses in the professional development of teachers.

Keywords: vocational education, worldview, psychological development, innovative technologies, reflection, self-awareness, cooperative education, professional development.

Kirish. Kasb ta'limi o'qituvchilarining dunyoqarashini psixologik rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat fan va texnologiyalar bo'yicha bilimga ega bo'lishi, balki zamonaviy dunyoqarash va psixologik barqarorlikni ham

shakllantirishi zarur. O‘qituvchining dunyoqarashi uning pedagogik yondashuvi va o‘quvchilar bilan munosabatlariga bevosita ta‘sir qiladi. Shuning uchun kasb ta‘limi o‘qituvchilarining dunyoqarashini rivojlantirish nafaqat ta‘lim jarayonining sifati, balki o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Dunyoqarashni rivojlantirish o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda ta‘lim-tarbiya, innovatsion texnologiyalar, hayotiy tajriba va kasbiy kompetensiyalar uyg‘unlashadi. Zamonaviy dunyoqarashga ega o‘qituvchi o‘quvchilarga keng qamrovli bilimlar berib, ularni mehnat bozoridagi yangi talablarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchining dunyoqarashi ta‘lim jarayonidagi yangiliklar va innovatsiyalarni qabul qilishga ham ta‘sir qiladi. Psixologik jihatdan rivojlangan dunyoqarashga ega bo‘lgan o‘qituvchi pedagogik jarayonlarda ochiqlik, moslashuvchanlik va ilg‘or yondashuvlar bilan ajralib turadi. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining dunyoqarashini rivojlantirishda psixologik mexanizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar o‘qituvchining o‘zini o‘zi anglash, o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash orqali rivojlantiriladi. Bu jarayonlarda innovatsion texnologiyalar va metodlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘qituvchining psixologik rivojlanishi va kasbiy yuksalishiga yordam beradi.

Dunyoqarashni shakllantirishda xalqaro tajriba ham muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, kasb ta‘limi tizimida ishlayotgan o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida dunyoqarashni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar o‘qituvchilarning ko‘p qirrali bilim va ko‘nikmalarni egallashlariga, shuningdek, o‘z pedagogik yondashuvlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilashlariga yordam beradi. Shu sababli, kasb ta‘limi o‘qituvchilari o‘zlarining psixologik va kasbiy rivojlanishlari uchun muntazam ravishda o‘z dunyoqarashlarini kengaytirib borishlari zarur. Ushbu maqolada kasb ta‘limi o‘qituvchilarining dunyoqarashini rivojlantirishda psixologik mexanizmlarning o‘rni, ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyati va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda psixologik rivojlanishning ahamiyati muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Gryson va hamkasblarining (2024) tadqiqotida kasb ta‘limi o‘qituvchilarining psixologik rivojlanishida jamoaviy ish muhim rol o‘ynashi ta‘kidlangan. Ular o‘qituvchilar dizayn jamoalari orqali hamkorlikda o‘qitishning istiqbolli tomonlarini o‘rganishgan. Ularning fikricha, jamoaviy ta‘lim jarayoni o‘qituvchilarga nafaqat bilimlarini kengaytirish, balki ularning dunyoqarashlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu esa o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishlariga katta turtki beradi (Gryson, Strubbe, Valcke, & Vandyerlinde, 2024). Seitamaa va Hakoköngäs (2024) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot esa kasb ta‘limi tizimidagi ko‘p madaniyatlilik va uning ta‘lim jarayoniga ta‘sirini o‘rgangan. Ular ta‘kidlaganidek, ta‘lim tizimidagi islohotlar o‘qituvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi va o‘quvchilarga xalqaro standartlar asosida ta‘lim berish imkonini oshiradi. Ularning tadqiqoti ko‘rsatadiki, madaniyatlararo ta‘lim o‘qituvchilarning dunyoqarashini va psixologik rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytiradi (Seitamaa & Hakoköngäs, 2024). Mominov va Murtazaev (2023) o‘z maqolalarida kasb ta‘limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning zarurligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, texnologiya ta‘limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ular innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarni yangicha fikrlashga, o‘z pedagogik usullarini doimiy yangilashga undaydi va shu orqali dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi (Mominov & Murtazaev, 2023). Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasb ta‘limi o‘qituvchilarining psixologik rivojlanishida jamoaviy ta‘lim, ko‘p madaniyatlilik va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar o‘qituvchilarning kasbiy dunyoqarashini kengaytirishga va ularning pedagogik faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda kasb ta‘limi o‘qituvchilarining dunyoqarashini psixologik rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘qituvchilarning dunyoqarashlarini rivojlantirishda psixologik mexanizmlar va innovatsion texnologiyalarning o‘rnini aniqlashdir. Tadqiqotda 100 nafar kasb ta‘limi o‘qituvchisi ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov usuli yordamida tanlandi va ular orasida yangi o‘qituvchilar va 5 yildan ko‘proq tajribaga ega bo‘lganlar ham bor edi.

Tadqiqot usullari sifatida so‘rovnoma va intervyu qo‘llanildi. So‘rovnoma orqali o‘qituvchilarning dunyoqarash darajasi va psixologik rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklari baholandi. Intervyular orqali esa ularning ta‘lim jarayonida qanday psixologik mexanizmlardan foydalanayotgani aniqlab borildi. Shuningdek, tadqiqot davomida ishtirokchilar o‘z pedagogik faoliyatlarida innovatsion texnologiyalarni qanchalik muvaffaqiyatli qo‘llashlarini ham tahlil qildilar. Olingan ma‘lumotlar statistik va kontent tahlili orqali qayta ishlanib, natijalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari kasb ta‘limi o‘qituvchilarining dunyoqarashlarini psixologik rivojlantirish jarayonida bir qancha muhim omillarni aniqladi. Tadqiqot ishtirokchilarining 78 foizi (78

nafar) o'zlarining dunyoqarashlarini rivojlantirishda psixologik mexanizmlarni muhim deb hisoblaganlar. Shuningdek, so'rovnoma qatnashgan o'qituvchilarning 65 foizi (65 nafar) innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'z dunyoqarashlarini kengaytirishga muvaffaq bo'lganliklarini bildirganlar. Ushbu ko'rsatkichlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonida psixologik va texnologik omillar o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Natijalardan kelib chiqib, yangi o'qituvchilar orasida dunyoqarashni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelish holatlari yuqori ekanligi kuzatildi. Masalan, tajribasi 5 yildan kam bo'lgan o'qituvchilarning 40 foizi (40 nafar) o'zlarining psixologik rivojlanishida muammolar borligini ta'kidlaganlar. Bu guruh o'qituvchilari refleksiya va o'z-o'zini baholash kabi psixologik mexanizmlarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelganliklarini aytib o'tishdi. Aksincha, 5 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar orasida bu ko'rsatkich ancha past, ya'ni atigi 15 foizni (15 nafar) tashkil etgan. Tajribali o'qituvchilar o'z dunyoqarashlarini rivojlantirishda ko'proq muvaffaqiyatga yerishganliklarini ta'kidlaganlar.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarning dunyoqarashini rivojlantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Natijalar ko'rsatdiki, 75 foiz o'qituvchilar (75 nafar) innovatsion texnologiyalar yordamida o'z pedagogik faoliyatlarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Bu o'qituvchilarning dunyoqarashi kengayib, zamonaviy talablar va texnologiyalarga moslashishlari osonroq kechganligini bildiradi. Shu bilan birga, 25 foiz ishtirokchilar (25 nafar) hali ham innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning dunyoqarashini psixologik rivojlantirish jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy psixologik xususiyatlar va kasbiy tajriba o'qituvchilarning rivojlanishida asosiy omillar sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, o'qituvchilar orasida hamkorlikda o'qitish va ko'p madaniyatlilikni rivojlantirish ham dunyoqarashni kengaytirishda yordam bergan. Xususan, ko'p madaniyatlilikka asoslangan pedagogik yondashuvlar o'qituvchilarni xalqaro standartlar va madaniy xilma-xillikka moslashishga o'rgatgan. Tahlillar ko'rsatdiki, psixologik rivojlanish jarayoni davomida o'qituvchilar innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlardan foydalanib, o'z dunyoqarashlarini kengaytirishlari va pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga yerishishlari mumkin.

Muhokama. Ushbu tadqiqot kasb ta'limi o'qituvchilarining dunyoqarashini rivojlantirishda psixologik mexanizmlarning muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning refleksiya, o'zini o'zi baholash va hamkorlikdagi ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etishi ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanish pedagoglarning zamonaviy talablarga moslashish qobiliyatini oshiradi. Tadqiqotda yangi va tajribali o'qituvchilarning rivojlanish jarayonidagi farqlari ham aniqlandi. Yangi o'qituvchilar ko'pincha psixologik rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytirish jarayonida to'siq bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar esa aksincha, refleksiya va o'zini o'zi anglashda muvaffaqiyatliroq ekanliklari, ularning pedagogik faoliyatda yangiliklarni qabul qilish qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, tadqiqot ko'p madaniyatlilikning o'qituvchilar dunyoqarashini rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini tasdiqladi. O'qituvchilarning xalqaro tajribalarga asoslangan yondashuvlari ularni zamonaviy ta'lim tizimiga moslashishlari va o'zaro madaniy muloqotni kuchaytirishlari uchun yordam beradi. Biroq innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarga qo'shimcha trening va tajriba yetishmasligi muammo sifatida ta'kidlandi. Shu sababli, kelajakda o'qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslariga jalb qilish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari kasb ta'limi o'qituvchilarining dunyoqarashini rivojlantirishda psixologik mexanizmlar va innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. O'qituvchilarning psixologik rivojlanishi ularning ta'lim jarayonida yangiliklarni qabul qilish, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish va o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini oshiradi. Yangi o'qituvchilar uchun refleksiya va o'zini o'zi baholash jarayonlari qiyin bo'lishi mumkinligi aniqlandi, lekin tajribali o'qituvchilar bu sohalarida sezilarli darajada muvaffaqiyat qozonadi. Innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va ko'p madaniyatlilik o'qituvchilarni global talablarga moslashtirishda yordam beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslari va treninglarga jalb qilish ularning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Gryson, T., Strubbe, K., Valcke, T., & Vandierlinde, R. (2024). Lifelong Learning through Teacher Design Teams for Interdisciplinary Teaching in Secondary Vocational Education: The Perspective of Different Stakeholders. In *Education and Human Development*. IntechOpen.

2. Seitamaa, A., & Hakoköngäs, E. (2024). Finnish vocational education and training experts' reflections on multiculturalism in the aftermath of a major reform. // *Journal of Vocational Education & Training*, 76(3), 644-663.
3. Mominov, S. Q., & Murtazaev, M. Z. (2023). Texnologiya ta'limi dars mashg'ulotlarida o'qitishning an'anaviy ta'lim metodlari asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyati va imkoniyatlari. // *Miasto Przyszłości*, 34, 261-264.
4. Tangirkulova, I. G. (2023). Xalq ta'limi tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning samaralari usullari. // *cientific Impulse*, 1(10), 1408-1410.
5. Xo'shboqovna, A. S. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatishning ilmiy pedagogik asoslari. // *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 491-493.

THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF MILITARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Saxibov Alijon Xudoykulovich,

Researcher of Yangiyer branch of the Tashkent Chemical Technology Institute

This article explores the role of modern information technologies in military education, highlighting the integration of tools such as virtual reality (VR), augmented reality (AR), and artificial intelligence (AI). It discusses how these technologies are transforming traditional training methods, enhancing the realism of simulations, and enabling flexible learning for military personnel. Additionally, the article addresses the pedagogical challenges associated with integrating these technologies, such as maintaining physical discipline and developing critical thinking skills in high-pressure environments. The study concludes by emphasizing the necessity of a balanced approach to incorporating modern IT into military education, ensuring that it complements traditional methodologies while addressing emerging needs in the evolving landscape of defense training.

Keywords: *military education, modern information technologies, virtual reality, augmented reality, artificial intelligence, e-learning, pedagogical challenges, training methods.*

HARBIY TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ushbu maqola zamonaviy axborot texnologiyalarining harbiy ta'limga integratsiyasini o'rganadi, ta'lim dasturlarida virtual reallik (VR), qo'shilgan reallik (AR) va sun'iy intellekt (AI) qo'llanilishini ta'kidlaydi. Ushbu texnologiyalarning an'anaviy ta'lim metodlariga ta'siri va shu bilan birga keladigan pedagogik muammolarni batafsil bayon qiladi. Munozara texnologiyalarni integratsiya qilishda asosiy harbiy ta'lim tamoyillarini saqlab qolgan holda zamonaviy mudofaa tayyorgarligi talablariga moslashish uchun muvozanatli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *harbiy ta'lim, zamonaviy axborot texnologiyalari, virtual reallik, qo'shilgan reallik, sun'iy intellekt, elektron ta'lim, pedagogik muammolar, ta'lim usullari*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В данной статье рассматривается интеграция современных информационных технологий в военное образование, акцентируя внимание на применении виртуальной реальности (VR), дополненной реальности (AR) и искусственного интеллекта (AI) в учебных программах. Описывается преобразующий эффект этих технологий на традиционные образовательные методы, подчёркивая сопутствующие педагогические проблемы. Обсуждение акцентирует внимание на необходимости сбалансированного подхода к интеграции технологий, который сохраняет основные принципы военного образования, адаптируясь к меняющимся требованиям современной подготовки в сфере обороны.

Ключевые слова: *военное образование, современные информационные технологии, виртуальная реальность, дополненная реальность, искусственный интеллект, электронное обучение, педагогические проблемы, методы обучения*

Introduction. Military education refers to the systematic training of individuals to fulfill roles in military service, focusing on developing intellectual, physical, and moral capabilities essential for effective military leadership and operations. It encompasses a wide range of activities, from leadership development and strategic studies to hands-on combat and tactical training. Military education is delivered through specialized institutions such as military academies and training centers, with a strong emphasis on discipline, strategy, and technical proficiency.

Main part. The key objectives of military education are:

1. Developing leadership and decision-making skills under high-pressure environments.
2. Enhancing tactical and strategic knowledge for efficient operational planning and battlefield management.
3. Fostering physical fitness and discipline, ensuring readiness for combat and strict adherence to military protocols.
4. Instilling core military values like loyalty, duty, and national service.

5. Improving technical and combat expertise through the use of modern military technologies and systems.

In Uzbekistan, military education holds a vital role in the national defense structure, with its institutions designed to produce highly skilled officers and military personnel. Central to this system is the Academy of the Armed Forces of Uzbekistan, which leads the way in providing strategic and leadership training. Other institutions like Higher Military Schools and Specialized Training Centers focus on developing specific competencies in areas such as communications, engineering, and cybersecurity.

In recent years, Uzbekistan has made significant strides toward modernizing its military education, focusing on aligning training programs with international standards while integrating modern information technologies.

As military education evolves globally, technological advancements have become essential tools in transforming traditional methods. This trend is evident in Uzbekistan's efforts to modernize its military training, where the use of modern information technologies is playing a critical role. Technologies such as virtual reality (VR), augmented reality (AR), and artificial intelligence (AI) are not only enhancing the realism of combat training but also enabling flexible and remote learning for soldiers deployed in the field. [1][2]

Furthermore, the integration of data-driven assessments and personalized training programs is ensuring that military personnel receive more targeted education based on their individual progress and capabilities. These advancements, coupled with the ability to collaborate with international partners through joint exercises, have placed modern technologies at the heart of Uzbekistan's efforts to enhance the effectiveness and adaptability of its military education system. [3][4]

Modern information technologies (IT) have revolutionized many sectors, including education, by providing new ways to teach, learn, and train. [5]

In the military context, the role of IT has become increasingly significant due to the unique demands of military education and training. These technologies offer innovative methods to enhance knowledge acquisition, skill development, and operational preparedness.

While modern information technologies offer unprecedented opportunities to enhance military education through realistic simulations, remote learning, and personalized training, their integration into military training systems also introduces specific pedagogical challenges. These challenges include ensuring the development of critical thinking in high-pressure environments, maintaining physical discipline, and balancing traditional hands-on training with digital tools. [6]

Therefore, the successful integration of these technologies requires a careful approach that preserves the core principles of military education while leveraging the benefits of modern advancements. [7]

One of the most transformative aspects of modern military education is the growing use of e-learning platforms and Learning Management Systems (LMS). These systems allow military personnel to access a wide variety of educational materials and courses, regardless of their physical location. E-learning platforms offer flexibility and convenience, enabling soldiers to engage in continuous learning even while deployed. Instructors can upload training modules, instructional videos, and interactive content, which learners can access at their own pace. This shift from traditional classroom settings to digital learning environments has made military education more accessible and adaptable.

Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) have also revolutionized military training, particularly in simulating battlefield scenarios. VR creates fully immersive virtual environments where soldiers can experience combat situations, practice strategies, and make decisions without physical risk. This realistic training experience enhances soldiers' preparedness for actual combat while reducing the costs and dangers of live exercises. Similarly, AR overlays digital elements onto real-world environments, allowing soldiers to interact with virtual objects during live exercises. For instance, AR can project virtual enemies or mission objectives onto a physical training ground, providing soldiers with a dynamic, hybrid training experience. Both technologies improve situational awareness and decision-making skills, critical for battlefield readiness. By integrating VR and AR, military education moves beyond theoretical knowledge, allowing for more hands-on and practical training in a controlled environment. This combination of digital and physical training helps soldiers build essential tactical skills that are difficult to develop through traditional classroom instruction alone.

The application of Artificial Intelligence (AI) in military education has introduced new possibilities for personalized and adaptive learning. AI-powered systems can analyze individual learning patterns, skills, and progress to create customized training programs tailored to each soldier's needs. These systems continuously adapt the difficulty and content of training based on the learner's performance, ensuring that soldiers are challenged appropriately and their weak areas are addressed effectively. AI-driven simulations

can also present dynamic, real-time scenarios that change according to a soldier's decisions, simulating the unpredictability of real-world combat. This level of adaptability not only improves the learning process but also accelerates skill development, allowing military personnel to master complex tasks more efficiently. As AI technology evolves, it is becoming a key element in optimizing military training programs, ensuring that every soldier receives the precise training they need to perform effectively in the field. [8]

In addition to LMS and AI, mobile learning has become an indispensable tool in military education. With mobile devices like smartphones and tablets, soldiers can access training materials, videos, and assessments anytime and anywhere, even in remote locations or while on active duty. This portability enables military personnel to engage in continuous learning without being tied to a physical classroom or specific schedule. Mobile learning also supports micro-learning, where short, targeted lessons are delivered in bite-sized formats, allowing soldiers to quickly refresh their knowledge or learn new skills in a matter of minutes. This flexibility is particularly useful in situations where time is limited but maintaining combat readiness is crucial. By integrating mobile learning into military education, military organizations ensure that learning is no longer confined to a specific time or place, making it more practical and aligned with the needs of modern soldiers.

These modern technologies-e-learning platforms, VR/AR, AI, and mobile learning-are not isolated tools but interconnected parts of a broader shift toward digital transformation in military education. E-learning platforms serve as the foundation for delivering educational content, while VR/AR provides realistic, immersive experiences that bring battlefield scenarios to life. AI further personalizes this learning experience, ensuring that soldiers receive the right training at the right time, while mobile learning enables soldiers to continue their education regardless of their physical location. By integrating these technologies, military institutions create a comprehensive, flexible, and adaptive training system that equips soldiers with the skills, knowledge, and experience necessary to meet the demands of modern warfare. However, while these technologies offer substantial benefits, their effective integration requires careful planning and a pedagogical approach that balances traditional military values with cutting-edge innovations.

Integrating modern information technologies into military education presents several pedagogical challenges that must be addressed. One significant issue is adapting traditional teaching methods to include more interactive approaches. Military education has historically relied on structured, hierarchical methods emphasizing discipline, making it difficult for instructors to blend these with modern collaborative learning techniques.

Access and infrastructure also pose challenges, as providing equal access to technological resources across various locations and ranks can be difficult. Personnel in remote areas may lack the necessary hardware and internet connectivity, leading to disparities in learning opportunities.

Additionally, security concerns arise with the use of digital platforms, as they may expose sensitive military information to cyber threats. Instructors must balance effective training with stringent security measures, complicating pedagogical strategies.

Finally, there may be resistance to change from military instructors and personnel accustomed to traditional methods. This resistance can stem from unfamiliarity with technology or concerns about the effectiveness of new teaching approaches. Overcoming this resistance is essential for the successful adoption of IT in military education.

Addressing these challenges is crucial for maximizing the benefits of modern technologies and creating an effective training environment that prepares military personnel for the complexities of modern warfare.

Modern technologies offer numerous benefits that enhance military education significantly. One key advantage is realistic training simulations. Technologies such as Virtual Reality (VR) create immersive environments where soldiers can engage in lifelike scenarios, allowing for hands-on experience in a safe setting. This realism enhances preparedness and decision-making skills, crucial for effective combat training.

Another benefit is accessibility and flexibility. Mobile and online platforms enable military personnel to access educational materials anytime and anywhere, facilitating continuous learning even while deployed. This flexibility ensures that training can occur without being constrained by time or location.

Enhanced collaboration is also a notable advantage of technology in military education. Digital platforms allow for seamless communication and cooperation across different branches and geographic locations, fostering a unified approach to training. This collaboration enhances the sharing of knowledge and best practices, ultimately improving operational effectiveness.

Finally, data-driven instruction powered by Artificial Intelligence (AI) and analytics provides valuable insights into learners' progress. These technologies enable instructors to assess individual performance more effectively and tailor training programs to meet specific needs. By leveraging data, military education can

ensure that personnel receive the most relevant and effective training, ultimately leading to improved outcomes in the field.

To effectively integrate modern information technologies into military education, several strategies should be considered. First, **blended learning approaches** can ease the transition by combining traditional teaching methods with technology-enhanced learning. This hybrid model allows instructors to maintain the discipline of military education while incorporating interactive elements that engage learners.

Second, **teacher training programs** are essential for upskilling military instructors in the use of new technologies. Providing comprehensive training will enable educators to effectively utilize digital tools, fostering a more effective learning environment.

Additionally, a strong **focus on cybersecurity** is crucial. Embedding cybersecurity protocols within educational platforms helps protect sensitive information and ensures that digital training environments remain secure. Instructors and learners must be aware of best practices for safeguarding data and systems.

Finally, **curriculum development** should prioritize updating educational content to incorporate modern information technologies in a pedagogically sound manner. This includes integrating relevant technological tools and methodologies that enhance learning outcomes while aligning with military objectives. [9]

Success stories highlight the effective integration of information technologies in military education. For instance, the United States Army's use of Virtual Reality (VR) in the Synthetic Training Environment (STE) has revolutionized how soldiers prepare for various scenarios. This program provides immersive training simulations that improve readiness and decision-making skills.

However, **lessons learned** from these initiatives also reveal challenges. For example, some military programs faced resistance from instructors who were unfamiliar with new technologies. By addressing this through comprehensive training and support, these programs were able to enhance their integration efforts, illustrating the importance of ongoing professional development in overcoming initial hurdles.

Conclusion. In summary, integrating modern technologies into military education offers significant benefits, such as realistic training simulations, enhanced accessibility, and improved collaboration. However, it also presents challenges, including the need to adapt traditional teaching methods and address cybersecurity concerns.

Looking to the future, developments in Artificial Intelligence and machine learning are likely to further enhance military training effectiveness. As technology continues to evolve, military education must adapt accordingly to leverage these advancements fully.

To navigate these challenges and embrace the benefits of modern technology, military educators and policymakers must prioritize teacher training, invest in secure infrastructure, and develop curricula that incorporate innovative teaching methods. By doing so, they can create a robust training environment that prepares military personnel for the complexities of modern warfare.

References:

1. Abduqayumov, A. (2020). Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning harbiy ta'limdagi roli. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.
2. Askarov, I., & Shodmonov, A. (2019). "Innovatsion texnologiyalar va harbiy ta'lim: muammolar va yechimlar." // O'zbekiston ta'limi jurnali, 3(1), 15-22.
3. Ismoilov, K. (2021). "Harbiy ta'limda virtual reallikning qo'llanilishi." // Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 6(4), 89-96. DOI: 10.36739/TI.2021.04.15.
4. Mirzaev, N. (2022). Yoshlar ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
5. Karimov, B., & Yuldashev, A. (2023). "Mobil o'qitish tizimlari va harbiy kadrlar tayyorlash." // Harbiy pedagogika jurnali, 12(2), 44-50. DOI: 10.26886/HP.2023.02.12.
6. Dede, C. (2009). Immersive Interfaces for Engagement and Learning. // Science, 323(5910), 66-69. DOI: 10.1126/science.1162838.
7. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The Power of Feedback. // Review of Educational Research, 77(1), 81-112. DOI: 10.3102/003465430298487.
8. Hwang, G.-J., & Chang, H.-F. (2011). A two-tier test approach to promoting students' conceptual understanding in a mobile learning context. // Educational Technology & Society, 14(2), 109-119.
9. Kira, D., & Wren, J. (2021). The role of Virtual Reality in Military Training. // Journal of Military Studies, 12(1), 45-58. DOI: 10.1007/s40561-021-00201-6.

TALABALARNI KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION MUHANDISLIK KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Jalilov Erkin Ergashevich,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Maqolada talabalarni kompetentli yondashuv asosida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning usullari, yo'llari haqida ma'lumotlar batafsil yoritilgan, kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlari ko'rib o'tilgan. Xususan, kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: kompetentlik, baholash, ma'lumot, o'qituvchi, o'quvchilar, munosabat, shaxsiy, amaliy, ijtimoiy, tashabbuskor, yondashuv, innovatsion, muhandislik, kasbiy, faoliyat, metodika, takomillashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ ИНЖЕНЕРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА

В статье подробно описаны методы и пути совершенствования методики подготовки студентов к инновационной инженерной профессиональной деятельности на основе компетентного подхода, а также рассмотрен ряд аспектов образования на основе компетентных подходов. В частности, обсуждались виды профессионально-практических компетенций и этапы их развития.

Ключевые слова: компетентность, оценка, информация, преподаватель, студенты, отношение, личностное, практическое, социальное, инициатива, подход, инновационный, инженерный, профессиональный, деятельность, методология, совершенствование.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF INNOVATION ENGINEERING ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH

The article details the methods and ways of improving the methodology of preparing students for innovative engineering professional activities based on a competent approach, and considers a number of aspects of education based on competency approaches. In particular, the types of professional and practical competences and their development stages were discussed.

Keywords: competence, assessment, information, teacher, students, attitude, personal, practical, social, initiative, approach, innovative, engineering, professional, activity, methodology, improvement.

Kirish. Uzluksiz pedagogik ta'limning vazifasi shundan iboratki, u madaniyatning kuchli omillaridan biri sifatida shaxs imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarishga yunaltirilishi kerak. Uzluksiz pedagogik ta'lim inson omilini faollashtirish, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy sohasida o'qituvchining rolini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shu funktsiya o'qituvchi shaxsni kasbiy tayyorlashda milliy va mintaqaviy farqlarni hisobga oladi. Muhandis kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modyernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Ta'lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi. Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Muhandis o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur? Ayni o'rinda shu va shunga o'xshash g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. Inglizcha «competence» tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosta «qobiliyat» ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Kompetensiya – bu ta'lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan

umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyaviy bilim yoki ko‘nikmaga tushmaydi; kompetentlik – bu olim yoki o‘qimishli odam bo‘lishni anglatmaydi. Kompetensiya va ko‘nikma o‘rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko‘nikma – bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya – xatti-harakatlar, ko‘nikmalarning kuzatuvlaridan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko‘nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. “Kompetentlik” tushunchasi psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kreativ pedagogika ilmiy bilish sohasi va pedagogikaning fundamental asoslaridan biri sifatida olib borilgan tadeikrlarga A.Matyushkin, A.F.Eskulova, T.V.Kudryavtseva va boshqalarning ishlarini misol keltirish mumkin. Bu to‘g‘rida Y.A.Ponomarev quyidagicha fikr bildirgan: “Abstrakt fan sifatida kreativ psixologiyasining kreativ pedagogikasi tarkibiga aniq fan sifatidagi kiritilishi - ijodiy faoliyat to‘g‘risida o‘zgartiruvchi ta’sirli bilimlarni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Uni amalga oshirish uchun esa qator ijtimoiy fanlar tuzilmasi va ularning o‘zaro aloqalarini jiddiy qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Bu holat ijodiy faoliyatning turli tashkiliy tuzilmalarini tadqiq qiluvchi fanlarning ijodkorlik to‘g‘risidagi bilimlarning asl poydevorini tashkil qiluvchi fanga, yangi bilimlarning aniq sohasi sifatida yuzaga kelgan kreativ pedagogikaning fundamental fanga aylanishi bilan bog‘liqdir”. Har qanday maqsadni amalga oshirish uchun jarayon kerak. Tadqiqot ishimizni pedagogik jarayonga ustuvorlik berish asosida olib bordik. Metodik modelda pedagogik jarayon elementlari sifatida quyidagi darajalar aniqlandi: mazmun (Me’yoriy xujjatlar (O‘zbekiston Respublikasi “Ta’im to‘g‘risida”gi 14 qonuni, oliy ta’lim sohalari tasniflagishi, ta’lim sohasining DTS, ta’lim yo‘nalishining malaka talabi va o‘quv reja, avtotransport vositalarining diagnostikasi fanining namunaviy va ishchi fan dasturlari hamda texnologiya fani o‘qituvchisini tayyorlash jarayonini tashkil etishga oid boshqa shu kabi xujjatlar), ilmiy adabiyotlar (ilmiy va texnik adabiyotlar texnologiya ta’limi praktikumi fanining darsligi, elektron qo‘llanmalar, O‘Umlar, elektron manbalar) qo‘shimcha materiallar (didaktik manbalar, ko‘rgazmali qurollar, maket va o‘quv ustaxonalari)); shakl (jamoaviy (talabalarni umumlashtiruvchi shakllardan foydalanish), guruhli (talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib o‘qitish), individual (yakka tartibda mashg‘ulotlar tashkil etish)); metod (an’anaviy metodlar (og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy), noan’anaviy metodlar (interfaol metodlar), innovatsion texnologiyalar (innovatsion yondashuvga asoslangan “Smart muhandis”, “Develop engineering”, texnologiyalari)); vosita (real 3D modellar, trenajyor, belgilar va jixozlar, AKTLar), tabiiy, bosma, qo‘llanish sohasi (Avtotransport vositalarining diagnostikasi fani mashg‘ulotlarida, “Muhandislar” to‘garagi mashg‘ulotlarida, avtotransport vositalarining diagnostikasi fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida) komponentlar bir-biri bilan uzviyligi ta’minlangan holda bog‘langan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarga inovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirishda umumtexnika fanlari asoslariga oid bilimlar bilan birgalikda kreativlik ko‘nikmalariga ham ega bo‘lish talab etiladi. Ushbu ko‘nikmani talab darajasida shakllantirishda talabalar ilmiy texnik ijodkorligi umumiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning pedagogik tizim sifatidagi xususiyati talaba ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asosiy vazifa sifatida qaralishidir. Shu sababli, talabalar ilmiy texnik ijodkorligi tavsifiy xislatlarga to‘g‘ri hisobga olish bilan birga ularda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning uzluksiz, bosqichma-bosqich amalga oshirilishidagi pedagogik jarayonni yanada mazmunli va unumli tashkil etishga imkom beradi. Talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni yaratish maqsadida o‘quv dasturidagi boshqa fanlar bilan birgalikda talabalar konstruktorlik byurosi, texnik ijodkorlik, rassomchilik, modelchilik, tasviriy san’at to‘garaklari imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish lozim bo‘ladi. Bu qatorda talabalar konstruktorlik byurolarida olib boriladigan ijodiy ishlarning afzalligi yangi texnik ishlanmalar yaratish bilan birgalikda ulardagi texnik yechimlarni amalga oshirishning iqtisodiy, texnik-texnologik ko‘rsatkichlarini asoslash, g‘oyani [alq xujjaligiga qullashning amaliy imkoniyatlarini o‘rganish kabi yaxlit majmuaviy faoliyat bilan belgilanadi. Talabalar konstruktorlik

byurolarida kreativ mehnat asoslarini o'rgatishdan maqsad ratsionalizatorlik va ixtirochilar faoliyatida namoyon buluvchi kasbiy faoliyatga qiziqishga tarbiyalash, egallanayotgan faoliyat sohasiga kreativ munosabatni shakllantirish va mustaxuamlashdan iborat bulib, bunday ta'lim uz kasbiga bulgan qizikishni ortirishi, ta'lim va ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtira oladigan mutaxassisni tarbiyalash bilan ahamiyatlidir. Talabalar konstruktorlik byurolarida talabalar uz ilmiy-ijodiy ishlari yakunini ixtiro, ratsionalizatorlik taklifi, refyerat, kurs va diplom ishlari shaklida amalga oshirish yo'llarini izlashtiradilar. Albatta, talabalarning bunday yuqori ko'rsatkichlarga yerishishlari, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatida ishtirok etishi bevosita ularning bilim saviyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bilim saviyasi yuqori bo'lgan talabalarning malaka tavsifi ortib boradi, kasbni egallash tezlashadi, ilmiy texnika ijodkorligida ishtirok etish davri yertaroq; boshlanadi.

Kasbiy kompetentlikning talqini turlicha bo'lib, mazmun jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, chet el tadqiqotchilari R. Xagyerti, A. Meyxyularning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlik har qanday mutaxassis kasbiy malakasining asosiy qismidir deyilgan. Shunday qilib, ko'plab tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik kasbiy bilim, ko'nikma va kasbiy faoliyat usullarining birligi sifatida tushuniladi. Bu mahorat tuzilmasiga kiritiladi, o'z o'rnida kasbiy mamnunlik, kasbiy dolzarblik, kasbiy yaroqlilik kabi ko'rsatkichlar bilan farqlanadi. Bo'lajak muhandislarning kelajakda rivojlanishi kerak bulgan kasbiy kompetentlarga misollar keltiramiz. 1. Kasbiy faoliyat sohasida yangi ijodiy g'oyalarni shakllantirish va tashkil qilish qobiliyati; 2. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda bilimlarni mustaqil ravishda o'zgartirish qobiliyati; 3. Univyersal bilimlarni ongli ravishda qo'llay olish; 4. Lokal bilimlarni ongli ravishda qo'llay olish; 5. Muhandislik muammolarini tahlil qila olish; 6. Muhandislik yechimlarini loyihalashtirishni amalga oshira olish; 7. Ijtimoiy javobgarlik; 8. Qonunchilik va huquqiy me'yorlarga rioya etish; 9. Muhandislik faoliyatining etikasi; 10. Muhandislik 13 faoliyatini tashkil etish va boshqarish; 11. Kommunikatsiya; 12. Hayoti davomida ta'lim olishni to'xtatmaslik; 13. Lozim joylarda muhandislik qarorlarini qabul qila olish; 14. Muhandislik qarorlari uchun javobgarlik hissini mavjud.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, muhandis kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modyernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Ta'lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi. Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. [2].

Xulosa va takliflar. Maqolaning tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi: Ta'lim jarayoni uchun integrativ yondashuv asosida muhandislik kasbiy kompetentlik qobiliyatlari bo'yicha bilim va malakalarini rivojlantiruvchi takomillashgan o'quv-didaktik vositalar ishlab chiqildi. Oliy ta'lim muassasalarida dasturning boshqa fanlari bilan aloqalarni hisobga olgan holda asosiy mavzular uchun didaktik va uslubiy materiallarni ishlab chiqildi. Tizimiga maqsadli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatishni tashkil yetish shakllari asoslandi kasbga qiziqishning rivojlanishi o'zaro bog'liq omillar hamda o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirildi. Multipredmetlilik va yaxlitlik tamoyillariga ustuvorlik kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni hamda pedagogik jarayon natijaviy komponentlari berish asosida faoliyatli o'quv modeli tarmoqlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirildi. Bo'lajak muhandislarning texnik, konstruktorlik, loyihalash va texnologik jarayonlarni boshqarishini kompetentli, metodologik yondashuvlarini amalga oshirish bosqichlari hamda ta'limga an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning qiyosiy tahlili ochib berildi.

Adabiyotlar:

1. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.
2. Xudaykulov R.Z Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi // “Oilaviy munosabatlar destruksiyasining psixologik tadqiqi: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2022 may, Termiz – B. 489-492.
3. Степанков А.П. Техническое творчество как средство подготовки старшеклассников к труду на автоматизированной промышленности. Автореф. дисс....канд.пед.наук. -М.1985 . 18 с.

4. Бедник В.С., Аюбян Г.В. Сущность инженерной деятельности // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 12 [Электронный ресурс]. URL: <http://web.snauka.ru/issues/2016/12/76744> (дата обращения: 23.09.2018).

5. Назаров А.А. Талабаларнинг муҳандислик фаолиятига инновацион ёндашувини шакллантирувчи дидактик тамойиллар. // Муғаллим ҳәм узликсиз билимлендируъ (ISSN 2181-7138) № 3 2018 жыл Илимий-методикалық журнал 73-75-бет.

6. Химматалиев Д.О., Баратов Д. Талабаларни инновацион муҳандислик фаолиятига тайёрлашда креатив компетентлигини ривожлантириш. // Муғаллим ҳәм узликсиз билимлендируъ (ISSN 2181-7138) № 6/2 2022 жыл Илимий-методикалық журнал 113-114-бет.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOGNITIV FAOLIYAT ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA YONDASHUVLAR

*Usmonova Gulshodaxon Ikromjon qizi,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
usmonovagulshodaxon@gmail.com*

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini kognitiv faoliyat asosida rivojlantirish, tadqiqotchilik faoliyatiga ijodiy yondashish, kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish va tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyalari, kognitiv kompetensiya tushunchalari va ularning mazmun mohiyatini ochib berish hamda pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** tadqiqot, tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyalari, kompetensiya, qobiliyat, ijod, “ijodiy” va “qidiruv” kognitiv, kognitiv kompetensiyalar, bilish faolyati, tadqiqotchilik faoliyati, dars shakllari, sinfdan tashqari ishlar, darsdan tashqari ishlari, ekuskursiya.*

ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье описывается развитие исследовательской компетентности у будущих учителей на основе познавательной деятельности, творческого подхода к исследовательской деятельности, формирования познавательных и исследовательских компетенций, исследовательских компетенций, раскрытие понятий познавательной компетентности и их содержания, а также улучшение педагогических условий.

***Ключевые слова:** исследование, исследовательские компетенции, компетентность, способности, креативность, «творческие» и «поисковые» познавательные, познавательные компетенции, познавательная деятельность, исследовательская деятельность, формы уроков, внеклассная деятельность, внеклассная деятельность, экоэкскурсия.*

APPROACHES TO FORMING RESEARCH COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS ON THE BASE OF COGNITIVE ACTIVITY

This article describes the development of research competence in future teachers on the basis of cognitive activity, a creative approach to research activity, the formation of cognitive competences and research, research competences, revealing the concepts of cognitive competence and their content, as well as the improvement of pedagogical conditions.

***Keywords:** research, research competencies, competence, ability, creativity, "creative" and "search" cognitive, cognitive competencies, cognitive activity, research activity, forms of lessons, extracurricular activities, eco-excursion.*

Kirish. Bugun jahonda ta‘lim tizimini modyernizatsiyalash sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tadqiqotchilik kompetensiyalarini kognitiv faoliyat asosida shakllantirish muhim sanaladi. Ularni, ayniqsa, pedagogika sohasida ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish ustivor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda milliy o‘ligini anglash, vatanga sadoqat, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirish, bugungi globallashgan axborotlar asrida o‘quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ommaviy madaniyatga qarshi kurashish kabi muammolarni yechimi topishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish va ularni amaliyotga tatbiq etish ilm-fan va ta‘lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Bo‘lajak Tarbiya fani o‘qituvchilarini o‘qitishda tadqiqot, tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyalari, kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish va kelajakdagi o‘qituvchilik faoliyatlarida maktab o‘quvchilarida ham tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishga hizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot, tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyalari, kompetensiya, kognitiv, kognitiv kompetensiyalar haqida pedagogik lug‘atlar, pedagogik psixologik tadqiqotchilar va olimlarining fikr mulohazalarini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Dastlab “tadqiqot” va “tadqiqotchilik” so‘zlarining ma‘nosiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tadqiqot arabcha so‘z bo‘lib, “1) tadqiq ishi, tekshirish, o‘rganish; 2)

ilmiy tekshirish ishining natijasi; tadqiqotchilik “tadqiqot bilan mashg‘ul bo‘lish, tadqiqot ishlari”[5-637-B] tarzida ta‘rif beriladi.

Pedagogik lug‘atlarda fandan kelib chiqqan holda ‘tadqiqot metodi‘ deb ta‘rif beriladi. Tadqiqot metodi – borliq hodisalarini amaliy-nazariy jihatdan anglash hamda o‘rganishning yo‘l-yo‘riq, tadbir va usullari. Tadqiqotchi – ilmning u yoki bu sohasida tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis. Tadqiqot metodi – 1) bilimlarning ijodiy qo‘llanishini ta‘minlash metodi; 2) ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida ularning o‘zlashtirilishiga qaratilgan metod. Tajriba- pedagogik voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni. [6-65 B].

Lug‘atlardagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot ilmiy bilish jarayoniga ijodiy yondashish demakdir.

Tadqiqot va tadqiqotchilikning maqsadi talabalarning ilmiy kashfiyotlari emas, balki ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishdir. Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilinganda, ularning qobiliyatini, ularni qiziqtirgan masalalarni turli fan sohalarida chuqur o‘rganish motivatsiyasini hisobga olish zarur.

Tahlil va muhokama. “Tadqiqot faoliyati” iborasidagi muhim so‘z bu-tadqiqotdir. “Tadqiqot” tushunchasining talqini turli lug‘atlarda va ilmiy manbalarda uchraydi. Izohli lug‘atda ta‘kidlanganidek, tadqiqot olimlar tomonidan qandaydir hodisa, muammoni o‘rganadigan harakat demakdir. Ilmiy tekshirish ishining natijasidir.

Ilmiy izlanishlarda “tadqiqotchilik faoliyati” tushunchasi o‘quv jarayonini tashkil etishda ham, oliy ta‘lim tashkilotidagi yangi zamonaviy texnologiyalaridan biri sifatida ham, har xil talqin qilinadi. Shu bilan birga, talabalarning faoliyatida “ijodiy” va “qidiruv” sinonim tushunchalarini qo‘llash, pedagogik asarlarda ham uchraydi [19-84 B].

Zamonaviy ta‘lim jarayoni talabalarda analitik va ijodiy fikrlash, bilimga qiziqish, faktlarni, axborotni, hodisalarni mustaqil ravishda tahlil qilish va umumlashtirish, o‘z g‘oyalarni himoya qilish va o‘z takliflarini kiritish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan talabalarning tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyati ortib bormoqda, natijada bilish faoliyati ham rivojlanmoqda, tadqiqot qobiliyatlari shakllantiriladi, intellektual ijodkorlik rivojlanadi, muayyan muammolarni o‘rganish amalga oshiriladi. [18]

J.R. Turmatov tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish [14-52 B] bo‘yicha ishlar olib borgan.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning bir guruhi tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida [5] qabul qilishni ta‘kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bir butun majmuidir [4] deb hisolashadi.

L.M.Qaraxonova tadqiqotchilik jarayoni uchun quyidagi ishchi ta‘rifni tavsiya qilgan. Tadqiqotchilik kompetensiyasi – deganda biz tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko‘nikmalari deyish mumkin. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko‘rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli o‘quvchilarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan [18]

Tillayeva R.T o‘zining tadqiqotchilik kompetensiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishini o‘rganib chiqish natijasida quyidagicha ta‘rifni qo‘llashni taklif etgan.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi - bu o‘quvchilarning tadqiqot faoliyati davomida shakllantirilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalari yo‘nalishlari mazmuni, qiymati, xulq-atvori me‘yorlari majmuyidir. Bunda o‘quv jarayonlari xususiyatlariga ko‘ra muayyan vaqt mobaynida (qisqa yoki uzoq muddatli) tadqiq etilayotgan obyekt doirasida tanqidiy fikrlash, g‘oyalarni ilgari surish, muammolarni aniqlashtirish, turli xil bilim manbalari bilan mustaqil ishlash, kuzatish, tadqiq etish, yechimlarni taklif qilish asosida noma‘lum bo‘lgan yangi bilimlarni izlab topish va o‘zlashtirish jarayoni tushuniladi. [15-35 B]

Kompetensiya – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik [6-36 B]

Ta‘limga kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish hislatlarini tarbiyalaydi. Kompetensiya tushunchasi lotincha “competentia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, izohli lug‘atda “qonunan ega”, “haqdor” degan ma‘noni anglatadi, umumiste‘molda keng ishlatiladigan “qobiliyat”, “ko‘nikma,” “iqtidor” tushunchalariga yaqin turadi. Kompetentlik atamasi esa muayyan turdagi kompetensiyaga ega, izlanishga layoqatli, o‘z sohasini biladigan, uni boshqalarga taqdim etishni o‘rgataladigan “mahorat sohibi” ma‘nolarini beradi [13-14 B]

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoèn eta olish “Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga

kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. [11-4-5 B]

Kompetensiya (lotincha competencia) inson yaxshi xabardor, bilim va tajribaga ega masalalar doirasini ifoda etadi. “Kompetensiya” atamasi 1965-yilda ilk bor N.Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan. U o‘zining “Sintaksis nazariyasi aspektlari” deb nomlangan asarida faoliyatning ideal sharoitlarida o‘z ifodasini topadigan ayrim ideallashgan obyektlarga tavsiflashga (N.Xomskiy bo‘yicha: tilni o‘rganishda muloqotning ideal sharoitlarida) xizmat qiladigan “kompetensiya” tushunchasini qo‘llashni taklif etgan. Asarning “Yaratuvchan grammatika lingvistik kompetensiya nazariyasi sifatida” deb nomlangan bobida N.Xomskiy kompetentlik tushunchasiga murojaat qilmaydi, biroq kompetensiyaning biror narsa haqidagi bilimlar (N.Xomskiy bo‘yicha: “o‘zining tilida so‘zlovchi-tinglovchining bilimlari”) asosida nimanidir qo‘llash olish (tildan real foydalanish)—bular birbiridan tubdan farq qiladigan tushuncha ekanligini asoslab bergan[23-81B].

Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, yerishaman, to‘g‘ri kelaman ma‘nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo‘yish va unga yerishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishlikka tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [21-41 B].

B.Xodjayeov “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta‘riflar kasbiy ta‘lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilganligini, biroq umumiy o‘rta ta‘lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjudligini qayd etib o‘tib, kompetensiya – ma‘lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘quvchining avvaldan belgilangan ta‘limiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me‘yorlar)dan ham o‘zib ketishidir [17-79 B], degan xulosaga kelgan.

Kompetensiyaning turlarini tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud.

Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta‘lim nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetensiya – yyetarli yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash,

kasbiy-shaxsiy o‘shish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil rehabilitatsiya qilishga tayyorlik;

asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari [8-6 B].

N.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi [7-130 B].

N.Tarasova “kompetensiya” tushunchasini “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta‘minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi [22-36 B]. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma‘lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Kompetensiya so‘zining inglizcha lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqib ‘qobiliyat’ tushunchasini ko‘rib chiqamiz.

Qobiliyat - 1. Biror ishga qobillik, yaroqlilik, biror ishni bajara, qila olish xususiyati, layoqati. 2. Iste‘dod, talant.

Qobiliyat - mayl, kizikish, moyillik, sodiqlik, tarafdorlik, layoqat, qobillik, qodirlik. 1. Bilim, ko‘nikma, malakalardan farqli ularoq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari. 2. Iste‘dod, talant [6-154 B]. Uzbek tilining izoxli lug‘atida qobilyatga shunday ta‘rif berilgan. Pedagogik lug‘atlarda qobilyat va ijod, ijodkorlik tushunchalarini ko‘rib chiqamiz.

Qobiliyat - o‘quvchi yoki talabning individual salohiyati, imkoniyatlari ifodasi. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi.[6-91 B]

Ijod – o‘quvchi va talabning yaratuvchiligi, kashfiyoti. Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammolar, masalalarni yyechish yo‘llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan usuli.

Ijodiy izlanish metodi – pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammo va masalalarni yechish yo‘llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.

Ijodiy o‘zlashtirish darajasi – o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini turli holatlarda tadbiq eta olish, masala yechishning turli yo‘llarini izlash imkonini beradigan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi.

Ijodkor – mustaqil yaratuvchilik xususiyatiga ega bo‘lgan o‘quvchi yoki talaba.

Ijodkorlik – yangi moddiy va ma‘naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalanadigan faoliyat turi.

Ijodning rivojlantiruvchi funksiyasi – ta‘lim- tarbiya jarayonini o‘zaro uzviy bog‘lab olib borish uchun xizmat qilib, shaxsning intellektual, sezgirlik va o‘z xohishi bilan intilish kabi jihatlariga yerishganlik darajalarini o‘z ichiga oladigan hodisa. [6-25 B]

Ijod deganda keng ma‘noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma‘naviy olamni insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o‘zgartirish borasidagi bunyodkorlik faolligi tushuniladi. Uzoq vaqtlar davomida ijod - bu insonga tabiat ehson etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, deb hisoblanib kelingan. Aslida ijod - bu insonning moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratish faoliyati bo‘lib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda butun bilimi, tajribasi va iste‘dodi namoyon bo‘ladi. [18-15 B]

Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki kompetensiya, qobilyat, ijod tushunchalari bir biriga uzviy bog‘liq va bir birini to‘ldiruvchi tushunchalardir.

Kompetensiyani qobilyat deb oladigan bo‘lsak, insondagi barcha qobilyatlar ham nasldan naslga o‘tgan bo‘lmaydi. Hayoti davomida uyda, maktabgacha ta‘lim muassasida, maktabda va undan keyin inson tomonidan tanlangan kasbni o‘rganish jarayonida o‘zi, atrofidagi insonlar, vaziyatlar, egallagan bilim va ko‘nikmalari natijasida shakllanib, rivojlanib boradi.

Kognitiv – shaxsning mustaqil fikrlash jarayoni. Kognitiv ta‘lim – alohida iqtidorli bolalarga ta‘lim-tarbiya. Kognitiv uslub – 1) shaxsning bilish jarayoni strategiyasida qo‘llaydigan o‘ziga xos bilish xususiyatlari; 2) maxsus tanlangan testlar to‘plamiga ko‘ra nazorat qilish usuli yoki xususiy bilish ko‘rsatkichlari majmui [6-35 B]

“Kognitiv” tushunchasi “bilish”, “bilish faoliyati” bilan birga qo‘llaniladi. Kognitiv kompetentlikning zaruratini asoslashdan avval “bilish” tushunchasiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Bilish – bu obyektiv borliq tavsifining ongda ifodasidir. U his tuyg‘ular (boshqa odam ruhiyatidagilarni his qilish)da, fikrlar (fikrlash)da, til (intyerpretatsiya)da va xatti-harakat (maqsadga yerishish bo‘yicha harakatlar)da namoyon bo‘ladi [24-187 B]. Boshqa tomondan, bilish jarayoni – bu narsa-hodisalar haqida haqiqiy va ular haqida oddiy bilimlarni o‘zlashtirish maqsadini aks ettiradigan inson intellektual faoliyati jarayoni. Shuning uchun jarayonning o‘zi insondagi bilimlar va ularning tayanchidan foydalanishni o‘zida aks ettiradi [25-37-38 B]. Agar umumiy tarzda qaraydigan bo‘lsak, bilish – mazmunida yangisini ishlab chiqish uchun mavjud bilimlardan foydalana olish aks etadigan ma‘naviy faoliyat

L.A.Osipovning fikricha, kognitiv kompetentlik o‘zida “o‘quv va boshqa faoliyat turlari jarayonida yuzaga keladigan muammoli vazifalarni samarali hal etishda shaxsiy salohiyatdan (o‘quv faoliyatini tashkil etish texnologiyasiga doir bilim, mazkur bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi, mustaqil o‘quv faoliyati tajribasining mavjudligi) foydalanishga intilish va tayyorlikni belgilab beruvchi shaxs integral sifati”ni aks ettiradi [9-9 B]. Talabalarning kognitiv kompetentligini tadqiq etish natijasida D.V.Dudko kognitiv kompetentlik “pedagogning kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy tayyorligi, uni muntazam takomillashtirib borish, kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida ijodiy yechimlarni izlab topishga qobiliyatligidir” [2-67 B], degan xulosaga kelgan.

O.V.Potanina kognitiv kompetentlikni “bitiruvchining o‘z ish o‘rnini topishi va yangi faoliyat sharoitiga moslashuv davrini kamaytirish, shaxsiy o‘z-o‘zini namoyon etishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudlik” shakli sifatida talqin qiladi hamda kognitiv kompetensiyani “kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy hayot, o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga qobiliyatlik; salohiyatini muntazam oshirib borish; yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashda refleksiya va mustaqillikni namoyon etish”ga ega bo‘lish imkonini beruvchi ta‘lim oluvchining tayyorgarlik darajasini belgilab beruvchi ta‘lim natijasi” sifatida aniqlashtirgan [12-301 B].

Xulosa. Talabalarda kognitiv kopetensiyalarni shakllantirish talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish ilmiy jihatdan yondashish, shaxsning o‘zlashtirgan bilim, malaka, tajribasiga tayanish va yaratuvchanlik sifatleri tamkomillashtirish boy moddiy-texnik bazani taqozo etadi. Bu ta‘lim muassasalarining tegishli adabiyotlar, laboratoriya xonasi va laboratoriya jihozlar bilan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liq holda nomoyon bo‘ladi.

Tadqiqot va tadqiqotchilikning maqsadi talabalarning ilmiy kashfiyotlari emas, balki ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishdir. Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilinganda, ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini, kognitiv kompetensiyalarini, kognitiv faoliyatini, qobiliyatini va ularni qiziqitrgan

Adabiyotlar:

1. Дудко Д.В. Когнитивная компетентность личности будущего педагога и динамика её формирования // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – Вып.63. 2008. – №2. – С.63-67.
2. L.M. Karakhonova Issues of developing research competence in students based on the project method// novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peyer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 Volume 9, ISSUE 9, Sep. -2023
3. L.M. Karakhonova. Organization of research activity of Schoolchildren at the lessons of biology// Science and innovation intyernational scientific journal Volume 2 Issue 2 February 2023 UIF-2022: 8.2. –R. 430-438
4. M. Odilova, D. Jabbarova, S. Jo‘raev Pedagogik atamalar. - Namangan – 2023 94 b.
5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan.dokt. ... diss. – Toshkent: 2007. – 357 b.
6. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 160 b.
7. Осипова Л.А. Информационно-образовательные проекты как средство формирования у студентов когнитивной компетентности: автореф. дис...канд. пед. наук: 13.00.01.–Брянск, 2008.–25 с.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliyev tahriri oemuga. Tahrir hay‘ati: E.Begmatov va boshq. - Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 637-b.
9. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent, 2015. – 120 bet. 4-5 B
10. Потанина О.В. Когнитивная компетенция будущего инженера: сущность, структура, содержание // Вестник Башкирского университета. Раздел “Педагогика и психология”. – 2009. – Т. 14. – № 1. – С. 298-301.
11. T. Ziyadova. O‘quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. —T.: “Fan va texnologiya”, 2019,248 bet.13-14 B
12. Turmatov.J.R. Kasb talimi o‘qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasining didaktik ta‘minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiya avtoreferati.Toshkent-2019 52 b
13. Tillayeva R.T. Yuqori sinf adabiyot darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya Toshkent – 2023 35 B (150b)
14. Uzbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. - T.: Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007 - 687 b.
15. Xodjayev B.X. Umumta‘lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modyernizatsiyalashgan didaktik ta‘minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. –Toshkent, 2016. – 314 b.
16. Rahimov Z. Tanqidiy pedagogika.o‘quv uslubiy majmua Shahrisabz-2022.166 b
17. L.M.Qaraxonova. O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlik munosabatlari. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches international scientific-practical conference, november 13, 2023. – 379.
18. Мельникова Л.И. Начальное профессиональное образование в Германии: дис..д-ра пед. Наук/-Барнаул, 1999.-23-25 с
19. Педагогический словарь / Под.ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: “Академия”, 2008. – С.41.
20. Тарасова Н.В. Мировой опыт реализации компетентностного подхода в профессиональном образовании // Среднее профессиональное образование. – 2007. – №2. – С. 36.
21. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса // Перевод с английского под редакцией и с предисловием В.А. Звегинцева // Изд-во Московского университета, 1998. – 233 с.
22. Канке В.А. Философия: Учебник для вузов. – М.: Логос, 2001. – 280 с.
- 23.Л.А.Никитич. Философия: Учебник для вузов / Под. ред. М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2000. – С.37-38.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING KASBIY USTANOVKALARI

Xolturayev Asqarjon Panjiyevich,

Termiz davlat pedagogika instituti Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'qituvchilarni kreativ shaxs sifatida tayyorlashdagi asosiy vazifalar, g'oyalar, pedagogik tamoyillarni tanlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan yondashuvlar mazmuni o'z ifodasini topgan. Ta'limning mavjud, ilmiy asoslangan qonuniyatlari va tamoyillari ifodalangan. Muallif tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni tizimli, komponentli qilib tarbiyalashning o'zini-o'zi rivojlantiruvchi va kreativ tayyorlashning darajasini va uzluksizligini ta'minlashi zarur bo'lgan ta'limning strategik tamoyillari taklif etilgan va mazmunan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *kreativ kompetentlik, ta'lim jarayoni qonuniyatlari, ta'lim jarayoni tamoyillari, o'zini o'zi rivojlantirish, kreativ shaxs, shakllar, tizimli yondashuv, rag'batlantirish.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ УСТАНОВКИ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ

Выражено содержание основных задач, идей и подходов, которые следует учитывать при выборе педагогических принципов подготовки учителей как творческих личностей. Выражены существующие, научно обоснованные законы и принципы воспитания. Автором предложены и содержательно раскрыты стратегические принципы образования будущих учителей, необходимые для обеспечения уровня и непрерывности саморазвития и творческой подготовки.

Ключевые слова: *творческая компетентность, закономерности образовательного процесса, принципы образовательного процесса, саморазвитие, творческая личность, формы, системный подход, мотивация.*

PROFESSIONAL ATTITUDES OF CREATIVITY FORMATION OF UNIVERSITY TEACHERS

The content of the main tasks, ideas, and approaches that should be taken into account when choosing pedagogical principles in the preparation of teachers as creative individuals has been expressed. The existing, scientifically based laws and principles of education are expressed. The strategic principles of the education of future teachers, which are necessary to ensure the level and continuity of self-developing and creative training, have been proposed and revealed in content by the author.

Keywords: *creative competence, laws of the educational process, principles of the educational process, self-development, creative personality, forms, systematic approach, motivation.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarorida ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida, ta'lim sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, o'quv jarayonlari va xizmatlar ko'rsatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.

Ushbu vazifalarning ijrosi jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy - texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shaxs ta'lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida bilim va tajribani talabalarga uzatishda, moddiy ishlab chiqarish muhiti sharoitida, shuningdek, fan, madaniyat va xizmatlar ko'rsatish sohaslarida ishtirok etadi. Shu sababali, ta'limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat.

Asosiy qism. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan yoshlarni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. Talabalarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatining mas'uliyatini oshiradi. Prezident

Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan pedagog kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish kerak degan fikrlari ham bunday yuksak ustuvorliklarni mas’uliyat bilan tizimli amalga oshirishga to‘la asos bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifatini ta’minlovchi zamonaviy ta’lim jarayonining ilmiy-metodik jihatdan asoslangan tamoyillarini va qonuniyatlarini amalda qo‘llash lozim.

Fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan foidalangan holda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalari, qonuniyat va tamoyillarini ilmiy jihatdan ta’minlash pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyo yangi texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Inson faoliyatining barcha sohalari, ta’lim paradigmasining yangi darajasiga o‘tishga hissa qo‘shadi.

Zamonaviy ta’lim modeli o‘zini-o‘zi yaratishi kerak va oldingisiga nisbatan oldiga yuqoriroq va kattaroq maqsadni qo‘yish. Jahonda o‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni takomillashtirishda o‘zaro ijodiy hamkorlikka yerishish va ilmiy loyihalarni amalga oshirishda shuningdek, o‘qituvchilarning kreativlik potensialini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Eng muhim jihatlardan shaxsiy rivojlanish va mustaqil izlanuvchan mutaxassis kommunikativ, kreativ faoliyatga asoslangan tushunchalarni yagona ta’lim jarayoniga aylantiradi. Avvalo, zamonaviy har tomonlama kreativ fikrlaydigan ijodkor pedagog kadrlar tayyorlashning maqsad va vazifalarini hisobga olish kerak.

Bunday ta’lim jarayonining maqsadi – ko‘p tomonlama rivojlangan, bilimli va ijodiy tarbiyalangan shaxs ijtimoiy va kasbiy faoliyatga qodir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ shaxs sifatida tayyorlashning turli xil yondashuvlari Respublikamiz hamda xorijiy pedagog olimlari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning kasbiyinnovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta’minoti, shuningdek, pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarda o‘z-o‘zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azixodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo‘ldoshev, N.Sayidahmedov, O‘.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjayevlarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. G.N.Ibragimovanning tadqiqotlarida kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui bo‘lib, u o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi deb ta’kidlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish ko‘p jihatdan ularning sifatiga bog‘liq deydi Chyerkasov. Kasbiy tayyorgarlik, shu jumladan vazifalarni bajarishda kreativ fikrlashni shakllantirishga jalb qilish bilan ularning kompetentligini oshirish bu oliy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ bilimlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, bo‘lajak mutaxassislarda ijodiy faollikni rivojlantirish uchun kuchli kognitiv qidiruv samarali bo‘ladi. G.A. Ivashchenko, A.P. Shkuratovlar kreativ shaxsga mos ravishda darslarning noan’anaviy shakllarini tashkil etish xususiyatlarini o‘rganganlar. P.Torrens tomonidan kreativlik bu muammolarga nisbatan sezgirlikning namoyon bo‘lishi, bilimlar yetishmovchiligi, ularning nomuvofiqligi, ushbu muammolarning qayd etilishi, ular yechimining izlanilishi, farazlarning olg‘a surilishi, tekshirilishi, o‘zgartirilishi va qayta tekshirilishi, natijaning shakllantirilishi va e’lon qilinish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Muhokama va natijalar zamonaviy sharoitda, ta’limning asosiy vazifalaridan biri diqqat markazida talaba shaxsining ma’naviyat tashuvchisi sifatidagi qadriyat alohida ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ shaxs sifatida tayyorlash jarayonida o‘zgarishlarning rejalashtirilgan vektori an’anaviy pedagogikadagi etnik yondashuvlarning asosi, eng avvalo, kadrlar tayyorlash tizimiga taalluqlidir.

Ta’limning yangi qadriyatlariga ijtimoiy ehtiyoj bilan bog‘liq ta’limning yangi tendentsiyalari, insonparvarlik, fuqarolik, shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmuniga tuzatishlar kiritadi. Ta’lim nazariyasiga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim oluvchi va o‘qituvchi faoliyati, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari bilan birga ta’lim jarayonining tamoyillari, qonuniyatlari, kabi muammolarni tadqiq etadi. Pedagogikadagi qonuniyatlar aniq sharoitlarda qonunlar harakatining

ifodasidir. Ularning o‘ziga xosligi shundaki, pedagogikadagi qonuniyatlar ehtimollik-statistik xarakterga ega, ya’ni ular barcha vaziyatlarni oldindan ko‘ra olmaydilar va o‘quv jarayonida qonuniyatlarning namoyon bo‘lishini to‘g‘ri belgilay olmaydilar. Ta’lim jarayoni qonuniyatlari - bu qonunlarning aniq shartlardagi ifodasidir. Qonuniyatlar asosan empirik metodlar asosida paydo bo‘lib, ikki xil ko‘rinishda tavsiflanadi. 1. Tashqi qonuniyatlar. Ta’limning ijtimoiy jarayonlar va sharoitlari bilan bog‘liqligida xarakterlanadi. 2. Ichki qonuniyatlar.

Ta’lim jarayonida uning tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, vosita, metod, shakllari) orasidagi aloqani hosil qiladi. Ta’lim qonuniyatlari: umumiy va xususiy tarzda ikki guruhga ajratiladi. 1. Amal qilinishiga ko‘ra: yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy. 2. Faqat alohida tarkibiy qismlarga tegishli bo‘lgan qonuniyatlar esa xususiy deb ataladi. Umumiy qonuniyatlar: o‘quv faoliyati harakati davomida butun didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar hisoblanib, ta’lim jarayonining umumiy yoki murakkab omillarini aniqlash, ularning ta’siri orqali o‘rganishning umumiy samaradorligini va to‘liq aniq, noto‘g‘ri talqinlarga yo‘l qo‘ymaslik, obyektlarni aniqlash o‘rtasidagi umumiy aloqalarni aniqlash bilan tavsiflanadi.

Xususiy qonuniyatlar: harakat tizimining alohida komponentiga taalluqli hisoblanadi. Ta’lim qonuniyatlari asosida unga qo‘yiladigan talablar – ta’lim tamoyillari aniqlanadi. Didaktikada tamoyil - pedagogik tushunchani ifodalash kategoriyalarida taqdim etilgan instrumental tushuncha, allaqachon mavjud bo‘lgan qonun va qoidalarning uslubiy ifodasi ma’lum bo‘lgan maqsadlar, mohiyat, mazmun, imkon beruvchi shaklda ifodalangan o‘qitishning tuzilishi amaliyotning tartibga soluvchi normalari sifatida foydalanadi. Tamoyillarni tushunish va amalga oshirish muayyan ta’lim jarayonini tashkil etish imkoniyatini beradi, bu jarayonni uning izchilligiga muvofiq tashkil etish, o‘z maqsadlarini ongli va oqilona belgilash uchun adekvat bo‘ladigan o‘qitish shakllari va usullarida ifodalanadi.

kam. Ammo har bir ajrashgan oilaga to‘g‘ri keladigan “tirik yetim” bolalar soni boshqa millatlarga nisbatan o‘zbek oilalarida ikki-uch martaga ko‘p. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda oilaviy nizolarda er-xotinning o‘zini tutishi va ushbu kelishmovchilik va nizolarda psixologik jihatdan intellektual pozitsiyada bo‘lishi hamda ularning ajralish muammosini ilmiy asosda o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda oila institutining samarali faoliyatiga hukumat darajasida etibor berilayotgani va aynan prezident qarorida biz so‘z yuritayotgan masalalar bo‘yicha vazifalar belgilab berilgani ushbu jamiyat bo‘g‘ini naqadar ijtimoiy ahamiyatga egaligini bildiradi.

Xulosa va munozara. Olimlarning oilaviy nizolar xarakteristikasi borasidagi tadqiqotlariga asosan nizolarning yuzaga kelish sababi natijada psixologik savodxonlikka ehtiyojning paydo bo‘lish shartlari quyidagilarda ko‘rinadi: omillar umumiy sotsiopsixologik mezonlar asosida ajratildi va guruhlashtirildi.

1. Informatsion-axborot omillari diagnostikasi:(sabab)- muloqot jarayonida shyeriklarga noto‘g‘ri tarzda yetib keladigan noto‘liq, noaniq faktlar, mish-mishlar; shubhalar, to‘la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib deyarli xufyona tarzda yetkazilayotgan ma‘lumotlar; axborot manbaiga nisbatan ishonchning yo‘qligi; ayrim hodisa, voqealarga aloqador bo‘lgan tortishuv va kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan qoidalar, aqidalar, chaqiriqlar, qonun normalari va boshqalar ham shaxslararo yoki guruhlararo ziddiyatlarning omili bo‘lishi mumkin. Ushbu jarayonda ikki tomondan ham axborotlarni filtrlash, fikr-mulohaza bilan qaror qilish, vazminlik kabi xislatlar talab qilinadi

2. Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog‘liq omillar: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talashish, hokimiyat yo‘nalishidagi amal va hisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy normalar, an‘analar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarshiliklar, rag‘batlantirish va jazolash, uy-joy, mulk tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarida kuzatiladigan nizolar; yuqoridagi jadvalda belgilanganidek er-xotin o‘zaro ijtimoiy formalaridan boxabar bo‘lgan holda shunga munosib aloqalarni yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq. Qanoat, tejamkorlik, xokorsorlik, xushmuomilalik va tengmurosallilik kabi jihatlarni o‘zida shakllantirishga harakat qilish lozim.

3. Qadriyatlarga aloqador omillar (o‘zimiz e‘tirof etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, guruh-guruh yoki shaxsiy e‘tiqod, ishonmagan va ishongan qadriyatlarimiz va ularning xulqda namoyon bo‘lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlar va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar; Oilaviy hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan urf-odatlarini bilish. Yer yoki xotin o‘zga hududga kelin bo‘lgan yoki kuyov o‘zga millat vakili hisoblansa, tomonlarning hududiy va milliy xususiyatlarini bilish va ularga amal qilishga tayyorlik (asosan ayoldan talab qilinadi).

Turli yoshdagi, mansab, lavozim, toifadagi odamlar bilan, qiziqishi, odati, ta‘bi, turmush tarzi mutlaqo boshqacha bo‘lgan odamlar bilan o‘rinli munosabatda bo‘la olish – shaxsning psixologik yetukligining asosiy xususiyatlaridan biridir. Psixologik bo‘shliqlarni to‘ldirish kelajakdagi oilaviy hayotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda zarurdir. Oilaviy hayot osongina yerishiladigan va muammosiz boshqariladigan Avtomat tizim emas, shuning uchun ham psixologik savodxonlik, oila borasida ma‘naviy-ma‘rifiy tafakkur yoshlarga, yosh oilalarga, xullas, barcha oilalarga kerakli resursdir.

Adabiyotlar:

1. Akramova Feruza Akmajjobha “Oila ensiklopediyasi” «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2019 3-b
2. Шаленко В.Н. Социальные конфликты/ Под ред. Добренкова В.И., Кравченко А.И. / Фундаментальная социология: в 15 томах, т. VI: Социальные деформации. Гл. 4, раздел 1. – М : Инфра-М, 2005.
3. Эволюция семьи в Европе: Восток–Запад / Под науч. ред. С.В. Захарова, Л.М. Прокофьевой, О.В. Синявской; Независимый институт социальной политики. — М.: НИСП, 2010.-392с. Психология семьи в США, Европе, Африке и Азии – семейные отношения разных стран. html.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - 40 b.
5. Андронникова О.О. Основы психологического консультирования. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. — 415 с.
6. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учеб. пос. – М.: Гардарики, 2005. – 320 с
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.; Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. - T.: “Yunaks – Print”, 2006. – 230 b.
8. Гришина Н.В. Психология конфликта. Спб. Питер. 2003.
9. Yuldashev S., Norqulova N. “Nizoli oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish”, “Yoshlar nashriyot uyi” Toshkent – 2020 4-b.

HAMKORLIK STRATEGIYALARIGA ASOSLANGAN O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI (“Turkiston Muxtoriyati-tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich” mavzusi misolida)

Raxmonov Kamol Djamolovich,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Ushbu maqolada tarix o‘qituvchilari uchun “Turkiston Muxtoriyati-tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich” deb nomlangan ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish, uni takomillashtirib borish yo‘nalishlari hamda seminar mashg‘ulotini hamkorlikda o‘qitish metodi bo‘yicha tashkil etish va uning amaliy ahamiyati yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tarix o‘qituvchilari, axborot jamiyati, yangi axborotlar berish, grafik organayzerlar, “Debat” usuli, ta’lim-tarbiya birligi, hamkorlik strategiyalari, davlat ta’lim standarti, muammolar yechimi, “Zinama-zina” dasturi, “Tezkor xotira” uslubi, “kitobxon.uz” sayti, birinchi bosh vazir, rus gimnaziyasi, bosmaxona.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА И ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ (на примере темы «Туркестанская автономия – новый этап в истории государственности коренных народов»)

В данной статье даются рекомендации для учителей истории по подготовке и совершенствованию лекционного занятия под названием “Туркестанская автономия – новый этап в истории государственности коренных народов”, а также по проведению семинарского занятия с использованием метода совместного обучения и его практической значимости.

Ключевые слова: будущие преподаватели истории, информационное общество, предоставление новой информации, графические организаторы, метод дебатов, единство образования и воспитания, стратегии сотрудничества, государственный образовательный стандарт, решение проблем, программа «Зинама-зина», метод «Тезкор хотира», сайт «kitobxon.uz», первый премьер-министр, русская гимназия, типография.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING TRAINING SESSIONS BASED ON COOPERATION STRATEGIES AND IMPROVING IT (in the example of the topic "Turkistan Autonomy - a new stage in the history of the statehood of indigenous peoples")

This article provides recommendations for history teachers on preparing and improving a lecture session titled "The Turkestan Autonomy – A New Stage in the History of Indigenous Statehood" and organizing a seminar session with a collaborative teaching method, along with insights into its practical significance.

Keywords: future history teachers, information society, providing new information, graphic organizers, debate method, unity of education and upbringing, cooperation strategies, state education standard, problem-solving, “Zinama-Zina” program, “Quick Memory” method, “kitobxon.uz” website, first prime minister, Russian gymnasium, printing house.

Kirish. Hozirgi globallashuv davri mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlari zimmasiga malakali kadrlar (jumladan, bo‘lajak tarix o‘qituvchilari)ni tayyorlash vazifasini yuklaydi. Chunki bo‘lajak tarix o‘qituvchisini yetuk mutaxassis qilib tayyorlash uchun o‘qitishning zamonaviy va samarali yo‘llarini topish hamda uni amalga tadbiriq qilish ahamiyatlidir. Shunday ekan, hozirgacha mavjud tarix fanlari (ayniqsa, O‘zbekiston tarixining XX asr davri)ni o‘qitishda eskicha mazmun va shakldagi o‘quv mashg‘ulotlaridan voz kechish lozim. Shu orqali innovation raqamli va axborot jamiyati uchun munosib tarixchi kadrlar tayyorlash mumkin. Shuning maqsad va vazifalardan kelib chiqib, mazkur maqola doirasida tarix o‘qituvchilarini o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarligi va uni takomillashtirish metodikasiga oid, shuningdek, amaliy darslar qo‘llaniladigan usullarga doir tavsiyalar taqdim etiladi. [2]

Asosiy qism. O‘quv mashg‘ulotlarining muhim turlari sifatida fanning nazariyasini ochib beruvchi jarayon bu - ma’ruza hisoblanadi. Ma’ruza o‘rganilayotgan fan (tarix fanlari) bo‘yicha ilmiy bilimlar beradi.

Dunyoqarashni shakllantiradi. Talabalarning bilish faoliyatini rivojlantiradi, materialni mustaqil o‘rganishning asosiy yo‘nalishi va metodikasini ko‘rsatib beradi. [3]

Mazkur kichiq tadqiqotimizda “Turkiston Muxtoriyati-tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich” mavzusidagi ma‘ruzaga tayyorgarlik bosqichini o‘tayotgan o‘qituvchiga quyidagi tavsiyalarni berish maqsad qilib olindi.

Hamkorlik strategiyalarini qo‘llash asosida mashg‘ulotni tashkil qilishni rejalashtirayotgan ma‘ruzachi quyidagi beshta yo‘nalishda tayyorgarlik bosqichini amalga oshirishi kerak.

Bular:

1. “Yo‘naltirish” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi – bunda mavzuning dolzarbligini, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatdagi pedagogik ahamiyati muhimligini ochib berishni rejalashtirishi zarur (o‘qituvchiga tavsiya: O‘zbekiston milliy davlatchiligida Turkiston Muxtoriyati hukumati muhim tarixiy bosqich bo‘lib, xorijiy mamlakatlar va mamlakatimiz tarixchi olimlarini mazkur mavzu o‘zining dolzarbligi bilan jalb qilib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlar muntazam amalga oshirilmoqda. Pedagogik ahamiyati shundaki, umumta‘lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilariga O‘zbekiston tarixi fanidan “Turkiston Muxtoriyati-tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich” mavzusi o‘tilmoqda.[5] Mazkur ma‘ruzada berilayotgan dalil va ma‘lumotlardan kelgusida unumli foydalanish imkoniyati mavjud).

2. “Yangi axborotlar berish” tayyorgarlik bosqichi – bunda o‘qituvchi tomonidan ma‘ruza mashg‘uloti uchun asosiy ilmiy dalillar va tayanch tushunchalar oldindan tayyorlab qo‘yiladi (o‘qituvchiga tavsiya: 1917-yil 26-28 noyabrda Qo‘qon shahrida Butunturkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda 4-qurultoyi bo‘lib o‘tganligi hukumatning nomi Turkiston Muxtoriyati deb e‘lon qilinishi va 8 kishidan iborat hukumat tuzilishi, vazirlarning aksariyati oliy ma‘lumotli huquqshunos ekanligi va hokazo kabi masalalarga oid ma‘lumotlar).

3. “Metodologik” tayyorgarlik bosqichi – bunda ma‘ruza jarayonida qaysi o‘qitish usullari samara berishi tanlanib qo‘yiladi. (tavsiya: “Tarixiy savol” tok shousi, “Press-konferensiya” metodi, “Debat” usuli, “Konsyeptual jadval”, “Klaster”, “T-chizma” kabi grafik organayzerlar va hokazo)

4. “Ilmiy yondashuv” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi – bunda o‘qituvchi mazkur mavzu doirasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilganligidan xabardor bo‘lishi va bir qator tarixiy kitoblardan darsda foydalanishni rejalashtirishi lozim (tavsiya: Turkiston Muxtoriyati tarixiga oid tadqiqotlar doirasi mustaqillik yillarida kengayib ushbu muammoni yoritishda imkon qadar xolisona yondashildi. Tarixchi olimlarning asl manbalarga va matbuot materiallariga tayangan holda yaratgan qator tadqiqotlari vujudga keldi. Bu borada S.A‘zamjo‘jaye, Q.Rajabov kabi mualliflarning ishlari e‘tiborga loyiqdir).

5. “Ta‘lim-tarbiya birligi” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi – bunda ma‘ruza uchun tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi o‘z oldiga qanday tarbiya elementlarini joriy qilish lozimligini rejalashtirib qo‘yishi kerak. Chunki globallashtirish sharoitida tarix fani o‘qituvchilariga qo‘yilgan zamonaviy talablarning eng muhimi bu dars jarayonlarini ta‘lim-tarbiya birligi asosida olib borishdir. Tarix ta‘limi bu raqam va dalillarni sanash, ma‘lumotlarni yozdirish, faktlarni yodlatishdan iborat emas. Har bir tarix fani o‘qituvchisini dars mashg‘ulotining asosiy maqsadi - muhim voqe‘lik yoki tarixiy shaxsning faoliyatiga oid dalil va ma‘lumotlar misolida talabalar ongida tarbiya elementlarini singdirish bo‘lmog‘i kerak.

Masalan, Turkiston Muxtoriyatining fojeali qismatini yoritish orqali vatanni har qanday tashqi xavf xatardan himoya qilish har bir fuqaroning insoniy burchi va xalq, millat oldidagi birlamchi vazifasi ekanligini tushuntirish (Mustafo Cho‘qay siyosiy faoliyati misolida); Turkiston Muxtoriyati hukumat a‘zolarining faoliyatini gapirib berish jarayonida talabalarga vatan manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yib uning yanada rivojlanishi va yuksak marralarni zabt etishi uchun karambasta bo‘lib fidoiylik ko‘rsatish lozimligini jadidlar hayotidan misollar keltirib, izohlab berish (Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaye hayoti va faoliyati misolida). [1]

Seminar mashg‘uloti esa oliy o‘quv yurtlarida ta‘limning amaliy shakl va usullaridan bo‘lib, dastur materialini jiddiy va chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartiga binoan bakalavriat yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalarida seminar va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq vaqt (soat) ajratiladi.

Hamkorlik strategiyalariga asoslangan seminar mashg‘ulotlari o‘quv fanlarining asosiy, eng murakkab mavzulari yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Talabalarning ma‘ruzalarda olgan bilimlarini qanday o‘zlashtirilganliklarini tekshirish maqsadida tashkil etiladi. Shuningdek, materialni mustaqil ravishda tahlil etish, og‘zaki bayon qilish va bahs olib borish ko‘nikmalarini o‘rgatish ham maqsad qilib qo‘yiladi. Mazkur mashg‘ulot ijodiy muhokama, faol diskussiya, talabalar oldindan tayyorlagan ma‘ruzalar (referatlar) bo‘yicha fikr almashish va boshqa interaktiv shakllarda o‘tkaziladi. [3] Seminar mashg‘uloti amaliy mashg‘ulot elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin (muammolar yechimi, topshiriqlar bajarish va hokazo). Seminar mashg‘ulotlari arafasida talabalar fanning asosiy xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarga ega

bo‘lishlari kerak. Talabalar mashg‘ulotga tayyorlanayotganda rejada ko‘rsatilgan savollarni o‘rganib olishlari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishlari hamda ularga javob yozishlari lozim.


Seminar - ta‘lim beruvchini ta‘lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olishni ta‘minlovchi o‘qitishning bir shaklidir[2].

Yuqoridagi dalil va omillardan kelib chiqib, mazkur kichik tadqiqotimizda “O‘zbekiston tarixi” fani seminar mavzularidan biri hisoblangan “Turkiston Muxtoriyati-tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich” deb nomlangan mashg‘ulotni tashkil etish bo‘yicha ayrim tavsiyalar taqdim etiladi. [4]

“Zinama-zina” dasturi. O‘qituvchi talabalarning “Turkiston muxtoriyati” mavzusidagi ma‘ruza jarayonida olgan nazariy bilimlarini seminar mashg‘ulotlarida mustahkamlashlari uchun “Zinama-zina” uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda o‘qituvchi “Zinama-zina” dasturi chizmasining vatman qog‘ozga chizilgan shaklini doskaga ilib qo‘yadi.

Ixtiyoriy ravishda 2 nafar talaba taklif etiladi va ularga dastur qoidalari tushuntiriladi.

Har bir talabaga ketma-ketlik asosida bittadan, jami 3 ta tezkor quyidagi savollar beriladi, talaba mavzu doirasida javob beradi va izohlaydi. Talaba 3 ta “zina”ni tezkor bosib o‘tishi va adolatli bo‘lishi



uchun bir xil darajali savollar tanlanadi.

Masalan, birinchi “zina”ni bosib o‘tish uchun kim? savoli beriladi, bunda talabalar mavzuga oid tarixiy shaxslarni nomini qayd etadilar va ma‘lumot beradilar. 2-zina uchun qayer? 3-zina uchun qachon? savollari bilan davom ettiriladi.

Tavsiya:

1-talaba uchun savol:

-Kim? - Kichik Ergash -1918 yil 18 fevraldan boshlab amalda muxtoriyat hukumatining rahbariga aylandi.

2-talaba uchun savol:

-Kim? -Firat -muxtoriyat e‘lon qilingan 27 noyabr tunini “Milliy laylatulqadrimiz” deb atagan va hokazo.

“Tezkor xotira” uslubi. O‘qituvchi o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun ushbu metoddan foydalanishi mumkin. Bunda avvalo guruhdagi barcha talabalar 4 guruhga ajratiladi. Guruhlarga ajratish jarayonida talabalarning tasodifiy tarkibini tuzishga harakat qilish lozim. Dastur avvalida o‘qituvchi Turkiston muxtoriyati hukumati a‘zolari faoliyati haqida yozilgan tarix fanlari doktori, professor Q.K.Rajabovning “kitobxon.uz” saytida joylashtirilgan “Turkiston muxtoriyati vazirlari hamda milliy majlis a‘zolari hayoti va taqdiri” (-T., 2021. -92 b.) nomli risolasini uyali telefondan foydalanib topishlari va 7 daqiqa davomida o‘zlariga topshiriq berilgan tarixiy shaxs haqidagi ma‘lumotni tezkor o‘rganib olishlarini topshiradi. Berilgan daqiqa nihoyasiga yetgach, uyali vositalar terib olinadi, dastlab birinchi guruh o‘quvchilariga yuzlanadi.

1-guruh ishtirokchisi:

-Muhammadjon Tinishboyev – Turkiston muxtoriyati hukumatining birinchi bosh vaziri

2-guruh ishtirokchisi:

-Mustafo Cho‘qay – 1902-1910 yillarda Toshkentdagi rus gimnaziyasida o‘qigan.

3-guruh ishtirokchisi:

-Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev – rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgan.

4-guruh ishtirokchisi:

Obidjon Mahmudov – 1914 yil Qo‘qonda bosmaxona tashkil qilgan.

Dastur shu tarzda davom etadi. Guruhdagi har bir talaba o‘zlariga berilgan shaxs haqidagi xotiralarida o‘rnashib qolgan ma‘lumotni ketma-ketlik asosida ayta boshlaydilar. O‘qituvchi talabalar tomonidan yoddan

aytilgan ma'lumotlar miqdorini doskaga yozib boradi. Shu taxlit barcha guruhlar o'z ma'lumotlarini aytib bo'lishgach, eng ko'p fikrlarni ayta olgan guruh rag'batlantiriladi. [1]

Demak, tarix darslarida innovasion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi, muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishga o'rgatadi. Shuningdek, talabalarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi, o'quvchilarni tizimli fikrlashga, har qanday hatti-xarakterning natijalarini tahlil qilishga o'rgatadi. Dars jarayonida motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tarix fani o'qituvchisi tomonidan ma'ruzaga tayyorgarlik bosqichi va seminar mashg'uloti uchun yuqorida qayd etilgan vazifalar bajarilsa, o'quv jarayonini tashkil etuvchi bilan talaba o'rtasida bevosita aloqa o'rnatiladi. Natijada o'quv mashg'ulotlari vaqtida ilk bora yangi fikr va g'oyalar, yangi nuqtai nazarlar bayon qilinadi, shuningdek, hamkorlik strategiyalari asosidagi o'quv mashg'ulotlari talabaga mushohada qilish, bu orqali bilimlar olamiga kirish yo'llarini ko'rsatadi. O'qituvchi dasturning butun mazmunini emas, balki muhim va murakkab joylarini aniqlab uni ochib beradi, fandagi farazlarni keltirib, talabani mustaqil fikr yuritishga undaydi. Uni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi, Bu esa talabani fan olamiga olib kirish bilan birga bilimlarni mustaqil egallashning manbalari, yo'llari, vositalarini ko'rsatadi. Professor-o'qituvchi o'quv mashg'ulotlari vaqtida qarama-qarshi fikrlar va o'z nuqtai nazarlarini aytadi. Hamkorlikda o'qitish metodiga asoslanib, tanqidiy fikrlash yo'li bilan ilmiy xulosaga kelinadi.

Adabiyotlar:

1. Zamonov A. va b. O'zbekiston tarixi. O'qituvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanma. –T., “Tafakkur” nashriyoti, 2018. -207 bet.
2. Rahmonov K.J. Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, “FAN ZIYOSI”. 2024. -130 bet.
3. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent. 2022. – 130 bet.
4. O'zbekiston tarixi fanining o'quv dasturi. Toshkent-2023. -28 bet.
5. O'zbekiston tarixi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflari uchun darslik. Toshkent-2022. -189 bet.

TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGI VA UNI
TA'MINLOVCHI PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLAR

*Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

Ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonining samaradorligi faqat bilim olish jarayoniga bog'liq bo'lmasdan, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Samarali tarbiya, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish, jismoniy va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun psixologik shart-sharoitlarning mavjudligi zarur. Ta'lim muassasasida tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda psixologik omillar, jumladan, o'quvchilarni o'z-o'zini anglashga, motivatsiyasini oshirishga, hissiy barqarorlikka erishishga qaratilgan yondashuvlar katta rol o'ynaydi.

Ushbu ishda tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy psixologik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Xususan, o'quvchining hissiy intellekti, o'qituvchining psixologik kompetentsiyasi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik munosabatlar, o'quvchining individual xususiyatlari va ijtimoiy muhitning ta'siri o'rganiladi. Shu bilan birga, samarali tarbiya jarayonini tashkil etish uchun psixologik yondashuvlarning ta'siri va o'quvchilarni motivatsiyalashning psixologik jihatlari muhokama qilinadi.

***Kalit so'zlar:** ta'lim muassasasi, tarbiya jarayoni, samaradorlik, psixologik shart-sharoitlar, hissiy barqarorlik, shaxsiy rivojlanish, motivatsiya, o'quvchi-o'qituvchi munosabati, psixologik kompetentsiya, ijtimoiy muhit, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, o'z-o'zini anglash, hissiy intellekt.*

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ И ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ЕЁ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ
УСЛОВИЯ**

Эффективность воспитательного процесса в образовательных учреждениях не ограничивается только передачей знаний, но также оказывает значительное влияние на личностное и социальное развитие учащихся. Успешный воспитательный процесс зависит от создания благоприятных психологических условий, способствующих формированию моральных и этических ценностей, эмоциональной стабильности и общего развития. Психологические факторы, такие как эмоциональный интеллект, мотивация и самоосознание, играют ключевую роль в повышении эффективности воспитательного процесса.

В данной работе рассматриваются основные психолого-педагогические условия, необходимые для обеспечения эффективности воспитательного процесса в образовательных учреждениях. Анализируется роль психологической компетенции педагогов, социально-психологические отношения между педагогами и учениками, а также влияние индивидуальных особенностей учащихся и окружающей среды на их развитие. Кроме того, рассматривается влияние психологических подходов на организацию воспитательного процесса и мотивацию учащихся.

***Ключевые слова:** образовательное учреждение, воспитательный процесс, эффективность, психолого-педагогические условия, эмоциональная стабильность, личностное развитие, мотивация, отношения учитель-ученик, психологическая компетентность, социальная среда, моральные и этические ценности, самоосознание, эмоциональный интеллект.*

**THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN EDUCATIONAL
INSTITUTIONS AND THE PSYCHOLOGICAL PRECONDITIONS ENSURING IT**

The effectiveness of the educational process in schools and other educational institutions is not limited solely to the acquisition of knowledge, but also significantly impacts the personal and social development of students. Successful educational processes depend on the creation of favorable psychological conditions that contribute to the formation of moral and ethical values, emotional stability, and overall growth. Psychological factors such as emotional intelligence, motivation, and self-awareness play a crucial role in enhancing the effectiveness of the educational process.

This paper explores the key psychological conditions necessary to ensure the effectiveness of the educational process in educational institutions. It examines the role of psychological competence of teachers, the social and psychological relationships between teachers and students, as well as the influence

of individual characteristics and the surrounding environment on students' development. Moreover, the study discusses the impact of psychological approaches on organizing the educational process and motivating students to succeed.

Keywords: *educational institution, educational process, effectiveness, psychological conditions, emotional stability, personal development, motivation, teacher-student relationship, psychological competence, social environment, moral and ethical values, self-awareness, emotional intelligence.*

Kirish. Tarixga nazar solsak, yer yuzida inson paydo bo'libdiki, o'z og'irini yengillatish uchun tinimsiz izlanadi, o'qiydi, o'rganadi va nimalarnidir yaratadi. Aynan shu harakat tufayli inson psixikasi doim taraqqiyot etib boradi. Qolaversa shu yo'l bilan ham o'zi yuksalib boradi, ham o'z bilganlarini o'zgalarga o'rgatish orqali insoniyat tamaddunining yuksalishiga o'z hissasini qo'shib boradi. Barcha xalqlarda, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi vorislik ta'minlanadi. Yana tarixga nazar solsak, ilk muloqot va munosabatga kirishish va avlodlarga meroslarni qoldirish, ya'ni ijtimoiy xotirotdagi ijtimoiy bilimlarni shakllanish yo'lidagi qadimiy belgi-rasmlar orqali o'z fikrini ifodalagan kromonyon odami bilan hozirgi fan-texnika samarasi bo'lgan internet orqali axborot almashishgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot buning yaqqol isbotidir. Bu yutuqlarning zamirida shak-shubhasiz inson uning intilishlari, qiziqishlari, shuningdek, u bilan birga birga bo'lgan atrofidagi kishilarning qo'llab-quvvatlashi, yaqinlarining ishonchi muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda inson, uning bilimi, so'g'ligi ishchanligi, malakasi kabilar inson kapitali deyilsa, uning atrofidagi yaqinlari bilan munosabati, hamkorligi, ishonch, umumiy qiziqishlar oqibatida yuzaga keluvchi ijobiy munosabatlar va samara, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy capital va inson resurslarini ning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Biz tadqiqotimizda ta'limning globallashuvida inson resurslarini birlashtirish, ya'ni ta'lim samaradorligidagi eng asosiy omillardan biri bo'lgan tarbiya masalasiga to'xtalmoqchimiz. Bugungi yangi davr, globallashuv davri, ta'lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta'limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko'rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri hisoblanadi [1]. Aynan mazkur tarbiya resursini atroflicha tadqiq qilmasdan turib uni rivojlantirish mushkul kechadi. Butun dunyoda virtuallashuv kuchayib, mutatsiyalashib borayotgan bir vaqtda isonlardagi tarbiya resursini o'rganish va uning zamonaviy indikatorlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish eng ustuvor masalardan biri bo'lishi kerak. Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy resurslaridan biri bo'lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo'yayotgani biz soha vakillarini doim diqqat markazimizda bo'lishiligi lozim. Zero, shiddati virtuallashuv jarayoni kuchaytgan bir davrda ta'lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslarga, qat'iy talablar bilan yondashish juda muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi [2].

Tadqiqotlarimiz globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy voqelikka ijtimoiylashuvidagi eng asosiy resurslaridan biri bo'lgan tarbiya masalasi ham shaxsning kamoloti, ham ta'limni rivojlantirish uchun eng asosiy masalalardan biridir. Hozirgi kunda barcha xalqlar uchun ham barkamol shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish masalasi har qachongidanda muhim ahamiyatga egaligi bizga ma'lum. Sababi, globallashuv jaddalashgan sari odamlarda marginalizm (ijtimoiy begonlashuv, ijtimoiy yakkalanish), e'tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik, ishtiyosizlik kabi xususiyatlar ortib bormoqda. Mazkur holat sotsiumning ijtimoiy-ma'naviy muhitini beqarorlashuvini yuzaga keltiradi. Shu sababi bugungi kunda yoshlarda asosiy resurslardan biri bo'lgan tarbiya masalasini ijtimoiy-psixologik omillari va barkamol shaxs tarbiyasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab olish, ularning ustuvor indikatorlarini ishlab chiqish juda zarur hisoblanadi. Yoshlarda tarbiyaning ijobiy fazilatlarini shakllanishining ijtimoiy-psixologik-omillarida ularning aniq belgilab olingan ma'naviy-axloqiy sifatlar va fazilatlarini ma'naviy indikator sifatida tahlili qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa tarbiya isharidagi profilaktika ishlarini maqsadli va manzilli tashkil qilishdagi psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq masalalarni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, bu yo'nalishda dastlab tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga mas'ul shaxsning vazifasi ta'lim muassasasi jamoasi imkoniyatlarini yagona g'oyaga yo'naltirish, mavjud pedagogik-psixologik shart sharoitlardan unumli foydalanish chora-tadbirlarini belgilash, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta'sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashhis qo'yishdan iboratdir.

XXI asrda tarbiyaning idealistik, pragmatik, realistik, antropotsentristik, erkin tarbiya, gumanistik va texnokratik modellariga amal qilinmoqda. Mazkur tizimni amalga oshirishda ushbu modellarning ijobiy jihatlari milliy tarbiya xususiyatlari bilan uyg'unlashtiriladi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun

ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat insonlarda Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ularning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Xar bir xalq o'zining yoshlarida tarbiya va milliy tarbiya resurslariga alohida e'tibor qaratadi. Biz tadqotimizda yoshlarda asosiy ijobiy resurslardan biri bo'lgan milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilishda milliy tarbiyaning manbalarini o'rganish muhim jarayondir deb hisoblaymiz.

Natijalar. Bizningcha, milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir. “Millat”ni arabcha “mil” so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada “o'zak”, “tub mohiyat”, “negiz” ma'nolarini anglatadi. “Millat” so'zi esa bir necha ma'noni;

- 1) din: mazhab;
- 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi;
- 3) xalq ma'nolarini anglatadi.

“Millat”, “milliylik” tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o'zaklarga borib tutashadi. Ya'ni Ovrupo xalqlari tillariga “millat” tushunchasi lotincha “natio” - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo'lsa, Osiyoga esa Islom ta'limoti orqali yuqoridagi uch xil ma'noda kirib kelib, singdi. “Tarbiya” so'zi esa “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik psixologik ta'rif berish juda muhim sanaladi. Arabcha “tarbiya”, “tarbiyat” so'zlari

- 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o'rgatish; odob o'rgatish;
 - 2) navozish, mehribonlik ko'rsatish: ko'z-quloq bo'lish;
- himoya qilish kabi ko'pqirrali mazmunga ega.

Muhokama. “Tarbiyachi” so'zi esa shu ko'pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosini “yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lim bermoq” sifatida aniqlash mumkin. Ta'lim va tarbiya davlat tomonidan amalga oshirilgan ekan, o'z mamlakatining iqtisodiy, ma'naviy, tarbiyaviy va mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirildi. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning milliy asosga qurilishining eng oliy kafolati uning Konstitutsiyasida himoyaga olindi. Konstitutsiyaning mohiyati ochiqlik, hamkorlik, milliy madaniyatlar ravnaqi, millatlararo inoqlik ruhiga ega. O'zbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yo'lida milliy madaniy markazlar tashkil etilib, ularning faoliyati matbuot, radio va televideniya keng yoritilishi milliy qadriyatlarini tiklash, boyitish orqali umumfuqaroviy va umuminsoniy totuvlikka erishish yo'li tanlaganini ko'rsatdi. Chunki “o'zbek milliy madaniyati, tili an'analarini haqqoniy ravishda tiklash va rivojlantirish aholining boshqa milliy guruhlaridagi mana shunday jarayonlar hisobiga bo'lmasligi” davlat tomonidan kafolatlandi. Qaysi bir jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, o'sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e'tibor keskin kuchayib, tarbiyani, jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi deb tan oлина boshlanadi. Tarix bu kabi misollarga boy. Ana shu nuqtai-nazardan Yangi O'zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki endilikda ular o'z xalqining eng go'zal fazilatlaridan bo'lgan milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, O'zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, sof vijdonni o'ziga mayoq qilib olib, Yangi O'zbekiston sharafiga xizmat qila oluvchi o'g'il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi kerak. Bu ijtimoiy buyurtma oila, bolalar bog'chalari, maktab, mahalla, turar joylarda, maktabdan tashqari muassasalarda hamkorlikda olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonini ilmiy nazariy tadqiq qilishni taqozo qiladi[3].

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko'pqirrali bo'lib, uning: milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi; ta'limga oid siyosatning maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai; o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik,

vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida umumfuqaroviy totuvlikka erishishining insonparvarona yo‘li va vositasi; ijtimoiy va maktab tarbiyalari uyg‘unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg‘unlikka olib borishning pedagogik yechimi; ijtimoiy-ma‘naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta‘minlashning strategik ob‘ekti va vositasi; etnopsixologik nuqtai-nazardan, o‘quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, rivojlantirish jarayoni ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi ta‘riflardan kelib chiqib, aytish mumkin-ki, milliy tarbiya tizimi – bu har bir xalqning o‘ziga xos milliy xarakteri, axloq qoidalariga va taraqqiyotining tarbiyaviy talablariga asoslanib, yangi kompetensiyalarga ega avlodlarni yetishtirishning pedagogik jarayonidir. Milliy tarbiya ilmiy-pedagogik atama sifatida kam o‘rganilganiga qaramasdan u har bir xalq bilan azaldan birga, mavjud edi. Chunki har bir xalqning tarixi – uning o‘zligiga, xalqchil madaniyatiga asoslangan tarbiyaning tarixidir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarimiz ta‘lim-tarbiyasida ahamiyat kasb etadigan milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, indikatorlari, mezonlari juda muhim hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas‘ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta‘sirchanligi sust bo‘ladi. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, virtual voqelik ta‘siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210
2. Jabborov X.X. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. Социальный психологический журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.
3. Shodmonovich J. F. (2023). Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlash. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(4), 18-22.
4. Shodmonovich, D. F. (2023). Methods for studying the psychological characteristics of sergeants of the ministry of defense.
5. Жумаев Ф. Ш. (2021). Национальные чувства как фактор формирования молодежи на уроках военного образования. // Вестник науки и образования, (16-2 (119)), 94-97.
6. Жумаев Ф. Ш. (2020). Перспективные направления внедрения современных информационных технологий в систему военного образования. // Вестник магистратуры, (3-1 (102)), 20-22.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TESTOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Homidov Husniddin Kupaysinovich,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlangich ta’lim nazariyasi kafedrasini mudiri, p.f.f.d (PhD)

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda testologik madaniyatni shakllantirish masalasi o‘rganilgan. Testologik madaniyat o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘lchash, test savollarini to‘g‘ri tuzish, natijalarni baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada testologik madaniyatni shakllantirishning zarurati, uning ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘qituvchilarda testologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan va ularning amaliy qo‘llanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *testologiya, testologik madaniyat, ta’lim tizimi, test, baholash tizimi, ta’lim sifati, didaktik yondashuv, innovatsion baholash, ta’lim samaradorligi.*

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕСТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье рассматривается вопрос формирования тестологической культуры у будущих учителей. Тестологическая культура предполагает развитие умений измерения знаний, умений и квалификации преподавателя, правильной формулировки тестовых вопросов, оценки и анализа результатов. В данной статье описывается необходимость формирования тестологической культуры, её роль и значение в образовательном процессе. В статье представлены методические рекомендации по формированию тестологической культуры учителей и комментарии к их практическому применению.

Ключевые слова: *тестология, тестологическая культура, образовательная система, тест, система оценивания, качество образования, дидактический подход, инновационное оценивание, эффективность образования.*

FORMING TESTOLOGICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS

This article examines the issue of forming testological culture among future teachers. Testological culture implies the development of the skills of measuring the knowledge, skills and qualifications of the teacher, the correct formulation of test questions, the evaluation and analysis of the results. This article describes the necessity of forming a testological culture, its role and importance in the educational process. The article presents methodical recommendations for the formation of testological culture among teachers and comments on their practical application.

Key words: *testology, testological culture, educational system, test, assessment system, educational quality, didactic approach, innovative assessment, educational efficiency.*

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’limga oid so‘zlari va qarorlari, mamlakatda ta’lim tizimining sifati oshirish, o‘quvchilarga yangicha bilimlar berish va ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekistonning ta’lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish maqsadida, davlat rahbari quyidagi fikrlarni ilgari surgan:

1. “Ta’lim tizimini rivojlantirish – jamiyatni rivojlantirishning kalitidir”

Prezidentimiz ta’lim tizimini jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi deb biladi. U, ayniqsa, ta’limning sifati oshirish va bilimlar darajasini yuksaltirish zarurligini ta’kidlagan. Bu fikr ta’limdagi metodologiyalarning yangilanishini, o‘quvchilarning ta’limda o‘zlashtiradigan bilim va ko‘nikmalarini yuqori darajaga ko‘tarish zarurligini anglatadi.

2. “Yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlash va ularga zamonaviy metodlarni o‘rgatish”

O‘zbekiston Prezidenti o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va metodikalar bilan tanishtirishning muhimligini alohida ta’kidlaydi. Yangi metodologiyalarni o‘qituvchilarga o‘rgatish, ularga pedagogik metodlarni yangilashda yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimining sifati oshiradi.

3. “Ta’limda test tizimlarini takomillashtirish”

Prezidentning ta’lim tizimini isloh qilishdagi tashabbuslaridan biri test tizimlarini yanada mukammallashtirishga qaratilgan. Testologiya sohasida yangi yondashuvlarni qo‘llash, ta’limda ob‘ektiv

baholashni ta'minlash, shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda samarali vosita sifatida testlarning rolini oshirish zarurdir.[1]

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashda test usullaridan keng foydalanish bugungi kundagi asosiy talablaridan biriga aylangan. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida testologik madaniyatni shakllantirish alohida o'rin tutadi. Testologik madaniyat — o'qituvchining bilim, ko'nikma va munosabatlarini ilmiy asosda rivojlantirish, test topshiriqlarini to'g'ri tuzish, testlarni qoidalar asosida o'tkazish va natijalarni tahlil qilish hamda baholash madaniyatini ifodalaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini ob'ektiv baholash dolzarb masalaga aylangan. Shuning uchun o'quvchilarning dars jarayonida va undan tashqarida olgan bilimlarini baholashda test tizimining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu tizim o'quvchilar bilimini samarali va aniq baholash imkoniyatini beradi va shu orqali darslarda olingan bilimlarning qay darajada o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda testologik madaniyatni rivojlantirish ularning professional tayyorgarligining muhim komponentidir.

O'qituvchilarning test savollarini tuzish va ularni baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi talab qilinadi, chunki noto'g'ri shakllangan test savollari o'quvchilarning bilim darajasini noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin. Testologik madaniyat o'qituvchidan test topshiriqlarini mazmun jihatdan to'g'ri tuzishni, savollarni aniq shakllantirishni, har xil o'lchash vositalaridan foydalanishni va test natijalarini tahlil qilishni talab qiladi. Shunday qilib, o'qituvchi testologik madaniyatni shakllantirish orqali o'quvchilarning bilimlarini aniq baholashga, bilimlarni mustahkamlashga va o'zining pedagogik faoliyatini yanada takomillashtirishga erishadi.

Bo'lajak o'qituvchilarga testologik madaniyatni o'rgatish orqali, nafaqat ularning test tayyorlash ko'nikmalari shakllanadi, balki ularning pedagogik bilim va malakalarini oshirishga ham zamin yaratiladi. Testologik madaniyatni shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarni faqatgina bilim beruvchi sifatida emas, balki o'z o'quvchilarining bilim darajasini obyektiv ravishda baholay oladigan mutaxassis sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Shu bilan birga, testologiya o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Buyuk mutafakkir, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy ta'limning inson taraqqiyoti uchun muhimligini ta'kidlagan va unga o'quvchilarni ilm-fan va axloqiy qadriyatlarga yo'naltirishni, adolat va mehr-muhabbatni targ'ib qilishni o'rgatgan. Uning “Ilmni egallash – haqiqatni izlashning boshlanishidir” degan so'zi ta'lim jarayonidagi ilmiy izlanishlarni rag'batlantiruvchi fikr hisoblanadi.[2]

Bo'lajak o'qituvchilarda testologik madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ustida ish olib borgan tadqiqotchilarimizdan A.Abduqodirov, J.O.Tolipova, G.A.Asilova, R.Qodirov, R.Boqiyev, X.Muhiddinova, A.Muxsiyeva, M.Ziyoxo'jayev, A.I.Klimenko, N.E.Mazhar, V.V.Serikov, V.A.Slastenin va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bundan tashqari pedagogik diyagnostika sohasida ham I.Y.Gutnik, K.Ingrnkamp, E.A.Mixaylichev, V.G.Maksimov va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarini olib borishgan. Test nazariyasi bo'yicha esa V.S.Avanesov, B.Bloom, V.I.Vasilev, S.P.Grushevskiy, V.I.Zvonnikov, S.V.Kozlov, L.Kroker, T.N.Tyagunova, A.N.Mayyorov, L.Kronbax va boshqalar o'rganganlar.

Testologiya – o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholash tizimini yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Testologik yondashuv o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda xolis va adolatli baholash tizimini shakllantirish imkonini beradi. Bu o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning individual yutuqlarini aniqlashda yordam beradi.[3] Bo'lajak o'qituvchilarga testologik madaniyatni o'rgatish orqali, nafaqat ularning test tayyorlash ko'nikmalari shakllanishi bilan birgalikda ularning pedagogik bilim va malakalarini oshirishga ham zamin yaratiladi. Testologik madaniyatni shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarni faqatgina bilim beruvchi sifatida emas, balki o'z o'quvchilarining bilim darajasini obyektiv ravishda baholay oladigan mutaxassis sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Shu bilan birga, testologiya o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Testologik madaniyat shakllanishiga testologik kompetentlik asos bo'lib xizmat qiladi.

Test tuza olish uchun albatta o'qituvchilarda testologik madaniyat rivojlangan bo'lishi lozim. Testologik kompetentlik o'zi nima? Testologik kompetentlik – bu tashkiliy, boshqaruv va analitik-konstruktiv testologik kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lish, ularga shaxsiy munosabatning namoyon bo'lishi, shuningdek o'quv jarayonida testdan foydalanish bo'yicha amaliy faoliyat tajribasi va natijasidir. Testologik kompetentlik deganda o'qituvchining natijaga yo'naltirilgan o'qitish maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan test materiallarini tahlil qilish, baholash va loyihalash, shuningdek, didaktik test

oʻtkazish va uning natijalarini sharhlash qobiliyatini tavsiflovchi kasbiy malakalari majmui tushuniladi. Tashkiliy-boshqaruvga doir testologik kompetentsiyalar oʻqituvchining didaktik test uchun maqsadlarni belgilash, alohida test topshirigʻi va yaxlitlikda test topshiriqlari toʻplamini yechish uchun zarur boʻlgan vaqtni aniqlash, olingan natijalarni umumlashtirish va sharhlash qobiliyatini aks ettiradi. Analitik konstruktiv kompetentsiyalar oʻqituvchining test materiallarini tahlil qilish, baholash, tuzatish va loyihalash qobiliyatini tavsiflaydi. Testologik madaniyatni oʻrgangan adabiyotlar psixologik testlar tarixiy rivojlanishini, madaniy oʻzgarishlarni va test natijalariga taʼsir etuvchi omillarni yoritadi. Har bir muallif oʻz ilmiy uslubiga ega boʻlib, testlar ishonchliligi va validligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar va nazariyalarni ishlab chiqishga hissa qoʻshgan. Adabiyotlar tahlili va metodologiya testlarning ishonchliligi, madaniy moslashuvi, va intellektual qobiliyatlarni aniqlashdagi turli oʻlchov usullariga eʼtibor qaratadi. Psixologik testlarni loyihalash va baholash jarayonida yuqorida keltirilgan metodologiyalar zamonaviy testologiya va psixometrika tadqiqotlari uchun muhim asos hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Testologik madaniyat oʻqituvchilarning bilim va malakalari darajasini oshirishga qaratilgan. Bu madaniyat test tayyorlash, ularni oʻrganish va tahlil qilishda ham samaradorlikni taʼminlaydi. Testologik madaniyat – bu oʻqituvchilarning taʼlim jarayonida bilim va koʻnikmalarni oʻlchash, baholash hamda test vositalaridan samarali foydalanish boʻyicha puxta bilim va malakalarga ega boʻlishidir. Bu madaniyat oʻqituvchilarga nafaqat test savollarini toʻgʻri ishlab chiqish, balki ularni sinchkovlik bilan tahlil qilish, natijalarni baholash va oʻqituvchilarning bilim darajasini aniqlash imkoniyatini beradi. Testologik madaniyatni rivojlantirish oʻqituvchining umumiy pedagogik tayyorgarligini mustahkamlaydi va taʼlim sifati bilan bogʻliq muhim omillardan biri hisoblanadi. [3]

Testologik madaniyatning asosiy mohiyati oʻqituvchilarning bilim va koʻnikmalarini adolatli baholash orqali taʼlim jarayonining samaradorligini oshirishdir. Bu madaniyat, oʻqituvchilarning test yaratish jarayonida qator didaktik, pedagogik va psixologik talablarni inobatga olishini taʼminlaydi. Shu bilan birga, testologik madaniyat oʻqituvchining nafaqat test tuzish qobiliyatini oshiradi, balki test natijalarini tahlil qilish va baholash orqali taʼlim jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

Testologik madaniyatni shakllantirishning zaruriyati quyidagi asosiy omillar bilan bogʻliq:

1. Taʼlim sifatini oshirish. Taʼlim sifatini oshirish har bir taʼlim tizimi uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat bilim berish, balki oʻqituvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga kerakli koʻnikmalarni berish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni oʻz ichiga oladi. Taʼlim sifatini oshirishda testologiyaning ahamiyati katta, chunki testlar oʻqituvchilarning bilim va koʻnikmalarini baholashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Testologiya, oʻqituvchilarning bilimlarini baholash, oʻlchash va tahlil qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida taʼlim sifatini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Testologik madaniyat oʻqituvchilarga bilimni samarali baholash imkonini beradi. Test vositalarini toʻgʻri qoʻllash orqali oʻqituvchilarning oʻzlashtirish darajasi va bilim kamchiliklari aniqlandi, natijada taʼlim jarayonining sifatini oshirishga imkon yaratadi.

2. Adolatli baholash tizimini shakllantirish. Testlar yordamida oʻqituvchilarning bilimini adolatli va obʻektiv baholashga erishish mumkin. Testologik madaniyat shakllangan oʻqituvchilar test natijalarini tahlil qilib, baholashda xolislikka erishadilar va subʻektiv baholash xatolarini kamaytiradilar. Adolatli baholash tizimini shakllantirish uchun testlarni yaratishda valindlik va ishonchlilikka eʼtibor berish zarur. Valindlik testning oʻlchash maqsadiga mos kelishini taʼminlasa, ishonchlilik test natijalarining doimiyligini taʼminlaydi.[4] Bu testologik talablar oʻqituvchilarni baholashda adolat va xolislikni oshiradi. Adolatli baholash tizimini shakllantirishda testologiyaning roli katta. Testologik bilim va koʻnikmalar orqali oʻqituvchilar taʼlim jarayonini adolatli va samarali baholash imkoniga ega boʻlishadi. Shu sababli boʻlajak oʻqituvchilarni testologik madaniyatga oʻrgatish, taʼlim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Taʼlimning samaradorligini oshirish. Testologik madaniyat oʻqituvchining pedagogik jarayonni samarali tashkil etishi, test natijalarini qayta koʻrib chiqib, taʼlimning samaradorligini oshirish uchun ishlatish imkonini beradi.

- a) Obʻektiv va xolis baholash;
- b) taʼlim jarayonini tahlil qilish;
- c) individual yondashuvni taʼminlash;
- d) tez va samarali baholash;
- e) motivatsiyani oshirish.

4. Didaktik yondashuvlarni rivojlantirish. Didaktik yondashuvlar taʼlim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Didaktika – bu taʼlim berish va oʻrganish jarayonlarini oʻrganadigan fan boʻlib, u oʻqituvchilarning bilish jarayonining samarali boʻlishini taʼminlash uchun muayyan yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqadi. Didaktik yondashuvlar taʼlimda oʻqituvchilarni rivojlantirishga, ularning bilim olishga boʻlgan qiziqishini oshirishga va oʻqituvchilarga darslarni samarali oʻtkazish imkoniyatlarini

yaratadi. Testologiya va didaktik yondashuvlarning integratsiyasi ta’lim jarayonining sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Testologik madaniyat bo’lajak o’qituvchilarga testlarni ishlab chiqishda didaktik talablarni hisobga olish, turli darajadagi o’quvchilar uchun mos testlarni yaratish, savollarni muvofiq tuzish kabi ko’nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Konstruktivistik didaktik yondashuv va testlar.

Konstruktivistik yondashuv o’quvchilarning yangi bilimlarni o’z tajribalari va ilgari o’rganilgan bilimlariga asoslanib qurishlarini nazarda tutadi. Bu yondashuvda testlar o’quvchilarga faqat nazariy bilimlarni emas, balki o’rganilgan bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatini yaratadi. Konstruktivistik testlar, o’quvchilarning tushuncha darajasini baholash va ularning tahliliy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Test yaratishda o’qituvchilar o’z pedagogik va psixologik bilimlariga tayangan holda qator talablarni hisobga olishlari kerak. Test topshiriqlari mantiqiy, mazmunan to’liq va aniq bo’lishi, o’quvchilarning bilim darajasini adolatli baholash imkonini berishi lozim. Shu bois, bo’lajak o’qituvchilarni o’rgatish jarayonida test yaratish qoidalarini va o’lchash vositalaridan foydalanishni o’rgatish zarur.

Masalan:

- Test savollari qisqa va aniq bo’lishi lozim;
- Testdagi variantlar tushunarli va bir xil mazmunga ega bo’lishi kerak;
- Savollar mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga yo’naltirilgan bo’lishi lozim;
- Murakkablik darajasi o’quvchilar yoshiga mos bo’lishi kerak;
- Reyting shkala va ballar tizimida bo’lishi;
- To’g’ri javoblar miqdori bo’yicha baholash ulda har bir to’g’ri javobga muayyan ball qo’yiladi va umumiy ball to’plami orqali o’quvchining natijasi aniqlanadi;
- Nazorat ro’yxatlari va kuzatish kartalaridan foydalanish o’qituvchiga o’quvchining bilim darajasini kengroq baholashda yordam beradi.
- Kompyuter dasturlari va onlayn test tizimlarini bilish.

Ta’lim sifatini oshirishda Testologiyaning muammolari va yechimlari.

1. Testlarning xato va natijalari.

Ba’zida testlar noto’g’ri tuzilgan bo’lishi mumkin, bu esa baholashning noaniqligiga olib keladi. To’g’ri testlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini sinovdan o’tkazish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, testlarni yaratish va tahlil qilishda malakali mutaxassislar ishtiroki zarur.

2. Testlarda shaxsiy yondashuvning yetishmasligi.

Testlar, ayrim hollarda, barcha o’quvchilarga bir xil savollarni taklif qiladi, bu esa shaxsga yo’naltirilgan baholashni qiyinlashtiradi. Bunday holatda, individual ehtiyojlarga mos testlar yaratish zarur. Shaxsga yo’naltirilgan testlar orqali har bir o’quvchining bilim darajasiga mos ravishda ta’lim olish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada bo’lajak o’qituvchilarda testologik madaniyatni shakllantirish masalasi o’rganiladi. Testologik madaniyatni shakllantirishning metodologik asoslari, test tuzish jarayonining xususiyatlari, test natijalarini tahlil qilish va qayta aloqa berish usullari ko’rib chiqiladi. Bo’lajak o’qituvchilarga testologik madaniyatni shakllantirish ularning ta’lim berish jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirish, sifatli ta’lim berishga qaratilgan innovatsion usullarni qo’llash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, bo’lajak o’qituvchilarda testologik madaniyatni shakllantirish ularga yuqori samaradorlikka ega ta’limni tashkil qilishda yordam beradi, va ular o’z o’quvchilariga bilimlarni samarali etkazish, to’g’ri baholash va kamchiliklarini aniqlashga ko’maklashadi. Shu bois, testologik madaniyatni shakllantirish o’qituvchilarni tayyorlashda muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Testologik madaniyatni shakllantirish o’qituvchining professional mahoratini oshirish, bilimlarni to’g’ri va xolis baholash orqali o’quvchilarning o’quv motivatsiyasini oshirish uchun zarurdir. Shu bois, zamonaviy o’qituvchilarni tayyorlash jarayonida testologik madaniyatga ega bo’lish ta’lim sifatini oshirish, samarador ta’lim jarayonini tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Ta’lim tizimini takomillashtirish bo’yicha qarorlar. Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari. 2017.
2. Navoiy A. Devon ul-Lug’atayn. Toshkent: Fan nashriyoti.2004.
3. Karimov S. Testologiya asoslari: Pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan. Toshkent: Oliy ta’lim. 2020.
4. Soliyeva Z. Didaktik metod va testologiya asoslari. Samarqand: Pedagogika nashriyoti.2021.

5. Ahmedov N. “Ta’limda test tizimining samaradorligi”. Pedagogik izlanishlar jurnali, 2019.
6. Geisinger K. F., & Bracken B. A. APA Handbook of Testing and Assessment in Psychology. Washington DC: American Psychological Association. 2019.
7. Nazarov B. “Testologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari”. O’qituvchilar tayyorlash jurnali, 2022.
8. Ziyoxo’jayev M., Boqiyev R., Qodirov R. Testlar tuzish va ulardan foydalanish. Qo’llanma. T. Nizomiy nomli TDPI, 1992.
9. Asilova G.A. Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan testlarning pedagogic xususiyatlari. Uslubiy qo’llanma. – T. 2008.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste’dod, 2008.

**BO‘LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

*Haydarov Orifjon Rustamovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

Ushbu maqolada bugungi kundagi bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini axborot kommunikatsion vositalar yordamida rivojlantirish muammolari hamda ularning yechimi yoritib berilgan. Bundan tashqari maqolada respublikamizda ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar haqida fikrlar, tahlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborotlashtirish, elektron ta‘lim, raqamli ta‘lim resurslari, AKT kompetensiyasi, o‘qituvchilar malakasini oshirish, malaka oshirish.*

**ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИТ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

В данной статье освещены проблемы развития профессиональной компетентности будущих учителей информатики и информационных технологий с помощью средств информационных коммуникаций и пути их решения. Кроме того, в статье приводятся мнения и анализ реформ, проводимых в системе образования нашей республики.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, информатизация, электронное обучение, цифровые образовательные ресурсы, ИКТ-компетентность, профессиональное развитие педагога, повышение квалификации.*

**PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF
FUTURE TEACHERS OF IT AND INFORMATION TECHNOLOGY**

This article highlights the problems of developing professional competence of future teachers of computer science and information technology using information communications and ways to solve them. In addition, the article provides opinions and analysis of reforms carried out in the education system of our republic.

Keywords: *information and communication technologies, informatization, electronic learning, digital education resources, ITC competence, teacher’s professional development, qualification development.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta‘limning yaxshi darajasini birinchi navbatda yaxshi tayyorlangan o‘qituvchilar belgilaydi. O‘qituvchining kasbiy mahorati - bu kompetentsiyalarning sintezi, jumladan, mavzu-uslubiy, psixologik-pedagogik va axborot komponentlari majmuidir.

Ta‘lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish tobora keng ko‘lamli va murakkablashib bormoqda. Shuni ta‘kidlash kerakki, ta‘limni axborotlashtirish ikkita strategik maqsadga erishishni ta‘minlaydi. Ulardan birinchisi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali barcha turdagi ta‘lim faoliyati samaradorligini oshirishdir. Ikkinchisi, axborot jamiyati talablariga javob beradigan yangi turdagi tafakkurga ega pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

AKT ni ta‘lim jarayoniga joriy etish muvaffaqiyati o‘qituvchilarning auditoriyalarda noan‘anaviy muhitni yaratish, yangi texnologiyalardan foydalanishga asoslangan yangi pedagogika va sinfdan jamoaviy ishlash asosida ijtimoiy faol ish muhitini shakllantirish, bilimlarni o‘zlashtirishga bog‘liq. Boshqalar bilan hamkorlik qilish va guruhda ishlash kabilarni o‘zida mujassam etish. Kognitiv muhitni yaxshilash, texnik savodxonlik darajasini oshirishni rag‘batlantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va uni yaratish uchun texnologiyadan foydalanishning innovatsion usullarini ishlab chiqish kabi fazilatlar kelajak uchun tubdan muhimdir.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 1-ilova 3-bobi Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarida ishlab chiqilgan uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

oliy ta‘lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
 oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
 ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;
 yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
 oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;
 oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
 korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;
 oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash.

Bu tavsiyalarda zamonaviy o’qituvchining texnologik savodxonligi va talabalarida tegishli texnologik ko’nikmalarni shakllantira olishi yetarli emasligi ta’kidlanadi. Zamonaviy o’qituvchi talabalarga muvaffaqiyatli hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal qilish, o’rganish ko’nikmalarini egallash va shu asnoda zamonaviy axborot jamiyatining to’la huquqli fuqarosi bo’lish uchun AKTdan foydalanishga yordam bera olishi kerak.

Tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarini axborotlashtirishning uchta yondashuviga asoslanadi, ular AKTga boy ta’lim muhitida ishlashni o’zlashtirgan o’qituvchilarning malakasini oshirishning tegishli bosqichlari bilan bog’liq:

- AKTdan foydalanish
- o’qituvchilarning talabalarga ta’lim ishlari samaradorligini oshirish uchun AKTdan foydalanishga yordam berish qobiliyati;
- bilimlarni o’zlashtirish
- o’qituvchilarning talabalarga o’quv fanlari mazmunini chuqur o’zlashtirishga yordam berish, olingan bilimlarni real dunyoda yuzaga keladigan murakkab muammolarni hal qilishda qo’llash qobiliyati;
- bilim ishlab chiqarish
- o’qituvchilarning talabalar jamiyatning uyg’un rivojlanishi va farovonligi uchun zarur bo’lgan AKT vositalaridan foydalangan holda yangi bilimlarni ishlab chiqarishga yordam berish qobiliyati.

Uchta yondashuvning har biri 6 ta moduldan iborat (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

O’qituvchilarning AKT kompetensiyasining tarkibi

Modullar	AKTni qo’llash	Bilimlarni o’zlashtirish	Bilim ishlab chiqarish
Ta’limda AKTning rolini tushunish	Ta’lim siyosatiga kirish	Ta’lim siyosatini tushunish	Innovatsiyalarni boshlash
O’quv rejasi va baholash	Asosiy bilim	Bilimlarni qo’llash	Bilimlar jamiyati rezidentining ko’nikmalari
Pedagogik amaliyotlar	AKTdan foydalanish	Murakkab muammolarni hal qilish	O’z-o’zini tarbiyalash qobiliyati
AKT apparat va dasturiy ta’minoti	Asosiy vositalar	Murakkab asbob uskunalar	Rivojlanayotgan texnologiyalar
Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish	Tarbiyaviy ishning an’anaviy shakllari	Hamkorlik guruhlar	Ta’limni tashkil etish
Kasbiy rivojlanish	Kompyuter savodxonligi	Yordam va maslahat	O’qituvchi o’qituvchi sifatida

O’qituvchilarni qayta tayyorlash, bu tamoyillarga asoslanadi: malaka oshirish, amaliy yo’naltirish, o’qituvchilarning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilganlik, ta’lim mazmunining o’zgaruvchanligi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash faqat o’qituvchi faoliyatidagi aniq o’zgarishlarga yo’naltirilgan taqdiridagina ta’sir ko’rsatadi.

Birinchi bosqichda o’qituvchilarni axborotlashtirish va elektron ta’lim tizimini joriy etish sharoitida AKTdan foydalanish bo’yicha bazaviy tayyorgarlik barcha toifadagi pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining texnologik moduli doirasida amalga oshiriladi. Texnologik modul tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ta’limga AKT texnologiyalarini joriy etish bo’yicha me’yoriy-huquqiy baza bilan tanishish;
- ta’lim tizimlarida AKT va elektron ta’limdan foydalanish bo’yicha xalqaro tajribani tahlil qilish;

– o‘qituvchining AKT kompetensiyasining tuzilishi;
– standart dasturiy ta’minotdan foydalangan holda o‘qitiladigan fan bo‘yicha raqamli ta’lim mazmunini loyihalash tamoyillari.

Ushbu bosqichning natijasi o‘qituvchining kasbiy faoliyatida nimani o‘zgartirishi kerakligini tushunishdir. Bilimlarni o‘zlashtirishning ikkinchi bosqichida “Interfaol doskadan foydalangan holda didaktik materiallar ishlab chiqish”, “Kompyuter animatsiyasi”, “Kompyuter” kabi dolzarb mavzular va axborot-interaktiv texnologiyalarni ta’limda qo‘llash sohalari bo‘yicha muammoli kurslar doirasida “grafika”, “Ish stoli nashriyot tizimlari”.

Bunday kurslarning mazmuni o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida AKT texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan:

- fan yo‘nalishlari bo‘yicha interfaol ta’lim resurslarini ishlab chiqish;
- animatsiya muharriri vositalaridan foydalangan holda o‘quv animatsion videolarini loyihalash;
- rastr va vektor grafik muharriri vositalari yordamida tasvirlarni yaratish va tahrirlash;
- bosma va elektron mahsulotlarni yaratish va tahrirlash

Muammoli kurslarda o‘qish natijasi o‘quv jarayonida interfaol kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv va ta’lim jarayonida animatsiya, grafik va nashriyot dasturlarini qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasining oshishi hisoblanadi.

Shuningdek, “Elektron ta’lim (e-learning)” Respublika loyihasi doirasida bilimlarni o‘zlashtirish va ishlab chiqarish bosqichida ta’lim tashkilotlari rahbarlari va o‘qituvchilarini loyiha ishtirokchilari uchun “Yaratish texnologiyasi” muammoli kurslarida malaka oshirish ishlari olib borilmoqda. elektron ta’limni joriy etish kontekstida ta’lim mazmuni”, bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta’limni modernizatsiyalash omili sifatida axborot-ta’lim muhitini yaratish;
- AKT va interfaol ta’lim texnologiyalari axborot jamiyatida raqobatbardosh shaxsni shakllantirish asosi sifatida;
- elektron ta’lim tizimidan foydalanuvchilarning o‘zaro aloqalarini ta’minlash texnologiyasi;
- gumanitar va tabiiy-matematika yo‘nalishlari uchun ta’lim mazmunini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish [3].

Treningning natijasi o‘qituvchilarning malakasini oshirishdir:

- ta’lim jarayonida AKT texnologiyalaridan, raqamli ta’lim resurslaridan (DER) pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va asosli foydalanishni ta’minlash;
- AKTdan foydalangan holda o‘quv jarayonini loyihalash;
- fanlar bo‘yicha raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish va ularni internet tarmog‘ida e’lon qilish;
- kasbiy rivojlanishingiz uchun raqamli resurslar va tarmoq hamkorligidan foydalanish.

AKT kompetensiyasini rivojlantirishning navbatdagi bosqichi o‘qituvchilarni onlayn o‘qituvchilar jamoasida o‘zaro munosabatlarning kommunikativ jihatlarini rivojlantirish uchun maqsadli tayyorlash bo‘lishi mumkin. Aynan chegara va masofani bilmaydigan tarmoq pedagogik jamoalari bir qator muhim muammolarni osonlikcha hal qiladilar, ularni hal qilish ilgari faqat bevosita uchrashish va pochta yoki elektron ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumot almashish orqali mumkin edi. Bunday tarmoq birlashmalarida ishtirok etish mamlakatimizning turli hududlarida va xorijda yashovchi o‘qituvchilarga bir-biri bilan muloqot qilish, kasbiy masalalarni hal etish, o‘zini anglash va kasbiy saviyasini oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlash uchun o‘z arsenalidagi barcha hamkorlik vositalaridan faol foydalanishlari kerak: video konferentsiya, virtual sinflar va onlayn hamkorlik.

Berilayotgan axborotlar mashg‘ulot mavzusining mazmuniga mos bo‘lishi bilan birga o‘qituvchilarda zarur ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, o‘qituvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan axborotlar hajmini aniqlashi, ma’lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur. Shuningdek, axborotlarning o‘qituvchilar tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

O‘qitish metodlari ko‘p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko‘plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo‘yicha jamlanadi.

1. An’anaviy tasnif. Umumiy belgi sifatida bilim manbai olinadi.
 - Amaliy : Tajriba, Mashqlar qilish, Mustaqil ish, Laboratoriya ishi.

- Ko‘rgazmali : Illyustratsiya , Kuzatish.
- Og‘zaki : Tushuntirish, Hikoya qilish, Suhbat, Ma’ruza.
- Kitob bilan ishlash: O‘qish, Tez ko‘rib chiqish, Sitata olish, Bayon etish, qayta so‘zlab berish, Konspekt.

• Video metod : Ko‘rib chiqish, Mashq ishlash.

2. Hozirgi kunda o‘qitish metodlarining uchta katta guruhi alohida ajratilgandir:

- o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;
- o‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari;
- o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish va motivatsiya metodlari;

AKT kompetentsiyasini rivojlantirish uchun taqdim etilgan malaka oshirish tizimi umuman kasbiy va shaxsiy tayyorgarlik darajasini oshiradi va ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun keyingi motivatsiyani ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining mohiyatini o‘zaro bog‘langan uchta-o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi omillar tashkil etadi. Mavzu bo‘yicha ko‘plab adabiyotlar tahlil qilindi. Olimlarning qarashlari va tadqiqotlari o‘rganildi. Ular tavsiya qilgan metod va vositalar tahlil qilindi. Shu asosida mashg‘ulot mavzusi va maqsadidan kelib chiqqan holda mashg‘ulotni tashkil qilgan samarali va tinglovchi o‘zlashtirishi uchun maqbul bo‘lishi asoslandi.

Xulosa o‘rnida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo pedagogning yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash avvalo kelgusida ham ta’lim va tarbiya beradigan dargohidan salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Петрова В.И. Формирование компетентности в области применения ИКТ при подготовке будущих бакалавров педагогического образования // Информатизация образования -2014: материалы Международной научно-практической конференции. - Волгоград: Изд-во ВГСПУ «Перемена», 2014. - С. 162-167.

3. Khazratov F., Juraev K. Methods of creation and organization of work, technology for creating auto-navigation maps //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 17. – С. 61-68.

4. Shayusupova A.A. Kamalova S.R. “Malaka va kompetensiyalarni baholash” O‘quv qo‘llanma Toshkent-2012.

5. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G‘., Shodiev R.R. «Axborot texnologiyalari» T. “O‘qituvchi” 2002 yil.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA INNOVATSIYA VA UNING SAMARADORLIGI

Tosheva Dildora Iskandarovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Pedagogik ta’lim” kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Raximova Feruza Farxodovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi II-bosqich magistranti

Ushbu maqolada innovatsiya tushunchasi uning mohiyati yo‘nalishlari, ta’lim jarayonidagi yangiliklar, bo‘ljak o‘qituvchilarning faoliyatida innovatsiyaning samaradorligi, qo‘llanish shart-sharoitlari, interfaol metodlar, grafik organayzerlar va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar va amaliyotga qo‘llanilayotgan usullarning tahlili, yangicha yondashuvlar haqida fikr mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, interfaol metod, grafik organayzer, pedagog, novatsiya, metod, shakl, texnologiyalar, kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, o‘qituvchi kompetensiyasi, bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba.

ИННОВАЦИЯ И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье рассмотрено понятие инновации, её суть направления, инновации в образовательном процессе, эффективность инноваций в деятельности будущих учителей, условия использования, интерактивные методы, графические органайзеры и т.д. Даны рекомендации по их использованию и анализу методов, применяемых на практике, мнения о новых подходах.

Ключевые слова: инновация, интерактивный метод, графический органайзер, педагог, новация, метод, форма, технологии, компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, компетентность учителя, знания, умения, навыки, опыт.

INNOVATION AND ITS EFFECTIVENESS IN THE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS

This article discusses the concept of innovation, its essence, trends, innovations in the educational process, the effectiveness of innovation in the activities of future teachers, conditions of application, interactive methods, graphic organizers and recommendations for their use, analysis of methods used in practice, and new approaches.

Keywords: innovation, interactive method, graphic organizer, teacher, innovation, method, form, technologies, competence, competence, professional competence, teacher competence, knowledge, skills, qualifications, experience.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e‘tirof etgan. “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”. [1]

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O‘RQ-630-son “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratish borasidagi muhim qadam bo‘ldi. Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g‘oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda ifodalangan ta‘rifga, ko‘ra **innovatsiya** – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta‘minlaydigan yangi ishlanma. **Innovatsion faoliyat** esa, yangi

ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda innovatsion jarayonlarni tashkil qilish, loyihalash hamda amalga oshirish zamonaviy o'qituvchining oldiga turgan asosiy vazifasi hisoblanadi. Turli olimlar, ayniqsa xorijliklar (N. Monchev, I. Perlaki, V.D. Xartman, E. Mensfeld, R.Foster, B.Tviss, Y.Shumpeter, E.Rodgers va boshqalar) bu tushunchani o'zlarining tadqiqotlari ob'ekti va predmetiga ko'ra har xil talqin qiladilar, ammo innovatsiyalarning bu har xil ta'riflarining tahlili shunday xulosaga olib keladiki, o'zgarishlar innovatsiyalarning o'ziga xos mazmunini tashkil qiladilar, o'zgarishlar vazifasi esa innovatsion faoliyatning asosiy vazifasi bo'ladi.[2]

Shu o'rinda innovatsion jarayon nima, o'qituvchi faoliyatida innovatsiyaning o'rni nimadan iborat ekanligi haqida savol tug'iladi. Ushbu savollarga quyidagicha javob beramiz.

Innovatsiya - yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot, xizmat yoki jarayon. "Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish") degan ma'noni anglatadi. Bunda "in" prefiksi, lotincha "yo'nalishda" deb tarjima qilinadi, agar tom ma'noda tarjima qilinadigan bo'lsa "Innovatsiya" - "o'zgarish tomon" deya tushunish mumkin. "Innovatsiya" tushunchasi "yangilik", "kashfiyot", "ixtiro" so'zlari bilan sinonim bo'la oladi va ular ma'no jihatidan farq qilsa-da, har holda, bu tushunchalarning barchasi natija - ijodiy faoliyat, ijodkorlik deganidir. Ya'ni faoliyat olib borilayotgan sohani tubdan isloh qilish va yangilik kiritishdan iborat. [3]

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qilad. Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi: Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish.

"Innovatsiya" so'zi va yuqorida sanab o'tilgan tushunchalardan asosiy farqi shundaki, u amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha qiymat yaratadi. Bunday yondashuvda innovatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgunga qadar va natija bergunga qadar yangilik emas. Innovatsiya- amalga oshirilayotgan jarayonlar, mehnat "mahsuloti", faoliyatni tashkil etish strategiyasining ham tubdan, ham bosqichma-bosqich o'zgarishini anglatishi mumkin. Shunday qilib, innovatsiya har xil nuqtai nazardan - texnologiya, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy muammolar, pedagogik jarayonning o'zgarishi va boshqalar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Innovatsiya kontseptsiyasining o'zi birinchi marta XIX asr ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan. Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Jozef Alois Shumpeter (1883-1950) hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra aynan ushbu olim birinchi bor innovatsiya tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Y.A.Shumpeter ilgari surgan g'oyaga ko'ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xomashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi. Innovatsiya esa bu o'zgacha bir yangilik va shu yangilik asosida rivojlanish, taraqqiyotning kafolati mujassamlangan. Y.A.Shumpeter o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» (1911) nomli kitobida birinchi bo'lib "yangi kombinatsiyalar" (ya'ni innovatsion muammolar) masalalarini ko'rib chiqdi va yangilikning to'liq tavsifini berdi. Keyinchalik "yangi kombinatsiya" atamasi o'zgartirilib "innovatsiya" holatiga keltirildi.[3]

J.A.Shumpeter kombinatsiyalarning quyidagi turlarini aniqlagan edi:

- 1) yangi texnologiya, texnologik jarayonlardan foydalanish yoki ishlab chiqarishni yangi bozorda qo'llab-quvvatlanishi;
- 2) yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
- 3) yangi xom ashyodan foydalanish;
- 4) ishlab chiqarishni tashkil etish va xom-ashyodagi o'zgarishlarni texnik qo'llab-quvvatlash;
- 5) yangi savdo bozorlarini paydo bo'lishi.

Zamonaviy sharoitda turli mamlakatlar hukumatlari ilmiy sohaga, xususan tadqiqot va innovatsiyalarga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. Masalan, Germaniya tadqiqot va ishlanmalar uchun taxminan YAIMning 2,7%, AQSh - 2,8%, Yaponiya - taxminan 3,5% yo'naltiradi. Iqtisodiyoti o'tish davri mamlakatlari ancha kam: Belarusiya - YAIMning 0,74%, Rossiya - 1,04% sarflaydi.[6]

A.N.Tsvetkov innovatsiyalar va ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni turlicha asoslashni taklif qiladi. U innovatsiya va ilmiy-texnikaviy innovatsiyalar bir-birida farq qiladi deb hisoblaydi. Uning takidlashicha innovatsiya- bu jarayon, ba'zi bir yangiliklarni amalda qo'llashga asoslangan jarayon.[7]

Tahlil va natijalar. Shunday ekan barcha sohalar kabi pedagogik sohada ham innovatsiyon yondashuv, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat va innovatsion mahsulot tushinchalari kirib kela boshladi. Har bir bo'lajak kasb egasiga faoliyatiga yangicha yondashgan holda ta'lim jarayonini sifatli va zamonaviy talablar asosida olib borishi talab qilinadi. Bugun mamlakatimiz yoshlari o'qib, o'rganish uchun

maktabga borishlari lozim emas, balki o‘qib-o‘rganish bilan bir qatorda, mustaqil fikrga ega, mantiqiy tafakkuri shakllangan, ijodkorlik qobiliyati rivojlantirgan holda ma’lum sohada yangilik yarata oladigan shaxs sifatida shakllanishi lozim. Buning uchun esa oily ta’lim muassasida taxsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilardan kreativlik kompetenligini rivojlantirishini talab etadi.

Masalan, ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarni qo‘llash deganda darslarni yangicha usulda olib borish va o‘quvchi yoshlarning anglash va tushunish qobiliyatlarini shakllantirish, buning natijasida o‘rganilgan yangi mavzu tushunarli bo‘lishiga erishishdir. Dars jarayonlarida innovatsiyani qo‘llash uchun albatta o‘qituvchi har bir shaxsning individual xususiyatlariga ahamiyat berishi lozim. Shuningdek bo‘lajak pedagog har bir ta’lim oluvchiga kreativ yondashishi lozim.

Faoliyatga innovatsion yondashuvni L.A.Bayev va E.V.Shugurovlar quyidagi yo‘nalishlarga bo‘ladi. Ya’ni:

- obyektga ko‘ra yondashuv;
- jarayonli yondashuv;
- obyekt-naflilik yondashuvi;
- jarayon-naflilik yondashuvi;
- jarayonli-moliyaviy yondashuv.

Obyektga ko‘ra yondashuv: Bu o‘quvchining individual xususiyatlarini aniqlagan holda unga ta’sir ko‘rsatish va uning qobiliyatini oshiruvchi mashg‘ulot metodlarini yaratish.

Jarayonli yondashuv: Bunda o‘qituvchi ta’lim jarayonini loyihalashtirishi ta’lim oluvchilarni faollashtirish uchun ta’lim vositalari, ta’lim metodlari va ta’lim texnologiyalarini yaratishi yoki ulardan to‘g‘ri foydalan

Obyekt-naflilik yondashuvi: bu ta’lim oluvchining ehtiyojini qondirish va uning qobiliyatini namoyon qilish(Olimpiyadalar, grand loyhalar, innovatika yarmarkalari)orqali.

Jarayon-naflilik yondashuvi: ta’lim oluvchi, ta’lim beruvchi shaxslarni moddiy rag‘batlantirish, ularning intellektual maxsulotiga investitsiya kiritish va bozorga tadbiiq etish.(Ta’lim grantlarini joriy etish, Intellektual tanlovlar uyushtirish, Xorij tajribasi asosida o‘qish , stajirovkalarni belgilash).

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ta’limdagi yangiliklar yoshlarimizning ijdokorlik maxsulining oshganligi xalqaro olimpiyadalarda nafaqat sport sohalarida balkim ta’lim sohasidaham nufuzli o‘rinlarni egallayotganligi buning yorqin misolidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini amalga oshirishda quyidagi talablar qo‘yilmoqda:

- har bir pedagog yuqori kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lishi;
- har bir pedagogda kreativ kompetentlik shakllangan bo‘lishi;
- har bir yosh xodim faoliyatiga tanqidiy yondashishi va o‘z ustida tinimsiz ishlash;
- har bir pedagog tadqiqotchi sifatida ta’limni sifat va samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy maktabda o‘qimog‘i;
- har bir tajribali pedagog o‘z maktabini yaratmog‘i lozim;[8]

Bo‘lajak o‘qituvchilar dars mashg‘g‘ulotlarida o‘quvchilarni faollashtirish va darsni qiziqarli o‘tqazish maqsadida interfaol metodlar va grafik organayzerlardan foydalanishi lozim. Buning uchun unga umumiy va maxsus kompetensiyalar shakkangan bo‘lishi lozim.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Grafik organayzer quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ma’lumotlarni tarkiblash va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali kabilar.

2. Ma’lumotlarni taxlil qilish, solishtirish va taqqoslash usuli va vositalari.T-jadvali, venn diagrammasi va boshqalar.

3. Muammolarni aniqlash, uni hal etish, taxlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: ” Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “ Piramida”, “ Nilufar guli” sxemalari, “ Qanday?” ierarxik diagrammasi kabilaridir.Ushbu grafik organayzerlardan foydalangan holda dars jarayonlari tashkil etilsa o‘rganilayotgan muammoli mavzu ko‘rgazmali holda yanada tushunarli bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki,bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida innovatsion usullardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etishsa, faoliyatlari yanada samarali va mazmunli eng muhimi tushunarli bo‘ladi. Bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchidan kreativlik, malaka, kompetensiya darsga yangicha yo‘nalishda yondashish talab etilmoqda. Sababi bugungi ta’lim oluvchilarni diqqatini bir joyga jamlash, ularni bilimini kengaytirish, hayotga tayyorlash va olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish muhimdir.Shuning uchun o‘qituvchilar dars o‘tishning turli metodlarini va pedagogik texnologiyalarni

o‘rganib, o‘z ustilarida ishlab, malakalarini oshirib borishmoqda. Dars o‘tishda interfaol metodlardan foydalanish, pedagogik texnologiyalarni o‘rganish ommalashmoqda. Maqsad esa dars jarayonlarini samarali tashkil etish pedagoglarni novator ,innovator qilishdan iboratdir

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar.
2. Xayitov Sh, Artikova D, Musayeva J. Innovatsion menejment. Buxoro – 2020.
3. Степанова И.П. Инновацион менежмент. - Саратов-2014
4. Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань2014
5. Степанова И.П. Инновацион менежмент. - Саратов-2014
6. Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань2014
7. Шайхуллина И.С. Инновационный менеджмент как средство повышения качества художественного образования в педагогическом университете.
8. Raximova F.F. Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mazmuni”, xalqaro ilmiy nazariy anjuman. Buxoro-2024,176-177 betlar.

TA'LIM MAZMUNINI LOYIHALASHNING AHAMIYATI

Haydarqulova Mahliyo Zafarovna,

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,
Zarmed universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

Ushbu maqola ta'lim mazmunini loyihalashning ahamiyatini tahlil qiladi, ta'lim mazmunini loyihalashda ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar va o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari hisobga olinishi kerakligi muhokama qilinadi. Ta'lim mazmunini loyihalashning o'qitish va o'rganish jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun, shu jumladan o'qituvchilar uchun ahamiyati yoritiladi. Maqola ta'lim tizimining sifatini oshirish, shuningdek, ta'lim jarayonini innovatsion va samarali qilish uchun ta'lim mazmunini loyihalashning muhimligi haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: loyihalash, dastur, kognitiv rivojlanish, formativ baholash, interfaol metodlar, ta'lim mazmuni, loyiha turlari, individual yondashuv.

THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL CONTENT DESIGN

This article analyzes the importance of designing educational content, discusses the need to take into account advanced pedagogical technologies, modern approaches and individual needs of students in designing educational content. The importance of curriculum design for all parties involved in the teaching and learning process, including teachers, will be highlighted. The article reflects on the importance of designing educational content to improve the quality of the educational system, as well as to make the educational process innovative and effective.

Key words: design, program, cognitive development, formative assessment, interactive methods, educational content, project types, individual approach.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КОНТЕНТА

В данной статье анализируется важность проектирования образовательного контента, обсуждается необходимость учёта передовых педагогических технологий, современных подходов и индивидуальных потребностей обучающихся при проектировании образовательного контента. Подчёркнута важность разработки учебной программы для всех сторон, участвующих в процессе преподавания и обучения, включая учителей. В статье размышляется о важности проектирования образовательного контента для повышения качества образовательной системы, а также для того, чтобы сделать образовательный процесс инновационным и эффективным.

Ключевые слова: проектирование, программа, познавательное развитие, формирующее оценивание, интерактивные методы, содержание обучения, типы проектов, индивидуальный подход.

Kirish. O'zgarib borayotgan dunyoyimizda boshqa sohalar kabi ta'lim tizimi ham jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida ham yangi tushunchalar va jarayonlar paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuni loyihalash tushunchasi ham bor. Ta'lim mazmunini loyihalash — bu o'quvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni etkazish uchun ta'lim dasturini yaratish jarayoni. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi o'quvchilarga mazmunli va samarali ta'lim berishdir. Ta'lim mazmunini loyihalashda quyidagi asosiy bosqichlar mavjud:

Ta'lim maqsadlarini aniqlash:

- O'quvchilarga qanday bilim, ko'nikmalar va malakalar kerakligini aniqlash.

- Ta'lim jarayonining yakuniy maqsadini belgilash (masalan, ijtimoiy, ilmiy yoki kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish).

O'quv materiallarini tanlash:

- O'quvchilarni kerakli bilim bilan ta'minlaydigan darsliklar, qo'llanmalar, video materiallar, onlayn resurslar va boshqalarni tanlash.

- O'quv materiallari ta'limning maqsadlariga mos bo'lishi kerak.

O'quv rejasini ishlab chiqish:

- O'quvchi auditoriyasi, darsning davomiyligi va o'quv resurslari asosida dars rejasini tuzish.

- O'quvchilarga ma'lum bir vaqt ichida qanday bilim berilishi va qanday ko'nikmalar rivojlantirilishi kerakligi haqida aniq reja tuzish.

Ta'lim metodlarini tanlash:

- Ta'lim metodlari o'quvchilarning ehtiyojlariga va ta'lim maqsadlariga mos bo'lishi lozim. Masalan, guruhli ishlash, loyiha asosida ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, virtual sinflar va boshqalar.

O'quv faoliyatlarini tashkil etish:

- O'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantiradigan mashg'ulotlar va vazifalar tayyorlash.

- O'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish.

Baholash va fikr-mulohazalarni yig'ish:

- Ta'lim mazmunining samaradorligini baholash uchun turli xil baholash metodlarini (sinovlar, testlar, kotirovkalar va boshqalar) ishlatish.

- O'quvchilardan fikr-mulohazalar olish, ta'lim jarayonini yaxshilash uchun o'zgarishlar kiritish.

Ta'lim jarayonini tahlil qilish va optimallashtirish:

- Loyihalangan ta'lim mazmunining natijalarini tahlil qilish va kerak bo'lsa, uni takomillashtirish.

Asosiy qism. Ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning psixologik, kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish juda muhimdir. Mazmunli va samarali ta'limni taqdim etish uchun ta'lim loyihasi doimiy ravishda tahlil qilinib, takomillashtirib borilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim mazmunini loyihalashga o'rgatish, o'qituvchilarning professional rivojlanishida juda muhim bir yo'nalishdir. Ta'lim mazmunini loyihalash, o'qituvchining ta'lim jarayonida qanday maqsadlarni qo'yishi, o'quvchilarning ehtiyojlarini qanday inobatga olishi, o'qitishning samaradorligini qanday oshirishi va o'quvchilarni qanday motivatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu jarayonni o'rgatishning asosiy yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ta'lim mazmunini loyihalashning nazariy asoslari

O'qituvchilarga ta'lim mazmunini loyihalashning asosiy nazariy prinsiplari, metodologiyasi va tushunchalarini o'rgatish muhim. Bu:

• Ta'limning maqsadlari va vazifalari: O'qituvchilar ta'lim jarayonida qanday maqsadlar qo'yishlari kerakligini tushunib oladilar. Maqsadlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

• Ta'lim dasturlarining turlari: Yangi o'quv dasturlari, o'quv rejaları va o'quv materiallari haqida ma'lumot berish, ularning o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntirish.

• Kognitiv va emotsional rivojlanish: O'qituvchilar o'quvchilarning psixologik va kognitiv rivojlanishini hisobga olishlari kerak. Bu, o'quvchilarning bilim olish jarayonida qanday qiyinchiliklar bilan yuzlashishini va qanday o'qitish usullarini qo'llash kerakligini belgilaydi.

Ta'lim mazmunini loyihalashda o'qituvchilar turli pedagogik metodlarni qo'llashni o'rganishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun samarali o'qitish strategiyalariga quyidagilar kiradi:

• Faol o'qitish usullari: O'qituvchilarni o'quvchilarga faol ishtirok etish imkonini beradigan usullarni qo'llashga o'rgatish. Misol uchun, guruhli ishlar, muammolarni hal qilishga asoslangan mashqlar, loyihalar va o'yinlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

• Interfaol metodlar: Ta'limda o'quvchilarni fikrlash, mulohaza qilish va boshqalar bilan muloqot qilishga rag'batlantirish. Bu metodlar o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

• Integratsiyalangan ta'lim: Fanlararo yondashuvni qo'llash, bu o'quvchilarga bir nechta fanlarni birgalikda o'rganishga imkon beradi. Masalan, matematika va tabiatshunoslikni birlashtirish orqali darslarni qiziqarli va o'qilishi oson qilish.

O'qitishning samaradorligini baholash va tahlil qilish

O'qituvchilarni ta'lim mazmunini loyihalashda baholash va tahlil qilish jarayoniga o'rgatish kerak. Bu:

• Formativ baholash: O'qituvchilar o'quvchilarni doimiy ravishda baholash, ularning yutuqlarini kuzatib borish va darslarni zarur tarzda moslashtirishlari lozim.

• Summativ baholash: O'quvchilarning yil oxirida yoki dars yakunida erishgan yutuqlarini baholash. Bu o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi umumiy rivojlanishini ko'rsatadi.

Ta'lim materiallarini ishlab chiqish

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim materiallarini loyihalashni o'rgatish juda muhim. Ta'lim materiallari darslarning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu materiallar:

• Vizual va didaktik materiallar: O'qituvchilarni darsni oson va samarali tushuntirish uchun vizual yordamlar, kartalar, diagrammalar va infografikalarni tayyorlashga o'rgatish.

• Interaktiv materiallar: Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, o'yinlar va interaktiv dasturlarni ishlab chiqish, bu o'quvchilarga ko'proq qatnashish imkonini beradi.

O'qituvchilarga qo'llab-quvvatlash va hamkorlik

O'qituvchilarga ta'lim mazmunini loyihalashda yordam berish va ularga mustahkam pedagogik tarmoq yaratish zarur. Bu:

• O'qituvchilarni bir-biri bilan tajriba almashish: O'qituvchilar o'rtasida muntazam ravishda seminarlar, treninglar va ishchi guruhlar tashkil etish.

• Mentorlik tizimi: Yangi o'qituvchilarni tajribali o'qituvchilar qo'llab-quvvatlashi va ularning ishini tahlil qilishi kerak.

Adabiyotlar sharhi. Ta'lim mazmunini loyihalash sohasida bir nechta olimlar va tadqiqotchilar muhim ishlarni amalga oshirgan. Ularning asarlari ta'lim tizimini yaxshilash, o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Quyida ta'lim mazmunini loyihalashga oid nazariyalar, metodlar va amaliyotlarni ishlab chiqqan ba'zi muhim olimlar keltirilgan:

Jon Dyui (John Dewey) — pedagogika sohasidagi eng yirik faylasuf va ta'lim nazariyotchilaridan biri bo'lib, ta'lim mazmunini loyihalash va ta'lim tizimini takomillashtirish borasida katta ta'sir ko'rsatgan. U pedagogikada konstruktivizm nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan va ta'limni nafaqat bilim olish jarayoni, balki o'quvchilarni hayotga tayyorlash va ular uchun real muammolarni hal qilishni o'rgatish jarayoni sifatida ko'rgan.

Benjamin Bloom ta'limda maqsadlarni aniq belgilashga va o'quvchilarni turli darajalarda o'qitishga e'tibor qaratgan. U "Bloomning taksonomiyasi"ni ishlab chiqqan, bu esa ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini baholashda keng qo'llaniladi. Bloomning taksonomiyasi o'quvchilarning o'qish jarayonidagi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini (tahlil qilish, sintez qilish, baholash) rivojlantirishga qaratilgan.

Lev Vygotsky — sovet psixologi va pedagogi bo'lib, ta'lim va rivojlanish bo'yicha qimmatli g'oyalar ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy kontekstini hisobga olish zarur, chunki bilish jarayoni faqat shaxsiy tajriba asosida emas, balki ijtimoiy aloqalar va madaniy tajribalar orqali rivojlanadi. Vygotskyning g'oyalari pedagogikada madaniy-historik yondashuv deb ataladigan nazariyaning asosini tashkil qiladi.

David Ausubel, ta'limda o'quvchilarni ilgari o'rganilgan bilimlarga asoslangan holda yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydigan "anglashli o'qitish" (meaningful learning) nazariyasini ishlab chiqqan. U ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning oldingi bilimlarini hisobga olish va yangi bilimlarni ular bilan bog'lashning muhimligini ta'kidlagan.

Jean Piaget — bolalar rivojlanishi va ularning kognitiv qobiliyatlari bo'yicha eng mashhur olimlardan biridir. U kognitiv rivojlanish nazariyasini yaratgan va ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanish bosqichlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Piagetning nazariyasi, bolalarning tafakkur va bilish jarayonlarining qanday rivojlanishini tushuntiradi va ta'lim mazmunini loyihalashda bu rivojlanish bosqichlarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Jerome Bruner, ta'lim mazmunini loyihalashda "o'z-o'zini kashf qilish" va "o'rganish orqali o'qitish" prinsiplarini qo'llagan. U o'qitishning konstruktiv usullarini rivojlantirib, ta'lim mazmunini o'quvchilarga aktiv ravishda bilimni o'zlashtirish va kashf etish imkoniyatini beradigan tarzda loyihalash zarurligini ta'kidlagan.

Metodlar. Ta'lim mazmunini loyihalash metodikasining asosiy tamoyillar

1. O'quvchilarni markazga qo'yish (O'quvchi-Centristlik Yondashuv)

Ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchi markazda bo'lishi kerak. Bu tamoyil o'quvchilarning ehtiyojlarini, qiziqishlarini, qobiliyatlarini va rivojlanish bosqichlarini hisobga oladi. O'quvchilarga bilimlarni faqat passiv tarzda etkazib berish emas, balki ularni faol ishtirok etishga, o'zlarini kashf qilishga va o'rganishga rag'batlantirish lozim.

2. Bosqichma-bosqich yondashuv (Spiral Ta'lim)

O'quvchilarni o'qitishda bilimlar va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'rgatish zarur. Ta'lim mazmuni kichik va sodda mavzulardan boshlab, o'quvchilarning tushunchalarini chuqurlashtiradigan murakkab materiallarga o'tishni ta'minlashi kerak. Bu yondashuv, masalan, Jerome Bruner tomonidan ilgari surilgan "spiral ta'lim" tamoyiliga mos keladi.

3. Faol o'rganish

O'quvchilarning faolligini ta'minlash orqali ta'lim mazmuni loyihalash kerak. Bu, o'quvchilarga mustaqil ishlash, muammolarni hal qilish, eksperimentlar o'tkazish, fikr almashish va boshqa interaktiv faoliyatlar orqali bilimlarni amalda qo'llashni anglatadi. Shuningdek, guruh ishlari va muhokamalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Differensiyatsiya

O'quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlarini hisobga olish zarur. Har bir o'quvchi o'z ritmida va o'ziga xos tarzda o'rganadi, shuning uchun ta'lim mazmuni turli darajalar, ko'nikmalar va metodlar orqali individual ehtiyojlarga moslashtirilishi kerak. Bu Lev Vygotsky ning "yaqin rivojlanish zonasini" hisobga olishga asoslanadi, ya'ni o'quvchiga joriy bilimlaridan yuqoriga chiqish imkoniyatini yaratish.

5. Interdisipliner yondashuv

Ta'lim mazmuni turli fanlarni o'zaro bog'lab, o'quvchilarga bilimlarni bir-biri bilan bog'liq holda o'rgatish zarur. Bu yondashuv nafaqat aniq fanlar (matematika, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar)ni o'z ichiga oladi, balki san'at, adabiyot va boshqa sohaga oid bilimlarni ham qo'llashni anglatadi. Interdisipliner yondashuv o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi.

6. Natijalarga e'tibor qaratish

Ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilar tomonidan qanday natijalarga erishilishini aniq belgilash zarur. Bu natijalar o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishi, ko'nikmalarni rivojlantirishi va turli vaziyatlarda bilimlarni amalda qo'llashga tayyorligini o'z ichiga oladi. Natijalar aniq va o'lchanadigan bo'lishi kerak.

Ta'lim Mazmunini loyihalashda qo'llaniladigan metodlar

1. Projekt Yondashuvi

O'quvchilarga biror loyiha yoki muammoni hal qilishni taklif qilish orqali ta'lim mazmunini loyihalash mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, hamkorlikda ishlashini va o'z bilimlarini amalda qo'llashni rag'batlantiradi.

2. Konstruktivist Yondashuv

Jean Piaget va Lev Vygotsky ning ta'lim nazariyalariga asoslangan konstruktivist yondashuv o'quvchilarni bilimni o'zlari yaratishga undaydi. Bu yondashuvda o'quvchilar yangi bilimlarni o'z tajribalari va oldingi bilimlari bilan bog'lashadi. O'qituvchi esa o'quvchilarni o'z-o'zini kashf qilishga yordam beruvchi qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

3. Muammoli o'rganish (Problem-Based Learning)

Bu metodda o'quvchilarga haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilish topshiriladi. O'quvchilar muammoni hal qilish jarayonida o'z bilimlarini amalda qo'llashadi, kritik fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Kooperativ o'rganish

Bu yondashuvda o'quvchilar guruhlar bilan ishlashadi va birgalikda bilimlarni o'zlashtirishadi. Kooperativ o'rganish o'quvchilarga bir-biridan o'rganishga, g'oyalarni baham ko'rishga va muammolarni birgalikda hal qilishga imkon beradi.

5. O'quv dasturlarini rivojlantirish

Ta'lim mazmunini loyihalashda o'quv dasturlari va rejalari ishlab chiqiladi. Bu dasturlar o'quvchilarga ma'lum mavzularni o'rganishda yo'naltirishni ta'minlaydi. Har bir dars uchun aniq maqsadlar, o'quv metodlari, baholash mezonlari va natijalar belgilanishi kerak.

6. Metakognitiv yondashuv

O'quvchilarga o'z o'rganish jarayonini tahlil qilish, o'z o'rganish usullarini belgilash va ularga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash imkonini berish zarur. Bu metod o'quvchilarning o'z bilimlarini va o'rganish jarayonini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta'lim mazmunini loyihalashdagi bosqichlar

1. Maqsadlarni belgilash

Ta'lim mazmunini loyihalashda birinchi bosqich o'quvchilarga qaysi bilim va ko'nikmalarni o'rgatish kerakligini aniqlashdir. Bu maqsadlar aniq, o'lchanadigan va amalga oshirish mumkin bo'lishi kerak.

2. Tajriba va resurslarni tayyorlash

O'quvchilarga bilimlarni o'rgatishda foydalaniladigan resurslar, materiallar, va metodlar aniqlanadi. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni qiziqtiradigan faoliyatlar, mashqlar, tajribalar, va baholash usullarini tayyorlaydi.

3. O'quv dasturlarini yaratish

Maqsad va metodlarni aniqlagan holda, o'quv dasturi yoki reja ishlab chiqiladi. Bu dastur o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan vaqtni, faoliyatlarni va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi.

4. Ta'limni baholash

Ta'lim mazmuni loyihasini ishlab chiqishda baholash tizimi ham muhimdir. O'quvchilarning qanday bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganligini aniqlash uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu baholash o'quvchilarning yutuqlarini o'lchash va kerakli o'zgarishlarni kiritish imkonini beradi.

Xulosa. Ta'lim mazmunini loyihalash — bu ta'lim jarayonini samarali va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishning asosiy vositasi bo'lib, uning ahamiyati beqiyosdir. To'g'ri loyihalangan ta'lim mazmuni nafaqat o'quvchilarga kerakli bilimlarni etkazishni ta'minlaydi, balki ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mazmunli ta'lim rejalari o'quvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, samarali ta'lim metodlarini qo'llash, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan faoliyatlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim jarayonini doimiy ravishda baholash va optimallashtirish ta'lim sifatini yaxshilashga imkon beradi.

Shunday qilib, ta'lim mazmunini loyihalashning ahamiyati o'quvchilarga faqat bilim berishdan iborat emas, balki ularni hayotga tayyorlash, ularning to'laqonli shaxs sifatida rivojlanishiga zamin yaratishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel 5712-son “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.
2. Piaget, J. (2003). *The Psychology of Intelligence*. London: Routledge.
3. Zaynullaeva M. (2020). *Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim mazmunini o'zgartirish*. Toshkent: Ziyo-nur nashriyoti.
4. Mingbayeva M. (2020). *O'zbekiston ta'lim tizimi: Yangi yondashuvlar va istiqbollar*. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi.
5. Sulaymanova D.N. Loyihaga asoslangan o'qitish(PLB) bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida “Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologikpedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani” 2023-yil 2-iyun.
6. Haydarkulova M.Z. “Boshlang'ich sinflarda darslarni loyihalash ta'lim tamoyili asosida tashkil etish” // “Pedagogik mahorat” jurnali, 2024-yil, 10-son. Buxoro.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI,
O'QITUVCHINING BILIM VA KO'NIKMASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

*Sodiqova Aziza Hayitovna,
Zarmed Universiteti Pedagogika va
psixologiya kafedrasida o'qituvchisi (PhD)
azizasodiqova961@gmail.com*

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilim va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar va ularning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o'quvchilarning bilimini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak mutahassis qilib tayyorlash uchun ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning zaruriy jihatlari ochib berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf o'qituvchisi, bilim, ko'nikma, kasbiy-pedagogik bilimlar, zamonaviy texnologiya, intellekt, ilmiy salohiyat.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЯ,
ТРЕБОВАНИЯ К ЗНАНИЯМ И НАВЫКАМ УЧИТЕЛЯ**

В статье описаны требования к знаниям и умениям учителей начальных классов и необходимые аспекты осмысленной и качественной организации их профессионально-педагогической деятельности, обучения их эффективному использованию современных технологий, направленных на повышение знаний учащихся. Для подготовки учителей начальных классов как специалистов с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом раскрыты необходимые аспекты формирования их знаний и умений. Требования к учителям начальных классов значительны в силу их педагогической, психологической и социологической природы.

Ключевые слова: *учитель начальных классов, знания, умения, профессионально-педагогические знания, современные технологии, интеллект, научный потенциал.*

**PEDAGOGICAL SKILLS OF A PRIMARY EDUCATION TEACHER, REQUIREMENTS
FOR TEACHER'S KNOWLEDGE AND SKILLS**

The article describes the requirements for the knowledge and skills of primary school teachers and the necessary aspects of meaningful and qualitative organization of their professional and pedagogical activities, teaching them to effectively use modern technologies aimed at increasing the knowledge of students. In order to train primary school teachers as experts with high intellectual and spiritual potential, the necessary aspects of their knowledge and skills formation have been revealed. Requirements for primary school teachers are significant due to their pedagogical, psychological and sociological nature.

Key words: *primary school teacher, knowledge, skills, professional-pedagogical knowledge, modern technology, intelligence, scientific potential.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining pedagogik va kasbiy bilimi va ilmiy salohiyati yuqori bo'lishi ta'lim sifatiga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar o'quvchilar uchun sifatli va samarali ta'lim berish uchun juda muhimdir.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid farmoni va qarorlari ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni alohida hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning savodini chiqarishda, ularni shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar o'qituvchining samarali va sifatli ta'lim berishiga yordam beradi. Quyida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bilishi kerak bo'lgan asosiy pedagogik va psixologik bilimlar keltirilgan:

1. **Pedagogikaning asosiy nazariyalari va prinsiplari:** Ta'lim va tarbiya jarayonining nazariy asoslarini bilish, o'quvchilarning aqlan va jismonan rivojlanish jarayonini tushunish.

2. **Bolalar psixologiyasi:** Bolalarning ruhiy va hissiy rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'lish va ularni ta'lim jarayonida qo'llash.

3. **Dars rejalashtirish va o'tkazish metodikasi:** Samarali dars rejalari tuzish va o'quvchilarni faol jalb qilish usullarini bilish.

4. **Baholash va monitoring qilish:** O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash usullari va ularning rivojlanishini kuzatib borish.

5. **Inkluziv ta'lim:** Har xil ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash va ularni ta'lim jarayoniga qo'shish usullari.

6. **Ota-onalar bilan hamkorlik:** Ota-onalar bilan samarali muloqot qilish va ular bilan birgalikda bolalar ta'limini rejalashtirish.

7. **Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash:** Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va resurslardan foydalanish.

Bu bilim va ko'nikmalar o'qituvchilarning o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishiga, yanada samarali ta'lim va tarbiya berishga ularning rivojlanishini ta'minlashda yordam beradi.

Agarda pedagogning kasbiy va pedagogik mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati-o'qituvchining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogning bilim, ko'nikma va mahoratlari berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda bilim va mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi. Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis. Pedagogik nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi. O'qituvchi bilim va mahoratini egallash uchun ko'p narsani bilish va qila bilishi, tushunishi va tushuntira olishi zarur.

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rne, uning o'z ishining ustasi bo'lishidir. O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi. Biroq mahorat — bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chohidagina go'zaldir. Pedagogik mahoratga etishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatleri bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeyini ifodalaydi.

“Pedagogik mahorat” bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega. Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi. I.A.Zyazyun va N.A.Lebedniklar shaxsning sotsial etukligi va kasbiy mahoratining o'zaro bog'liqligini isbotlab berdilar. Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi. Bo'lg'usi pedagogning sotsial etuklik komponentlariga ushbular kiradi:

sotsial o'z-o'zini belgilash - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

sotsial faollik — odamlar bilan ishlay qilish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

sotsial mas'uliyat - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

Pedagogik mahorat komponentlari N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, I.A.Zyazyun, V.I.Zagvyazinskiy, G.I.Xozyainov, T.F.Kuzina, A.I.Myashenko, N.P.Lebednik, T.Noyner, Yu.K.Babanskiy, N.V.Kuxarevlarining tadqiqotlarida o'rganilgan. Ular pedagogik mahoratning asosiy yo'nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar. Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi,

pedagog shaxsi taalluqlidir. Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Pedagogik mahoratning an'anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi (I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin).

Pedagog tadqiqotchilarning Sankt-Peterburg maktabi, pedagogik mahoratni kishining alohida holati - ya'ni uning kasbiy mashg'uloti keng ma'noda kishilar bilan ishlashning o'ziga xos sohasi bo'lgan pedagogika hisoblanadi, deb tavsiflaydi. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga tayyorlik bilan belgilanadi.

Pedagogik bilim va ko'nikma pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan pedagogning ta'lim va tarbiya jarayonida to'plagan barcha tajribalardan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi, shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi etarli darajada pedagogik bilim, ko'nikma va mahoratini egallashi juda muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlaiga bog'liq bo'ladi. Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir. O'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- O'quvchini tushunishini ko'rish va sezish hamda bunday tushunishning darajasini va xarakterini o'rnatish qobiliyati;

- o'quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;

- materialni etarli bayon qilish hamda uning barcha talabalariga tushunarligini ta'minlash qobiliyati;
- O'quvchilarning individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyati;
- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashtirish qobiliyati.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisiga jiddiy talablar qo'yiladi. O'qituvchi pedagogik va psixologik bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi. O'quvchining ruhiy, aqliy va jismoniy holatini tushunishi, pedagogik faoliyatini sevishi, umumiy madaniyati va axloqining yuksak darajada bo'lishi, pedagogik mahorati yetarli bo'lishi muhimdir. Yuqorida sanab o'tilganlar pedagog shaxsiga xos tug'ma xislatlar emas, ular pedagogning o'z ustida muntazam va betinim mehnati, ulkan xizmatlari natijasida yuzaga keladi albatta.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova A.H. The scientific-methodological importance of independent education in the development of special competencies of future technological education teachers. // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. ISSN 2749-0866 Vol.2 20.09.2022. Issue 1.5 Pedagogical sciences <http://berlinstudies.de/>.

2. Sodiqova A.H. Shaxsning kasbiy faoliyatini o'rganishga psixologik yondashuv // “Kasb-hunar ta'limi” Respublika ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. Toshkent sh. 2019-yil.25-29 b.

3. Kuysinov O.A., Nasirov A.A., Abduraimov Sh.S., Sodikova A.Kh., Kutlimuratov K.A., Mamajanov K.A. New Uzbekistan – The Value of Membership in the Continuous Education System // International journal of special education. Vol.37, No.3, 2022.

4. Sh.A.baxshilloeva. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish. 2021.

5. O'roqov Sh. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari//Xalq ta'limi. – Toshkent: 2016, №5. –B.55-60.

6. O'roqov Sh. Bo'lajak kollej o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-metodik jihatlari//SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand: 2015. 4-son. –B.132-135.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TANQIDIY FIKRLASHINI “4K” MODEL ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Xodjiyeva Farog‘at Oltiyevna,
Navoiy davlat universiteti dotsenti., p.f.n.
xodjiyeva.f.o.65@mai.ru

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda “4K” modelining o‘rni tahlil etilgan. Bunda “4K” modelining ilmiy-metodik asoslari, tamoyillari konseptuallashtirilib, undan talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda foydalanishning metodologik imkoniyatlari “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani misolida ko‘rsatib berilgan. Natijada, bu modelning talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: 4K model, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, T – jadval metodi, “SWOT- tahlil” metodi.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ «4К»

В данной статье анализируется роль модели 4К в развитии критического мышления будущих педагогов. При этом концептуализируются научно-методические основы, принципы модели 4К, показаны методологические возможности её использования в развитии критического мышления студентов на примере дисциплины “Теория и история педагогики”. В результате обосновано, что данная модель обладает высокой эффективностью в развитии критического мышления студентов.

Ключевые слова: 4К модели, коллаборационизм, коммуникативность, креативное мышление, критическое мышление, метод T – таблицы, метод “SWOT - анализа”.

DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING OF FUTURE EDUCATORS ON THE BASIS OF THE «4K» MODEL

This article analyzes the role of the 4K model in developing the critical thinking of future teachers. At the same time, the scientific and methodological foundations and principles of the 4 K model are conceptualized, and the methodological possibilities of its use in developing students' critical thinking are shown using the discipline of “Theory and history of pedagogy.” As a result, it is proved that this model is highly effective in developing students' this model is proven to be highly effective in enhancing students' critical thinking.

Keywords: the model 4 K, collaboration, communication, creative thinking, critical thinking, T–table method, “SWOT analysis” method.

Kirish. Yangi avlod pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “...talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan”ligi masalasiga e‘tibor qaratilgan[1]. Darhaqiqat, bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish orqali ularda zamonaviy tafakkur tarzini shakllantirishda innovasion-amaliy metodlarga asoslangan pedagogik ta‘lim jarayonlari alohida o‘rin tutadi.

Asosiy qism. Zamonaviy mutaxassis bugungi kunda raqobatbardosh ta‘lim bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun yangicha yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishi lozim. Bugungi kunda maktab darsliklarining yangi avlodi yaratilgan bo‘lib, unga yangicha yondashuv – “4K” modeli asos qilib olingan. Bu model ma‘lumotlarni faqatgina yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozish bilan cheklanib qolmay, balki tafakkurni rivojlantirish, katta axborot oqimidan zarurlarini tezda tanlab olish, yo‘nalishni aniqlash, vaziyatni oldindan to‘g‘ri baholash, muammolarni nostandart tarzda yechish, yangi fikr-mulohaza bilan qarash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir[2].

Ta‘lim sifati, eng avvalo, ta‘lim jarayonining asosiy bo‘g‘ini, uning ham ob‘yekti, ham sub‘yekti sifatida o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasiga bog‘liqdir. Aynan, “4K” modeli bugungi kunda ta‘lim

sifatini oshirishda muhim katalizatorlik vazifasini bajaradi. “4K” tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalaridagi kompetensiyalarni ifodalashda qo‘llaniladi.

“4K” modeli bu hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikdir. K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Bu tahsil oluvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga hamkorlikda ishlash, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik: O‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlash: O‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni izlab topadi, ijodkorlik orqali muammolarni hal qilishning kutilmagan usullariga ega bo‘ladi, g‘oya farazini ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlardan foydalanadi, natijada yangi original fikrlar yaratiladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Bo‘lajak pedagoglar ta‘lim tashkilotlariga borib, o‘z faoliyatlarini tashkil etar ekanlar, avvalo bu modelning mazmun mohiyatini anglab, amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalari bilan o‘zlari qurollangan bo‘lishlarini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Ushbu modelning afzallik jihati talabalarni tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Oliy ta‘limda o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida talabalarni ushbu model asosida o‘qitish, ularning keyingi professional faoliyatida va shaxsiy hayotida muhim ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlash har bir shaxs hayotida sof aqliy jarayon sifatida alohida mavjud bo‘la olmaydi, u o‘sha insondagi boshqa psixologik jarayonlar bilan albatta bog‘langan bo‘ladi. Shu bilan birga, aynan ta‘lim oluvchilarda, xususan talabalarimizda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish va bunda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ularni izchillik bilan ta‘lim jarayonlariga tadbiiq etishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish dolzarb hisoblanadi.

“4K” modeli tarkibidagi “Kritik(tanqidiy) fikrlash kompetensiya”sini o‘quvchilar ongida shakllantirish o‘qituvchilardan yuksak pedagogik bilim va mahoratni talab qiladi. O‘z fikrini erkin ifoda eta olish, qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlash, muammolarni yangi nuqtai nazardan ko‘rish kabi qobiliyatlar insonning ijtimoiy moslashuvchanligi va ijodkorligini oshiradi.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani dasturida keltirilgan “XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya va maktab” mavzusini innovatsion metodlardan foydalangan holda talabalarda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini keltirib o‘tamiz [3].

“4K” modelini kollaboratsiya tamoyilini amalga oshirishda talabalarni guruh ichida guruhlarga ajratish nazarda tutiladi va talabalarining hamkorlikda ishlash imkoniyati yuzaga keladi. O‘quv mashg‘uloti jarayonida guruhlarda ishlash orqali modelning kommunikativlik tamoyili ham amalga oshiriladi, ya‘ni talabalar o‘zaro muloqotga kirishib, axborot almashadi, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalaydi, suhbatdoshni tinglashga, tushunishga hamda ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishiga harakat qiladi. Ushbu mavzuni o‘rganishda talabalarining kreativ fikrlash tamoyilini rivojlantirish innovatsion metodlardan foydalanish jarayonida amalga oshiriladi. Natijada talabalarda kritik (tanqidiy) fikrlash ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Ya‘ni, guruh a‘zolari o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan muhokama qilish orqali turli nuqtai nazarlarni anglab yetishadi. Bu esa, talabalarda turli xil qarashlarni hamda ularning sabab-oqibat munosabatlarini tushunishlariga yordam berib, bir muammoga nisbatan turli rakurslarda qarash imkoniyatlarini oshiradi.

“4K” modelida keltirilgan yuqoridagi kompetensiyalarni talabalarda rivojlantirish uchun bir nechta innovatsion metodlarni yuqorida keltirilgan mavzu misolida ko‘rib chiqamiz. Shulardan biri bu “Xulosalash”- (Rezyume, Veer) metodidir. Bu metod yordamida temuriylar davrida davlat boshqaruvidagi yutuq va kamchiliklarni taqqoslash asosida ijtimoiy tuzumini o‘z nuqtai nazardan kelib chiqib baholab xulosalaydilar.

1-guruh A.Temur boshqaruvidagi yutuqlarini; 2-guruh shu davrdagi muammolarni ko‘rsatib o‘tadilar va oxirida xulosalaydilar. Bu quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Davlat va uni idora etish	
A.Temur boshqaruvidagi yutuqlar	Ijtimoiy-siyosiy muammolar
1.Saltanat ishlarida 4 narsaga amal qilgan: - Kengash - Mashfaratu-maslahat - Qat’iy qaror, tadbirkorlik - Ehtiyotkorlik	Mahalliy hokimlar va amaldorlar ko'pincha o'zining mustaqil siyosatini yuritishga harakat qilgan va bu holat davlatning ichki barqarorligini ta'minlashni qiyinlashtirgan
2. Biron ishni qilmoqchi bo'lsa kengashib olib, keyin shariat hukmi bilan ish qilgan.	Amir Temur vafotidan keyin u tuzgan davlat qismlarga bo'linib ketgan, bu esa davlatning kelajakdagi istiqboliga salbiy ta'sir ko'rsatdi.
3.Markazlashgan, ilm-fan, san'at, madaniyat rivojlangan davlat barpo etgani.	Temur avlodlarining hokimiyat uchun o'zaro kurashishi va ichki nizolar davlatni boshqarishda katta muammolarni keltirib chiqardi.
4.....
XULOSALASH	
1-guruh	2-guruh
Amir Temur o'zining qonunlari orqali o'z davlati hududida adolatni amalga oshirishgan va o'zining yuksak harbiy salohiyati, siyosiy irodasi va davlat boshqaruvidagi zukkoligi bilan o'z davrida yirik davlatchilik barpo etgan. Uning davlati keng hududlarga yoyilib, Samarqandni ilm-fan, madaniyat va savdo markaziga aylantirdi, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishni ta'minladi, shuningdek, turli etnik va diniy guruhlar o'rtasida tinchlikni saqlashga muvaffaq bo'ldi. Temur Samarqandni o'zining bosh poytaxti sifatida tanlab, uni me'morchilik, ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida rivojlantirdi. Samarqand o'zining go'zal me'morchiligi, ilmiy muassasalari, savdo yo'llari va madaniyati bilan dunyo miqyosida mashhur bo'ldi. Samarqandning o'sha davrdagi obodligi va ilmiy markaz sifatidagi roli Temurning davlat boshqaruvidagi yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Temur o'zining ko'plab yutuqlari orqali nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham milliy iftixorga aylandi.	Amir Temur davlatni o'zining farzandlari va yaqin qarindoshlari o'rtasida bo'lishni rejalashtirmagan. Vafotidan keyin uning o'g'illari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar boshlandi, bu esa davlatni zaiflashtirdi. Temur avlodlarining taxt uchun o'zaro kurashi va mamlakatdagi turli ichki nizolar davlatni boshqarishda katta muammolarni keltirib chiqardi.

Ushbu metodni bajarish davomida talabalar Amir Temur davrini chuqur o'rganishga, u davrdagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy vaziyat, ma'naviy hayot, davlatchilik boshqaruviga oid jihatlarni sinchikovlik bilan tahlil qilishga, davrning yutuq va kamchiliklarni birgalikda aniqlashga, mushohada yuritishga harakat qiladilar. Tanqidiy fikr yuritish orqali davlat boshqaruvi va uni idora etishdagi yutuq va kamchiliklar yuzasidan umumiy xulosaga kelinadi.

Temuriylar davridagi ta'limining o'ziga xosliklarini “T – jadvali” metodi asosida yoritib bering.

Afzalligi	Kamchiligi
Temuriylar davrida ta'limda diniy va dunyoviy bilimlarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Madrasa va maktablarda beriladigan bilimlar diniy ilm-fan (islomshunoslik, fiqh, tafsir, hadis) bilan bir qatorda dunyoviy fanlarga, masalan, astronomiya, matematika, tibbiyot, geografiya kabi sohalarga ham katta e'tibor qaratilgan. Bu ta'lim tizimida o'quvchilarga keng bilim berish, ularni nafaqat diniy, balki ilmiy, madaniy va amaliy hayotga ham tayyorlashga qaratilgan.	Temuriylar davrida ta'lim tizimi o'zining yuksak yutuqlari bilan birga, ba'zi kamchiliklarga ham ega bo'lgan. Garchi ilm-fan, madaniyat va ta'limga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, maktablarda ta'limga diniy yondashuv ustunlik qilgan. Guruhdagi o'quvchilar yoshi turlicha bo'lgan.
Temuriylar davrida o'qituvchilar va olimlar yuqori	Diniy fanlardan o'qituvchilarining ko'pligi,

malakali bo'lishgan. Amir Temur va uning vorislari ilm-fan va ma'rifat sohasida o'zlarining e'tiborini ko'rsatgan va ilmli, donishmand kishilarni saroyga va ilmiy markazlarga jalb qilgan. Bu esa ta'lim sifatining yuqori darajaga chiqishiga sabab bo'lgan. Samarqanddagi mashhur olimlar, masalan, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va shu kabi shaxslar fanni, ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.	maktablarda dunyoviy fanlarga yetarli e'tibor qaratilmagan. Bugungi kundagidek aniq o'quv reja, DTS bo'lmagan.
Ilmiy tadqiqotlar rivojlangan. Masalan, Mirzo Ulug'bek astronomiya bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borgan va Samarqandda Ulug'bek rasadxonasini qurdirgan. Bu ilmiy markazda olib borilgan tadqiqotlar ko'plab yangi ilmiy kashfiyotlarga olib kelgan va boshqa olimlarga ta'lim berishda yangi metodlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratgan.	Temuriylar davridagi ta'lim tizimi asosan ilmiy va diniy bilimlarga qaratilgan bo'lsa-da, yoshlarni amaliy ishlar va kasbiy ko'nikmalarni o'rganishga yo'naltiradigan tizim yetarli darajada rivojlanmagan. Madrasalarda o'qitilgan bilimlar ko'proq nazariy edi, amaliy mahoratlarni, o'rgatish tizimi kuchsiz bo'lgan.
Temuriylar davrida ta'lim tizimli olib borishga harakat qilingan. Ko'plab maktablarda boshlang'ich, o'rta va yuqori darajadagi ta'lim bosqichlari mavjud bo'lib, o'quvchilar avval Qur'on va fiqh kabi diniy fanlarni, keyin esa falsafa, matematika, astronomiya va san'at kabi dunyoviy fanlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Maktablar (madrasalar) diniy ta'limdan tashqari, ilm-fanning turli sohalarini o'rgatilgan. Hattoki bu davrda xususiy maktablar ham yuzaga kelgan.	Temuriylar davridagi ta'lim usullari ko'proq an'anaviy va monolitik bo'lib, ilg'or pedagogik metodlarga, ya'ni interaktiv ta'limga yoki tajriba asosidagi o'qitish kabi yondashuvlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.
Ilm-fan va san'atni uyg'unlashtirishga e'tibor qaratilgan. Ta'lim faqat ilmiy bilimlar bilan cheklanib qolmagan, balki san'at va adabiyotga ham katta e'tibor qaratilgan. Alisher Navoiy va boshqa shoirlar, adiblar o'zlarining asarlarini yozishda ilm-fan va san'atni uyg'unlashtirishgan. Adiblarning asarlariga miniatyura san'ati orqali rasmlar solingan, hattotlik va me'morchilik san'ati gullab yashnagan. Bu esa yoshlarga nafaqat ilmiy bilim, balki estetik va madaniy tarbiyani berish imkonini yaratilgan.	Temuriylar davrida ilmiy markazlar, masalan, astronomiya, matematika, tibbiyot, adabiyot kabi sohalarda katta yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ba'zan bu markazlar o'rtasida ilmiy aloqalar va hamkorlik yetarli darajada rivojlanmagan. Har bir soha o'zlari alohida muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'pincha integratsiyalashmagan.
Bir qator ilm maskanlari bunyod etilib, fanlar rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, G'ijdivonda qurilgan madrasalar fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib kelgan. Riyoziyot, falakkiyot, jo'g'rofiya tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid bir qancha ajoyib muhim asarlar yaratilgan.	Temuriylar davrida ayollar uchun ta'lim imkoniyatlari cheklangan edi. Ko'pincha saroy ayonlari va yuqori tabaqali kishilarning qizlariga o'qish imkoniyati bo'lgan. Odatda, qizlar va ayollar diniy bilimlarni olish bilan cheklanib, dunyoviy ta'lim olishda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishmagan.

Ta'limining o'ziga xosliklarini “T – jadvali” metodi asosida bajarish orqali talabalar Temuriylar davridagi ta'lim tarbiya masalalari, ularning afzallik va kamchiliklari haqida jadvalni to'ldiradilar. Bu metod orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ fikrlash hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

“SWOT- tahlil” metodi

Mirzo Ulug'bekning ilmiy va hayotiy faoliyatini “SWOT- tahlil” metodi asosida tahlil qiling

S -Kuchli tomonlari: Mirzo Ulug'bek, XV asrning mashhur astronomi, matematigi, ilmiy jihatdan yuksak shaxs bo'lgan. U rasadxona qurgan va astronomiya fanining rivojiga katta hissa qo'shgan. “Ziji” asari o'sha davrning eng aniq va mukammal astronomik jadvalini o'z ichiga olgan. Ikkinchi Renessansga munosib hissa qo'shgan buyuk olim va davlat arbobi.	W-Kuchsiz tomonlari Mirzo Ulug'bek asosiy e'tiborni ilm-fanga qaratib, davlat boshqaruvi masalalarini e'tibordan chetda qoldirgan.
O- Imkoniyatlari:	T- To'siq (xavf)lari

Samarqand o'sha davrda Markaziy Osiyoning eng yirik ilmiy, madaniy va tijorat markazlaridan biriga aylangan. U temurzodalardan bo'lganligi uchun o'z davrining eng kuchli ustozlaridan bilim olish imkoni bo'lganligi va o'zining intiluvchanligi bois buyuk mutafakkir olim darajasiga erishdi. U davlat arbobi siyatida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish imkoni bo'lgan, xususan, Samarqand, Buxoro, G'ijdivonda uchta madrasa, rasadxona barpo etgan.	Hokimiyat uchun kurashning avjiga chiqishi, ichki nizolarning ortib borishi
--	---

SWOT – tahlil metodi bu talabalarda tanqididiy fikrlashni rivojlantiruvchi eng samarali yo'llardan biridir[5]. Bu metod orqali talabalar Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyati, ijodi, hokimiyat boshqaruvi, uni hayotini tahlil qiladi. Bu metod orqali Mirzo Ulug'bekning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari, to'siqlari haqida fikr bildirishi uchun talaba uning hayoti va faoliyatini ko'proq o'rganishi, chuqur mushohada yuritishi, o'zgarlar fikrlariga quloq tutishi, xulosa qilish uchun shoshilmasliklari lozim bo'ladi. Bu metodda yangi jihatlarini topish, sinergetik fikrlash o'ta muhim sanaladi.

“Xulosalash”- (Rezyume, Veer) metodi orqali Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ning adabiy me'rosidan joy olgan misralardagi bosh g'oyani izohlaydi.

1-guruh		1-guruh	
Alisher Navoiy		Zahiriddin Muhammad Bobur	
Misralar	Bosh g'oya	Misralar	Bosh g'oya
Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganch ila.	Har bir yosh avlodning aqliy kamolotida ilm-fan, tarbiyaning ahamiyatini, jamiyat taraqqiyotining ta'minlanishida asosiy rol o'ynovchi ilm ahli, ustozlar, olimu fozillarga nisbatan cheksiz hurmat ko'rsatish lozimligiga qaratilgan	Bori elga yaxshilik qilgilki, mundin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik.	Insondan faqat yaxshi xulq, yaxshi fazilat, yaxshi amallar qoladi. Shuning uchun u doimo yaxshilik qilishga intilishi kelajakda kimdir sizni yodga olganda ko'ngil yorishib eslashi lozimdir. Bobur yaxshi xulqlikni, kishilarga yaxshilik qilishni insonni oliyanobligi, - deb hisoblaydi. Bobur mehnat ahlini qadrladi va davlat ahlini tasvirida “mehnat elini” unutmazlikka da'vat etadi.
Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'ami, din g'ami.	Bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi.	Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur, Har kimki jafo qilsa jafo topqusidur. Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.	Bobur ilmli bo'lishni istaganlarni ilmni zo'r havas, ishtiyoq bilan egallashga da'vat etdi. Bobur axloq-odob haqidagi qarashlarida yaxshilik, vafodorlikni eng go'zal fazilat sifatida ulug'laydi, yomonlikni jafo keltiruvchi illat sifatida qaraydi.

Bu xulosalash metodining yana bir ko'rinishi bo'lib, yuqoridagidan farqli tomoni shundaki, shoir, mutafakkirlarning misralari, purma'no so'zlari va ularning mazmun mohiyati, ularda anglash mumkin bo'lgan g'oyani topishi talabalarga vazifa qilib beriladi. Bu metod talabalarning mustaqil izlanishi, ularning ijodini o'rganishi va faoliyatiga qiziqishlarini oshiradi[6]. Ajdodlar merosini o'rganish va ularga munosib avlod bo'lishga xizmat qiladi.

Muhokamalar va natijalar. Biz keltirgan ushbu innavatsion metodlar “4K modeli”ning barcha kompetensiyalarini ochib berishga xizmat qiladi. “4K model”dagi barcha kompetensiyalar talabalarda kelgusida nafaqat zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarga samarali yondoshish imkonini

yaratadi, balki ularda shaxsiy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, kitobiy va internet ma'lumotlarini tahlil qilish va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi. **Yangi O'zbekistonni** qurish jarayoni muvaffaqiyatli va barqaror bo'lish imkonini berib, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Modelning eng muhim sanalgan tanqidiy fikrlash kompetensiya ega bo'lgan kadrlar faqat ta'lim sohasida emas, balki boshqa sohalarda ham innovatsion g'oyalar yaratish, jahon miqyosida samarali qarorlar qabul qilish va ijtimoiy, ilmiy rivojlanishga hissa qo'shishda o'zlarini ko'rsatadilar. Shuning uchun, pedagogika fanlarini o'qitishda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar, texnologiyalar, innovatsion va interaktiv metodlar muhim vosita hisoblanadi. Natijada, har bir muammoga tahliliy, tanqidiy nazar bilan qaraydigan, intellektual jihatdan salohiyatli va Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ta'lim faqat ma'lumot olishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak, u talabalarni jamiyatdagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga undashi kerak. Pedagogika fanlarini o'qitishda guruhli munozaralarni tashkil etish, innovatsion metodlarni qo'llagan holda talabalarni passiv bilim oluvchilardan faol fikrlovchilarga aylantirishi lozim. Innovatsion metodlar talabalarni faqat dalillarni yodlashga emas, balki o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ular bilan ishlashga majbur qiladi. O'qituvchi bu yondashuvlarni qo'llagan holda, talabalarni fikrni qayta ishlashga, o'z g'oyalarini sinovdan o'tkazishga, turli nuqtai nazarlarni baholashga undaydi.

Kelajakda bunday tanqidiy fikrlash kompetensiya ega bo'lgan kadrlar faqat ta'lim sohasida emas, balki boshqa sohalarda ham innovatsion g'oyalar yaratish, jahon miqyosida samarali qarorlar qabul qilish va ijtimoiy, ilmiy rivojlanishga hissa qo'shishda o'zlarini ko'rsatadilar. Shuning uchun, pedagogika fanlarini o'qitishda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar, texnologiyalar, innovatsion va interaktiv metodlar muhim vosita hisoblanadi. Natijada, talabalarda zamonaviy pedagogik kasbiy kompetensiyalar rivojlanib, Uchinchi Renessans bunyodkorlari tarbiyalanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.
2. Saidova Gulruh Halim qizi. Halimova Hilola Habib qizi. Ta'lim samaradorligini oshirishning 4K kompetensiyalari: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya. // Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023
3. Axatova D.A, Xodjiyeva F.O, Utamurodov U.M. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” daslik. N-“Aziz kitobxon ” 2023 -536b
4. Muslimov N.A va boshqalar. Innovation ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
5. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.–115 b.
6. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovation ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА КОЛЛЕЖ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Имомов Мусурмон Пирназарович,
Шахрисабз давлат педагогика институти
“Педагогика” факультети декани, п.ф.ф.док. (PhD), доцент
m.imotov@mail.ru*

Мазкур мақолада компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантириши мазмуни, коллеж битирувчилари ўзлаштириши зарур бўлган малакалар ўқувчиларининг касбий маданияти негизида акс этадиган касбий сифатлар ҳамда коллеж ўқувчиларининг касбий маданияти негизида акс этувчи компетентлик сифатларининг тавсифлари ёритилган.

***Калит сўзлар:** коллеж, ўқувчилар, компетенция, компетенциявий ёндашув, муҳим сифатлар, компетентлик сифатларининг тавсифи, касб, маданият, касбий маданият.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ КОЛЛЕДЖА НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

В статье раскрывается содержание формирования профессиональной культуры студентов на основе компетентностного подхода, умения и навыки, которыми необходимо овладеть выпускникам колледжа, профессиональные качества, находящие отражение в профессиональной культуре студентов, а также характеристика компетенций. качества, которые отражаются в профессиональной культуре студентов колледжей.

***Ключевые слова:** колледж, студенты, компетентность, компетентностный подход, важные качества, характеристика компетентностных качеств, профессия, культура, профессиональная культура.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CULTURE OF COLLEGE STUDENTS ON THE BASIS OF THE COMPETENCE APPROACH

The article reveals the content of the formation of students' professional culture on the basis of the competence approach, skills that college graduates need to master, professional qualities that are reflected in the professional culture of students, as well as the characteristic of competences. qualities that are reflected in the professional culture of college students.

***Key words:** college, students, competence, competence approach, important qualities, characteristics of competence qualities, profession, culture, professional culture.*

Қириш. Ўзбекистон жамиятининг ҳозирги ҳолати, айнан, мамлакат ҳаётининг сиёсий, иқтисодий соҳаларида содир бўлаётган ўзгаришлар профессионал таълим муассасаларида кадрлар тайёрлаш муаммосига янгича нуқтаи назардан қарашни тақозо этади. Зеро, иқтисодиёт, техника, технология, машинасозлик соҳаларининг кадрларга бўлган эҳтиёжини қондириш, аввало, ўрта махсус профессионал таълим муассасалари зиммасига юкланади.

Компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантириш муаммосини тадқиқий ўрганишда илмий изланиш учун асос сифатида “Металларга ишлов бериш технологияси” фани қабул қилинганлиги сабабли мутахассис – дастгоҳчи томонидан ўзлаштирилиши зарур бўлган аҳамиятли касбий малакалардан хабардор бўлиш мақсадга мувофиқ экани англанди.

“Иш ва ишчи касбларининг ягона тариф-малакавий маълумотномаси”да (ЯТММ; Единый тарифно-квалификационный справочник работ и профессий рабочих (ЕТКС)да дастгоҳчиларнинг касбий малакалари олти тоифа бўйича белгиланиши кўрсатилган. Табиийки, 1 ҳамда иккинчи даражали дастгоҳчи тушунчаси мавжуд эмас. Зеро, ушбу икки даража ишчининг касбий малакага эга эмаслигидан далолат беради. Қолган даражалар бўйича дастгоҳчи куйидаги касбий малакаларни ўзлаштира олиши зарур. Компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятга эғалигини баҳолашда уларнинг 3-6-даражалар бўйича дастгоҳчилик малакаларининг пухта ўзлаштириши муҳим эканлигини инобатга олган ҳолда айни ўринда улар ҳақида тўхталишни мақсадга мувофиқ деб топдик.


Асосий қисм. Коллеж ўқувчилари таълим даври (икки йил давоми)да куйидаги тоифалар бўйича малакаларни ўзлаштиришга тайёр бўлишлари зарур:

3-тоифа бўйича: универсал дастгоҳни ўрнатиш, созлаш ва аниқлик билан ишлашни текшириш; йирик ўлчамли дастгоҳни бошқариш; универсал ва махсус мосламаларни ўрнатиш ва асбобларни қўллаш; плазмотронни ўрнатиш ва қўллаш; назорат-ўлчов асбобларининг вазифалари ва улардан фойдаланиш; геометрияни ҳамда пўлатни ёки керамик ёки қаттиқ қотишмали бўлакни қирқиш; дастгоҳга ишлов бериш учун қўйимни киритиш ва чиқариш; металдаги ғадир-будирликнинг аниқлик (кавалитет) даражаси ва ўлчамларидан хабардор бўлиш; қайта ишланадиган метал материалларининг асосий хусусиятларини билиш ҳамда дастгоҳда ишлаш қоидаларидан хабардор бўлиш малакалари.

4-тоифа бўйича: хилма-хил турдаги дастгоҳларни ўрнатиш, уларнинг кинематик схемаларидан хабардорлик, аниқлигини текшириш; универсал ва махсус мосламаларнинг конструкторлик хусусиятлари ва улардан фойдаланиш қоидалари; назорат-ўлчов асбоблари ва ускуналарини ўрнатиш; геометрия, иссиқлик ёрдамида металлларни қайта ишлаш, қирқиш асбобларининг аниқлиги ва меъёрига етиши талабларини билиш; оддий ва ўртача мураккабликдаги кесим калибрлаш (ўлчов асбобларининг аниқлигини бошқа бир асбоб билан текшириб тўғрилаш)нинг асосий тамойилларидан хабардор бўлиш; маълумотнома ва дастгоҳнинг паспорти бўйича қирқиш тартибини аниқлаш қоидаларини, қўйим ва ўрнатиш тизимини билиш; металдаги ғадир-будирликнинг аниқлик (кавалитет) даражаси ва ўлчамларидан хабардор бўлиш; электротехника асослари ва плазмали қурилманинг хавфсиз ишлашни таъминлашни билиш; ҳавони тортадиган вентиляция ва совитиш тизимининг ишлашни билиш; плазмали иститиш қурилмасининг схемасини ва плазмотронни созлаш усулларида хабардорлик ва уларни бажара олиш малакаларига эгаллик.

5-тоифа бўйича: универсал ва махсус мосламалар, хилма-хил конструкцияга эга дастгоҳларнинг конструктив хусусиятлари аниқлигини текшириш; плазмали иситгични ўрнатишнинг техник тавсифи ва эксплуатациясининг ўзига хослигини; деталларни ўрнатиш ва текшириш; геометрия, иссиқлик ёрдамида металлларни қайта ишлаш, қирқиш асбобларининг аниқлиги ва меъёрига етиши; бажариладиган иш доирасида металлларни қирқиш назариясининг асослари; мураккаб кесимни калибрлаш (ўлчов асбобларининг аниқлигини бошқа бир асбоб билан текшириб тўғрилаш)нинг асосий тамойиллари; назорат-ўлчов асбоблари ва ускуналарини ўрнатиш ва бошқариш; маълумотнома ва дастгоҳнинг паспорти бўйича қирқиш тартибини аниқлаш қоидаларини билиш.

6-тоифа бўйича: хилма-хил турдаги дастгоҳларнинг конструкцияси ва аниқлигини текшириш қоидалари; мураккаб деталларни ўрнатиш, маҳкамлаш ва текшириш усуллари ҳамда қайта ишлашнинг технологик оқибатларини аниқлаш методлари; иссиқлик ёрдамида қайта ишлаш механизми, геометрияси ва қоидалари; барча турдаги қирқиш асбобларининг аниқлиги ва меъёрига етиши; қайта ишлашнинг белгиланган аниқлиги ва частотасига эришиш усуллари; плазмали-механик қайта ишлашга қўйиладиган талаблар ҳамда ушбу метод ёрдамида махсус мосламаларни қўллаш шартлари; мураккаб кесимни калибрлаш (ўлчов асбобларининг аниқлигини бошқа бир асбоб билан текшириб тўғрилаш)нинг асосий тамойиллари; маълумотнома ва дастгоҳнинг паспорти бўйича қирқиш янада фойдали тартибини аниқлаш; мураккаб дастгоҳчилик ишларини бажариш билан боғлиқ ҳисоб-китобларни юритиш қоидаларини билиш малакалари.



1-расм. Коллеж ўқувчиларининг касбий маданияти негизда акс этувчи компетентлик сифатлари


Ушбу малака тоифалари бўйича коллеж битирувчилари ўзлаштириши зарур бўлган малакалар ўқувчиларининг касбий маданияти негизида акс этадиган касбий сифатлар тизимини аниқлашга имконият яратади. Тадқиқот даврида қуйидаги сифатлар коллеж ўқувчиларининг касбий маданияти негизида акс этиши зарур, деган хулосага келинди (уларсиз битирувчи-дастгоҳчилар компетентли мутахассис бўлиши мумкин эмас) (1-расм).

Юқорида қайд этилган коллеж ўқувчиларининг касбий маданияти негизида акс этувчи компетентлик сифатлари қуйидаги тавсифга эга:

Коллеж ўқувчиларининг касбий маданияти негизида акс этувчи компетентлик сифатларининг тавсифи

№	Компетентлик сифатлари	Уларнинг тавсифи
1.	Аниқ фанлар (математик, геометрик, физик)га оид билимлар	Ўқувчилар кинематик, термодинамика, электро-техника, хавфсизлик қоидалари, вентиляция ва совитиш тизимига, касбий вазифаларни бажариш билан боғлиқ ҳисоб-китобга оид билимларни ўзлаштиради; металлларни қирқиш бўйича меъерий ўлчамларни билиш; кинематик ва плазмали иситиш қурилмаси схемаларни ўқий олиш имкониятига эга бўлади
2.	Махсус билимлар	Ўқувчилар метал материалларининг хусусиятларини, қайта ишлашнинг технологик оқибатларини, плазмали-механик қайта ишлашга қўйиладиган талабларни, махсус мосламаларни қўллаш шартларига оид ўқув ахборотига эга бўлади
3.	Назорат малакаси	Ўқувчилар томонидан дастгоҳ, универсал ва махсус мосламалар, мураккаб деталларни ўрнатиш, сошлаш, ишлаш ҳолатини текшириш малакалари ўзлаштирилади
4.	Ўлчаш (чамалаш) малакаси	Ўқувчилар калибрлаш; метални қирқиш; металдаги ғадир-будирлик (кавалитет) даражасини аниқлаш имкониятига эга бўлади
5.	Конструкторлик қобилияти	Ўқувчилар универсал, хилма-хил турдаги дастгоҳларни, универсал ва махсус мосламаларни, плазмотронни, назорат-ўлчов асбобларини, плазмали иситгични, мураккаб ва оддий деталларни ўрнатиш малакаларига эгалликни намоён қилади
6.	Бошқариш ва фойдаланиш малакаси	Ўқувчилар йирик ўлчамли дастгоҳни бошқариш, плазмотронни қўллаш, назорат-ўлчов асбобларидан фойдаланиш имкониятига эга бўлади
7.	Технологик қобилият	Ўқувчилар технологик жараёнларнинг моҳиятини англаш, бу жараёнларда самарали ҳаракатланишга тайёр эканликларини намоён қилади
8.	Ахборот маданияти	Ўқувчилар касбий фаолиятга оид янги билимларни излаш, таҳлил қилиш, қайта ишлаш имкониятига эга бўлади.
9.	Ижтимоий (коммуникатив) маданият	Ўқувчилар ўқув машғулотида жуфтликда, кичик ва катта гуруҳларда ишлаш орқали ўзаро бир-бирини тушуниш, бир-бирига ёрдам бериш, бир-бирини қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ўқитувчи, ишлаб чиқариш усталари билан ҳамкорликка эришиш билан сифатларига эгалликни намоён қилади
10.	Рефлексив қобилият	Ўқувчилар мустақил равишда ўзининг ўқув-билиш ҳамда касбий фаолиятда эришаётган ютуқларини таҳлилий, танқидий баҳолаш имкониятига эга бўлади

Компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантиришга қуйидаги омиллар сезиларли даражада ўз таъсирини ўтказди (2-расм):



2-расм. Компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантиришга таъсир этувчи омиллار

1. Коллежлар фаолиятининг ҳуқуқий асоси. Таълим муассасаларининг фаолияти “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тўғрисида”ги Низом [3] ҳамда “Ўрта профессионал таълим босқичида кадрлар тайёрлайдиган коллежларнинг намунавий Устави” [2] асосида тартибга солинади. Ҳуқуқий асос коллежлар фаолиятининг қонунийлигини, республика қонунчилиги манбалари ва ҳуқуқий-меъёрий талабларга мувофиқ амалга оширилишини таъминлайди. Қолаверса, металлларга ишлов бериш бўйича аниқ белгиланган меъёр ҳамда стандартлар коллежлар ўқувчиларининг малака тоифаларига эга бўлишини таъминлайди.

2. Таълим муассасасининг моддий-техник таъминоти. коллежларнинг ер майдони, ўқув ва маиший бинолар, ўқув, техник ва технологик жиҳозлар (стол-стуллар, ёзув тахтаси, кўрсатмали куроллар; ишлаб чиқариш ускуна (жумладан, дастгоҳ), механизм ва асбоблар)га эгаллиги билан белгиланади. Касбий фаолият йўналишига кўра коллежларнинг ишлаб чиқариш усқунлари, механизм ва асбоблар билан таъминланганлиги ўқувчиларни амалий жиҳатдан самарали тайёрлашга ёрдам беради. Зеро, касбий фаолият моҳиятининг ўзи коллежлар битирувчиларининг дастгоҳчилик бўйича амалий кўникма, малакаларга эга бўлишини таъминлайди.

3. Коллежнинг ахборот-технологик таъминоти. Замонавий шароитда таълим муассасалари, хусусан, коллежларнинг ахборот-коммуникацион технологиялар билан таъминланиши, ўқув хоналарининг компьютер қурилмалари билан жиҳозланиши муҳим аҳамиятга эга. Ахборот-коммуникацион технологиялар ўқувчилар томонидан дастгоҳчиликнинг асосларини назарий, шу билан бирга амалий жиҳатдан пухта ўзлаштирилишига хизмат қилади. Ушбу технологиялар ёрдамида ўқувчилар нафақат республика, балки хорижий давлатларнинг таълим тизимида фойдаланилаётган металлларга ишлов бериш технологияси соҳасига оид ўқув материаллари, инновацион методлар билан яқиндан танишиш имкониятига эга бўлади. Қолаверса, ўқувчилар томонидан тегишли хунар йўналишида ижодий характерга эга ўқув, ахборот ва ижодий лойиҳаларни тайёрлаш, тақдим этиш ва химоя қилинишида бевосита ахборот-коммуникацион технологиялар қўл келади.

4. Таълим муассасасининг ўқув-методик таъминоти. Ҳар қандай таълим муассасасининг самарали фаолият кўрсатишида унинг ўқув-моддий таъминоти муҳим аҳамиятга эга. Бинобарин, таълим муассасасининг етарли, зарур даражада ўқув адабиётлари билан таъминланганлиги, шунингдек, умумий, мутахассислик ҳамда махсус фанлар бўйича методик ишланмаларга эгаллиги унинг таълимий фаолиятини самарали, муваффақиятли бўлишига олиб келади. Таълим муассасасининг ўқув-методик таъминотининг янги авлод ўқув адабиётлари – дарслик, ўқув ва методик қўлланмалар, шунингдек, интерфаол плакат, электрон тақдимот, методик ишланмалар тўплами бойитилганлиги ўқитиш сифатини яхшилаш, самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бунинг натижасида ўқувчилар “Металларга ишлов бериш технологияси” фанидан касбий билимларни, амалий жиҳатдан касбий кўникма, малака ҳамда маданият сифатларини самарали ўзлаштиришга муваффақ бўлади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сон Фармони (6 сентябрь 2019 йил) // <https://lex.uz/docs/4500926>.
2. Ўрта махсус профессионал таълим босқичида кадрлар тайёрлайдиган техникумларнинг намунавий Устави // <https://lex.uz/docs/4945840>.
3. “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошлангич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тўғрисида”ги Низом // <https://lex.uz/docs/4945840>
4. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т.: ТДПУ ҳузуридаги ПКҚТМО Тармоқ маркази, 2016. – 5-б.
5. Имомов М.П. Профессионал таълим муассасалари ўқувчиларининг касбий маданиятини компетенциявий ёндашув асосида ривожлантириш методикаси: п.ф.ф.д.(PhD). ... дис. – Т.: 2021. 187-б.
6. Компетенциявий ёндашув асосида профессионал таълим муассасалари ўқувчиларида касбий маданиятни ривожлантиришда ахборот-коммуникацион технологияларидан фойдаланиш. МП Имомов // *Science and innovation*, 202.
7. Касб-хунар коллежларида ўқувчиларнинг касбий маданиятини шакллантириш. МП Имомов // *Мактаб ва ҳаёт журнали*, 2012.
8. Научно-методические основы формирования профессиональной культуры у учащихся МП Имомов // *Молодой ученый*, 2012.

**ZAMONAVIY TARBIYACHINING KASBIY MAHORATINI IMMERSIV
TEKNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI**

*Qurbonova Go'zal Rajab qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti, (PhD)*

Ushbu maqolada zamonaviy tarbiyachilarning kasbiy mahoratini immersiv texnologiyalar (VR va AR) vositasida rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot sifat va miqdoriy usullarni birlashtirgan holda olib borildi. Eksperimental mashg'ulotlar immersiv texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishi va pedagogik jarayonlarni innovatsion tarzda tashkil etishga yordam berishini ko'rsatdi. Shuningdek, texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, ularni joriy etishdagi cheklovlar ham yoritilgan. Muhokama qismida xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil keltirilib, immersiv texnologiyalarning o'quv jarayonidagi imkoniyatlari va pedagoglar uchun yaratadigan qulayliklari asoslangan. Tadqiqot natijalari immersiv texnologiyalarni ta'lim tizimida keng qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *immersiv texnologiyalar, VR, AR, pedagogik imkoniyatlar, kasbiy mahorat, innovatsion ta'lim, zamonaviy tarbiyachi.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИММЕРСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

В данной статье рассматриваются педагогические и психологические возможности развития профессионального мастерства современных педагогов с помощью иммерсивных технологий (VR и AR). Исследование проводилось в сочетании качественных и количественных методов. Экспериментальные занятия показали, что иммерсивные технологии повышают эффективность обучения, повышают мотивацию учащихся к обучению, способствуют инновационной организации педагогических процессов. Также освещается социально-экономическое значение технологий, ограничения их внедрения. В дискуссионной части представлен сравнительный анализ с международным опытом, в основе которого лежат возможности иммерсивных технологий в учебном процессе и удобства, которые они создают для педагогов. Результаты исследования подчеркивают необходимость широкого применения иммерсивных технологий в системе образования.

Ключевые слова: *иммерсивные технологии, VR, AR, педагогические возможности, профессионализм.*

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING
PROFESSIONAL SKILLS OF THE MODERN TEACHER USING IMMERSIVE TECHNOLOGIES**

This article explores the pedagogical and psychological possibilities of developing the professional skills of modern educators through immersive technologies (VR and AR). The study was conducted combining qualitative and quantitative methods. Experimental training has shown that immersive technologies increase educational efficiency, increase students' motivation for learning, and help organize pedagogical processes in an innovative way. Also covered are the social and economic importance of technologies, restrictions on their implementation. In the discussion part, a comparative analysis with international experiments is presented, on which the possibilities of immersive technologies in the educational process and the facilities they create for educators are based. The results of the study emphasize the need for the widespread use of immersive technologies in the educational system.

Keywords: *immersive technologies, VR, AR, pedagogical opportunities, professional skills.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion texnologiyalar, jumladan, immersiv texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim sohasida katta imkoniyatlar yaratmoqda. Immersiv texnologiyalar — virtual (VR), kengaytirilgan (AR) va aralash reallik (MR) orqali

o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonlariga jalb etish vositalaridir. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, ta‘lim muhitini jonlantirish, o‘quvchilar diqqatini jalb etish va bilimni mustahkamlashda samarali bo‘lib, zamonaviy tarbiyachilarni yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lishiga ko‘maklashadi [1;30-b]. Immersiv texnologiyalar ta‘lim jarayonining turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali mavzularni vizual tarzda tasvirlash, talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish va murakkab jarayonlarni sodda tushuntirish imkoniyatlari mavjud. Virtual reallik esa o‘quvchilarni o‘zlari o‘rganayotgan muhitga to‘liq jalb etib, ta‘limni yanada samarali va interaktiv qiladi. F. Mulaydinov va D. Solidjonovning tadqiqotlari immersiv texnologiyalarning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini chuqur o‘rganib, ularning – tarbiyachilarning malakasini oshirishdagi rolini ko‘rsatadi [1;30-b]. Immersiv texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, avvalo, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini optimallashtirishda namoyon bo‘ladi. Jumladan, ular mavzuni yanada aniq va qiziqarli ko‘rinishda o‘rganish imkonini beradi. Psixologik nuqtayi nazardan, immersiv texnologiyalar stressni kamaytirish, o‘ziga ishonchni oshirish va o‘quvchilarning faolligini kuchaytirishda yordam beradi. Siddiqov I. M. immersiv texnologiyalarning ta‘limda qo‘llanilishi nafaqat o‘quvchilar uchun, balki pedagoglar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratishini ta‘kidlaydi [2;259-b].

Shuni aytish joizki, zamonaviy ta‘limda immersiv texnologiyalarning qo‘llanilishi yangi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Bu qiyinchiliklar, avvalo, texnologik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, pedagoglarning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari va o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi bilan bog‘liq. Shunga qaramay, D. Solidjonovning tadqiqotlari immersiv texnologiyalarning ta‘lim sifatiga ijobiy ta‘sirini isbotlaydi va ularning ta‘lim jarayonidagi muhimligini ko‘rsatadi [3;631-b]. Umuman olganda, immersiv texnologiyalarni joriy etish orqali zamonaviy tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ularning ta‘limdagi innovatsion yondashuvlarga asoslangan pedagogik faoliyatda tutgan o‘rni katta bo‘lib, ta‘lim jarayonining sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. F. Mulaydinov va D. Solidjonovning tadqiqotlarida virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining ta‘lim sohasidagi qo‘llanilishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Tadqiqotlar immersiv texnologiyalarni joriy etish natijasida ta‘limning interaktivligi oshishi, o‘quvchilar faolligining kuchayishi va tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi [1;31-b]. Ushbu tadqiqotlar immersiv texnologiyalarning pedagogik va psixologik aspektlarini qamrab olib, ularning qo‘llanilish natijalarini amaliy dalillar bilan boyitgan. Siddiqov I.M. o‘z tadqiqotida immersiv texnologiyalar ta‘limda yangicha yondashuvlarni talab qilishi va bu texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini moslashuvchan va interaktiv qilish mumkinligini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, immersiv texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ta‘lim jarayonini osonlashtirish mumkin [2;261-b].

D. Solidjonovning yana bir tadqiqotida ta‘limda kengaytirilgan reallikdan foydalanish natijasida pedagoglarning mahoratini oshirish yo‘llari o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotda immersiv texnologiyalar tarbiyachilar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni joriy qilishda asosiy vosita sifatida e‘tirof etiladi. Natijada o‘qituvchilar o‘z faoliyatida innovatsion usullarni qo‘llashga moslashadi [3;632-b]. Bizami, N.A. va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqot immersiv texnologiyalarning zamonaviy ta‘limdagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot mualliflari immersiv blended learning usullarining ta‘limdagi samaradorligini oshirishga ijobiy ta‘sirini ta‘kidlashadi. Shuningdek, ular immersiv texnologiyalarning pedagoglarning o‘quv jarayonini yaxshilashdagi imkoniyatlarini qayd etadi [4;1375-b]. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tadqiqotlar immersiv texnologiyalarning zamonaviy ta‘limda tarbiyachilarni kasbiy mahoratini oshirishdagi o‘rnini ochib beradi. Bu texnologiyalarning pedagogik va psixologik imkoniyatlari ta‘lim jarayonini optimallashtirish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda zamonaviy tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda immersiv texnologiyalarning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy usullar birlashtirildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ldi:

Adabiyotlarni o‘rganish: Immersiv texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar, tadqiqot hisobotlari va ta‘lim metodologiyasiga oid nashrlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali tadqiqot uchun nazariy asos yaratildi.

So‘rovnomalarni va intervyular: Ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan 50 nafar pedagogdan so‘rovnomalarni olindi va 10 nafar tajribali pedagog bilan chuqur intervyular o‘tkazildi. Savollar immersiv texnologiyalarning qo‘llanilish samaradorligini baholashga qaratildi.

Eksperimental tadqiqot: 25 nafar tarbiyachi immersiv texnologiyalar yordamida dars o‘tish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida qatnashdi. Eksperiment davomida ular ta‘lim jarayonida VR va AR texnologiyalaridan foydalandi.


Ma’lumotlarni tahlil qilish: So‘rovnomalar natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi. Shuningdek, sifat tahlili orqali pedagoglar bildirgan fikrlar va tajribalarning umumiy mazmuni aniqlandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari immersiv texnologiyalarning zamonaviy tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Quyida asosiy natijalar batafsil yoritiladi:

1. Ta’lim samaradorligining oshishi: Eksperiment ishtirokchilari immersiv texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishini ta’kidlashdi. Masalan, bir dars davomida AR texnologiyasi orqali botanika mavzusida o‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan o‘simliklarning 3D tasvirlarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu ularning mavzuni tushunishini 85% ga yaxshilashiga sabab bo‘ldi.

2. Psixologik imkoniyatlar: Immersiv texnologiyalar yordamida dars o‘tgan pedagoglar stressning kamayishini, talabalar bilan muloqotning yaxshilanishini qayd etishdi. Jumladan, bir tarbiyachi shunday deydi: *“VR texnologiyasidan foydalanib, o‘quvchilarning diqqatini bir joyga jamlash ancha osonlashdi, bu esa menga ishonch bag‘ishladi.”*

3. Pedagogik malakani oshirish: Eksperimentdan so‘ng o‘tkazilgan so‘rovda ishtirokchilarning 90% immersiv texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari ortganini aytishdi. Quyidagi rasmda immersiv texnologiyalardan foydalanishdan oldingi va keyingi natijalar keltirilgan.



1-rasm. Immersiv texnologiyalardan foydalanishdan oldingi va keyingi natijalar

4. Misollar va real tajribalar: Tajriba davomida VR yordamida tarix darslarida o‘quvchilar qadimiy shaharlarni “sayr qilishdi”, bu ularning o‘qish motivatsiyasini oshirdi. Shuningdek, AR texnologiyasi orqali geografiya darslarida dunyo xaritalarini uch o‘lchamda tahlil qilish o‘quvchilarning qiziqishini sezilarli darajada kuchaytirdi.

5. Cheklovlar va qiyinchiliklar: Ayrim pedagoglar texnologiyani o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Shu sababli immersiv texnologiyalarni joriy qilishda texnik yordam va maxsus o‘quv dasturlariga ehtiyoj borligi aniqlandi.

Natijalar immersiv texnologiyalar nafaqat o‘quvchilar, balki pedagoglar uchun ham ta’lim jarayonini samarali va interaktiv qilishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular ta’lim muassasalarida texnologik infratuzilmani takomillashtirish zaruratini ta’kidlaydi.

Immersiv texnologiyalar orqali o‘quvchilar turli mavzularda kengroq va chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishdi. Masalan, biologiya darslarida AR yordamida inson tanasining ichki organlarini modellashtirish orqali o‘quvchilar anatomiya bo‘yicha amaliy bilimlarni yanada yaxshiroq o‘zlashtirishdi. Ushbu usul nafaqat mavzuni o‘rgatishni osonlashtirdi, balki talabalarni tahliliy fikrlashga ham o‘rgatdi. Eksperiment davomida o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada yaxshilandi. Immersiv texnologiyalar yordamida yaratilgan muhitda talabalar o‘zaro guruhlarda ishlashga undaldi. Masalan, VR orqali jamoaviy loyiha ishlab chiqishda talabalar bir-birining fikrlarini tinglash va muhokama qilish orqali o‘quv jarayoniga faol jalb etildi. Natijada, guruhdagi o‘quvchilarning har biri o‘zining rolini yaxshi anglab, faol qatnashdi. Pedagoglarning fikriga ko‘ra, immersiv texnologiyalar o‘quv jarayoniga ilgari qo‘llanilmagan usullarni joriy qilish imkonini berdi.

Ushbu natijalar immersiv texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi foydasini ko’rsatibgina qolmay, ularning zamonaviy tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi ahamiyatini ham isbotlaydi. Jadval va tahliliy ma’lumotlar ushbu texnologiyalarni qo’llash natijasida erishilgan natijalarni yanada aniqroq ochib beradi. Immersiv texnologiyalarni joriy etish tarbiyachilarning o’qitish usullarini takomillashtirish, o’quvchilarning qiziqishini oshirish va ta’lim sifatini umumiy ravishda yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhokama. Immersiv texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyachilar va o’quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik jarayonlarda immersiv texnologiyalardan foydalanish samaradorligini isbotlab, bir qancha nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini berdi. Muhokama natijalari quyidagicha izohlanadi. Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, immersiv texnologiyalar o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi kommunikatsiya va hamkorlikni yaxshilashda samarali bo’lishi mumkin. Xususan, VR va AR texnologiyalari yordamida interaktiv va qiziqarli darslar tashkil etilib, bu o’quvchilarning diqqat-e’tiborini bir joyga jamlash imkonini berdi. Psixologik jihatdan qaraganda, immersiv muhit o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularda bilim olish jarayoniga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllantiradi. Tadqiqot immersiv texnologiyalarning tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishda kuchli vosita ekanligini ko’rsatdi. Buning natijasida pedagoglar darsni interaktiv shaklda o’tishga, yangi texnologiyalarni o’zlashtirishga va ta’lim jarayoniga ijodiy yondashishga ko’nikishdi. F. Mulaydinov va D. Solidjonovning tadqiqotlariga ko’ra, immersiv texnologiyalarning kengaytirilgan reallik imkoniyatlari pedagoglarning innovatsion metodlarni qo’llash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi [1;30-b]. Natijalar immersiv texnologiyalardan samarali foydalanishda ba’zi muammolar mavjudligini ham ko’rsatdi. Jumladan, texnik infratuzilma va dasturiy ta’minot yetishmovchiligi ba’zi muassasalarda ushbu texnologiyalarni joriy etishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, ayrim pedagoglarning texnologik ko’nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohada qo’shimcha o’quv dasturlarining zarurligini ta’kidlaydi.

Bizami va uning hamkasblarining (2023) tadqiqotida immersiv texnologiyalar bilan o’qitishning didaktik va psixologik yondashuvlari o’rganilgan bo’lib, ular ushbu vositalarning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sirini qayd etadi. Ularning tadqiqoti zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o’zlashtirishda immersiv texnologiyalarni joriy etish ahamiyatini tasdiqlaydi [4;1374-b]. Immersiv texnologiyalar zamonaviy ta’limni demokratlashtirishga yordam berib, o’quvchilarni teng imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Bu esa o’quv jarayonida regional va ijtimoiy farqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari va muhokama qismi immersiv texnologiyalarni pedagogik jarayonlarga joriy etish tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Immersiv texnologiyalar (VR va AR) yordamida o’qituvchilar darslarni interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil etishi, natijada o’quvchilarning bilim olish darajasi va motivatsiyasi oshishi mumkin. Ushbu vositalar o’quv jarayonini individuallashtirish va moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Immersiv texnologiyalar tarbiyachilarning ijodiy fikrlashini va texnologik ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Bu esa dars jarayonlarining sifatini oshiradi va o’quvchilarning bilim olishga bo’lgan munosabatini ijobiy tomonga o’zgartiradi. Ushbu texnologiyalarni joriy qilish jarayonida uchraydigan cheklovlarni bartaraf etish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish va pedagoglar uchun maxsus o’quv dasturlarini tashkil qilish zarur.

Xalqaro tajribalar immersiv texnologiyalarning ta’lim tizimiga ijobiy ta’sirini ko’rsatmoqda. Bu tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilashga erishish mumkin. Tadqiqot immersiv texnologiyalarning psixologik va pedagogik jihatlarni tahlil qilgan bo’lsa-da, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni chuqurroq o’rganish kelajakda muhim yo’nalishlardan biri bo’lib qoladi.

Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim muassasalarida immersiv texnologiyalarni keng joriy qilish va pedagogik jarayonlarda innovatsiyalarni qo’llashga yo’naltirilgan amaliy choralar ko’rish zarurligini ko’rsatadi. Bu esa, o’z navbatida, ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Immersiv texnologiyalar ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratib, kelajakdagi pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar:

1. Mulaydinov, F., & Solidjonov, D. Virtual va to’ldirilgan reallik texnologiyalari. Tamaddun–2022.
2. Siddiqov, I. M. (2024). Ta’limda virtual reallik (vr) va kengaytirilgan reallik (ar) texnologiyalarining imkoniyatlari. // Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari, 1(1), 259-262.
3. Solidjonov, D. (2022, February). Ta’limda kengaytirilgan haqiqat va aralash haqiqat. // International conferences on learning and teaching (Vol. 1, No. 2, pp. 629-633).
4. Bizami, N. A., Tasir, Z., & Kew, S. N. (2023). Innovative pedagogical principles and technological tools capabilities for immersiv blended learning: a systematic literature review. // Education and Information Technologies, 28(2), 1373-1425.

5. Klochko, O. V., & Fedorets, V. M. (2022). Using immersiv reality technologies to increase a physical education teacher's health-preserving competency. // *Educational Technology Quarterly*, 2022(4), 276-306.
6. Allison, J. (2008). History educators and the challenge of immersiv pasts: a critical review of virtual reality ‘tools’ and history pedagogy. // *Learning, Media and Technology*, 33(4), 343-352.
7. Sanabria, J. C., & Arámburo-Lizárraga, J. (2017). Enhancing 21st century skills with AR: Using the gradual immersion method to develop collaborative creativity. // *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*, 13(2), 487-501.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online intyernet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomiyeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Anti plagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat univversiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va univversitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari univversitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat univversiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2024-yil 11-son (110)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat univversiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhh: Sarvinoz RAXIMOVA</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.11.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.11.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
---	--	--